



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MADANIYAT VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON DAVLAT
SAN'AT VA MADANIYAT INSTITUTI
"SAHNA HARAKATI VA JISMONIY MADANIYAT"
KAFEDRASI**

**"O'QUV JARAYONIGA RAQAMLI
VA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI
JORIY ETISH ORQALI TALABALAR
KASBIY BILIMINI OSHIRISH YO'LLARI"
MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
ANJUMAN MATERIALLARI**

TO'PLAMI

ISBN 978-9910-03-443-5



9 789910 034435

Toshkent-2025

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI

**TEATR SAN’ATI FAKULTETI
“SAHNA HARAKATI VA JISMONIY MADANIYAT” KAFEDRASI**

**“O‘QUV JARAYONIGA RAQAMLI VA INNOVATSION
TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH ORQALI
TALABALAR KASBIY BILIMINI OSHIRISH YO‘LLARI”
MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMAN
M A T E R I A L L A R I T O ‘ P L A M I**

2025-yil 5-mart

**TOSHKENT
“METODIST NASHRIYOTI”
2025**

UDK:37.013

KBK:74.0

O'-11

“O‘quv jarayoniga raqamli va innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali talabalar kasbiy bilimini oshirish yo‘llari” Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari /. Mualliflar jamoasi. - Toshkent: “METHODIST NASHRIYOTI”, 2025. - 300 b.

Mazkur to‘plamga O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti hamda respublikamizdagi oliy ta‘lim muassasalari professor-o‘qituvchilari, mustaqil tadqiqotchilari, magistrlar va talabalarining ilmiy maqolalari kiritilgan. To‘plamda madaniyat va san‘at, ijtimoiy-iqtisodiy va aniq fanlar sohasi muassasalarining asosiy ilmiy-tadqiqot va ilmiy-uslubiy yo‘nalishlari, raqamli va zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalar yordamida o‘qitish tajribalarini qamrab olgan ta‘limining bugungi kun holati, muammolari hamda yechimlari o‘z aksini topgan.

Ushbu ilmiy-uslubiy maqolalar to‘plamidan barcha ixtisoslashgan maktablar, madaniyat va san‘at hamda respublikamizdagi turli o‘rta va oliy ta‘lim muassasalari professor-o‘qituvchilari, mustaqil tadqiqotchilar, magistr va bakalavrlar hamda mazkur sohaning muammolariga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

Mas‘ul muharrir:

Ab Braykulo va Nasiba Erkinovna

O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti, dotsent

Nashrga tayyorlovchi:

Mamirova Dilaram Tavkulovna

O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti, dotsent

Tahrir kengashi a‘zolari:

Mannonov Sardor Shuxratjonovich

O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti PhD.

Fazliyeva Zebo Kamarbekovna

O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti, dotsent.

Do‘sanov Raximjon Raimkulovich

O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti, mustaqil tadqiqotchi, dotsent v. b.

To‘plam O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti Badiiy, o‘quv-uslubiy kengashining 2025-yil 24-fevraldagi 7-sonli yig‘ilishida nashrga tavsiya etilgan.

To‘plamga kiritilgan ma‘lumotlarning to‘g‘riligi va aniqligi uchun mualliflar mas‘ulligi belgilangan.

ISBN 978-9910-03-443-5

© “METHODIST NASHRIYOTI”, 2025.

KIRISH

Ushbu “O‘quv jarayoniga raqamli va innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali talabalar kasbiy bilimini oshirish yo‘llari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasini o‘tkazishga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari, farmonlari, Vazirlar Mahkamasining farmonlari va farmoyishlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining qator buyruq va ko‘rsatmalari asos qilib olindi.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 22-noyabrdagi “Teatrlarning jamiyat madaniy hayotidagi ahamiyatini oshirish va ular faoliyatini yanada qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-399-son qarori hamda Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrdagi 490-sonli buyrug‘ining ijrosini ta‘minlash maqsadida fan, ta‘lim va ishlab chiqarishning integratsion jarayonlaridagi innovatsion texnologiyalarning ilmiy va tashkiliy asoslariga qaratildi.

O‘quv jarayoniga raqamli va innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali talabalar kasbiy bilimini oshirish yo‘llarini joriy etish muammolarini yechish hamda sifatli ta‘limni ta‘minlashdan iborat. Bu, sifatli ta‘limni ta‘minlashda muhim yangi bosqich vazifasini o‘taydi. Soha yo‘nalishlari bo‘yicha va ijodiy jarayonlarga tatbiq etish, ilmiy-ijodiy ishlar natijalarini tahlili qilish va olingan natijalarni o‘quv jarayoniga uzviy bog‘liqligini qaror toptirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi. Professor-o‘qituvchilar tomonidan o‘quv jarayonga raqamli va innovatsion texnologiyalarni joriy etish, sohani yangi ilmiy bilimlar bilan boyitish hamda ilmiy tadqiq etish, bo‘lajak san‘at va madaniyat hamda turli soha mutaxassislarini tayyorlashda yangi texnologiyalarning o‘rni va ahamiyatini yanada kuchaytirishga e‘tibor qaratildi.

Bundan tashqari, kafedra doirasida bajarilishi rejalashtirilayotgan ilmiy loyihaaning borishi va natijalari muhokama qilindi. Kasbiy ta‘limiga tadqiq etilayotgan vositalarning eng zamonaviysi ekanligini asoslash, gologramma va 3D uslublari yordamida o‘zbek madaniyati hamda milliy obrazlarining zamonaviy shakllarini yaratishga erishish orqali tomoshaviylikni oshirish jarayonlari tahlil qilindi.

O‘zbekistonimizning Uchinchi Renesans davrida mamlakatimiz dunyoning rivojlangan mamlakatlari qatorida o‘zining munosib o‘rniga ega bo‘lishi uchun bugungi kun ta‘lim va ilm egalaridan ilmiy izlanishlar, yangi g‘oyalar, salohiyatlarini yanada oshirish talab qilinadi va bu orqali ilmiy kashfiyotlarhu kutib qoladi.

1-SHO'BA: ZAMONAVIY TEATR VA KINO AKTYORLARINI TAYYORLASHDA AN'ANAVIYLIK VA INNOVATSIYA

XOREOGRAFIYA TA'LIMIIDA RAQAMLI VA INNOVATSION TEKNOLOGIYALAR

AbRAYkulova Nasiba Erkinovna

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti "Sahna harakati va jismoniy madaniyat" kafedrası mudiri, professor v. b.

Annotatsiya: Ushbu maqolada muallif tomonidan bugungi kunda xoreografiya ta'limiida qo'llanilayotgan pedagogik texnologiyalar, hamda o'quv jarayoniga raqamli va innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali talabalar kasbiy bilimni oshirish yo'llari va ulardan foydalanish xaqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: innovatsiya, raqamli texnologiya, talaba, kasbiy bilim, madaniyat, san'at, jarayon, harakat, zamonaviy ta'lim, self-education, case study.

ЦИФРОВЫЕ И ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ХОРЕОГРАФИЧЕСКОМ ОБРАЗОВАНИИ

Насиба Эркиновна Абрайкулова

*Государственный институт искусства и культуры
Узбекистана, Заведующая кафедрой "Сценическое движение и физическая культура", и. о. профессор*

Аннотация: В данной статье автор предоставляет информацию о педагогических технологиях, используемых сегодня в хореографическом образовании, а также о путях совершенствования профессиональных знаний студентов и их использования путем внедрения цифровых и инновационных технологий в учебный процесс.

Ключевые слова: инновации, цифровые технологии, студент, профессиональные знания, культура, искусство,

процесс, движение, современное образование,
самообразование, кейс-стади.

DIGITAL AND INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN CHOREOGRAPHIC EDUCATION

Nasiba Erkinovna Abraykulova

State Institute of Art and Culture of Uzbekistan

Head of the Department of Stage Movement and Physical Culture,

Associate Professor

Abstract: In this article, the author provides information about pedagogical technologies used today in choreographic education, as well as ways to improve the professional knowledge of students and their use by introducing digital and innovative technologies into the educational process.

Key words: innovation, digital technologies, student, professional knowledge, culture, art, process, movement, modern education, self-education, case study.

Jamiyatning hozirgi holati shundan iboratki, inson faoliyatining ko'plab sohalari, jumladan, ta'lim ham turli xil yangiliklarni joriy etish orqali yuqori darajada rivojlanmoqda. Innovatsiya va ta'limning umumiy jihatlari ko'p bo'lsa-da, ta'limga innovatsion usullarni joriy etish juda qiyin. Buning sababi shundaki, innovatsiya yangi g'oyalarni ishlab chiqarish va ularni jamiyat hayotiga tatbiq etish sifatida, asosan konservativ bo'lgan ta'lim bilan murakkab, ziddiyatli munosabatda bo'ladi.

Ta'limga innovatsiyalarni joriy etish masalasi o'rganilganda avvalo "Innovatsiya" tushunchasi anlab olish lozim. Ushbu tushuncha XIX asrda birinchi marta qo'llanilib, XX asr boshlarida Avstriyalik iqtisodchi J. Shumpeter "innovatsion kombinatsiyalar" tahlili, iqtisodiy tizimlar rivojlanishidagi o'zgarishlar natijasida paydo bo'lgan. Pedagogik innovatsion jarayonlar G'arbda taxminan 1950-yillardan boshlab maxsus tadqiqot ob'ektiga aylandi. Rossiyada 1980-yillarda N. Yu. Postalyuk ta'kidlaganidek, pedagogikada innovatsiyalar muammosi va shunga mos ravishda

uning konseptual ta'minoti ham maxsus tadqiqot ob'ektiga aylangan.

Innovatsiyani biz har xil turdagi innovatsiyalarni yaratish, ishlab chiqish va amalga oshirishni, shuningdek ularni amalda qo'llaniladigan, takomillashtirilgan mahsulot shaklida o'zgartirishni tushunamiz.

Bugungi kunda madaniyat va san'at sohasi, xususan, xoreografiya ta'limida qo'llanilayotgan pedagogik ta'lim texnologiyalardan ayrimlarini ko'rib o'tamiz:

1. Muammoli ta'lim texnologiyasi:

Muammoli o'rganishda talabalar bilimni o'z mehnati bilan olishadi va ularni qo'llash orqali erishadi, tafakkuri keskin yuqorilaydi. Dars jarayonida talabalar faqat mashq yoki harakatlarni yodlash va takrorlash bilan emas, balki ma'lum mavzudagi raqsning kuyi va unga tanlangan harakatlarning mazmun-mohiyatini ochib berish, ichki emotsional holati orqali namoyon etish bilan band bo'ladilar. O'qituvchi talabalarning ishini shunday tashkil qiladiki, ular qo'yilgan muammoni hal qilish uchun zarur bo'lgan ma'lumotni mustaqil ravishda izlaydilar, umumlashtiradilar va xulosalar chiqaradilar, ijro etilayotgan mashqlar yoki raqs harakatlarini taqqoslaydilar va tahlil qiladilar. O'zlari qilgan ijrolarining kamchiliklarini, yo'l qo'ygan xatoliklarni aniqlaydilar. Muammoli ta'limdan foydalangan holda darslarni o'tkazish evristik (qisman qidirish) usulidan foydalanishni o'z ichiga oladi.

2. "Men o'zim o'rganaman" texnologiyasi: Ushbu usulning nomi uning diqqat markazini belgilaydi. Talaba o'quv jarayonida o'z fikrini qo'llashni, o'z harakatlarini baholashni va vazifalarni rejalashtirishni o'rganadi. Talabaning o'qituvchi bilan darsda mustaqil ishi "Men o'zim o'rganaman" shaklida ham o'tishi mumkin. O'z-o'zini nazorat qilish, tekshirish va o'z-o'zini anglash ko'nikmalarini rivojlantirish uchun savollar usulidan foydalanish tavsiya qilinadi. Ijro texnikasi ustida ishlayotganda talabaning o'zi o'ziga bir nechta savollar beradi. Masalan: "Raqs musiqasi ritmini qanday his qilyapman?", "Tanamning plastikligini qanday mashqlar orqali oshirishim kerak?", "Oyoq va qo'llarimni to'g'ri harakatlantiryapmanmi?", "Aylanishli harakatni to'g'ri bajrisha

tanamning holatini qanday tutishim kerak?”. Savollarni shakllantirishning ko‘plab variantlari bo‘lishi mumkin. Lekin, asosiy maqsad - talaba e‘tiborini o‘z harakatlaridan xabardor bo‘lishga yo‘naltirishdir. Savollar mashg‘ulotning nazariy va amaliy tomoniga yo‘naltirilishi mumkin.

3. “Self-education”-talabalarning o‘z ustida ishlashi ta‘limning barcha darajasida eng asosiy va muhim qism hisoblanadi. Buni qo‘llab-quvvatlash uchun mavjud imkoniyatlardan foydalanib, barcha shart-sharoitga ega bo‘lgan, qo‘shimcha mashq qilish uchun mo‘ljallangan xonalarni yaratish lozim. Masalan, talabalar 80 daqiqa dars mashg‘ulotidan chiqqanidan so‘ng besh- o‘n daqiqa tanaffus qilib mana shunday maxsus xonalardan foydalanishlari, o‘z ustida ishlashi mumkin.

Innovatsion pedagogik texnologiyalarni o‘rganishda bir nechta horijiy ta‘lim tizimi tajribalariga murojaat qilindi va o‘rganish natijasida quyidagi tajribalar xaqida ma‘lumotlarga ega bo‘lindi. Xususan, Buyuk Britaniyadagi ta‘lim tizimining o‘ziga xos jihatlaridan biri bu, talabaning mustaqil ta‘lim tarkibida uyga vazifaning mavjud emasligi. Talabalar, asosan, darsdan so‘ng keyingi mavzuga tayyorgarlik ko‘rishadi. “Case study”- real hayotdan olingan ijodiy ishlarni tahlil qilishadi. Ya‘ni talaba yangi mavzuni mustaqil ravishda o‘zlashtiradi, dars jarayonida esa o‘qituvchisidan mavzuga oid yuzaga kelagan savollariga javob olishadi, o‘zlashtira olmagan qismlariga e‘tibor qaratadi. Bu esa, o‘z o‘rnida, “Self-education”, ya‘ni talabaning o‘z ustida ishlashi Buyuk Britaniyadagi ta‘lim tizimining eng asosiy prinsiplaridan biri ekanligini isbotlaydi.

B. T. Lixachev ta‘biri bilan aytganda “Pedagogik texnologiya - bu shakllar, usullar, usullarning maxsus majmui va tartibini belgilovchi psixologik-pedagogik munosabatlar yig‘indisidir. O‘rganish texnikasi, ta‘lim vositalari- bu pedagogik jarayonning tashkiliy-metodik qurolidir”.

Rossiyalik olimlaridan biri V. M. Monaxov pedagogik texnologiyaga: “Pedagogik texnologiya - bu qulay sharoitlar o‘qituvchilar va o‘quvchilar uchun so‘zsiz qo‘llab-quvvatlangan holda o‘quv jarayonini loyihalash, tashkil etish va o‘tkazishda birgalikdagi pedagogik faoliyatning puxta o‘ylangan modelidir”-

deya ta'rif bergan. U "Pedagogik texnologiya — avvaldan rejalashtirilgan natijalarga olib boruvchi va bajarilishi shart bo'lgan tartibli amallar tizimidir", -degan qisqacha ta'rifni bera turib, uning asosiy xususiyatlariga e'tiborni qaratadi. "Pedagogik texnologiya-o'quv jarayonini texnologiyalashtirib, uning qayta tiklanuvchanligini hamda pedagogik jarayon turg'unligini oshirib, bu jarayon ijrochisining subyektiv xususiyatlaridan uni ozod qiladi», - deydi u. [[¹]

O'quv jarayoniga raqamli va innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali talabalar kasbiy bilimni oshirish yo'llari haqida so'z borar ekan, avvalo soha yo'nalishlari bo'yicha ijodiy jarayonlarga ushbu texnologiyalarni tatbiq etish, ilmiy-ijodiy ishlar natijalarini tahlil qilish va olingan natijalarni o'quv jarayoniga uzviy bog'liqligini qaror toptirish bo'yicha muammolarni o'rganish, taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish talab etiladi. Ta'limni muvaffaqiyatli raqamlashtirishning asosiy shartlaridan biri inson resurslari, ya'ni professor-o'qituvchilar o'quv ishlarining yangi usullari va shakllaridan foydalangan holda raqamli ta'lim muhitida samarali ishlashga tayyorligi va qobiliyati, shuningdek bunday professor-o'qituvchilarni rahbariyat va jamoatchilik tomonidan qo'llab-quvvatlanishidir.

Ta'lim tashkilotiga kirishda talabalar shaxsan o'zlari uchun muhim va zarur bo'lgan narsalarni o'rgatishni kutishadi. Ular akademik ishning ma'nosini ko'rishni, hozirgi va kelajagini qurishni, yaxshi ish topishni, o'rgangan narsalarini amalda qo'llashni, akademik ishda faol ishtirok etishni, tan olinishni va o'z ishlarining ahamiyatini his qilishni xohlashadi. [²]

Darhaqiqat, madaniyat va san'at sohasi bo'yicha oliy ta'limga o'qishga qabul qilinguniga qadar talabalar ma'lum vaqt va muddat boshlang'ich san'at ta'limini o'zlari tanlagan yo'nalishlarda musiqa maktablari, ixtisoslashgan maktablar, kamida havaskorlik to'garaklarida oladilar. Talabalik davrida esa olgan bilimlarini yanada chuqurlashtirish, saviyasini kengaytirish, salohiyatlarini oshirish, o'zlarini takomillashtirish maqsadida bo'ladilar.

¹ H. T. Omonov, N. X. Xo'jayev, S. A. Madyarova, E. U. Eshchonov Pedagogik texnologiyalar ya pedagogik mahorat

² Alimardonov I. M. Raqamli texnologiyalardan ta'lim tizimida samarali foydalanish. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun, 2021 yil. B. 415.

Professor-o'qituvchilar talabalarga o'z bilimlarini qo'llab-quvvatlash uchun yangi innovatsion texnologiyalardan qanday qilib to'g'ri foydalanishni, ushbu texnologik vositalar va qurilmalar bilan o'quv va ijodiy maqsadlarida qanday munosabatda bo'lishni ko'rsatishlari kerak. Shundagina bo'lajak soha vakillari o'zlari tanlagan tashkilot, muassasa va boshqa ijodiy jamoalar uchun kerak bo'ladigan yetuk mutaxassis bo'lib yetishadilar.

Talabalarda vizual idrok birinchi o'rinda turadi, ya'ni ular uchun ma'lumot vizual tarzda taqdim etilishi kerak, bu ilgari har doim ham mavjud emas edi. Aynan AKT zamonaviy ta'lim o'qituvchilariga muammolarni samarali hal qilish imkonini beradi. Raqamli texnologiya vizual diapazonni qiziqarli tarzda qurish, talabalarni turli xil xoreografik faoliyat turlari bilan tanishtirish, mediatexnologiyalar imkoniyatlaridan

foydalangan holda har qanday mavzu bo'yicha rang-barang va sifatli tasviriy materialdan foydalanish imkonini beradi.

Madaniyat va san'at sohasi ta'lim tizimining ishini shunday o'zgartirish kerakki, ta'lim muassasalarini bitirgan aktyor va rejissyorlar, xonanda va sozandalarning umumiy savodxonligi, ularning nostandart vazifalarni hal qilish qobiliyati zamonaviy aqlli kompyuter tizimlaridan yuqori bo'lishi kerak. Chunki, ushbu qurilmalarni boshqarishni bilishi, o'z ijodiy ishlarida to'laqonli foydalana olishlari kerak.

Davlatimiz rahbari tomonidan Yangilanayotgan O'zbekistonnimizni barpo qilishda barkamol avlodni tarbiyalash, iqtidorli yoshlarni qo'llash, ularning ijrochilik malakalarini shakllantirishda soha mutaxassislari oldiga qo'ygan vazifalarga ma'suliyat bilan qarash hamda amalga oshirish har bir pedagogning kasbiy burchi deb hisoblaymiz.

Foydalangan adabiyotlar

1. Abraykulova N. E. World scientific research journal. Volume-33_Issue-1 2024-yil, noyabr. B. 102-107
2. Abraykulova N. E. Oriental Art and Culture. Scientific-Methodical Journal. 2023 y. B. 404-406.
3. H. T. Omonov, N. X. Xo'jayev, S. A. Madyarova, E. U. Eshchonov Pedagogik texnologiyalar ya pedagogik mahorat. 2009. B. 19.

4. Alimardonov I. M. Raqamli texnologiyalardan ta'lim tizimida samarali foydalanish. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun, 2021 yil. B. 415.
5. A. G. Asmolov Shaxs psixologiyasi: umumiy psixologik tahlil tamoyillari / A. G. Asmolov. - M. : Moskva davlat universiteti nashriyoti, 1990.
6. Фазлиева З. К. Oriental Art and Culture. Scientific-Methodical Journal. 2023 yil Oktyabr. B. 486-490.
7. Zokirova S. M. Pedagogical International research journal. 2023 yil aprel B. 35-39.
8. Ostanina O. A. Oriental Art and Culture. Scientific-Methodical Journal. 2023 yil Oktyabr. B. 427-431.

DANCE ART EDUCATION USING AI TECHNOLOGY

Alam Han

Uzbekistan state institute of arts and culture, PhD

Introduction. Dance art is a genre of art that expresses human inner emotions and mental world beyond simple external representation through physical movement, and has emotional and creative characteristics. Through these characteristics, it can be enjoyed by humans as a serious artistic experience, contributing to total humanization when seeking meaning in human life and seeking change (2023, Alam Han).

In the 21st century, AI artificial intelligence technology is leading innovative changes in the field of art, and its possibilities are infinitely expanding, especially in the art of dance. With the advancement of AI technology, dance creation methods, education, and performance experiences are rapidly changing, which provides new challenges and opportunities for artists and can be used as an important tool. However, despite these technological advances, the discussion on how the essential sensibility and value of creative expression of dance art can be maintained is still considered an important topic.

Discussions about the future of dance art cannot be considered separately from dance art education.

Art education helps people lead diverse ways and thoughts, cultivates direct experience of the senses, and trusts unmediated, momentary insight as a legitimate source of knowledge (Moon-Hwan Kim, 2010).

AI plays a powerful auxiliary role in dance creation and performing arts, and can be supported as a tool to help expand dancers' expressions.

Therefore, based on the unique essence of dance art, such as human emotional expression, creativity, and human communication, education using artificial intelligence technology should develop into a new art form that helps multidimensional expression and approach by adding the technology of AI to the value of dance art education that allowed people to flexibly think about existing experiences, non-verbals, emotions, and vice versa.

The purpose of this study is to explore the direction of dance art education through the use of AI technology. When AI is applied to dance arts education, it will set a standard for how technology can complement and expand emotions and creative essence.

Dance art education using AI technology. AI technology has the potential to transform dance arts education. The introduction of AI in dance education will be an important tool to provide students with customized education, movement analysis, and a creative creation environment, and to promote the development of dancers. Additionally, AI can contribute to improving accessibility to education and expanding the globalization and diversity of dance art. The convergence of AI technology and dance arts education is an opportunity to redefine the future of dance education, and is expected to open new possibilities for both educators and learners.

Dance arts education through the use of AI technology is a future-oriented education model and shows the following utilization possibilities.

The application of AI technology in dance education enables personalized instruction tailored to the individual characteristics of students. AI accurately analyzes students' physical attributes, learning pace, and skill level, providing optimized training that maximizes the efficiency of the lessons.

Breaking away from traditional one-size-fits-all teaching methods, AI provides feedback tailored to the individual learner's needs and progress, realizing a personalized approach to dance education. This, in turn, enhances the quality of instruction.

In traditional education, instruction largely relies on the educator's experience, providing the same training to all students. In contrast, AI analyzes each student's movements in real-time, offering detailed feedback on areas for improvement, thereby enabling students to learn more effectively and achieve individual learning goals.

Secondly, AI supports dance major students in receiving immediate feedback through real-time movement analysis. Students can meticulously analyze and correct their movements, particularly useful in addressing subtle differences in posture and movement. This AI-based technology has become a crucial tool in dance education, fostering precision and attention to detail, and positively impacting the technical development of dancers. AI utilizes sensors and cameras to track students' physical movements in real-time, providing corrective feedback by comparing them to ideal movements. This helps students learn proper posture and technique, while also contributing to the prevention of physical injuries.

Thirdly, AI technology serves as a tool that fosters creativity, providing students with opportunities to explore new choreographic ideas and modes of expression beyond traditional learning methods. By analyzing various dance styles and presenting them, AI opens up new artistic possibilities for dancers. Furthermore, through the collaboration between AI and educators, an environment is created that expands the boundaries of artistic creation, allowing students to innovate new forms of dance suggested by AI and discover their own unique expressions within them.

AI can bring significant changes to the development of dance education content. By analyzing dance from various eras and styles, AI provides customized educational materials to students, enabling them to learn not only traditional dance but also contemporary dance and diverse styles from around the world, supporting creative activities based on this knowledge. This creative application offers dancers a broader scope for artistic creation and introduces new teaching methods to educators.

AI technology holds the potential to revolutionize the future of dance education. Through key elements such as personalized learning, efficient training, and the expansion of creative expression, dance education can offer a more inclusive and diverse learning environment.

However, for these technological advancements to be effectively applied in real-world educational settings, collaboration between AI and human educators is essential, which will further enhance the quality and effectiveness of education. Ultimately, AI will become a powerful driving force in shaping the future direction of dance education, playing a critical role in advancing and expanding the field of dance.

Conclusion. The term "Fourth Industrial Revolution" has emerged as a major issue in various fields, including education, since it was first used at the Davos World Economic Forum in January 2016 (Park Ji-hyun, 2017). It refers to the fusion of intelligent technologies such as AI with information technologies like mobile and big data, serving as a term that represents technological revolution. The diagnosis and prediction of what art education should be in this era of change is a highly necessary discussion.

The BBC in the UK reported that "in the age of AI, robots will replace humans in many industries, but in professions where human emotions are crucial, robots will not be able to replace humans. " What cannot be replaced is ultimately the ability to communicate and empathize. Dance art is a comprehensive form of expression where humans convey their inner emotions through the body. An important aspect of the discussion on AI's use in dance education is that AI plays a supplementary role in dance education. This is because fields of education that require emotional connection and communication are industries that are difficult to replace with machines (Ko Eun-sil, 2017).

While the feedback and analysis provided by AI are useful, the creative leadership and emotional support of human educators remain essential. AI can simulate emotions through data and algorithms, but it is difficult for it to capture the depth of emotion embedded in movement or the unique interpretations of

individuals. AI plays a powerful supplementary role in dance creation and art, helping to expand the expression of both educators and students. However, it is difficult to replace the intrinsic human emotions, creativity, immediacy, and empathy that are essential to dance art.

AI technology can serve as a supportive tool with potential for application in dance art, which conveys uniquely human experiences and emotions through the body.

Therefore, in the field of dance education, AI should not replace the role of the educator, but rather function as a tool that helps educators guide learning more efficiently and accurately assess students' characteristics. A collaborative approach between AI and educators is a crucial point.

References

Ko Eun-sil, 2017, AI 시대의 실전형 예술교육. 한국예술교육학회 추계학술대회. 발제1.

Moonhwan Kim, 2010 문화예술교육의 의의. 서울: 댄스뷰.

Park Ji-hyun, 2017, 2017 음악교육에서 새로운 미디어 활용의 연구동향에 대한 토론문. 한국예술교육학회 추계학술대회 발표문

Alam han. 2023. 재즈 댄스 예술 활동 참여 경험에 의한 내러티브 탐구: 기혼 여성을 대상으로. 한국체육철학회지. 2023, 제31권 제4호, 148-162.

KELAJAK PANTOMIMALARI

Mannonov Sardor Shuxratjonovich

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

"Sahna harakati va jismoniy madaniyat" kafedrası PhD, dotsent v. b.

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy pantomimaning bir qancha uslublari tahlil qilinadi. Yangi tarqalayotgan yo'nalishlar va ularning o'ziga xosliklari, yangi tendensiyalar o'rganiladi. Texnologiya va xatti-harakat bilan bog'liq muvaffaqiyatli urinishlar o'rganiladi.

Kalit so'zlar: Pantomima, Ultrafiolet, immersiv teatr, pantomimaning yangi tendensiyalari, xatti-harakat, plastika.

ПАНТОМИМЫ БУДУЩЕГО

*Сардор Шухратжонович Маннонов
Государственный институт искусства и культуры
Узбекистана, Кандидат наук PhD, доцент кафедры
«Сценическое движение и физическая культура».*

Аннотация: В данной статье анализируются несколько стилей современной пантомимы. Изучаются новые тенденции и их особенности, новые тенденции. Исследуются успешные попытки в области технологий и поведения.

Ключевые слова: Пантомима, Ультрафиолет, иммерсивный театр, новые направления пантомимы, поведение, пластика.

PANTOMINES OF THE FUTURE

*Sardor Shukhratzhonovich Mannonov
State Institute of Art and Culture of Uzbekistan
Candidate of Sciences PhD, Associate Professor of the Department of
Stage Movement and Physical Culture*

Abstract: This article analyzes several styles of modern pantomime. New trends and their features, new trends are studied. Successful efforts in technology and behavior are examined.

Key words: Pantomime, Ultraviolet, immersive theater, new directions of pantomime, behavior, plastic.

Ba'zan "Shrek", "O'yinchoqlar tarixi" yoki "Madagaskar" kabi xit kinolarni ko'rishga borganimizda u yerda haqiqatdan ham yaxshi o'ylangan sahnalar, yangiliklar bor ekanligini tushunamiz. Zamonaviy kino oqilona yechimlar, holatlar, vaziyatlar va xarakterlar asosiga qurilgan hamda u shunchaki kulguli emas, balki, katta yoshdagilar, bolalar va turli yoshdagilar uchun ham qiziqarli sahnalashtirilgan. Kinodagi shu kabi jarayonlar albatta pantomima va pantomima ssenariysiga turtki berishi, uni joyidan

qo'zg'otishi kerak. Biz eski an'analarni hurmat qilishimiz, ularni asrab avaylashimiz lozim, biroq, shuningdek tarixga kirgazuvchi yangi yo'nalishlar va uslublarni ixtiro qilishimiz, qidirishimiz kerak. Biz yangi keskin burilishlardan iborat voqealar, nomerning umumiy dinamikasi tez sahnalar o'ylab topishimiz kerak deb hisoblayman.

Pantomima san'atiga ham bugungi kunga kelib turli texnologiyalar aralashmoqda. Bir tomondan yangi uslublار paydo bo'lsa, ikkinchi tomondan mim san'atining asl mohiyati o'zgari transformatsion jarayonlar ro'y bermoqda. Buning ijobiy va salbiy taraflarini tahlil qilish yangi uslublarning istiqbollari, yangi tendensiyalarni tiniq fonda ko'rish imkonin beradi.

Virtual tomoshalar bugun keng tarqala boshladi. O'z nomidan ham bilinib turibdiki ushbu pantomimalar texnologiyalar bilan bog'liqdir. Buni birinchi bora chet eldagi Freelusion va "Front pictures" truppalari qo'llab ko'rishdi. Ular – dunyodagi xatti-harakatga asoslangan birinchi "3d" truppa hisoblanadi. 3d texnologiyaning paydo bo'lishi ko'pgina jabhalarda yangi ko'rinish va turlarni taqdim etdi. Unga ko'ra tomoshalarni proyeksiya hamda pantomima harakatlari tashkil etadi. 3d proyeksiyalar tomoshabinlarga ulkan imkoniyatlarni taqdim qildi. Masalan, pantommia aktyori tasavvuridagi eshikni ochadi, 3d orqali eshik namoyon bo'ladi va u pantomimachiniing harakatlariga monand tarzda ochiladi. Unda makon, zamon, libos, vaqt kabi hususiyatlar o'zining tez o'zgaruvchanligi va ahamiyatli emasligi bilan ajralib turadi. Tomoshabin sahnadagi obrazning xatto hayollarini ham ko'rishi, maxsus effektlar bilan voqeani yanada ta'sirliroq his qilishi mumkin. Voqealar bo'ladigan maydonning tez o'zgarishi evaziga pantomimaning turli janrlari: fantastika, mistika kabilarda ishlash imkoniyatini taqdim etadi. Makon va zamonning tez-tez almashishi ham aynan pantomima san'atiga mos uslub hisoblanadi.

Tomoshabin endilikda bevosita sahnada sodir bo'layotgan murakab muhitlarni: yomg'irlar yog'ishi, dengizning o'rtasida kechadigan voqealarni, qor va izg'irinni, koinotni va yana bir qancha inson idrok eta olmaydigan narsalarni ham "aynan" tasvirlashi mumkin. Buning evaziga tomoshabin voqea ichiga kirib qoladi. Virtual pantomima aktyori ham har bir elementni o'ta aniq

ifodalashi , harakatlar matematik tarzda ma'lum bir liniyada, oldindan sahnalashtirilgan va o'zgarmaydigan ko'rinishda bo'lishi lozim. Chunki, havola etilayotgan proyeksiya va pantomima aktyorining harakatlari bir-biriga mutanosib bo'lishi kerak. Yo'nalish ham "ularning o'zaro tandemi evaziga xayratga olib keluvchi" nuqtai nazarni ilgari suradi. Bunda har turdagi shovqinlar va atmosferalar yaratish orqali pantomimachining harakatlari yanada ta'sirli ko'rinish olmoqda.

Asrning noyob ixtirosi tomoshaviyligi bilan tomoshabinni o'zidan boshqa joyga qaray olmaydigan qilib qo'ymoqda. Bunda spektakllar 40-45 minut, qisqa nomerlar esa ko'pi bilan besh daqiqa davom etmoqda. Ushbu uslubni rivojlantirish orqali pantomimaning yangi shakli dunyoga kelyapti deb o'ylayman. Albata ushbu yo'nalish ustida ijodiy izlanishlar davom etmoqda va uni rivojlantirish, maxsus obrazlar topish, o'ziga hos sahnalashtiruvchi pantomim-grafistlar kashf qilish lozim hamda ushbu yo'nalishni kelajak pantomimsi deyish mumkin.

Bundan tashqari zamonaviy pantomima tomoshalariga lazer, gologramma, qorong'uda yonuvchi neonlar, ultrafiolet chiroqlari yordami bilan sahnalashtirilayotgan va ular asosiga qurilgan tomoshalar ham ko'payib bormoqda.

2000 yildan keyin Tomskning "Yudi" truppasi mashhur bo'lishni boshladi. Inglizcha "UD" so'zini bildiruvchi guruhning nomi o'z nomidan kelib chiqqan holda "Ultraviolet dark" deb nomlanadi. Buning ma'nosi qorong'uda ultrafiolet degan ma'noni bildiradi. Bugungi kundagi teatr asrning noyob ixtirolari evaziga bizga juda ko'p uslublar, texnik imkoniyatlarni taqdim etdi. Yudi truppasi ham o'zining spektakl va turli tomoshalarini "Dark TEATR" (qorong'u teatr) yo'nalishi bo'yicha sahnalashtiradi. Ultrafiolet chiroqlarining mahsus tiktilgan liboslar, maxsus bo'yalgan buyumlar va ultrafioletga oid baoshqa narsalarga tushishi orqali u porlab ko'rinadi. Yudining bu tomoshalari so'zsiz, faqat katta xatti-harakatlar va maxsus effektlar asosiga qurilgan nomer va spektakllardan iborat. Ushbu uslubda aktyorlar akrobatika, raqs va pantomima elementlaridan foydalanadilar. Tomoshalar kompozitsion qurilmaga ega va turli rejissyorlik topilmalari evaziga tomoshabinda katta xayratni hosil qiladi. Yana

shunga o'xshash uslubni Ukrainada tashkil etilgan "Layt balans" (Chiroq balansi) truppasida ham uchratish mumkin. Layt balansning uslubi ultravioletga asoslanmagan biroq bugungi kunda urfga aylangan: lazer chiroqlar, yonuvchan sim(neon)lar, egiluvchan chiroqlar yordamida qorong'uda sahnalashtiriladigan, xatti-harakatga asoslangan raqs va pantomima elementlari asosidagi nomerlaridan iborat. Butun dunyoni xayratga solayotgan ushbu truppa o'zining badiiy yaxlit nomerlariga ega. Qorong'ulikda u yoqdan, bu yoqda paydo bo'lib qoluvchi turli zamonaviy obrazlar orqali o'z tomoshalarini keng ommaga taqdim etadilar.

Maxsus effektlar tufayli makon va zamon o'zgarishi, fantastik janrlardagi tomoshalarning aynan so'zsiz va harakatga asosan sahnalashtirilishi yuqoridagi truppalarni tomoshasiagi asosiy omildir. Biroq zamonaviy pantomimaning bu ko'rinida aktyor yuzi va ko'zi ko'rinmaydi, uning faqat harakatlari ko'rinadi holos. Bu esa ushbu uslubning kemptik tomonidir. Zamonaviy pantomima tearining ushbu ko'rinishini shakllar teatri deb ayta olamiz.

Bu kabi pantomimalarning paydo bo'lishi teatr sohasida ulkan inqilobga sabab bo'lishi mumkin. Pantomima havaskorlari yoki uning eski ijrochilari esa mana shunday hayot yo'lida ya'ni eski mim yo'nalishida davom etishmoqda. Chunki ular pantomima bilan shug'illanuvchi kommersion yirik tashkilotlardan farqli ravishda, o'zgarishlarga qo'l urib, tavakkalchilik qilavermaydilar. Havaskorlar esa professional jamolar pantomimaning uslublarini o'zgartirmay, uning eski shaklini qattiq ushlaydi, eski shartlariga rioya qiladi deb o'ylaydilar. Biroq, bugun turli o'zgarishlar ro'y bermoqda.

Shu o'rinda qiziq bir faktni keltirmoqchimiz. So'nggi yillarda "ikki Guvnorsga bir odam" deb nomlangan asar teatr sohasida kattagina xitga aylandi. Ushbu asar "Guardian", "Independent", "Daily Mail", "The Sunday Times", "The Daily Express" hamda Sun kabi yirik nashrlarda besh yulduzlik umumlashtiruvchi bahoga ega bo'ldi. Ushbu asar 1743-yilda yozilgan Karlo Galdoni qalamiga mansub "Ikki boyga bir malay" asarining yangi ko'rinishi edi. Galdoni "komediya Del-arte" zamoniga juda yaqin vaqtda yashagan va xozir biz pantomimaning ildizidan ancha yiroqmiz. YA'ni komediya Del-arte'dan. Biroq, yangicha asar muallifi Richard

Bin – xayratlanarli o'tkir zehn sohibi, sezuvchan, zamonaviy yozuvchi. 18-asrda yozilgan voqealar bugungi kunda yorqin ifodasini topdi. Bu pantomima emas, ammo, zamonaviy pantomima shiddat bilan nimaga intilishi kerakligiga misol bo'la oladi. Bu zamonaviy voqealar, hamda shu bilan birgalikda barcha eski boyliklarning bir tizimga tizilgandir.

Yangi paydo bo'layotgan barcha uslublar ham vaqtincha va o'tkinchidir. Biroq biz birgina yo'nalishga yopishib olmay xozirgi sharoitdagi aktuallikni qo'llab quvvatlashimiz va yangilarini yaratishimiz lozim. Bu kabi texnologiyalarda ehtiyot bo'linishi va doim nazardan chetda qoldirmaslik kerak bo'lgan bir jihat bor. Har doim va hamma vaqt spektakl markazida aktyor turadi. Barcha narsa unga xizmat qilish lozim. YA'ni, zamonaviy pantomimalardagi yangi so'zsiz tilga ko'ra imo-ishora va harakatning yangi ko'rinishlari, aktyorlik ijrosini turli hil asboblari, yangicha ovoz va ritmik imkoniyatlar, yorug'lik va chiroq hamda turli texnologiyalar bilan aktyorlik ijrosini almashtirish emas boyitish imkoniyatlarini paydo qiladi. Bularning bari aktyorlik ijrosi fonida ijrochiga xizmat qilishi lozim.

Shu o'rinda Ben Krokerning quyidagi jumllariga e'tiboringizni qaratmoqchiman: O'zgarishlardan qo'rqish kerak emas. Oxirgi yuz yillik davomida texnika qanday taraqqiy etgan bo'lsa, pantomima o'shanchalik rivojlanmay qoldi. Uning rivojlanishi uchun qanchadan-qancha imkoniyatlar bo'ldi. Lekin biz nevarimizning nevarasiga ham sahnada "sen ballga borasan" degan mashhur so'zlarni aytishdan charchamayapmiz." ³

Foydalanilgan adabiyotlar rshyxati:

1. Markova YE. M. V. Problemi razvitiya sovremennoy zarubejnoj pantomimi. Dissertatsiya na soiskaniye uchenoy stepeni kandidata iskusstvovedeniY. Leningrad, 1987. – 63 s.
2. Slavskiy. R. YE. Iskustvo pantomimi. Moskva: Iskustvo, 1962. – 5 s.
3. Barro. J. L. Vospominaniya dlya budushego. (perevod L. Zavlyavoy). Moskva: Iskustvo, 1979. – 44 s.
4. Markova. YE. V. Sovremennaya zarubejnaya pantomima. Moskva: Iskustvo, 1985. – 104 s.
5. Do'sanov R. R. Oriental Art and Culture. Scientific Methodical Journal. 2024. Aprel. B. 601-604.

³ https://en.wikipedia.org/wiki/James_Thi%C3%A9rr%C3%A9

6. Дўсанов P. P. The multidisciplinary journal of science and technology. Volume-4. 2024 yil, B. 191-195

7. Tavakulovna, M. D. , Vidami, O. O. I. U. M. , & Sporta, V. (2019). Sisteme Nepreryvnogo Obrazovaniya. Uchenyye Zapiski Universiteta Lesgafta, (7), 173.

7. Mannonov S. Sh. International Bulletin of Applied Sciences and Technology. 08. 04. 2023. B. 277-281.

8. Mannonov S. Sh. International Journal of Inclusive and Sustainable Education. Volume 2 April -2023 No 4. B. 12-14.

Internet saytlari:

1. <https://freelusion.com>

2. <https://wikipedia.org>

**JISMONIY TARBIYA VA SPORT FANIGA RAQAMLI VA
INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH ORQALI
O'QUVCHILARNING JISMONIY MADANIYATINI OSHIRISH
YO'LLARI**

Mamirova Dilaram Tavakulovna

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti "Sahna harakati va jismoniy madaniyat" kafedrasida dotsenti

Jumanazarov Zohidjon Eldor o'g'li

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Xalq ijodiyoti fakulteti "Madaniyat va san'at sohasi menejmenti" ta'lim yo'nalishi
2-kurs talabasi. zohidjonjumanazarov7@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada jismoniy tarbiya faniga raqamli va innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali o'quvchilarning jismoniy madaniyatini oshirish yo'llari o'rganilgan. Tadqiqotda, zamonaviy texnologiyalar, jumladan virtual reallik (VR), fitnes ilovalari va mobil ilovalar yordamida talabalar orasida jismoniy faollikni oshirish va sog'lom turmush tarzini rivojlantirishning samarali usullari ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish talabalar orasida darslarga qiziqishni oshirish, jismoniy faollikni kuchaytirish va umumiy sog'lom turmush tarzini rivojlantirishga katta yordam beradi.

Kalit so'zlar: jismoniy tarbiya, raqamli texnologiyalar, innovatsion texnologiyalar, Virtual reallik, fitnes ilovalari, texnologiyalarni qo'llash, fitnes trekerlar, smart soatlar, interaktiv darslar, sport o'yinlari.

Abstract. In this article, ways to improve the physical culture of students by introducing digital and innovative technologies to the science of physical education are studied. The study examines effective ways to increase physical activity and promote healthy lifestyles among students using modern technologies, including virtual reality (VR), fitness apps, and mobile apps. The results of the study showed that the integration of digital technologies into the educational process greatly helps to increase interest in classes among students, increase physical activity and develop a general healthy lifestyle.

Key words: physical education, digital technologies, innovative technologies, Virtual reality, fitness applications, technology application, fitness trackers, smart watches, interactive classes, sports games.

Kirish. Jismoniy tarbiya va raqamli texnologiyalar integratsiyasining dolzarbligi

Bugungi kunda raqamlashtirish jarayonlari barcha sohalarda, jumladan ta'lim tizimida ham katta o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda. Raqamli texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar ta'lim sifatini oshirishda, yoshlarning qobiliyatlarini rivojlantirishda va ularning qiziqishlarini uyg'otishda muhim rol o'ynamoqda. Jismoniy tarbiya fani ham raqamli texnologiyalar bilan boyitilishi mumkin, chunki jismoniy faollikning kundalik hayotimizdagi ahamiyati tobora oshib bormoqda. Shuningdek, milliy sog'lom turmushni shakllantirish uchun jismoniy tarbiya muhim o'rin egallaydi.

O'zbekistonda o'quvchilar orasida jismoniy faollikni oshirish masalasi dolzarbdir. So'nggi yillarda talabalarning raqamli qurilmalarga bo'lgan qiziqishi ortishi bilan ularning jismoniy faolligi pasaymoqda. Buni inobatga olib, jismoniy tarbiya darslariga zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy qilish orqali o'quvchilarning jismoniy faolligini oshirish, ularning sog'lom turmush tarziga rag'batini kuchaytirish mumkin.

Jismoniy tarbiya fanini zamonaviy raqamli va innovatsion texnologiyalar bilan boyitish, talabalar orasida jismoniy faollikni oshirish va sog'lom turmush tarzini rivojlantirishga katta yordam

beradi. F. Baxtiyorov ta'kidlashicha, raqamli texnologiyalar ta'lim tizimida yangi imkoniyatlar yaratib, o'quvchilarning jismoniy va ma'naviy rivojlanishiga xizmat qiladi.

Bu texnologiyalar o'quv jarayonini yanada interaktiv va qiziqarli qiladi, shuningdek, sport va fitnes ilovalaridan foydalanish talabalar orasida jismoniy madaniyatni oshirishga xizmat qiladi.

Jismoniy tarbiya fani va texnologik yangiliklar

An'anaviy jismoniy tarbiya darslari ko'pincha jismoniy mashg'ulotlarni bajarish, harakatlar va o'yinlarni o'z ichiga oladi. Biroq, raqamli texnologiyalar rivojlanishi bilan darslarda smart soatlar, fitnes trekerlar va virtual reallik (VR) kabi innovatsion vositalarni qo'llash imkoniyati paydo bo'ldi. Bu esa jismoniy tarbiya jarayonini yanada interaktiv va qiziqarli qilib, o'quvchilarning darslarga bo'lgan munosabatini ijobiy o'zgartirishi mumkin.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari

Ushbu tadqiqotning maqsadi jismoniy tarbiya faniga raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali o'quvchilarning jismoniy madaniyatini rivojlantirishdir. Tadqiqotda talabalarning texnologiyalarga qiziqishini oshirish va darsdagi samaradorlikni orttirish uchun raqamli texnologiyalar qanday qo'llanishi mumkinligi o'rganiladi.

Tadqiqotda quyidagi savollarga javob topiladi:

1. Raqamli texnologiyalar o'quvchilarning jismoniy faolligini oshirishda qanday rol o'ynaydi?
2. Qanday texnologiyalar jismoniy tarbiya darslarini interaktiv va samarali qilishi mumkin?
3. Innovatsion texnologiyalar orqali jismoniy tarbiya darslariga qanday yangiliklar kiritilishi mumkin?

Tadqiqotning dolzarbligi va ilmiy ahamiyati

Bugungi yoshlar texnologiyalarga qiziqishi bilan ajralib turadi, bu esa jismoniy tarbiya faniga innovatsiyalarni qo'llashni dolzarblashtiradi.

Ushbu tadqiqot natijalariga ko'ra, o'quvchilarning jismoniy faoliyatga bo'lgan qiziqishini oshirish, darslarning samaradorligini kuchaytirish va sog'lom turmush tarzini rivojlantirish yo'llari aniqlanadi.

Metodologiya. Tadqiqot ishtirokchilari va namuna olish.

Tadqiqot O'zbekistonning to'rt oliy o'quv yurtidagi talabalardan 200 nafari ishtirokida o'tkazildi.

Talabalar 18-22 yosh oralig'idagi, jismoniy tayyorgarligi va texnologiyalarga nisbatan munosabati turlicha bo'lgan o'g'il va qizlardan tashkil topdi. Namuna olish jarayonida talabalar har xil jismoniy tayyorgarlik darajasiga ega ekanligi ham e'tiborga olindi, bu esa raqamli texnologiyalarning samaradorligini har xil o'quvchilar orasida sinab ko'rishga imkon berdi.

Ushbu tadqiqotda raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilishning samaradorligini o'rganish uchun G. Ergasheva tomonidan taqdim etilgan metodologik yondashuvlar asosida tadqiqot o'tkazildi.


Uning fikriga ko'ra, mobil ilovalar va sport ilovalarining ta'lim jarayonida qo'llanilishi o'quvchilarning jismoniy faolligini sezilarli darajada oshiradi. Shuningdek, R. Mirmuhamedov o'z maqolasida innovatsion texnologiyalar jismoniy tarbiya sohasida yangi yondashuvlarni yaratishga imkon beradi deb yozadi.

Qo'llanilgan raqamli texnologiyalar

1. Smart soatlar va fitnes trekerlar – Talabalar maxsus fitnes treker va smart soatlar bilan ta'minlandi. Ushbu texnologiyalar talabalar faolligini, kaloriya sarfini va yurak urish tezligini o'lchashda foydalanildi. Masalan, talabalar kunlik 10 000 qadam yurishni maqsad qilib oldi va treker yordamida bu maqsadga yetish kuzatib borildi.

2. VR texnologiyalari - Virtual reallik (VR) texnologiyalari jismoniy tarbiya mashg'ulotlariga interaktivlik qo'shdi. Talabalar VR ko'zoynaklari yordamida sport va jismoniy mashqlarni virtual muhitda bajardilar. Bu esa talabalarning darslarga qiziqishini oshirishga yordam berdi. Masalan, virtual futbol yoki yugurish musobaqalari orqali talabalar orasida raqobat uyg'otildi.

3. Mobil ilovalar - Talabalar Google Fit, Samsung Health va shunga o'xshash ilovalar orqali o'z ko'rsatkichlarini kuzatib bordilar. Ushbu ilovalar nafaqat talabalar faolligini oshirdi, balki ular o'z sog'lig'i haqida ham ma'lumot olib borish imkoniyatiga ega bo'ldi.



Tadqiqot bosqichlari

1. Dastlabki ma'lumotlarni yig'ish: Tadqiqot boshida har bir ishtirokchining jismoniy tayyorgarligi va raqamli texnologiyalarga nisbatan munosabati o'rganildi. Dastlabki ma'lumotlar talabalarning jismoniy faolligi va texnologiyalarga qiziqishini aniqlashda yordam berdi.

2. Innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish: Talabalar ikki guruhga bo'lindi. Bir guruhda raqamli texnologiyalar qo'llanildi, ikkinchi guruh esa an'anaviy usullarda ta'lim oldi. Har ikki guruhga bir xil jismoniy mashqlar o'tkazildi, biroq texnologiyalar joriy etilgan guruhda VR ilovalari va trekerlardan foydalanildi.


3. Natijalarni kuzatish va tahlil qilish: Har ikki guruh natijalari o'rganildi. Kuzatuv natijalari va so'rovnomalar yordamida har bir talabaning jismoniy faollik darajasi va darsga munosabati tahlil qilindi.

Ma'lumotlarni tahlil qilish

Ma'lumotlar Excel va SPSS kabi statistik dasturlarda tahlil qilindi. Ushbu dasturlar yordamida talabalarning jismoniy tayyorgarlik darajasi, darsga qiziqishi va sog'lom turmush tarziga nisbatan munosabati o'rtasidagi bog'liqlik o'rganildi.

Muhokama. Raqamli texnologiyalar talabalarning darslarga qiziqishini oshirishda muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Shuningdek, VR texnologiyalarining o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshirishda juda samarali ekanligi kuzatildi. Innovatsion texnologiyalar darslarni qiziqarli va samarali qilishga xizmat qilgan

holda talabalarni faol va sog'lom turmush tarziga rag'batlantirishi aniqlandi.



Maqolada ta'kidlanganidek, texnologiyalarning jismoniy tarbiya faniga qo'shilishi o'quvchilarning jismoniy madaniyatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. F. Baxtiyorovning fikriga ko'ra, raqamli texnologiyalar o'quvchilarning individual rivojlanishini ta'minlab, ularning sog'lom turmush tarzini shakllantirishga yordam beradi. Shuningdek, innovatsion texnologiyalarni qo'llash orqali o'quvchilarning o'z maqsadlariga erishish motivatsiyasi kuchayadi.


Natijalar. 1. Jismoniy faollikdagi o'zgarishlar

Birinchi guruhdagi talabalar (texnologiya bilan shug'ullanuvchi) jismoniy mashg'ulotlarga bo'lgan qiziqishi sezilarli darajada oshganligi aniqlandi. Misol uchun, fitnes treker natijalariga ko'ra, birinchi guruhda talabalarning faolligi haftasiga 40% ga oshdi. Ikkinchi guruhda esa bu ko'rsatkich 10-15% ni tashkil etdi. Bu esa texnologiyalar jismoniy faollikni oshirishda samarali ekanligini ko'rsatdi.

2. Darsga qiziqish va ishtirok

VR va fitnes trekerlar bilan jismoniy mashg'ulotlarda ishtirok etgan talabalar darslarga yuqori qiziqish bildirishdi. O'tkazilgan so'rovnoma natijasiga ko'ra, talabalar orasida texnologiya qo'llanilgan guruhdagi ishtirokchilar darslarni o'rtacha 90% ga

qiziqarli deb hisoblashdi, an'anaviy usuldagi guruh esa bu ko'rsatkich 55% ni tashkil etdi.



Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, talabalar orasida VR (virtual reallik) texnologiyalari orqali sport darslarini o'tkazish motivatsiyani oshirdi.

U. Karimov tomonidan keltirilgan fikrga ko'ra, virtual reallik texnologiyalarining ta'limda qo'llanishi, o'quvchilarga yanada interaktiv va o'ziga jalb qiluvchi tajriba taqdim etadi, bu esa ularning sportga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Shuningdek, fitnes ilovalarining o'quvchilarga jismoniy faollikni kundalik ravishda nazorat qilishda yordam berishi kuzatildi.

Xulosa va tavsiyalar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, jismoniy tarbiya darslarida raqamli texnologiyalarni qo'llash darslar samaradorligini sezilarli oshiradi. Ushbu yondashuv o'quvchilar orasida sog'lom turmush tarzini rivojlantirishga, jismoniy faollikni oshirishga va ularning jismoniy madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Grim, ya’ni aktyorning tashqi ko’rinishini o’zgartirish va uni muayyan obrazga moslashtirish — aktyorlik san’ati uchun juda muhim elementdir. Grim yordamida nafaqat tashqi ko’rinish, balki personajning ichki dunyosi, ruhiy holati, ijtimoiy mavqei ham aks ettiriladi. Aktyorning yuz ifodalari va tanasi orqali uning hissiy

holati aniqroq namoyon bo'ladi, bu esa sahnada yoki ekranda obrazni yanada real va ishonarli qiladi.

Grim va obraz yaratish: Grim orqali aktyor o'zining jismoniy ko'rinishini o'zgartirib, obrazini yaratadi. Masalan, qariyani, yoshni, yoki yovuzni ifodalash uchun turli texnikalar qo'llaniladi. Grim aktyorning obraziga moslashish imkonini beradi, masalan, yoshi kattaroq yoki yoshroq ko'rinish yaratish, jismoniy yoki psixologik holatlarni ko'rsatish.

2. Raqamli texnologiyalar va grim.

Zamonaviy texnologiyalar aktyorlik san'atini yanada takomillashtirishga yordam beradi. Aktyorlar grimmi yordamida tashqi ko'rinishini o'zgartirishning yangi usullarini kashf etishmoqda. Raqamli texnologiyalar ushbu jarayonni yanada ilg'or va interaktiv qilishga imkon yaratadi.

Kompyuter grafikasi va 3D modellash: Grimmi yaratish jarayoni endi faqat an'anaviy bo'yoqlar va plastinka bilan cheklanmaydi. Kompyuter grafikasi va 3D modellash yordamida aktyorning yuzidagi o'zgarishlarni raqamli ravishda yaratish mumkin. Bu texnologiyalar kino va teatrdagi ko'p ishlatiladi, ayniqsa, fantastik va ilmiy-fantastik janrlarida. Grimmiing raqamli ko'rinishlari yordamida aktyorning obrazini o'zgartirish, qiyofalarini yaratish va maxsus effektlar qo'llash imkoniyati oshadi.

Virtual va kengaytirilgan reallik (VR va AR): Raqamli texnologiyalar yordamida aktyorlarning obrazlarini yaratish jarayonini yanada osonlashtirish mumkin. Virtual reallik (VR) va kengaytirilgan reallik (AR) texnologiyalari aktyorlarga yangi tajribalar va interaktiv elementlarni qo'shishga yordam beradi. Masalan, VR texnologiyasida aktyor sahnaga kirishda yoki obraz yaratishda butunlay yangi bir virtual muhitda ishlaydi, bu esa aktyorning kasbiy bilimlarini oshirishga xizmat qiladi.

3. Grim yordamida kasbiy bilimlarni oshirish.

Grim — bu nafaqat tashqi ko'rinishni o'zgartirish, balki aktyorlarning kasbiy mahoratini oshirish va ularni yuksaltirishda muhim vosita hisoblanadi. Grim yordamida talabalar aktyorlik san'ati haqida chuqurroq tushunchaga ega bo'lishlari mumkin.

Grim orqali ijodiy yondashuvni rivojlantirish: Aktyorlar grimmi o'rganish orqali o'zlarining ijodiy yondashuvlarini rivojlantiradilar. Har bir personaj uchun individual tarzda grimmi o'rganish va uni ishlatish, aktyorning ijodiy imkoniyatlarini kengaytiradi va ularni o'z obrazlariga chuqurroq kirishga yordam beradi.

Grim texnikalarini o'rgatish: Aktyorlik ta'limi jarayonida grimmi o'rganish talabalar uchun muhim ko'nikmalardan biridir. Bu esa ularning sahnada yoki ekranda ishonchli va qiziqarli obrazlar yaratishga yordam beradi. Grim texnikalari orqali talabalar o'z obrazlarini yaratish va ularni sozlashni o'rganadilar, shuningdek, aktyorlik mahoratini yanada kuchaytiradilar.

4. Innovatsion texnologiyalar va ta'limda grimmi qo'llash.

Innovatsion texnologiyalarni o'quv jarayoniga joriy etish orqali aktyorlik ta'limini yanada samarali qilish mumkin. Ta'limda raqamli va innovatsion texnologiyalardan foydalanish aktyorlarning mahoratini oshirishga yordam beradi va o'quv jarayonini qiziqarli, interaktiv va zamonaviy qiladi.

Onlayn ta'lim platformalari: Internet orqali grimmi o'rganish imkoniyati talabalar uchun qulaylik yaratadi. Onlayn video darslar, interaktiv mashqlar va amaliyotlar orqali grimmi o'rgatish jarayoni yanada samarali va qulay bo'ladi. Bunday platformalar orqali talabalar grimmi o'rganishning turli texnikalari va usullarini amaliyotda qo'llashni o'rganadilar.

Grim va texnologiyalar yordamida o'quv amaliyotlarini o'tkazish: Interaktiv dasturlar va simulatorlar yordamida grimmi o'rganish talabalar uchun yanada qiziqarli va samarali bo'ladi. Masalan, virtual sahnalarda aktyorlarning yuzini o'zgartirish, turli obrazlarni yaratish va bularni baholash mumkin bo'ladi.

Talabalarni berilgan mavzu bo'yicha material to'plash va tahlil qilish, eskizni ishlab chiqish va bo'yash, soch turmagi, kostyum va boshqa elementlar yordamida amalga oshirish bilan yakunlangan qahramon obrazini yaratish ustida izchil ishlashga o'rgatiladi. Bu muhim, chunki, yangi texnologiyalar yordamida o'quv amaliyotlarini o'tkazish jarayonida zamonaviy teatrda turli materiallardan foydalanish xususiyatlarini ochib beradi, bu erda tibbiyot va kinodan kelgan texnologiyalar qo'llaniladi. Bunda grim

texnikasi bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish uchun nazariy materiallar, video darslar va amaliy topshiriqlar beriladi, har qanday tasvir ustida ishlash algoritmini ochib beradi va kelajakdagi ijodiy va professional loyihalarda shunga o'xshash vazifalarni amalga oshirishda tajriba orttiradi.

Muammo:

Ko'pchilik, shu jumladan, yosh aktyorlar va grim ustalari ham aktyorlik makiyajini to'g'ri qo'llashda qiynaladi, bu esa spektakl yoki suratga olish sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Innovatsion texnologiyalar yordamidagi o'quv amaliyotlar tizimli trening va amaliy ko'nikmalarni ta'minlashga va bu orqali ushbu muammoni hal qilishga yordam beradi.

Grim aktyorlik san'ati uchun juda muhim vosita hisoblanadi, chunki u aktyorning obrazini yaratish, uning hissiy holatini aks ettirishda katta rol o'ynaydi. Raqamli va innovatsion texnologiyalarni ta'lim jarayoniga qo'llash orqali aktyorlar grimmi yaratishdagi ko'nikmalarini rivojlantirishlari mumkin. Bu esa talabalar uchun yanada samarali ta'lim va ijodiy rivojlanish imkoniyatlarini yaratadi. Grim va innovatsion texnologiyalarni birlashtirish aktyorlik san'ati va ta'limda yangi yondashuvlarni yuzaga keltiradi, bu esa kelajakda nafaqat aktyorlarning, balki butun san'at sohasining rivojlanishiga katta hissa qo'shadi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. F. Jalilova. Grim. Toshkent. 2008-yil.
2. www.lex.uz

**XOREOGRAFIYA TA'LIMIDA JO'RNAVOZNING INNOVATSION
TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNI TATBIQ QILISH**

Qurbonova Nasiba Turg'unovna

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

*"Sahna harakati va jismoniy madaniyat" kafedrasi yetakchi
jo'rnavozi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada xoreografiya ta'limida jo'rnavozning innovatsion texnologiyalardan foydalanishi va ularning pedagogik jarayondagi ahamiyati tahlil qilinadi.

Zamonaviy raqs ta'limida texnologiyalarning qo'llanilishi, raqs ijrochiligining sifatini oshirish, harakatlarning aniq va estetik bajarilishini ta'minlash kabi omillar muhim sanaladi. Tadqiqotda multimediya vositalari, raqamli platformalar va interaktiv dasturlar yordamida jo'rnavozning faoliyatini takomillashtirish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, innovatsion texnologiyalarning pedagogik metodlar bilan uyg'unlashuvi hamda jo'rnavozning ijodiy va metodik yondashuvlarini rivojlantirishga ta'siri tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: xoreografiya, nota, musiqa, tandem, dastur, texnologiya, terminlar, mumtoz raqs, tarixiy, balet, opera, ritm.

ВНЕДРЕНИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ КОНЦЕРТМЕЙСТЕРА В ОБРАЗОВАНИИ ХОРЕОГРАФИИ

Курбанова Насиба Тургуновна

*Государственный институт искусства и культуры
Узбекистана, Концертмейстер кафедры «Сценическое
движение и физическая культура»*

Аннотация: В данной статье анализируется использование хореографом инновационных технологий в хореографическом образовании и их значение в педагогическом процессе. В современном танцевальном образовании важными считаются такие факторы, как использование технологий, повышение качества танцевального исполнения, обеспечение точного и эстетичного исполнения движений. В исследовании рассматриваются возможности улучшения работы диктора с помощью мультимедийных инструментов, цифровых платформ и интерактивных программ. Также будет проанализировано сочетание инновационных технологий с педагогическими методами и влияние на развитие творческих и методических подходов диктора.

Ключевие слова: хореография, ноти, музика, тандем, программа, технология, термины, классический танец, исторический, балет, опера, ритм.

IMPLEMENTATION OF THE USE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES OF THE ACCOMPANIST IN THE EDUCATION OF CHOREOGRAPHY

Kurbanova Nasiba Turgunovna

State Institute of Art and Culture of Uzbekistan

Accompanist of the Department of Stage Movement and Physical Culture

Abstract: This article analyzes the use of innovative technologies by a choreographer in choreographic education and their importance in the pedagogical process. In modern dance education, such factors as the use of technology, improving the quality of dance performance, ensuring accurate and aesthetic execution of movements are considered important. The study examines the possibilities of improving the work of an announcer using multimedia tools, digital platforms and interactive programs. The combination of innovative technologies with pedagogical methods and the impact on the development of creative and methodological approaches of an announcer will also be analyzed.

Key words: choreography, notes, music, tandem, program, technology, terms, classical dance, historical, ballet, opera, rhythm.

Xoreografiya darslari musiqa go'zal harakatlarsiz tasavvur qilish qiyin. Xoreografiya darslari xoreograf-o'qituvchi va jo'rnavoz hamkorligi ostida bo'lib, musiqa yordamida raqs va unda badiiy obrazlar yaratiladi.

Ushbu maqolada xoreografiya ta'limida jo'rnavozning o'rni, vazifasi, maqsadlari to'g'risida so'z yuritiladi. Konservatoriya va musiqa bilim yurtlarida jo'rnavoz mutaxassisligi bo'yicha tayyorlanmaydi va bu hozirgi kunga kelib, xoreografiya, vokal, dirijyorlik yo'nalishida mutaxassis-jo'rnavozlarga extiyoj sezilyapti. Prezidentimiz va davlatimiz siyosatida san'at va

madaniyatga katta e'tibor berilib, o'sib kelayotgan avlodni san'atga, musiqa, xoreografiyaga jalb qilish, ahloqan va jismonan to'g'ri tarbiyalash, dolzarb masalalardan biri bo'lib kelmoqda. Yurtimizdagi jamiki bor bo'lgan bolalar musiqava san'at maktablarida xoreografiya yo'nalishi o'qitish dasturlariga kiritilgan va to'laqonli ravishda o'tilmoqda. Xoreografiya darsi xoreograf-o'qituvchi va jo'rnavoz bilan ijodiy hamkorlikda, ijodiy tandem sifatida darsining boshidan, to oxirigacha birga o'tiladi. Xoreografiya darsiga birinchi marta kirgan jo'rnavoz xoreografik terminlar, harakatlar talabalarni ko'rib esinkirab qolishi mumkin. Xoreografiya darsida harakatlar fransuz tilida tushuntiriladi, musiqa terminlari italyan tilida yuritiladi. Xoreografiya musiqasi klassik asarlardan, maxsus olinib, yaratilgan lavhalardan harakatlarga moslashtiriladi va ijro etiladi. Musiqa o'lchovi tuzilishi "kvadrat" talabiga javob berishi kerak. Ya'ni musiqa 4, 8, 16 taktdan iborat bo'lishi lozim.

Xoreografiya san'atining bo'limlari xoreografiya akademiyasi, san'at va madaniyat institutlarida, san'at va musiqa maktablarida o'tiladi hamda dasturlariga kiritilgan. Bu:

- 1) Mumtoz raqs;
- 2) Xalq sahna raqsi;
- 3) Tarixiy-maishiy raqs;
- 4) Milliy raqs;
- 5) Zamonviy raqs.

Xoreografiya san'atining mumtoz raqs bo'limi asos hisoblanadi va stanok oldida bajariladigan ma'lum harakatlardan iborat. Mumtoz raqsning musiqasi klassik asarlardan, maxsus yaratilgan musiqiy lavhalardan olinadi. Mumtoz raqs darsining tuzilishi quyidagicha:

1. Ekserzis (stanok musiqalari);
2. Zal o'rtasidagi mashqlar;
3. Allegro (sakrashlar).

Xoreograf va jo'rnavoz ijodiy hamkorlikda bo'lib, birgalikda sahnalashtiriladigan raqsga musiqa tanlashadi, ular raqs sahna yuzini ko'rguncha o'zaro muloqotda bo'ladi. Faoliyatini boshlagan jo'rnavoz musiqa repertuarini yig'adi va kengaytiradi, raqs harakatlarini o'rganadi, terminlarni yodlaydi. Jo'rnavozga yordam

sifatida mumtoz raqs uchun yaratilgan musiqa to'plamlari mavjud bo'lib, ular yordamida jo'rnavoz harakatlarga tanlangan musiqalarni tanlab, ijro etadi. L. Yarmolovich "Принципи музыкального оформления уроков классического танца" to'plamni eng ko'p qo'llanadigan nota to'plamidir.

Shu bilan birga darslarda M. Glinka, P. I. Chaykovskiy, I. Shtraus, D. Shostakovich, F. Shubert, S. Raxmaninov, K. Minkus, K. Faust, A. Griboyedov, Delib, Glazunov kabi mashhur kompozitorlarning balet va operalaridan olingan lavhalardan foydalaniladi. O'qituvchilar musiqa va lavhalarni talabalar salohiyati, ularning qabul qilishiga tayanib tanlash kerak hamda doim yangilab, almashtirib turishi zarur. Doimo bir xil musiqa o'qituvchilarni zeriktirib qo'yishi mumkin va yangi musiqalarni eshitish hamda bilishga to'sqinlik qilishi mumkin. Xoreografiya darslarini tuzilishi o'zgarmaydi, lekin musiqasi o'zgarib, yangilanib boradi. Musiqa xarakteri, o'lchovi, ritmini qabul qilish salohiyati har xil bo'ladi. Kichik yoshdagi o'quvchilarga aniq ritmlarni berish kerak. Talabalarga baletlardan lavhalar, murakkab ritmlardan iborat musiqalarni taqdim etish lozim.

Jo'rnavoz xoreografik terminlarni, mukammal va yoddan bilishi zarur. Dars jarayonida o'qituvchi bilan birga harakat o'rgatiladi hamda musiqa tanlanadi. Xoreografiya terminlari fransuz tilida, musiqa terminlari italyan tilida olib boriladi. Shuning uchun jo'rnavoz xoreografik terminologiyani yaxshi o'zlashtirib, yodlab, keyin harakatga mos musiqa tanlanadi.

Har bir adabiyot, asar, operaning kirish qismi bo'lganidek, klassik stanok bajarishdan oldin "preparations" qismi mavjud. Jo'rnavoz "preparations" qismini ijro etayotgan asarning ritm, tempidan, xarakteridan kelib chiqqan holda ijro etadi. Yoki ijro etilayotgan asarning oxirgi 4 taktini oladi. Boshqa hollarda jo'rnavoz "preparations"ni o'zi o'ylab, ijod etishi mumkin. Harakat yakunlanganda asarning yoki lavhaning tonalligidan kelib chiqib, tonika va dominanta akordlari bilan tugatadi.

Klassik stanok harakatlari va musiqa namunalari quyidagicha:

1) Pliye, demi pliye, grand pliye-harakati - o'tirish va yarim o'tirish ma'nosini aynglatadi. Musiqa mayin va sokin xarakterda

bo'lib, o'lchovi $4/4 - 3/4$ bo'ladi. "Pliye" harakatiga M. Glinkaning "Разлука", Lepin "Vals", L. V. Betxoven "Sonata", Griboyedov "Пушкинский бал", I. Gertum "Большой вальс" asalari to'g'ri keladi.

2) Battements tendus va battements jette. Bu 2 ta harakat musiqa va o'lchovi jihatidan bir biriga o'xshash. Battement tendus-oyoqni polda sirpantirish musiqa o'lchovi $2/4 - 4/4$. Tendus jette oyoqni 25 gradusga otish. Bu harakatda oyoq keskin tarzda oldinga yonga, orqaga otilib chiqadi. Musiqa o'lchovi $2/4$ bo'ladi. Bu harakatga A. Xachaturyanning "Chippolino" baletidan kichik lavham L. Minkusning "Don Kixot" baletidan lavha K. Faustning "Три полки", Gliyer "Psikatto" xoreografik maxsus to'plamlari to'g'ri keladi.

3) Rond de jamb parter – oyoqning yerda doira shaklini chizish. Musiqa o'lchov $3/4-4/4-6/8$ bo'ladi. Bu harakat o'rta tempda bajariladi va K. Delibning "Kompeliya" baletidan vals Itskevich "Vals", Kazanovaning xoreografik maxsus nota to'plamlari.

4) Battements fondus – sokin, eruvchan harakat bo'lib, musiqa o'lchovi $3/4-4/4$ bo'lib, K. Marena "Gavot", D. Verdi "Traviata" operasidan, M. Dunayevskiy "Sirk" kinofilmidan Vals, Kazakova "Maxsus nota to'plami".

5) Battements frappe-tayanch oyoqqa zarba berish bo'lib, musiqa o'lchovi $2/4-4/4$ dan iborat. B. Smetana "Polka", L. Minkus "Don Kixot" baletidan lavha.

6) Grand battements – oyoqni 90 gradusga keskin otish. Musiqa o'lchovi $2/4-3/4-4/4$ tez tempda bajariladi. Xachaturyan "Marsh", Prokofev "Marsh", M. Dunayevskiy "Веселие ребята" kinofilmidan marsh. Kara Karayev "Yetti go'zal" baletidan "Vals".

7) Releve lent – oyoqni 90 gradusga sekin ko'tarish. Musiqa o'lchovi $3/4-4/4-12/8$ musiqa sekin, o'rta tempda ijro etiladi. Ashkenazi "Pa-de-katr", "Adajio", Chaykovskiy, Kazakova "Xoreografiya musiqa to'plami".

8) Saute, assemble, eshappe changement turli pozitsiyalarda sakrash mashqlari bo'lib, musiqa o'lchovi $2/4-4/4$. "Polka Raxmaninov" K. Faust, "Sharmanka" Shostakovich, "Gopak"

Y. Shurovskiy, I. Shtarus "Polka", Kazakova "Xoreografiya musiqa to'plami".

Harakatlarni bajarish jarayonida talabalar va o'quvchilarning musiqa qabul qilish darajasi turlicha. Jo'rnavoz shu jihatni diqqatga olishi zarur. Harakat bajarayotgan talaba va o'quvchi temp tezligiga yeta olmasligi, musiqaning murakkabligi darsga qiziqmaslikka, bezdirishga olib kelishi mumkin. Xoreografiya darslarning musiqa bilan olib borilishi talabani va o'quvchini tafakkurini, tasavvurini rivojlantiradi va ijodiy o'sishga undaydi.

Musiqa badiiy ta'sirchanlikni o'stiradi, ritm tushunishini kuchaytiradi, tasavvur doirasini kengaytiradi. Jo'rnavoz musiqiy asarlarni ijro etibgina qolmay, balki talabalarga musiqa bastakori, yaratilgan tarixiy vaqti, karakteri to'g'risida tanishtirib, gapirib borishi kerak. Jo'rnavoz o'qituvchi pedagog-xoreograf kabi o'z ustida ishlab, bilim darajasini oshirib borishi zarur. Shunday paytlarda jo'rnavozga innavatsion texnologiyalar yordamga keladi. Texnologiyalardan to'g'ri foydalana olishi ishini osonlashtiradi va dars sifatini oshiradi. Musiqiy asarlarni ko'p qismi xoreografik harakatlarga mos kelmaydi va jo'rnavoz ularni moslashtirib, improvizatsiya qilib, harakatga, raqsga to'g'iraydi. Shunday texnologiyalardan hozirgi zamonda ko'p va undan foydalanish jo'rnavozning ishini yengillashtiradi. Bu kompyuter dasturlari:

1. Sound forge.
2. Cubase.
3. Capella Scan.
4. Neuratron Photo Score Wtimate.

Nota muxarrirlari:

1. Finale
2. Sibelius

Shu bilan birga xoreografiya terminlarini o'rgatuvchi saytlar bor:

- <http://smile2010.ucozua>
- www.horeoraf.com
- biblioteka/noty

Jo'rnavoz nota materiallari bilan ishlash mobaynida ma'lum bir qismini qirqib va shu joyiga xoreografik harakatga moslashtirib akkordga va "preparations" qismini qo'shishga to'g'ri keladi. Katta

xajmdagi musiqiy asarlarni kompyuter xotirasida saqlaydi. Yangi asarlar, musiqiy to'plamlarni internetdan izlaydi, xoreografiyaga moslarini tanlaydi va kompyuter xotirasida saqlaydi. Jo'rnavozning faoliyatida innavatsion texnologiyalardan foydalanish va tatbiq qilishi quyidagi yengillik va imkoniyatlarni yaratadi:

1. Nota materiallarni topish, saqlash, repertuarni kengaytirish.
2. Nota materiallarini muxarrirlash, ko'chirish va PDF dasturida chop etish.
3. Forum, saytlar orqali hamkasabalar bilan muloqot qilish, yangiliklardan voqif bo'lish ma'lumotlar bilan almashish!

Jo'rnavoz o'z ustida tinmay ishlashi, zamonaviy texnologiyalardan foydalanishi, professional mahoratini oshirib borishi hozirgi zamon talabi bo'lib bormoqda, unga amal qilish bizning dasturi amalimiz bo'lishi darkor!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. [https:// soin.cesvet.ru](https://soin.cesvet.ru) Международный педагогический портал.
2. Инфурок "образовательный маркетплейс" [https:// infourok.ru/](https://infourok.ru/)
3. MAAM.ru
4. <http://pedrazvitie.ru>

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA TA'LIM SIFATINI OSHIRISH: KASBIY BILIMNI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI USULLARI

Davlatova Zilola Abdulazizovna

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti "Madaniyat va san'at sohasi menejmenti" ta'lim yo'nalashi 2-kurs talabasi

Anotatsiya: Ushbu maqola raqamli texnologiyalar yordamida ta'lim sifatini oshirish va kasbiy bilimni rivojlantirishning samarali usullarini o'rganishga qaratilgan. Maqolada, onlayn kurslar, virtual haqiqat (VR), simulyatsiya, gamifikatsiya, adaptiv o'qitish tizimlari, mobil ilovalar va boshqa raqamli vositalar yordamida talabalarga kasbiy ko'nikmalarni o'rgatishning samarali metodlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Simulyatsiya, sun'iy intellekt, raqamli texnologiyalar, onlayn kurslar, mobil ilovalar, platformalar.

ПОВЫШЕНИЕ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ: ЭФФЕКТИВНЫЕ ПУТИ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ ЗНАНИЙ

Давлатова Зилола Абдулазизовна
Студентка 2-курса ГИИКУЗ «Менеджмент сферы культуры и
искусства»

Аннотация: Целью данной статьи является изучение эффективных методов повышения качества образования и развития профессиональных знаний с помощью цифровых технологий. В статье анализируются эффективные методы обучения студентов профессиональным навыкам с использованием онлайн-курсов, виртуальной реальности (VR), моделирования, геймификации, систем адаптивного обучения, мобильных приложений и других цифровых инструментов.

Ключевые слова: Моделирование, искусственный интеллект, цифровые технологии, онлайн-курсы, мобильные приложения, платформы.

IMPROVING THE QUALITY OF EDUCATION USING DIGITAL TECHNOLOGIES: EFFECTIVE WAYS TO DEVELOP PROFESSIONAL KNOWLEDGE

Davlatova Zilola Abdulazizovna
2nd year student of the "Management of Culture and Arts"
program at the State Institute of Art and Culture of Uzbekistan

Abstract: The purpose of this article is to study effective methods for improving the quality of education and developing professional knowledge using digital technologies. The article analyzes effective methods for teaching students professional skills using online courses, virtual reality (VR), modeling, gamification, adaptive learning systems, mobile applications and other digital tools.

Keywords: Simulation, artificial intelligence, digital technologies, online courses, mobile applications, platforms.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar shiddat bilan rivojlanib boryapti va har bir sohada zamon bilan hamqadam odimlashni taqozo etadi.

Raqamli texnologiyalar hayotimizga shunchalik singib ketdiki, bugungi kunda nafaqat kundalik faoliyatimiz, balki ijtimoiy-iqtisodiy va ta'lim sohalar rivojini ham ularsiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Raqamli texnologiyalar yordamida ta'lim sifatini oshirish: kasbiy bilimni rivojlantirishning samarali usullari - bu zamonaviy ta'lim tizimi va uning raqamlashtirish jarayonida talabalarga amaliy va nazariy bilimlarni samarali o'rgatish usullarini ko'rib chiqadigan muhim mavzu hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar ta'limni yanada interaktiv va samarali qilishga yordam beradi, ayniqsa, kasbiy ta'limda talabalar uchun zarur bo'lgan amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Quyidagi, kasbiy bilimni rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning samarali usullari keltirilgan:

1. Onlayn kurslar va ta'lim platformalari

Onlayn kurslar va ta'lim platformalari, masalan, Coursera, edX, Udemy, va LinkedIn Learning, talabalarga o'z kasbiy sohalarida kerakli bilim va ko'nikmalarni olish imkoniyatini beradi. Bu platformalarda o'quv materiallari, video darslar, interaktiv mashqlar va amaliyotlar mavjud bo'lib, talabalar o'z vaqtida va joyidan qat'i nazar o'rganishlari mumkin. Onlayn kurslar talabalarga o'z o'quv jarayonlarini individual ravishda boshqarish imkonini beradi va kasbiy bilimlarni rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi.

2. Simulyatsiya va virtual haqiqat (VR)

VR simulyatori virtual haqiqat texnologiyasi tomonidan yaratilgan simulyatsiya qilingan muhitdir. Uning asosi o'ta real virtual dunyoni qurish, foydalanuvchi harakatlari va ko'rsatmalariga real vaqtda sensorlar va algoritmlar orqali javob berish, "cho'milish" tuyg'usini yaratishdan iborat. Simulyatsiya va virtual haqiqat (VR) texnologiyalari kasbiy ta'limda talabalar uchun

real muhitni yaratishga yordam beradi. Masalan, tibbiyot, aviatsiya, muhandislik, arxitektura va boshqa sohalarda talabalar maxsus simulyatsiyalar yordamida amaliy ko'nikmalarni rivojlantiradilar. VR texnologiyasi orqali talabalar xavfsiz muhitda amaliyotlarni bajarish, masalan, jarrohlik amaliyotlari yoki aviatsiya sinovlarini o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu usullar talabalarga haqiqiy sharoitlarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni hal qilishda yordam beradi.

3. Onlayn hamkorlik va guruhli ishlash

Raqamli texnologiyalar talabalar uchun onlayn hamkorlik va guruhli ishlashni osonlashtiradi. Masalan, Google Drive, Microsoft Teams, Zoom, va boshqa vositalar yordamida talabalar jamoa sifatida ishlash, ma'lumotlar almashish va loyihalar ustida birgalikda ishlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu usul kasbiy ta'limda talabalarni jamoaviy ishlash, kommunikatsiya va muammoni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

4. Gamifikatsiya (O'yin asosida o'rganish)

Gamifikatsiya — o'quv jarayoniga o'yin elementlarini qo'shish orqali talabalar motivatsiyasini oshirish va o'rganish jarayonini qiziqarli qilish usulidir. Raqamli texnologiyalar orqali talabalar o'z bilimlarini o'ynab o'rganishlari mumkin. Masalan, ball yig'ish, vazifalarni bajarish va mukofotlar olish kabi elementlar talabalarni rag'batlantiradi va bilimlarni yanada tez o'zlashtirishga yordam beradi. Gamifikatsiya talabalar o'rtasida raqobatni rivojlantiradi va ularni o'rganishga motivatsiya qiladi.

5. Adaptiv o'qitish tizimlari

Adaptiv o'qitish tizimlari talabalar o'rganish jarayonini individual ehtiyojlarga moslashtiradi. Bu tizimlar har bir talabaning o'rganish tezligi va darajasiga qarab o'quv materiallarini taqdim etadi. Misol uchun, Knewton yoki DreamBox kabi platformalar talabalar bilimini tahlil qilib, ular uchun mos o'quv dasturini taklif qiladi. Bu tizimlar orqali talabalar o'z bilimlaridagi zaif joylarni aniqlab, ularga e'tibor qaratishlari mumkin. Bu usul, ayniqsa, kasbiy ta'limda talabalarning turli darajadagi bilimlarini mustahkamlash uchun juda foydalidir.

6. Mobil ilovalar va dasturlar

Mobil ilovalar yordamida talabalar o'quv materiallarini doimiy ravishda o'rganishlari mumkin. Masalan, matematikadan, fizikadan yoki turli kasbiy ko'nikmalardan mobil ilovalar orqali testlar, quizlar va mashqlar bajarish mumkin. Bu ilovalar talabalarni o'rganish jarayonida qo'llab-quvvatlash uchun samarali vositalar bo'lib, o'quv jarayonini yanada interaktiv qiladi. Talabalar o'z telefonlarida yoki planshetlarida o'rganishni davom ettirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

7. Raqamli baholash tizimlari

Raqamli texnologiyalar orqali talabalar bilimini baholash ancha osonlashadi. Onlayn testlar va avtomatik baholash tizimlari yordamida talabalar o'z bilimlarini tez va samarali baholash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu usul, o'quvchilarga o'z muvaffaqiyatlarini aniqlash, qaysi sohalarda yaxshilanishi kerakligini ko'rish va ularni rivojlantirishga yordam beradi. Shuningdek, raqamli baholash tizimlari talabalar uchun individual fikr-mulohazalarni tezda taqdim etadi.

8. Interaktiv darsliklar va multimedia

Interaktiv darsliklar va multimedia resurslari kasbiy ta'limda samarali foydalaniladigan vositalardir. Videolar, animatsiyalar, interaktiv grafiklar va audio materiallar yordamida talabalar o'quv jarayonini yanada osonroq va qiziqarli tarzda o'zlashtiradilar. Bu resurslar o'quvchilarni eng murakkab mavzularni tushunishga va ularni amaliyotda qo'llashga yordam beradi.

Raqamli texnologiyalar kasbiy ta'limda talabalar uchun o'rganish jarayonini samarali va qiziqarli qilish imkoniyatini yaratadi. Onlayn kurslar, simulyatsiyalar, gamifikatsiya, mobil ilovalar, adaptiv tizimlar va boshqa texnologiyalar yordamida talabalar o'z kasbiy bilimlarini rivojlantirishlari va amaliy ko'nikmalarni egallashlari mumkin. Ta'limda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish, kasbiy bilimni oshirishda yangi imkoniyatlar yaratadi va talabalarni eng zamonaviy ko'nikmalar bilan ta'minlaydi.

Bugungi kunda, o'quv jarayonining raqamlashtirilishi, ayniqsa kasbiy ta'limda, talabalar uchun yangi imkoniyatlarni yaratib, ularni global mehnat bozoriga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Raqamli texnologiyalar yordamida talabalar o'z malakalarini,

amaliy ko'nikmalarini va kreativ fikrlashini rivojlantirishlari mumkin. Shuningdek, innovatsion metodlar o'qituvchilarga ta'limni yanada shaxsiylashtirish imkonini beradi, bu esa o'quvchilarning individual ehtiyojlarini qondirishga yordam beradi.

Mazkur ishda, o'quv jarayonida raqamli va innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali talabalar kasbiy bilimlarini oshirishning samarali yo'llari tahlil qilinadi. Bu jarayonning afzalliklari, texnologiyalarning ta'limga qo'shgan hissi va amaliy qo'llanilishi masalalari yoritiladi.

Raqamli texnologiyalar yordamida talabalar bilimini baholash va tahlil qilish samarali amalga oshiriladi. Onlayn testlar, avtomatik baholash tizimlari va ma'lumotlar tahlil qilish vositalari orqali talabalar bilimini tezda baholash va ularning o'rganishdagi muvaffaqiyatlarini real vaqt rejimida kuzatish mumkin. Bu metod o'quv jarayonida tezkor fikr bildirish va talabalarni zaruriy yo'nalishlar bo'yicha yo'naltirish imkoniyatini yaratadi.

Bundan tashqari, raqamli texnologiyalar talabalarga o'z vaqtida va moslashtirilgan feedback (fikr-mulohaza) olish imkonini berib, o'rganish jarayonini doimiy ravishda tahlil qilish imkoniyatini yaratadi. Onlayn hamkorlik platformalari va guruhli ishlash vositalari talabalarni jamoaviy ishga undaydi, bu esa kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirishda samarali yordam beradi.

Raqamli texnologiyalarning ta'lim sifatini oshirishdagi samaradorligi, o'quv jarayonini optimallashtirish va talabalar uchun o'rganish imkoniyatlarini kengaytirishda yotadi. Shuning uchun, raqamli vositalardan to'g'ri foydalanish kasbiy ta'lim tizimini yangi darajaga ko'tarish va talabalar uchun yuqori sifatli ta'limni ta'minlashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. (2022). Raqamli iqtisodiyot va ta'lim tizimini rivojlantirish to'g'risida. Rasmiy hujjatlar to'plami.
2. O'zbekiston Respublikasi Ta'lim Vazirligi. (2021). Raqamli ta'lim.
3. Yuldashev, M. (2022). Kasbiy bilimni rivojlantirishda raqamli texnologiyalarni qo'llash tajribasi. O'zbekiston Respublikasi Ilmiy-tadqiqot markazi ilmiy ishlari, Rasmiy hujjatlar to'plami.

2-SHO'BA: TEATR VA KINO SAN'ATI TA'LIMIGA RAQAMLI VA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING DOLZARB MUAMMOLARI

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA TEATR SAN'ATI

Sahobiddin Xudayberdiyev

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

"Axborot texnologiyalari" kafedrasi dotsenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada teatr san'atiga raqamli texnologiyalarni joriy etishning ahamiyati va o'ziga xos jihatlari ko'rib chiqiladi. Virtual voqelik, kengaytirilgan voqelik va interaktiv platformalar singari raqamli texnologiyalar teatr tajribasini boyitish va kengaytirish imkoniyatlarini taqdim etmoqda. Shuningdek, maqolada raqamli texnologiyalarning teatr san'atiga ta'siri, ularning ta'lim jarayonida qo'llanilishi va kelajakdagi istiqbollari haqida fikr yuritiladi. Innovatsion yondashuvlar va muammolar nuqtayi nazaridan teatr san'ati va raqamli texnologiyalar o'rtasidagi o'zaro aloqalar tahlil qilingan. Mazkur tadqiqot teatr san'ati va raqamli innovatsiyalar o'rtasidagi bog'liqlikni hamda ularning kelajakdagi rivojlanishini tushunishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: raqamli texnologiyalar, teatr san'ati, virtual voqelik, kengaytirilgan voqelik, ta'lim jarayoni, innovatsion yondashuvlar, kelajak istiqbollari.

ЦИФРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ И ТЕАТРАЛЬНОЕ ИСКУССТВО

Сахобиддин Худайбердиев

Доцент кафедры «Информационные технологии»

Государственного института искусств и культуры

Узбекистана

Аннотация. В данной статье рассматривается значимость и особенности внедрения цифровых технологий в театральное искусство. Цифровые технологии, такие как

виртуальная реальность, дополненная реальность и интерактивные платформы, предоставляют возможности для обогащения и расширения театрального опыта. Статья также затрагивает влияние цифровых технологий на театральное искусство, их применение в образовательном процессе и перспективы на будущее. В контексте инновационных подходов и проблем анализируются взаимосвязи между театральным искусством и цифровыми технологиями. Данное исследование помогает понять взаимосвязь между театральным искусством и цифровыми инновациями, а также их будущее развитие.

Ключевые слова: цифровые технологии, театральное искусство, виртуальная реальность, дополненная реальность, интерактивные платформы, образовательный процесс, инновационные подходы, перспективы на будущее.

DIGITAL TECHNOLOGY AND THEATER ARTS

Sakhobiddin Khudaiberdiev

*Associate Professor of the Department of Information Technologies
State Institute of Arts and Culture of Uzbekistan*

Annotation. This article discusses the significance and unique features of implementing digital technologies in theatrical arts. Digital technologies, such as virtual reality, augmented reality, and interactive platforms, provide opportunities to enrich and expand theatrical experiences. The article also addresses the impact of digital technologies on theatrical arts, their application in educational processes, and future prospects. In the context of innovative approaches and challenges, the interconnections between theatrical arts and digital technologies are analyzed. This research helps to understand the relationship between theatrical arts and digital innovations, as well as their future development.

Key words: digital technologies, theatrical arts, virtual reality, augmented reality, interactive platforms, educational processes, innovative approaches, future prospects.

Raqamli texnologiyalar zamonaviy hayotimizning ajralmas qismiga aylangan. Bu texnologiyalar nafaqat kundalik faoliyatimizga, balki san'at va madaniyat sohalariga ham chuqur ta'sir ko'rsatmoqda. Teatr san'ati, o'z navbatida, raqamli texnologiyalar bilan boyitilgan yangi imkoniyatlarga ega bo'lib, tomoshabinlar va ijrochilar o'rtasidagi munosabatlarni yanada kuchaytirmoqda.

Teatr san'ati tarixan, odamlarning fikr va hissiyotlarini ifodalash uchun yaratilgan. U asrlar davomida o'ziga xos shakllarda rivojlanib kelgan va har doim yangi yondashuvlar bilan yangilanib turadi. Raqamli texnologiyalarning paydo bo'lishi teatr san'atining rivojlanishiga yangi yo'nalishlar ochdi. Bugungi kunda teatr sahnalarida virtual voqelik, kengaytirilgan voqelik va raqamli dizayn kabi innovatsion texnologiyalar qo'llanilmoqda. Bu yangi imkoniyatlar tomoshabinlarga yangi tajribalar taqdim etadi va ijrochilarga o'z ijodlarini yangi darajada namoyish etish imkonini beradi.

Raqamli texnologiyalar teatr san'atini an'anaviy formatdan raqamli muhitga o'tishga olib keldi. Bu jarayon, ayniqsa, pandemiya davrida o'zining ahamiyatini yanada oshirdi, chunki ko'plab teatrlar o'z spektakllarini onlayn formatda namoyish qilishga majbur bo'lishdi. Natijada, teatr san'ati yangi auditoriyalarga yo'l oldi va san'atning global maydonga chiqishiga yordam berdi.

Shu tariqa, raqamli texnologiyalar teatr san'atining rivojlanishida muhim rol o'ynab, uning tarixi va kelajagini belgilovchi omilga aylandi. Bu o'zgarishlar nafaqat ijodiy jarayonlarni, balki tomoshabinlar bilan bog'lanish usullarini ham tubdan o'zgartirmoqda.

Raqamli texnologiyalar teatr san'atida bir qator muhim o'zgarishlarga olib kelmoqda. Ularning joriy etilishi san'atning sifatini oshirib, tomoshabinlar bilan o'zaro munosabatlarni yangi darajaga ko'taradi. Raqamli texnologiyalarni teatrga joriy etishning ahamiyati va o'ziga xos jihatlari haqida quyidagilarni aytish mumkin [1]:

- Yangi tajribalar yaratish – raqamli texnologiyalar, masalan, virtual voqelik va kengaytirilgan voqelik, tomoshabinlarga sahnani interaktiv tarzda tajriba qilish

imkoniyatini beradi. Bu, ularni voqealarning markazida his etishga yordam beradi.

- Keng auditoriyaga chiqish – onlayn spektakllar va raqamli platformalar orqali teatr san’ati global auditoriyaga yetib borishi mumkin. Bu, o’z navbatida, yangi tomoshabinlarni jalb etishga yordam beradi.

- Ijodiy imkoniyatlar – raqamli texnologiyalar sahna dizaynini, musiqani va effektlarni yaratishda yangiliklar kiritadi. Bu san’atkorlarga o’z ijodlarini yanada boyitish va innovatsion yondashuvlar bilan amalga oshirish imkonini beradi.

- Ta’lim jarayonida qo’llanilishi – raqamli texnologiyalar teatr ta’limida muhim rol o’ynaydi. Talabalar uchun virtual sahnalar va interaktiv darslar yordamida san’atni o’rganish jarayoni qiziqarli va samarali bo’ladi.

- Tomoshabinlar bilan aloqani kuchaytirish – raqamli vositalar yordamida tomoshabinlar bilan muloqotni rivojlantirish mumkin. Masalan, ijtimoiy tarmoqlar orqali tomoshabinlar o’z fikrlarini ifoda etishlari va spektakllarga ta’sir ko’rsatishlari mumkin.

- Tez o’zgaruvchan muhitga moslashuv – raqamli texnologiyalar teatr san’atining tez o’zgaruvchan muhitida moslashuvchanlikni ta’minlaydi. Ijrochilar va tashkilotchilar zamonaviy tendensiyalar va tomoshabinlarning talablariga tezda javob bera olishadi.

- Resurslarni tejash – raqamli texnologiyalar orqali sahna dizayni va boshqa ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish mumkin. Bu, o’z navbatida, moliyaviy xarajatlarni kamaytirishga yordam beradi.

Umuman olganda, raqamli texnologiyalarning teatr san’atiga joriy etilishi nafaqat san’atni rivojlantiradi, balki tomoshabinlar bilan bog’lanishni kuchaytiradi va ijodiy jarayonlarni yangilaydi. Bu jarayonlar teatr san’atining kelajagini belgilovchi muhim omilga aylanishi mumkin.

Virtual voqelik, kengaytirilgan voqelik va interaktiv platformalar teatr tajribasini boyitish va kengaytirish imkoniyatlarini taqdim etadi. Ushbu texnologiyalar orqali tomoshabinlar teatr sahnasiga yangi nuqtayi nazardan qarash

imkoniyatiga ega bo'ladilar. Virtual voqelik texnologiyalari tomoshabinlarga sahnani to'liq immersiv tarzda tajriba qilish imkonini beradi. Masalan, tomoshabinlar virtual muhitda sahnadagi voqealar bilan bevosita aloqada bo'lishlari mumkin. Bu, ularni voqealarning bir qismi sifatida his qilishlariga yordam beradi. Shuningdek kengaytirilgan voqelik texnologiyalari sahnada ko'rsatilayotgan voqealarga qo'shimcha ma'lumot yoki grafikalar kiritish imkonini beradi. Bu, tomoshabinlarga voqealarni yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi va sahnani yanada qiziqarli qiladi [2].

Bundan tashqari interaktiv platformalar tomoshabinlarning sahnadagi voqealarga ta'sir ko'rsatish imkoniyatini beradi. Ular o'z fikrlarini bildirish yoki hatto voqealarni boshqarish uchun ovoz berishlari mumkin. Bu jarayon teatr tajribasini yanada jonli va esda qolarli qiladi.

Raqamli texnologiyalar yaratadigan yangi imkoniyatlar teatrda hikoya aytish usullarini o'zgartiradi. Rejissyorlar va ijrochilar yangi formatlarda hikoyalar yaratish orqali tomoshabinlarga noyob tajribalar taqdim etadilar. Raqamli texnologiyalar san'atkorlar o'rtasida kreativ hamkorlikni kuchaytiradi. Turli yo'nalishlardan kelgan mutaxassislar birgalikda ishlashib, yangi innovatsion loyihalarni yaratishda ishtirok etishlari mumkin.

Umuman olganda raqamli texnologiyalar teatr san'atining kelajagini yanada boyitadi va tomoshabinlar uchun unutilmas tajribalar yaratadi. Ularning joriy etilishi teatrni yanada global va interaktiv qiladi, bu esa san'atni yangi darajada rivojlantirishga yordam beradi.

Raqamli texnologiyalar san'atkorlarga yangi ijodiy imkoniyatlar taqdim etadi. Masalan, grafik dizayn, 3D model yaratish va video montaj kabi vositalar sahna ijodkorligida yangilik kiritishga yordam beradi.

Bu, san'atkorlarning ijodiy g'oyalarini amalga oshirishda samaradorligini oshiradi. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlar va raqamli platformalar orqali teatr tomoshabinlari bilan bevosita aloqada bo'lish imkoniyati yaratiladi. Bu, tomoshabinlarga o'z fikrlarini bildirish va spektaklga ta'sir ko'rsatish imkonini beradi [3].

Raqamli texnologiyalar teatr ta'limida inovatsion o'qitish usullarini joriy etishga yordam beradi. Masalan, virtual sahnalar va interaktiv darslar talabalar uchun qiziqarli va samarali ta'lim jarayonini ta'minlaydi. Talabalar raqamli platformalarda birgalikda ishlash imkoniyatiga ega bo'lishadi. Bu, o'zaro fikr almashish va ijodiy jarayonni rivojlantirishga yordam beradi. Onlayn resurslar, video darslar va raqamli kutubxonalar orqali talabalar teatr san'ati va uning tarixiga oid keng ma'lumotlarga ega bo'lishlari mumkin.

Kelajakda raqamli texnologiyalar yanada rivojlanib, teatr san'atiga yangi imkoniyatlar taqdim etadi. Misol uchun, tez suratlar bilan rivojlanib borayotgan sun'iy intellekt va avtomatlashtirish texnologiyalari teatr jarayonlarini takomillashtirishga yordam beradi.

Raqamli platformalar orqali teatr san'ati global auditoriyaga yetib borishi davom etadi. Bu, san'atkorlarga yangi imkoniyatlar va ijodiy yo'nalishlar ochadi. Raqamli texnologiyalar teatrning ekologik izlarini kamaytirish va iqtisodiy xarajatlarni optimallashtirish imkoniyati paydo bo'ladi. Bu, teatr san'atining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, raqamli texnologiyalar teatr san'ati va ta'lim jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Ular ijodiy jarayonlarni boyitib, tomoshabinlar bilan aloqani mustahkamlashda va yangi tajribalar yaratishda muhim o'rin tutadi. Teatr san'ati global auditoriyaga chiqib, interaktiv imkoniyatlar kengaygani sayin, san'atning yangi yo'nalishlarini ochmoqda.

Ta'limda esa, raqamli texnologiyalar innovatsion o'qitish metodlarini taqdim etib, talabalar uchun qiziqarli va samarali tajribalarni yaratadi. Kelajakda, raqamli texnologiyalar teatr san'ati va ta'limning ekologik va iqtisodiy barqarorligini ta'minlashga yordam beradi, shu bilan birga yangi imkoniyatlar yaratishda davom etadi.

Umuman olganda, raqamli texnologiyalar teatrni zamonaviy, interaktiv va qiziqarli qilishda muhim rol o'ynaydi va san'atning kelajakdagi rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Foydalangan adabiyotlar

1. Веллингтон, А. Т. "Театр новых форм": цифровые технологии в современном театре." Теория и история искусства 3-4 (2020): 217-224.
2. Махмудов, Т. Г. "Дополненная и виртуальная реальность в театре." Культурные тренды современной России: от национальных истоков к культурным инновациям. 2020.
3. Оньша, В. В. "Иллюзия: театр и виртуальная реальность." Теория и история искусства 3-4 (2019): 156-163.

TA'LIMDA SUN'IY INTELEKTNING O'RNI

Maqsuda Abdusattarovna Tillashayxova

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti "Axborot texnologiyalari" kafedrası dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada sun'iy intellektga asoslangan yangi yondashuvlar va vositalar ko'rib chiqiladi. Xususan, moslashuvchan ta'lim, bilimlarni baholashning aqlli tizimlari, virtual yordamchilar va suhbat-botlar, shuningdek, talabalarning o'quv yutuqlarini bashorat qilish uchun tahliliy ma'lumotlardan foydalanish tahlil etiladi. Bu texnologiyalarning ta'lim jarayoni sifatini oshirish, talabalar va o'qituvchilar o'rtasidagi muloqotni yaxshilash hamda yanada shaxsiylashtirilgan yondashuvni ta'minlash imkoniyatlariga alohida e'tibor qaratiladi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, moslashuvchan ta'lim jarayoni, interaktiv o'qitish jarayoni, ta'lim jarayonini tashkil etish, adaptiv ta'lim.

РОЛЬ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ОБРАЗОВАНИИ

Максуда Абдусаттаровна Тиллашайхова

*Государственный институт искусства и культуры
Узбекистана, Доцент кафедры «Информационные
технологии»*

Аннотация: В данной статье рассматриваются новые подходы и инструменты, основанные на искусственном интеллекте. В частности, анализируются адаптивное обучение, интеллектуальные системы оценки знаний,

виртуальные помощники и чат-боты, а также использование аналитических данных для прогнозирования учебных достижений студентов. Особое внимание уделяется возможностям этих технологий повысить качество образовательного процесса, улучшить коммуникацию между студентами и преподавателями и обеспечит более персонализированный подход.

Ключевые слова: искусственный интеллект, адаптивный образовательный процесс, интерактивный учебный процесс, организация образовательного процесса, адаптивное обучение.

ROLE OF ARTIFICIAL INTELLECT IN EDUCATION

Maksuda Abdusattarovna Tillashaykhova

State Institute of Art and Culture of Uzbekistan

Associate Professor of the Department of Information Technologies

Abstract: This article examines new approaches and tools based on artificial intelligence in education. Specifically, it analyzes adaptive learning, intelligent knowledge assessment systems, virtual assistants and chatbots, as well as the use of analytical data for predicting students' academic achievements. Special attention is given to the potential of these technologies to enhance the quality of the educational process, improve communication between students and teachers, and provide a more personalized approach.

Keywords: artificial intelligence, adaptive educational process, interactive learning process, organization of the educational process, adaptive learning.

Kirish. Sun'iy intellekt (SI) zamonaviy ta'limda, ayniqsa masofaviy ta'limning tez sur'atlar bilan rivojlanishi sharoitida, tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. COVID-19 pandemiyasi bu jarayonni sezilarli darajada tezlashtirdi va butun dunyo bo'ylab ta'lim muassasalarini kampuslarni cheklash va yopish sharoitida masofaviy ta'lim shakllariga o'tishga majbur qildi. Bu o'tish an'anaviy elektron masofaviy ta'limda ko'plab muammolarni,

jumladan, yetarli darajada shaxsiylashtirish yo'qligi, teskari aloqaning zarurligi va o'qituvchilarning yuqori ish yuklamasi kabi masalalarni yuzaga chiqardi. Shu bois, masofaviy ta'limni yanada moslashuvchan, qulay va samarali qila oladigan yangi texnologik yechimlarga ehtiyoj tug'ildi.

Sun'iy intellekt bu muammolarning ko'pini hal qila oladigan asosiy texnologiyalardan biridir. U nafaqat kundalik vazifalarni avtomatlashtirish, balki yanada shaxsiylashtirilgan, moslashuvchan va interaktiv ta'lim jarayonini o'z ichiga olgan yangi ta'lim usullari va yondashuvlarini yaratish imkoniyatiga egadir. Misol uchun, sun'iy intellekt yordamida har bir o'quvchi uchun shaxsiylashtirilgan elektron dasturlar yaratish, real vaqt rejimida intellektual qayta aloqani ta'minlash va talabalarning muvaffaqiyatini bashorat qilish uchun katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish mumkin [1].

Bundan tashqari, sun'iy intellekt o'qituvchilar uchun yangi imkoniyatlar yaratib, ularga o'quv jarayonining ijodiy va uslubiy tomonlariga ko'proq e'tibor qaratish imkonini beradi. Bu esa ularni sinov testlarini tekshirish, darslarni tashkillashtirish va talabalarning holatini tahlil qilish kabi kundalik vazifalardan ozod qiladi. Bularning barchasi sun'iy intellektni ta'lim tizimini tubdan o'zgartirishning qudratli vositasiga aylantiradi.

Asosiy qism. Sun'iy intellekt (SI) intellektual ta'limni rivojlantirishda, shu jumladan ilgari imkonsiz yoki juda cheklangan bo'lgan ta'lim jarayonini tashkil etish uchun yangi yechimlarni ishlab chiqishda muhim rol o'ynaydi. SI texnologiyalari talabalarni o'qitish uchun ta'lim muassasalari va onlayn platformalarni yanada samaraliroq va moslashuvchanroq tarzda yaratish, individual yondashuvlarni ta'minlash, kundalik vazifalarni avtomatlashtirish hamda o'zgaruvchanlikni tahlil qilish va bashorat qilish uchun aqlli vositalardan foydalanish imkonini beradi.

Masofaviy ta'limda sun'iy intellektni rivojlantirishning asosiy jihatlaridan biri ta'lim jarayonini individuallashtirish hisoblanadi. An'anaviy o'qitish usullari ko'pincha barcha talabalar uchun ularning xususiyatlari, ma'lumotlarni qabul qilish tezligi va qiziqishlaridan qat'i nazar, yagona yondashuvdan foydalanadi. Men

bu muammoni har bir o'quvchi haqidagi ma'lumotlarga asoslangan maqbul o'qitish usullaridan foydalangan holda hal qilaman.

SI texnologiyalari talabalarning platformadagi xatti-harakatlarini, ularning xususiyatlarini, afzalliklarini, o'qish uslubini va hatto ular eng samarali bo'lgan vaqt oraliqlarini tahlil qilishi mumkin. Ushbu tahlil tizimi asosida SI har bir o'quvchi uchun o'quv materiallarini va topshiriqlarni takomillashtirishi mumkin. Masalan, agar talaba ma'lum bir mavzuda past ko'rsatkich namoyish etsa, men ushbu materialni o'zlashtirish uchun qo'shimcha manbalarni, bilimlarni mustahkamlash uchun soddaroq vazifalarni yoki video va interaktiv topshiriqlar kabi ma'lumot berishning muqobil shakllarini taklif qilaman.

Ta'limni shaxsiylashtirish o'qitish jarayonini tezlashtirish imkonini ham beradi. Bilimdagi bo'shliqlardan unumli foydalaning. Bunday tizimga misol sifatida Knewton platformasini keltirish mumkin. U sun'iy intellektdan foydalanib, shaxsiylashtirilgan ilmiy yo'nalishlarni shakllantiradi. Tizim o'quvchining topshiriqlarni qay darajada bajarayotganini tahlil qiladi va shu asosda ilmiy materiallarning tuzilishi va mazmunini, shuningdek, eng dolzarb vazifalar va tasvirlarni belgilaydi.

Masofaviy ta'limda sun'iy intellektning afzalliklaridan biri - topshiriqlarni tekshirish, test o'tkazish, teskari aloqa berish va o'lchovlarni tahlil qilish kabi odatiy va ko'p mehnat talab qiladigan vazifalarni avtomatlashtirish imkoniyatidir. An'anaviy ta'limda o'qituvchilar uy vazifalarini va testlarni tekshirishga ko'p vaqt sarflaydilar, bu ayniqsa katta guruhlarda o'qitish jarayonida dolzarb masala hisoblanadi. Sun'iy intellekt testlarni va hatto murakkab yozma ishlarni avtomatik ravishda tekshirib, bu jarayonni sezilarli darajada qisqartirishi mumkin.

Misol uchun, tabiiy tilni qayta ishlashga asoslangan tekshiruv tizimlari yozma topshiriqlarning mazmunini, tuzilishini va hatto fikrlarning mantiqiy izchilligini tahlil qila oladi. Mashinali o'qitish algoritmlari ish sifatini baholash va aniq baho berishga o'rgatilgan. Grammarly va Turnitin kabi tizimlar o'qituvchilarga yozma ishlarni xatolar va ko'chirmachilikka tekshirishda yordam beradi, bu esa vaqtni tejaydi va sifatni baholashni yaxshilaydi.

Avtomatlashtirish vazifalarni bajarish muddatlarini eslatish yoki samaradorlik testlari natijalarini jo'natish kabi tashkiliy masalalarga ham taalluqlidir. Chat-botlar va virtual yordamchilar talabalarga tashkiliy masalalarni hal qilishda ko'maklashishi va 24 soatlik qo'llab-quvvatlashni ta'minlashi mumkin, bu esa o'quv platformasi bilan muloqot jarayonini sezilarli darajada osonlashtiradi.

Sun'iy intellekt o'qituvchilar va talabalarni qo'llab-quvvatlash vositalarini taqdim etishi mumkin. O'qituvchilar qo'shimcha yordamga muhtoj bo'lgan talabalari va mutaxassislarining rivojlanishini kuzatish uchun sun'iy intellektning tahliliy vositalaridan foydalanishlari mumkin. Masalan, sun'iy intellekt tizimlari talabalarining platformadagi faolligini, munozaralardagi ishtirokini, test va uy vazifalari natijalarini tahlil qilishi mumkin. Bu esa o'qituvchilarga o'qishda qiynalyotgan talabalarni o'z vaqtida aniqlash imkonini beradi.

собственно, и интересны мастер-классы по движению: возможностью совместной импровизации. Илья Рутберг (один из основателей школы современной пантомимы, автор многих учебников по актерской пластике) сам проводил запоминающиеся мастер-классы. Его выразительная, ни на кого не похожая, внешность, искрящееся остроумие и, конечно, высочайший профессионализм навсегда запечатлелись в памяти участников его мастер-классов. Он ввел в практику движенческих дисциплин очень меткое выражение – «*Плаституция*». Когда актер настолько увлекается своей способностью красиво двигаться, что забывает о смысле движения, его задаче. Бессмысленное движение становится некоей «торговлей своим телом на сцене». Мастер-класс обычно завершается коллективной импровизацией, где каждый участник может продемонстрировать полученные навыки и обменяться впечатлениями с другими. Это не просто уроки актерской пластики, а настоящая лаборатория движений, где рождается новое искусство, а каждый шаг становится выразительным штрихом в палитре современного творчества. Очень познавательными и полезными стали мастер – классы по сценическому движению педагогов ГИТИСа и ВГИКа Айдара Загитова и Роберта Елкибаева, проводившиеся в Государственном институте искусств и культуры Узбекистана. Интересное сочетание пластики и речи использовали в своих мастер-классах педагоги Санкт-Петербургской Академии сценических искусств Дмитрий Кашмин (сценическая речь) и Игорь Качаев (сценическое движение) для актеров Русского Академического Драматического Театра Узбекистана и Молодежного театра Узбекистана (Ташкент). Совершенно иной подход к движению показали педагоги из Английской театральной школы - Rose Bruford College (Лондон). Используя технику австралийского актера Матиаса Александера, (направленную на избавление от мышечной напряженности, которая негативно воздействует на здоровье), английские преподаватели раскрыли свои технологии по обучению актерскому

мастерству. «Матиас Александер открыл способ исцеления с помощью исправления осанки, разработал методику образовательного процесса, призванного распознавать и преодолевать реактивные, привычные ограничения в движении и мышлении» [3]. Все свои занятия педагоги по сценической речи, движению и актерскому мастерству начинают с использования упражнений, разработанных Матиасом Александером.

Философия любого мастер класса — это искусство соединения теории и практики, где каждый участник становится не просто слушателем, а активным соавтором процесса познания. В основе этой концепции лежит принцип взаимного обогащения: мастера делятся своими знаниями, а участники приносят уникальный опыт и идеи, создавая таким образом атмосферу творчества и вдохновения. В конце концов, философия такого класса - это стремление к постоянному самосовершенствованию, открытости к новому и готовности делиться своими открытиями с окружающими. Хотя мастер-классы могут быть очень полезными, у них есть и некоторые недостатки. В свое время Г. А. Товстоногов в статье «Организация творческого процесса в театре» писал: «В театральном искусстве вопросы творческие и организационные так взаимосвязаны, что, начиная разговор о творчестве, волей-неволей переходишь к организационным вопросам и наоборот» [4]. Обычно, мастер-классы проводятся в течение короткого времени, что может не позволить углубиться в тему и освоить материал на должном уровне. Участники могут иметь разные уровни подготовки и опыта, что может сделать обучение менее эффективным для некоторых. Кто-то может не успевать за темпом, в то время как другие могут чувствовать недостаток вызова. В больших группах не всегда есть возможность уделить внимание каждому участнику, что ограничивает возможность получения личностного подхода. Успех мастер-класса во многом зависит от навыков организатора. Как писал русский публицист и литературный критик, Д. Писарев: «В воспитании всё дело в том, кто воспитатель».

Если ведущий не способен эффективно передавать знания или взаимодействовать с участниками, это может снизить качество обучения. В некоторых случаях практическая часть может быть недостаточно глубокой или разнообразной, что ограничивает возможности применения полученных знаний. Но самая главная задача творческих занятий состоит все-таки в расширении интереса к изучению предмета, его специфических особенностей. «Скучные уроки годны лишь на то, чтобы внушить ненависть и к тем, кто их преподает, и ко всему преподаваемому» - Жан-Жак Руссо.

Используемая литература:

[1] - Мастер-класс: сущность и отличительные особенности. **О. А. Беляева**, декан факультета повышения квалификации и переподготовки кадров УО «Республиканский институт профессионального образования». http://ripob.by/assets/masterstvo_online/docs/1/belyaeva_metodikiitechobuch.pdf

[2] - Илья Григорьевич Рутберг. Пантомима. Опыты в мимодраме. 1977. С. 10. Издательство «Советская Россия»

[3] - Tehnika_Aleksandera. pdf С. 42. Уилфред Барлоу. Техника Александера. https://24centre.ru/uploads/files/Texts/Metodicheskie/Tehnika_Aleksandera.pdf

[4] - Товстоногов Г. А. Организация творческого процесса в театре // Экономика и организация театра. Вып. 3. Л., 1973. С. 26.

KO'ZI OJIZ KITOBXONLAR BILAN MULOQOT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH: TAJRIBA VA ISTIQBOLLAR

Abduganiyeva Zebiniso Melikovna

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

"Kutubxona-axborot faoliyati" kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqola ko'zi ojiz kitobxonlar bilan muloqot qilish madaniyatini o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, u ijtimoiy inklyuziyaning muhim tarkibiy qismi bo'lib, ko'rish qobiliyati zaif odamlar uchun teng va qulay muhitni shakllantirishga yordam beradi. O'zaro ta'sirning psixologik, axloqiy va amaliy jihatlari, jumladan, ko'zi ojiz o'quvchilarni idrok etishning o'ziga xos xususiyatlari, hurmatli muloqot va adaptiv texnologiyalardan foydalanish tamoyillari ko'rib chiqiladi.

Kutubxonalarning xorijiy va mahalliy tajribasi, innovatsion yechimlarni joriy etish, shuningdek, inklyuziv xizmatlarni rivojlantirish istiqbollari tahlil etishda kutubxona va kutubxonachilarning axborot va foydalanuvchilar o'rtasidagi vositachilik roliga alohida e'tibor qaratilmoqda. To'siqlarni bartaraf etish, axborot va madaniy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish uchun mutaxassislarni kasbiy tayyorlash, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish zarurligiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Kalit so'zlar: muloqot madaniyati, ko'zi ojiz kitobxonlar, kutubxona xizmatlari, inklyuziya, adaptiv texnologiyalar, muloqot etikasi, ijtimoiy integratsiya, psixologik jihatlar, o'quv dasturlari, taktil materiallar, audiokitoblar.

ФОРМИРОВАНИЕ КУЛЬТУРЫ ОБЩЕНИЯ СО СЛЕПЫМИ БИБЛИОТЕКАМИ: ОПЫТ И ПЕРСПЕКТИВЫ

Абдуганиева Зебинисо Меликовна

*Государственный институт искусства и культуры
Узбекистана, Преподаватель кафедры «Библиотечно-
информационная деятельность»*

Аннотация: Статья посвящена изучению культуры общения с незрячими читателями, которая является важным компонентом социальной инклюзии и способствует формированию равноправной и доступной среды для людей с нарушениями зрения. Рассматриваются психологические, этические и практические аспекты взаимодействия, включая особенности восприятия незрячих читателей, принципы уважительного общения и применение адаптивных технологий. Анализируются зарубежный и отечественный опыт работы библиотек, внедрение инновационных решений, а также перспективы развития инклюзивных услуг. Особое внимание уделено роли библиотек и библиотекарей как посредников между информацией и пользователями. Сделан акцент на необходимости профессиональной подготовки специалистов и использования современных технологий для

устранения барьеров и расширения доступа к информационным и культурным ресурсам.

Ключевые слова: культура общения, незрячие читатели, библиотечное обслуживание, инклюзия, адаптивные технологии, этика общения, социальная интеграция, психологические аспекты, образовательные программы, тактильные материалы, аудиокниги.

FORMATION OF A CULTURE OF COMMUNICATION WITH BLIND LIBRARIES: EXPERIENCE AND PROSPECTS

Abduganieva Zebiniso Melikovna

State Institute of Art and Culture of Uzbekistan

Lecturer at the Department of Library and Information Activities

Annotation: The article is devoted to the study of the culture of communication with visually impaired readers, which is an important component of social inclusion and contributes to the formation of an equal and accessible environment for people with visual impairments. The psychological, ethical and practical aspects of interaction are considered, including the peculiarities of perception of visually impaired readers, the principles of respectful communication and the use of adaptive technologies. The article analyzes foreign and domestic experience of libraries, the implementation of innovative solutions, as well as prospects for the development of inclusive services. Particular attention is paid to the role of libraries and librarians as intermediaries between information and users. Emphasis is placed on the need for professional training of specialists and the use of modern technologies to eliminate barriers and expand access to information and cultural resources.

Key words: communication culture, blind readers, library services, inclusion, adaptive technologies, communication ethics, social integration, psychological aspects, educational programs, tactile materials, audiobooks.

Muloqot inson faoliyatining asosiy elementi bo'lib, ijtimoiy, kasbiy va madaniy o'zaro munosabatlarning sifatini belgilaydi. Ko'zi ojiz odamlar bilan muloqot qilish muloqotning o'ziga xos jihati bo'lib, u nafaqat hamdardlik va hurmatni, balki psixologik, axloqiy va amaliy mulohazalarni chuqur anglashni ham talab qiladi.

Ko'zi ojiz kitobxonlar bilan muloqot qilish madaniyati ijtimoiy inklyuziyaning muhim qismi bo'lib, nogironlarning ijtimoiy hayotda teng ishtirok etishi uchun qulay va qulay muhitni shakllantirishga yordam beradi. Kutubxonalarning bilim va madaniy resurslardan foydalanish markazlari sifatidagi roli ortib borayotgan sharoitda muloqot madaniyatini shakllantirish masalalari alohida dolzarblik kasb etadi. Ko'zi ojiz kitobxonlar rivojlanishini qo'llab-quvvatlovchi, ularning axborotga bo'lgan ehtiyojlarini qondiradigan va ijtimoiy to'siqlarni yengib o'tishga yordam beradigan inklyuziv makonlarni yaratishda kutubxona mutaxassislari va ta'lim muassasalari muhim rol o'ynaydi.

Ko'zi ojiz o'quvchilarning yordami bilan bog'lanish jarayoniga qanday darajada ta'sir qiladi. Vizual idrok etishning harakat va teginish kabi boshqa hisy tizimlarining rivojlanishi bilan qoplanadi. Biroq, Sirdaryo viloyati AKMda o'tkazilgan tadqiqotda ta'kidlanganidek, ko'rish funksiyalarining yo'qolishi yoki buzilishi idrok jarayonlari va hissiy tajribaning shakllanishining sekinlashishiga olib keladi [7. 37-B]. Bu kutubxonachilardan axborot bilan ta'minlash va makonni tashkil qilishda alohida yondashuvni talab qiladi.

Ko'zi ojiz kitobxonlar bilan muloqot madaniyatini shakllantirishda axloqiy meyorlar asosiy rol o'ynaydi. To'g'ri atamalardan foydalanish va stereotiplar va tarafkashliklardan qochish inklyuziv muhitni yaratishga yordam beradi.

O'zbekiston Respublika markaziy ko'zi ojizlar maxsus kutubxonasi materiallarida ta'kidlanganidek, to'g'ri til insonning ijobiy qiyofasini shakllantirishga yordam beradi, nogironlar bilan muloqot qilish bo'yicha maxsus tavsiyalar esa aloqa o'rnatish va noqulaylikdan xalos bo'lishga yordam beradi [7. 38-B]. Bu har bir kitobxonga ogohlik va hurmat bilan munosabatda bo'lish muhimligini ta'kidlaydi.

Ko'zi ojiz kitobxonlar bilan ishlash uchun muloqot strategiyalari ularning ehtiyojlariga moslashtirilgan bo'lishi kerak. Eshitish idroki axborotni qabul qilishning asosiy kanaliga aylanadi, shuning uchun nutqning intonatsiyasi, tempi va ravshanligiga e'tibor berish muhimdir. Bundan tashqari, sensorli materiallar va audio kitoblardan foydalanish ma'lumotni yanada samarali idrok etishga yordam beradi.

Toshkent viloyati ko'zi ojizlar uchun maxsus kutubxonasida o'tkazilgan tadqiqotda ta'kidlanganidek, ko'zi ojizlar bilan olib borilayotgan ommaviy ishlarning mazmuni o'z mavzularida oddiy kitobxonlar bilan olib borilayotgan ommaviy ishlardan unchalik farq qilmaydi. ko'rlikni reabilitatsiya qilish va kompensatsiya qilish masalalari bo'yicha adabiyotlar o'ziga xosdir [8. 18-B].

Ko'zi ojiz kitobxonlar bilan muloqot madaniyatini shakllantirishda kutubxonalar va kutubxonachilarning rolini ortiqcha baholab bo'lmaydi. Ular axborot va foydalanuvchi o'rtasida vositachi bo'lib, bilim va madaniy qadriyatlarga kirishni ta'minlaydi. Ko'zi ojiz kitobxonlar bilan samarali muloqot qila oladigan mutaxassislarni tayyorlash nogironlik psixologiyasi asoslarini o'rgatish, adaptiv texnologiyalarni o'zlashtirish va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi.

Toshkent viloyati ko'zi ojizlar uchun maxsus kutubxonasida o'tkazilgan tadqiqotda ta'kidlanganidek, ko'zi ojizlar va zaif ko'ruvchilar uchun tadbirlar o'tkazishda ko'plab ish shakllari mavjud bo'lib, tanlangan shakllar tinglovchilarning yosh xususiyatlariga, ularning darajasiga mos kelishi muhim. tayyorlik va o'ziga xos shartlar [8. 35-B].

Ko'zi ojiz kitobxonlar bilan samarali muloqot qilish ularning noyob ehtiyojlariga moslashtirilgan maxsus muloqot strategiyalarini talab qiladi. Bunday strategiyalar ma'lumotni to'liq idrok etishni ta'minlash va kosmosda orientatsiyani osonlashtirishga qaratilgan og'zaki va texnik usullarni o'z ichiga oladi.

Ko'zi ojiz kitobxonlar bilan og'zaki muloqot jarayonida nutqning intonatsiyasi, tezligi va ritmiga alohida e'tibor berish kerak. Aniq artikulyatsiya va taqdimotning o'rtacha tezligi uzatilayotgan ma'lumotni yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Bundan tashqari, pauzalardan foydalanish tinglovchiga eshitilgan narsani tushunishga va kerak bo'lganda aniqlovchi savollar berishga imkon beradi. E. A. Shpomerning fikriga ko'ra, kommunikativ niyatlarning tegishli strategiya va taktikalar bilan o'zaro bog'liqligi nutqning buzilishini oldini oladi va samarali muloqotni ta'minlaydi [3. 57-B].

Zamonaviy texnologiyalar ko'r o'quvchilarni qo'llab-quvvatlash uchun keng ko'lamli vositalarni taqdim etadi. Audiokitoblar va podkastlar kabi audio formatlardan foydalanish adabiy asarlar va o'quv materiallaridan foydalanish imkonini beradi. Taktil materiallar, shu jumladan brayl kitoblari mustaqil o'qish imkoniyatini beradi.

Ixtisoslashgan ilovalar va gadjetlar kabi raqamli texnologiyalar ko'zi ojiz odamlarning axborot makoniga integratsiyalashuviga yordam beradi va ularning muloqot va moslashish imkoniyatlarini kengaytiradi [4. 117-B].

Ko'zi ojiz kitobxonlar bilan muloqotda bo'lganingizda, atrof-muhitning batafsil va to'g'ri tavsifini berish muhimdir. Bunga marshrutlarni tushuntirish, obektlar va ularning joylashuvini tavsiflash kiradi.

Bunday ta'riflar suhbatdoshning makonning aqliy vakilligini shakllantirishga yordam beradi, bu esa harakatda ishonch va mustaqillikka yordam beradi. Ko'zi ojizlarning intellektual faoliyatida muloqot qilishning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish bunday muloqotni optimal amalga oshirish uchun zarur shart-sharoitlar va vositalarni aniqlash imkonini beradi [5. 49-B].

Ko'zi ojiz kitobxonlar bilan muloqot jarayonida fikr-mulohazalar muhim rol o'ynaydi. Og'zaki tasdiqlash va aniqlovchi savollar orqali ifodalangan faol tinglash suhbatdoshga e'tibor va hurmatni namoyish etadi. Bu ishonchni mustahkamlashga yordam beradi va aloqa samaradorligini oshiradi. Tadqiqotda ta'kidlanganidek, moslashuv aloqaning kontekstli shartlari asosida yangilanadigan moslashuv sifatida kommunikativ niyatlarni amalga oshirish uchun shaxsning kommunikativ xatti-harakatlaridagi o'zgarishlarda namoyon bo'ladi [6. 78-B].

Turli mamlakatlarda ko'zi ojiz kitobxonlar bilan ishlash ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy xususiyatlar bilan belgilanadigan

noyob yondashuvlardan foydalanish bilan tavsiflanadi. Shvetsiya va Norvegiya kabi Skandinaviya mamlakatlarida kutubxonalarda inklyuziv xizmatlarni qo'llab-quvvatlovchi davlat dasturlarini ishlab chiqishga katta e'tibor qaratilgan.

Misol uchun, Shvetsiyada Milliy kutubxona ko'zi ojizlar uyushmasi bilan ko'rishda nuqsoni bo'lgan odamlar uchun ma'lumotlarga qulay foydalanish imkonini beruvchi audiokitoblar va raqamli platformalarni ishlab chiqishda hamkorlik qiladi. Germaniyada ko'zi ojizlar uchun nemis kutubxonasi (Deutsche Blinden-Bibliothek,) kabi ixtisoslashgan kutubxonalar mavjud bo'lib, ular ko'plab moslashtirilgan materiallar, jumladan Brayl alifbosidagi kitoblar va audio formatlarni taklif etadi.

O'zbekistonda va boshqa MDH davlatlarida ko'zi ojiz kitobxonlarga xizmat ko'rsatish usullarini joriy etish jadal rivojlanmoqda, biroq kadrlar va mablag' yetishmasligi kabi muayyan qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Shunga qaramay, Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasida ko'zi ojiz foydalanuvchilar uchun ixtisoslashtirilgan bo'lim tashkil etilgan bo'lib, unda audiokitoblar, sensorli materiallar va o'quv dasturlarini taklif etish mumkin.

Xorijiy mamlakatlar matn skanerlari va ovozli yordamchilar kabi yangi texnologiyalarni integratsiyalash orqali yuqori samaradorlikni namoyish etmoqda, bu ko'zi ojiz foydalanuvchilarga real vaqt rejimida axborotdan foydalanish imkonini bermoqda. Shu bilan birga, O'zbekiston va MDH davlatlarida ichki yondashuvlar ko'proq an'anaviy usullarga, masalan, Brayl alifbosidagi kitoblarni taqdim etishga tayanadi, bu muhim bo'lsa-da, har doim ham zamonaviy auditoriya talablariga javob bermaydi. Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, ilg'or iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar inklyuziv kutubxona xizmatlarini moliyalashtirishning barqaror modeliga ega, MDH mamlakatlarida esa sarmoya va xalqaro hamkorlikni jalb qilish uchun qo'shimcha harakatlar talab etiladi.

Xorijiy usullarning O'zbekistonda muvaffaqiyatli moslashuviga misol sifatida Skandinaviya mamlakatlari tajribasiga asoslangan raqamli kutubxona tizimlarini joriy qilish mumkin. Bu audio kolleksiyalarni yaratish va matnni o'zgartirishni qo'llab-

quvvatlaydigan texnologiyalardan foydalanishni o'z ichiga oladi. Biroq, madaniy va lingvistik xususiyatlarni hisobga olish muhim jihat bo'lib qolmoqda: materiallar tarjima qilinishi va o'zbek lingvistik va madaniy kontekstiga moslashtirilishi kerak.

Sun'iy intellekt va mashinani o'rganish kabi innovatsion texnologiyalarning integratsiyasi ko'zi ojiz foydalanuvchilar uchun qulay muhit yaratish uchun yangi imkoniyatlar ochadi. Ovozli yordamchilar, matndan audioga dasturlar va shaxsiylashtirilgan kutubxona kolleksiyalarini yaratish platformalari zamonaviy kutubxonalarning ajralmas qismiga aylanmoqda.

Muloqot madaniyatining muhim yo'nalishlaridan biri bu kutubxona mutaxassislari va keng jamoatchilik o'rtasida ta'lim-tarbiya ishlaridir. Treninglar, seminarlar va axborot kampaniyalarini tashkil etish ko'zi ojiz kitobxonlarning ehtiyojlarini tushunish va hurmat qilishga yordam beradi.

Masalan, AQShda kutubxonalar ko'zi ojiz foydalanuvchilar uchun xizmatlar haqida xabardorlikni oshirish uchun ochiq eshiklar kunini o'tkazadi. O'zbekistonda nogironlar uyushmalari bilan tajriba almashish va kadrlar tayyorlashga qaratilgan qo'shma loyihalarni tashkil etish istiqbolli yo'nalish bo'lishi mumkin.

Kelgusi yillarda ko'zi ojiz foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatishda texnologiyaning roli oshishi kutilmoqda. Istiqbolli sohalar qatoriga quyidagilar kiradi:

- Taktil qayta aloqa qurilmalari kabi ko'p sensorli texnologiyalarni joriy etish.
- Xalqaro ma'lumotlar bazalari bilan integratsiyani qo'llab-quvvatlovchi yanada qulayroq va qulay raqamli platformalarni ishlab chiqish.
- Ko'zi ojiz foydalanuvchilar bilan ishlaydigan kutubxonalar uchun tajriba va resurslar almashinuvi uchun xalqaro tarmoqlarni yaratish.

Bundan tashqari, ijtimoiy mas'uliyat madaniyatini shakllantirish va teng imkoniyatlarga qaratilgan tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash muhim yo'nalish bo'lib qolmoqda. Ta'lim, texnologik va jamoat tashabbuslarini birlashtirish ko'zi ojiz kitobxonlar bilan muloqotni yaxshilashda sezilarli yutuqlarga erishadi.

Ilmiy tadqiqotlar va amaliy tajriba shuni ko'rsatadiki, ko'zi ojiz kitobxonlar bilan muvaffaqiyatli muloqot qilish uchun professional bilim, hamdardlik va innovatsion yechimlarni amalga oshirishga tayyorlik talab etiladi. Taktil materiallar, audio formatlar va raqamli texnologiyalardan foydalanish xodimlarni o'qitish va ta'lim faoliyati bilan bir qatorda mavjud to'siqlarni bartaraf etish va madaniy va axborot resurslaridan foydalanish imkoniyatini oshirishi mumkin.

Muloqotning axloqiy komponentini rivojlantirishga alohida e'tibor berilishi kerak, bu hurmat, xushmuomalalik va to'g'ri lug'atdan foydalanishni o'z ichiga oladi.

Bu nafaqat ishonchli munosabatlarni o'rnatishga yordam beradi, balki nogironlarning ijtimoiy va madaniy hayotga integratsiyalashuviga yordam beradigan ijobiy ijtimoiy muhitni yaratadi.

Ko'zi ojiz kitobxonlar bilan muloqot madaniyatini rivojlantirish nafaqat kutubxona xizmatining vazifasi, balki ijtimoiy taraqqiyotning muhim elementi bo'lib, bu mutaxassislar, tadqiqotchilar va butun jamiyatning birgalikdagi say-harakatlarini talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Подготовка и проведение культурно-массовых мероприятий для читателей с нарушениями зрения. Псков: ПОУНБ, 2022. URL: <https://pskovlib.ru/doklady-soobshcheniya/materialy/11672> (дата обращения: 03.01.2025)
2. Этика общения с незрячими. Кызыл: ТПСБС, 2023. URL: <https://tiflokniga-tuva.ru/content/etika-obshcheniya-s-nezryachimi> (дата обращения: 24.12.2024)
3. Шпомер Е. А. Коммуникативные стратегии и тактики как фактор эффективной коммуникации // Вестник Томского государственного университета. 2018. № 29. С. 52–61. DOI: 10.17223/1998863X
4. Зубов А. И. Буд моими глазами: как новые технологии помогают слепым людям жить и работать. Социологический аспект // Научные труды Российской академии наук. 2021. № 4. С. 113–120
5. Иванова Н. С. Особенности коммуникации незрячих в их интеллектуальной деятельности // Известия вузов. Серия Гуманитарные науки. 2020. № 6. С. 45–52
6. Михайлова А. В. Способы осуществления коммуникативной адаптации // Вестник Санкт-Петербургского университета. 2019. № 14. С. 75–84
7. Егаи Л. Имконияти чекланган фойдаланувчилар учун ахборот-кутубхона хизматлари. ИНФОЛИБ, 2021, № 1. Б. 36–41.
8. Ашурметова Х. Тифлология. Ўқув қўлланма. Т. : А. Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти. 2025. 90-б.

MILLIY MUSIQIY MEROS AN'ANALARINI ASRASHDAGI PEDAGOGIK DOLZARB MASALALAR

Mansurova Nigoraxon Rustamjonovna
Farg'ona davlat universiteti Vokal va cholg'u ijrochiligi
kafedrasi katta o'qituvchisi
mail:nigoramansurova19@gmail.com +998974190015
 *ORCID ID 0000-0002-7898-1684*

Annotatsiya: Milliy kuy va qo'shiqlar, xalq musiqa ijrodiyoti, folklor san'ati, xalq ashula va qo'shiqlari, milliy mumtoz an'analar, bastakorlik ijodiyoti namunalari, mumtoz musiqa san'ati xususan maqom san'ati ijrochiligini o'qitish va ijro etish jarayonida bir qancha dolzarb vazifalar yuzaga kelmoqda. Mana shunday dolzarb muammolardan biri sozlar va ularga bo'lgan talab, ta'mirlash va amaliyotda keng joriy qilinishi musiqa ta'limini o'qitishdagi dolzarb masalalardan biri xisoblanadi. Mazkur maqolada masala yuzasidan muammolar ochiqdanib, unga yechim va tavsiyalar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Milliy musiqa san'ari, milliy mumtoz musiqa, maqom san'ati, milliy musiqiy meros, an'analar, qadriyatlar, musiqiy estetika, musiqiy did, musiqiy cholg'ular, sozlash va ta'mirlash.

АКТУАЛЬНЫЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ СОХРАНЕНИЯ ТРАДИЦИЙ НАЦИОНАЛЬНОГО МУЗЫКАЛЬНОГО НАСЛЕДИЯ

Мансурова Нигорахан Рустамжоновна
Кафедра вокально-инструментального исполнительства
Ферганского государственного университета, старший
преподаватель

Аннотация: Ряд актуальных задач возникает в процессе обучения и исполнения национальных мелодий и песен, фольклорного музыкального исполнительства, фольклорного искусства, народных песен и песен, национальных классических традиций, образцов композиторского

творчества, классической музыки, в частности искусства макома. Одной из таких актуальных проблем является востребованность текстов песен, их сохранение и повсеместное внедрение в практику, что считается одной из самых актуальных проблем в музыкальном образовании. В данной статье раскрываются проблемы, связанные с этой проблемой, предлагаются решения и даются рекомендации.

Ключевые слова: Национальное музыкальное искусство, национальная классическая музыка, искусство макома, национальное музыкальное наследие, традиции, ценности, музыкальная эстетика, музыкальные инструменты, настройка и ремонт.

CURRENT PEDAGOGICAL ISSUES IN PRESERVING THE TRADITIONS OF NATIONAL MUSICAL HERITAGE

Mansurova Nigorakhan Rustamjonovna

Department of Vocal and Instrumental Performance, Fergana State University, senior lecturer

Abstract: In the process of teaching and performing national melodies and songs, folk music performance, folklore art, folk songs and songs, national classical traditions, examples of compositional creativity, classical music art, in particular the art of maqom, a number of urgent tasks arise. One of such urgent problems is the need for words and their wide application in practice, which is one of the urgent issues in teaching music education. This article reveals the problems on this issue, provides solutions and recommendations.

Key words: National musical art, national classical music, maqom art, national musical heritage, traditions, values, musical aesthetics, musical instruments, tuning and repair.

Dunyoda har bir millatning milliy qadryatlari, mumtoz musiqasi xalqning yuksak hurmat e'tiborida bo'ladi. O'zbek xalqining mumtoz musiqasi ham necha ming yillardan beri asrab, avaylanib avlodlarga yetkazib kelinmoqda. Bugun yurtimizda

milliy musiqa, hususan, mumtoz musiqamizga bo'lgan e'tibor har doimgidan ham yuksak darajada desak mubolag'a bo'lmaydi.

Raqamli musiqa asosida milliy musiqiy merosni o'rganish pedagogikasi-ijtimoiy hayotimizga kirib kelgan raqamli texnologiyalar asosida shakllangan yangi konsepsiyadir. Bu jarayon bugungi kunda misli ko'rilmagan keng qo'llanilayotgan badiiy pedagogika va raqamli texnologiyalarning integratsiyalashuvi natijasida shakllandi.

Xukumatimiz rahbarining "O'zbek milliy Maqom san'atini yanada rivojlantiri chora tadbirlari to'g'risida"gi farmoni[1] mumtoz musiqamizga bo'lgan yuksak xurmat namunasidir. Amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida O'zbekistonda birinchi bor Qarshi shahrida "Xalqaro maqom anjumani"ning o'tkazilishi, har bir viloyatlarda "Maqom markazlari"ning tashkil etilishi ularning moddiy-texnika bazasini ta'minlash, shuningdek, ularning faoliyatlariga alohida e'tibor qaratilishi dolzarb masalalardan biridir.

Malakali kadrlar tayyorlash masalasi hozirgi kunda san'at sohasida muhim ahamiyat kasb etadi. San'at va madaniyat sohasida malakali mutaxassislar tayyorlashda musiqa va san'at maktablarining o'rni muhim hisoblanadi.

2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ham "Buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy-ma'naviy merosini keng targ'ib qilish maqsadida yurtimizdan yetishib chiqqan allomalar qalamiga mansub 100 ta asarning xalqchil tarjimasini amalga oshirish, ular asosida ilmiy va ommabop risolalar yaratish, milliy madaniyatni xalqaro darajada ommalashtirishga qaratilgan tadbirlarni hududlarda o'tkazishni joriy etish" hamda "O'zbek xalqi madaniyati va san'atini rivojlantirishga munosib hissa qo'shgan atoqli ijodkor ziyolilar yubileylarini munosib nishonlash, hayoti va faoliyatini keng targ'ib qilish, xotirasini abadiylashtirish"[2]ga alohida e'tibor qaratilgan. Bu asosda ko'plab tashkiliy islohotlarni amalga oshirish ham boshlab yuborildi. Shu nuqtai nazardan talabalarda musiqa ta'limiga oid bilimlarini rivojlantirish, ularning milliy musiqiy merosni asrashga doir bilimlarini oshirishning, bu boradagi

pedagogik jarayonga innovatsion usullarini joriy etishni taqozo etmoqda.

Raqamli san'at pedagogikasi - bu zamonaviy san'atning turlariga murojaat qilishga asoslangan badiiy ta'lim nazariyasi va amaliyoti bo'lib, uning mahsulotlari virtual muhitda kompyuter dasturi bilan interaktiv o'zaro ta'sirga asoslangan holda yaratilgan[3, B. 11].

Shuningdek, raqamli texnologiyarni tasniflashda uning xususiyatlarini ham inobatga olish zarur. Raqamli texnologiyalar ta'rifi barcha elektron vositalarni, avtomatik tizimlarni, texnologik qurilmalarni va ma'lumotlarni ishlab chiqaradigan yoki saqlaydigan resurslarni o'z ichiga oladi. Analog va raqamli texnologiyalarning farqi shundaki, analog texnologiyalarda ma'lumotlar ko'p amplitudali elektr ritmlariga aylanadi, raqamli texnologiyalarda esa ma'lumotlar ikki raqam, ya'ni 0 va 1 dan iborat tizimga aylantiriladi[4, B. 52-59].

Ta'limning texnik vositalarini quyidagi turlarga ajratish mumkin: axborot; aralash (kombinatsion); trenajor; bilimlarni nazorat qilish vositalari; audiovizual vositalar[5, B. 104].

Musiqqa ta'limini o'qitishda raqqmli texnologiyalarga o'tish va zamonaviy texnologiyalardan keng foydalanish bugungi kunda ta'lim va fan sohasidagi dolzarb muammolardan iborat.

Musiqani chuqur o'rgatish va uni o'zlashtirishda asosiy hisoblangan o'rta bo'g'in, ya'ni, kasb-hunar ta'limi tizimidagi yangi islohotlar natijasida o'quv tizimi 3 yillikdan 2 yillikga o'tkazilishi, o'quvchilarni shu sohada chuqur bilim olishida yetarli muddat emasligini ko'rsatmoqda, shuningdek, bolalar musiqa va san'at maktablaridagi mutaxassis kadrlar yetishmasligi natijasida kollej tizimiga o'quvchilarni qabul qilish jarayonida (An'anaviy cholg'ular ijrochisi mutaxassisligiga) "Chang", "Qonun", "Ud", "Nay", "Qo'shnay" kabi cholg'u sozlarida birmuncha muammolar yuzaga kelmoqda. Jumladan, o'quvchilarni har biri cholg'uga tanlov asosida qabul qilinadi. Shunga ko'ra iqtidori, ijrochilik mahorati, musiqiy bilimi va ijrosini hisobga olgan holda boshqa cholg'uda kelgan o'quvchilarni ushbu cholg'u sozlarini to'ldirish uchun tanlab olayapmiz. Bu o'quvchilarga yuqoridagi cholg'uni talab darajasida uning yetuk ijrochiligiga erishtirish jarayonida o'quv muddati

yetarli emasligi sezilmoqda. Masalaning yana bir tomoni, bolalar musiqa va san'at maktabi tizimida milliy musiqamizni o'rgatuvchi "An'anaviy ijrochilik" bo'limlari mavjud emasligi, yoki bor bo'lsa ham maxsus cholg'u mutaxassisligiga ega bo'lgan sifatli kadrlar bilan ta'minlanmaganligi aniqlanib, turli muammolarni yuzaga keltirmoqda.

Fan va innovatsiyalarni rivojlantirishda musiqa cholg'u sozlarini yasash texnologiyalari, musiqa o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida ilg'or yetakchi metodlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Yuqoridagi musiqa ta'limi o'qitishdagi yuzaga kelgan muammolarni hal etishda zamonaviy ta'lim texnologiyalarini qo'llash muhim vazifalar xisoblanadi.

Cholg'u sozlarini yasash va ularni ta'mirlash masalasi ham bugungi kunda o'ta dolzarbdir. Cholg'u sozining mustahkam va sifatli, talablarga mos ravishda bo'lishi ijro etilayotgan asarlarning saviyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ustalarimiz tomonidan yasalayotgan cholg'u sozlarining ko'pchiligi talabga mos kelmasligi natijasida bolalar musiqa va san'at maktablari hisobiga yangi keltirilgan cholg'u sozlari ham talab darajasida emas. Chunki, cholg'u yasayotgan ustalarning ba'zilari o'zlari yasayotgan cholg'u sozlarini ijro etmaydilar, ijro etishni bilmaydilar. Shu sababli cholg'u sozlarni o'lchamlaridagi kamchiliklari, ijrochilikdagi katta tafovutni keltirib chiqaryapti. Misol uchun: An'anaviy ijrochilikka xos qilib yasalayotgan "G'ijjak" cholg'usini oladigan bo'lsak, Toshkentda yasalayotgan g'ijjaklar dastasi 33 sm, Andijonda 30 sm, Qo'qonda yoki boshqa vohalarda yasalayotgan g'ijjakning dastasi 32 sm yoki yana boshqacha o'lchamlarda uchratishimiz mumkin. Biz cholg'uning kosaxonasini nazarda tutmayapmiz. Qadimdan g'ijjakning kosaxonasi turlicha yasalgan, lekin dasta bir xil bo'lgan. Cholg'u ijrochiligida asosan kuy, asar dasta bilan bog'liq. Kosaxona ovoz chiqarishga mo'ljallangan xolos. Shu sababli ustalarimizdan kosaxona masalasida e'tirozlarimiz yo'q. Dastaga kelsak, ustalarimiz turlicha o'lcham va shaklga keltirib qo'ymoqdalar. Milliy ijrochiligimizdagi asarlar milliy bezak va nola qochirimlarga boy uni to'liq ko'rsatishda mohir ijrochi bilan bir qatorda cholg'uning dastasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Agar cholg'u

sozi sifatli va yaxshi holatda bo'lsa, o'quvchi ham uni maroq bilan ijro etadi. Bu birgina g'ijjak sozida emas, boshqa sozlarimizda ham ko'plab uchraydi.

- Yuqorida keltirgan muammolarni yechimi topish uchun quyidagi tavsiyalarni berishni ma'qul ko'rdik: Kadrlar tayyorlash va ularni malakasini oshirish tizimini tubdan isloh qilish;

- Musiqa va san'at maktablari tizimidagi kadrlarni tayyorlashdagi o'rta bo'g'in hisoblangan ta'lim tizimidagi o'quv muddatini qayta ko'rib chiqish;

- Ta'lim jarayonida mutaxassislik fanlaridagi o'quv soatlarini ko'paytirish;

- Cholg'u sozi yasash tizimini tubdan isloh qilish;

- Cholg'u sozlarini yasashga mo'ljallangan markazlashgan fabrikasini tashkil etish va ularga mohir ustalarni jalb etish;

- Musiqa va san'at sohasidagi ta'lim berish muassasalaridagi bo'limlar qatoriga cholg'u yasash va ularni ta'mirlash bo'yicha ustalarni tayyorlash, ularni jamiyatga yetkazib berishni ta'minlash va tashkillashtirish masalalari shular jumlasidandir.

Xulosa o'rnida aytish lozimki, talabalarda milliy musiqiy merosni asrashda musiqiy asarning ichki intonatsion xususiyatini his eta olishga turtki bo'luvchi metod va texnologiyalarni qo'llanishi zamon talabi bo'lib qolmoqda. Albatta talabalarning shaxsiy iqtidor va qobiliyatlarini, asar tanlash va ularni amaliy ijro etish, eshitish va tinglash kabi xususiyatlarini inobatga olinadi. Bunda xususiy texnologiya darajasidagi pedagogik texnologiyalar musiqiy ta'lim prinsiplari talablariga mos keladi va ular talaba-yoshlarda maqsadga yo'naltirilgan ijodiy musiqiy tafakkurni jadal rivojlantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro'yhati (references)

1. Президент Шавкат Мирзиёевнинг 2017 йил 17 ноябрдаги “Ўзбек миллий Мақом санъатини янада ривожлантири чора тadbirlari tўғрисида”ги Фармони.

2. Ўзбекистон Республикаси Президенти 2022 йил 28 январь «2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сон Фармни. // <https://lex.uz/docs/5841063>.

3. Nimkulrat, N. , Niedderer, K. , & Evans, M. A. (2015). On Understanding Expertise, Connoisseurship, and Experiential Knowledge in Professional Practice. Journal of Research Practice, P 11(2).

4. Mansurova N. R. Zamonaviy oliy ta'limda musiqaiy aksiologik yondashuvdan foydalanishning pedagogik asoslar // FarDU. Ilmiy xabarlar. – 2024. - № 3. B-52-59.

5. Xodjayev B. X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. "Sano-standart" nashriyoti. T. : -2017. B-104.

RAQS SAN'ATINING YOSH AKTYOR KAMOLOTIDAGI O'RNI

Abdixamidov Akmaljon Axmadjonovich

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Farg'ona mintaqaviy filiali "Sahna nutqi va san'atshunoslik" kafedra katta o'qituvchisi
abdixamidovakmaljon@gmail.com, 91 677-53-80*

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqs san'atini jamiyat taraqqiyoti va yosh aktyorlar kamol topishidagi o'rni, milliy raqslarga bo'lgan qiziqish va yoshlar ongiga milliy raqslarni ta'siri bayon etilgan.

Kalit so'zlar: raqs, teatr, aktyor, milliy raqs, baletmeyster.

РОЛЬ ИСКУССТВА ТАНЦА В РАЗВИТИИ МОЛОДОГО АКТЁРА

Абдихамидов Акмалжон Ахмаджонович

*Ферганский региональный филиал Государственного института искусства и культуры Узбекистана
Старший преподаватель кафедры «Сценическая речь и искусствоведение»*

Аннотация: В этой статье описывается роль танцевального искусства в развитии общества и взрослении молодых актёров, интерес к национальным танцам и влияние национальных танцев на умы молодёжи.

Ключевые слова: танец, театр, актёр, национальный танец, балетмейстер.

THE ROLE OF THE ART OF DANCE IN THE DEVELOPMENT OF A YOUNG ACTOR

Abdikhamidov Akmalzhon Akhmadzhonovich

Abstract: This article describes the role of dance art in the development of society and the maturation of young actors, the interest in national dances and the influence of national dances on the minds of young people.

Keywords: dance, theatre, actor, national dance, choreographer.

Jamiyatimiz taraqqiyotida ma'naviy va jismoniy sog'lom avlodni har tamonloma yetuk barkamol qilib tarbiyalashda, bugungi kunda bizning oldimizdagi eng ustuvor vazifalarimizdan biri sanaladi. Sababi yoshlarning bugungi kundagi olgan ta'lim-tarbiyasi nafaqat o'zlari uchun balki yurtimiz taraqqiyoti uchun eng muhim poydevordir. Raqs san'atining yosh aktyor kamolotidagi o'rni beqiyos bo'lib, aktyorning barcha jabhalardagi rivojlanishlarining bosqichma-bosqich o'sishida muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Farmonida elektron hukumat tizimini takomillashtirish, dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalarining mahalliy bozorini yanada rivojlantirish, respublikaning barcha hududlarida IT parklarni tashkil etish, shuningdek, sohani malakali kadrlar bilan ta'minlash, ixtisoslashtirilgan oliy o'quv yurtlari va raqamli texnologiyalarni o'qitish markazlari negizida davlat organlari va tashkilotlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining mas'ul rahbarlarini o'qitish va malakasini oshirishni tashkil etish kabi dolzarb vazifalar belgilangan [1].

Shu nuqtai-nazardan, mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarida yetuk mutaxassis kadrlar tayyorlash, ta'lim samaradorligini oshirish, ta'limning yuqori sifat darajasida o'quv mashg'ulotlarini o'tishni ta'minlash, mustaqil ta'lim olish va o'z-o'zini mustaqil nazorat qilish imkonini yuzaga keltirish, bilim oluvchilarning ijodiy

qobiliyatlarini rivojlantirish, axborotni mustaqil o'rganishning turli uslublarini qo'llash, o'quv materiallarni o'rganish vaqtini tejash, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llagan holda ta'limni boshqarishni avtomatlashtirish va har tomonlama tahlil qilib borish tizimini yaratish, elektron resurslar va masofaviy ta'limni yanada rivojlantirish, ta'lim oluvchilar o'rtasida IT-sohasidagi kasblarni ommalashtirish kabi bir qator mas'uliyatli vazifalarni amalga oshirishda innovatsiya va axborot texnologiyalaridan keng ko'lamda foydalanilmoqda.

Jahonning ko'pgina mamlakatlari kabi yurtimizda ham san'at va madaniyat sohasida, xususan teatr aktyorlarini oliy ta'lim muassasalarida o'qitishda axborot texnologiyalaridan keng qamrovli foydalanib, yosh aktyorga raqs san'atidan tarbiya berish ishlari umumdavlat ahamiyatga ega bo'lib, shaxsni shakllantirishning muhim vositasi hisoblanadi. Mustaqilligimiz tufayli ko'p asrlik milliy qadriyatlarimizni o'rganish va ulardagi sara fikrlarni yoshlarning ma'naviy-ma'rifiy tarbiyasi yo'nalishiga singdirish imkoniyati tug'ildi. Har bir mamlakatning raqs san'ati shu xalqning ko'zgusidir. Xalqning, xulq atvori milliy urf odati, yashash tarzi, libosi, madaniyati raqs orqali ifodalanadi. Har bir millat va elatlarni birlashtiradigan an'analarimizni mustahkamlaydigan, har qanday ko'ngilni o'ziga rom eta oladigan, insonlarni qalbiga ezgulik urug'ini eka oladigan shubhasiz raqs san'atidir.

Xalqimiz hayotida raqs azaldan beqiyos o'rin tutib keladi. Raqs san'ati yosh aktyorning ongi, tuyg'ulari va e'tiqodini shakllantirishda muhim va ta'sirli kuchga ega. Zamonaviy aktyorning maqsadi - ong va qalb uyg'unligidir. Bu maqsadga erishishda aktyorlik yo'nalishdagi talabalarning raqsga, umuman olganda san'at soxasiga bo'lgan tarbiyasini to'g'ri yo'lga qo'yish asosiy vazifa deb qaralishi kerak. Zamonaviy pedagogika bolalarni estetik tarbiyalash va nafosat olamiga olib kirishga xizmat qiladi. Bu borada talaba-yoshlarni qiziqishi bo'lmaganlarni ham qiziqtirish uchun o'quv jarayoniga ijodiy yondoshish talab etiladi. Bu maqsadga erishmoq uchun madaniyat va san'at oliy ta'lim maskanlarida talabalar bilan yakka va jamoaviy mashg'ulot shakli mavjud. Yakka darslarda o'qituvchi bitta talabaga e'tiborni berib,

uning shaxsiy hislatlarini chuqurroq o'rganib, qobiliyati va professional ko'nikmalarini rivojlantirib, dars mashg'ulotlarini olib borish imkoniyatga ega. Jamoaviy darslarda talabalarni hamkorlikda ishlab, o'z shaxsiy faoliyatini umumiy maqsadga yo'naltirilib, do'stlik, hamkorlik, ijodiy muxit yaratish kabilar shakllantiriladi.

Jamiyatimizda madaniyat va san'at rivoji o'ziga xos yo'nalishlarda kechmoqda. Bu borada ayniqsa raqs san'ati muhim bir rivojlanish bosqichiga kirib, u odamlarning ma'naviy va madaniy onggi o'sishiga xizmat qilmoqda. Yurtimizning eng qadimgi shaharlari (Samarqand, Shahrisab, Buxoro, Xorazm, Qo'qon, Marg'ilon) da o'tkaziladigan xalqaro festivallarida xoreografiya san'ati yetakchi o'rinlarni egallamoqda. Ularning doirasida ilmiy konferentsiyalar bo'lib o'tmoqda va 40 dan ortiq nufuzli olimlar ishtirok etib kelmoqdalar. Ular o'z ma'ruzalarida musiqa, maqom, raqs san'atini nafaqat nazariy, balkim amaliy masalalarini ham ko'rib chiqishmoqda. Eng dolzarb masalalaridan biri bolalarni va yoshlarni ilk davrdan boshlab ushbu san'at turlariga qiziqtirish va hayotlarini san'ati bilan chambarchas bog'lash. Afsuski, hozirgi vaqtda farzandlarimiz zamonaviy yengil yelpi musiqalar, qo'shiqlarni tinglab, ko'cha stilidagi raqslarni ijro etib, o'z dunyo qarashlariga zarar yetkazmoqdalar.

Mustaqillik va yurtboshimiz ishonchi tufayli milliy san'atimiz o'zining azaliy manbalaridan kuch olib, milliy ruhiyatni, ma'naviy kamolotni shakllantirishga xizmat qila boshladi, zamonaviy janrlar bilan boyigan holda xalqimizni yangi jamiyat qurishga ruhlantirmoqda. Yosh avlodni to'g'ri yo'lda tarbiyalash, ma'naviy-madaniy onggini rivojlantirish maqsadida O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining Farg'ona mintaqaviy filiali professor-o'qituvchilari va talabalri san'at maktablari va san'at va madaniyat maskanlarida milliy maqom, qo'shiq, kuy va raqslar ijroetib, o'zlarining konsert dasturlari bilan ishtirok etib kelmoqda. Bu ham bolalarni san'atga bo'lgan muhabbatini uyg'otadi.

"Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" da, - "Umumiy hamda pedagogik madaniyatni oshirish maqsadida mamlakat aholisi orasidagi ma'rifiy ishlar takomillashtirilib boriladi"[2]. O'zbek milliy raqs san'ati xalqimizning ma'naviy madaniy an'alaridan

bo'lib, u el-yurt orasidagi urf-odatlar va boshqa qadriyatlarimiz bilan chambarchas, hamjihat holda rivoj topib kelmoqda. Istiqlol munosabati bilan milliy raqs san'atimizda katta o'zgarishlar yuz berdi. Xususan, xalqimizning barcha bayramlari uning asrlar osha qon-qoniga singib ketgan an'analarini targ'ib qiluvchi asarlarni joriy qilishga keng yo'l ochib berdi, har bir hudud va har bir millat o'z urf-odatlariga mos va shu hududgagina mansub bo'lgan raqslarni ijro etishlariga e'tibor qaratildi.

Raqs shunday vositaki, u yosh aktyorlar tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi, inson ruhiy olamiga bevosita ta'sir ko'rsatadi, dunyoqarashini shakllantiradi. Ayni chog'da u teatr aktyorining ma'naviy ehtiyojlarini qondiradi, his-tuyg'ularini boyitadi. Aktyor hayotida raqsning hamisha o'z o'rni, o'z vazifasi mavjud – u ermak uchun yaratilmagan: raqs aktyorlarni yashashga, kurashga chorlagan, mehnatga, muhabbatga ruhlantirgan, dardu qayg'usiga malham, baxtu quvonchiga sherik bo'lgan. Raqs xalq orzu-armonlarining ifodasi, xalq ruhiyatining ko'zgusi hisoblanishi shundan. Insonning go'zallik tuyg'usini taraqqiy ettirmay turib, ma'naviy barkamol inson haqida gapirib bo'lmaydi. Inson o'zini qurshab turgan tashqi olamda, o'zi yashayotgan jamiyatda, o'zi bilan muloqotda bo'layotgan kishilarda tarixan shakllangan va muayyan davrda amal qilinayotgan badiiy ijod namunalarida mujassamlashgan go'zallikni his qila olmas ekan, hech qachon ma'naviy barkamol inson darajasiga ko'tarila olmaydi. Raqs ana shu nozik tuyg'ularni shakllantirish, tarbiyalashning qudratli vositalaridan biridir. Yosh aktyorni kamol toptirishda raqs san'atining o'rni va ahamiyatini ochib berish: birinchidan, inson va uning mohiyati masalasini, ikkinchidan, ma'rifatlilik ko'lamini, uchinchidan, ma'naviy kamolotda raqs san'atining imkoniyatlarini aniqlash demakdir. Ma'naviy barkamol aktyorni shakllantirishda raqsning ahamiyati haqida shuni ta'kidlash joizki, raqs insonlarda go'zallik, ulug'vorlik, ko'tarinkilik, singari tuyg'ularni uyg'otuvchi xususiyatlari mavjud va xuddi mana shu jihatlari orqali inson ma'naviyatga ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, raqs insonning umuman hayotga bo'lgan estetik munosabatlarini kuchaytiradi va noziklashtiradi, ayniqsa, yoshlarning iste'dodini ro'yobga

chiqarish, axloqan poklanish, hayotga moslashish, biror kasb-hunar egasi sifatida ijtimoiy faollashishiga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, hozirgi madaniyatimizning muhim omillaridan biri raqs merosini o'zlashtirish, baletmeysterlarning yaratgan zamonaviy asarlarini va ularning rivojlanish istiqbolini chuqur tushunishdan iboratdir. Bugungi aktyordan raqsni nozik tushunish, ijro etilayotgan asarning mazmuni, shakli, harakterini bilish hamda ijroda yuqori badiiy saviyaga yetkazish, baletmeyster niyatiga chuqur kirib borish singarilar talab etiladi. Bularning barchasi muayyan darajada ijrochilik uslublarining o'ziga xosligini o'zlashtirish va ijrochilik mahorati, ko'nikmalarini texnik jihatdan doimo takomillashtirib borish bilan bog'liqdir. Har bir aktyorda zamonaviy ijrochilik madaniyatini egallash, uni yangi darajaga ko'tarish uchun xalq raqslari, mustaqil hamdo'stlik davlatlar va jahon baletmeysterlarining ijodidagi nodir asarlar namunalarini o'zlashtirish hisobiga o'z ijrochilik dasturlarini doimo kengaytirib borishlari lozim. Bu uchun biz yoshlarni internet tarmoqlarida to'g'ri foydalanishga o'rgatishimiz kerak, shunda biz orzu qilgan natijaga erishamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Toshpo'lat Tursunov, XX asr O'zbek teatri tarixi: Darslik-monografiya. Toshkent, 2009.
2. Sodiqova T. "Ma'naviyat – millat beshigi" T. , "O'qituvchi" nashriyoti, 2007 yil.
3. Abdixamidov Akmaljon, "O'zbekistonda milliy raqs teatrining rivojlanishi" (Yulduz Ismatova timsolida). Monografiya. "ART PRESS" nashriyoti, Qo'qon-2024.
4. G. Tursunova. Raqs. O'quv qo'llanma 2021.
5. Dosmetova R. A. , Abraykulova N. E. Raqs. – T. : Barkamol fayz media nashriyoti, 2017.

ОСОБЕННОСТИ РАБОТЫ КОНЦЕРТМЕЙСТЕРА В ХОРЕОГРАФИЧЕСКИХ ШКОЛАХ

Талхатова Дано

*Студентка 2 курса направления «Профессиональное
образование» Государственной академии хореографии
Узбекистана*

*Научный руководитель: Профессор Тохтасимов Шухрат
Махматович.*

Аннотация: В данной статье рассматриваются проблемы концертмейстеров в хореографических школах, которые, сталкиваются с рядом профессиональных трудностей, связанных как с организацией работы, так и с творческими аспектами. А также нехватка квалифицированных специалистов и низкий уровень оплаты труда, что снижает привлекательность профессии.

Ключевые слова: балет, искусство, музыка, пианист-аккомпаниатор, концертмейстер, хореограф, композитор, репертуар.

XOREOGRAFIYA MAKTABLARIDA JO'RNAVOZ ISHINING XUSUSIYATLARI

Talxatova Dano

O'zbekiston Davlat xoreografiya akademiyasi

"Kasbiy ta'lim" yo'nalishi 2-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: professor To'xtasimov Shuhrat Maxmutovich

Annotatsiya: Ushbu maqolada xoreografiya maktablaridagi hamrohlik ijrochilarining mehnatni tashkil etish va ijodiy jihatlari bilan bog'liq bir qator kasbiy qiyinchiliklarga duch kelayotgan muammolari, shuningdek, malakali mutaxassislarning etishmasligi va kasbning jozibadorligini pasaytiradigan past ish haqi ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Balet, san'at, musiqa, pianinochi-jo'rnavoz, qo'shiqchi, xoreograf, bastakor, repertuar.

FEATURES OF THE WORK OF AN ACCOMPATOR IN CHOREOGRAPHIC SCHOOLS

Talkhatova Dano

2nd year student of the "Professional Education" direction at the

State Academy of Choreography of Uzbekistan

Scientific supervisor: Professor Tokhtasimov Shukhrat

Makhmutovich

Annotation:: This article examines the problems of accompanists in choreographic schools, who face a number of professional difficulties related to both the organization of work and creative aspects. As well as a shortage of qualified specialists and low wages, which reduces the attractiveness of the profession.

Key words: Ballet, art, music, pianist-accompanist, concertmaster choreographer, composer, repertoire.

Концертмейстерское искусство занимает важное место в музыкальном исполнительстве, являясь неотъемлемой частью как сольных, так и ансамблевых выступлений. Концертмейстер — это не просто аккомпаниатор, а полноценный партнер солиста, оркестра или хора, который помогает раскрыть художественный замысел произведения, создавая гармоничную звуковую картину.

Работа концертмейстера в хореографическом классе действительно имеет свою уникальную специфику, которая отличается от работы с другими жанрами, например, с оркестром или в классах музыкальных школ. В балетном классе пианист часто сталкивается с незнакомой для него терминологией, а также с особой структурой урока, который отличается от традиционных музыкальных занятий.

Балетные классы имеют чёткую организацию: разминка, упражнения на станке, работа с различными темпами и ритмами, которые требуют от концертмейстера гибкости, умения следить за динамикой движения, чувствовать моменты пауз и акцентов. Пианисту важно понимать, как взаимодействовать с хореографом и балеринами, поддерживая их, создавая нужную атмосферу и подходя к каждому движению с учётом специфики балетных упражнений.

Балетный аккомпанемент также требует знания определённых темпов для разных частей урока, понимания, как выражать через музыку различные эмоции, движения и стили, а также как быстро адаптироваться к изменениям в уроке, ведь хореограф может в любой момент попросить

ускорить или замедлить темп в зависимости от потребностей класса.

sohasi bo'yicha yuqori saviyaga ega malakali kadrlar tayyorlash zaruriyatini yuzaga keltirdi. Ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalarni rivojlantirish bugungi kunda kasbiy ta'limda yetakchi bo'lib, bu tahsil oluvchi barcha yoshlarni malakali kadr sifatida tarbiyalashga katta yordam beradi. Shu sababli, ayni vaqtda ushbu terminlar ta'lim tizimida ham o'z o'rniga ega. Shuni aytish joizki, o'quv jarayoniga raqamli va innovatsion texnologiyalarning kirib kelishi dars sifatini yanada oshirishga hamda internet tarmog'i orqali eng yangi sara ma'lumotlarni topishga zamin yaratmoqda. O'zimizga to'xtaladigan bo'lsak, oliy ta'lim muassasasalari talabalarini kasbga bo'lgan ma'lumot va qiziqishini yanada oshirishga xizmat qilib kelmoqda. Shu sababli ham jamiyatda raqamli texnologiyalarning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Ta'limning texnologik yaxshilanishi biz – talabalar hayotini osonlashtirdi. Bugungi kunda qalam va qog'ozdan foydalanish o'rniga taqdimotlar va loyihalarni yaratish uchun turli xil dasturiy ta'minot va vositalardan foydalanib, bir qancha soha uchun foyda keltiruvchi start-up loyihalarni ham tayyorlab, amalda qo'llanilyapti. O'zimizga kerakli bo'lgan ma'lumotlarni gadjetlari orqali bevosita internet tarmog'idan ko'rib yoki bir vaqtni o'zida ikkita va undan ortiq oliy o'quv yurtlarida ta'lim olish imkoniyati yaratilyapti. Ta'lim jarayonida nafaqat talaba yoshlarni, balki barcha tahsil oluvchilarning bilim darajasini yuqori sifatga olib chiqish uchun noan'anaviy shakldan foydalanishga to'g'ri kelyapti. Sababi aynan noan'anaviy o'qitish tizimida raqamli va innovatsion texnologiyalar bilan ta'lim oluvchi berilayotgan yangi bilimlarni tez va tushunarli qabul qilyapti. Global miqyosda gapiradigan bo'lsak, ta'lim sohasida ko'plab o'zgarishlar ro'y bermoqda. Interfaol texnologiyalar ilgari o'qituvchilar tomonidan o'quv faoliyatida o'qitish usuli sifatida faol foydalanilgan. Endilikda innovatsion raqamli va axborot texnologiyalari ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari uchun katta imkoniyatlar ochmoqda. Axborot texnologiyalari va ta'limning uyg'unligi inson uchun ko'plab muhim muammolarni hal qilish imkoniyatini ochib beradi. Ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish bo'yicha quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

- Raqamli iqtisodiyot uchun yuqori malakali muhandis-texnik kadrlar tayyorlash tizimini tashkil etish;

- Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ta'lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini ta'minlash, bu borada pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirib borish uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish;

- Ta'lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta'lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, "blended learning", "flipped classroom" texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etish;

Yuqoridagi tushunchalarga ta'rif berib ketadigan bo'lsak, "blended learning" atamasi Deklan Bern ta'riflaganidek: "Ushbu ta'lim turi boy pedagogic tajribadan samarali foydalanishga qaratilgan. Bunday yondashuv axborotni turli uslubiyotlardan foydalangan holda axborotni yetkazib berishdan iborat. Ushbu yondashuvning afzallik tomonlariga keladigan bo'lsak, onlayn usulda o'quvchi istagan manbasidan foydalanishi, onlayn kutubxonalar tashkil etilishi, kam xarajat qilgan holda yuqori samaraga erishishni ko'zda tutish mumkin. Bu esa tahsil oluvchilarni kelayotgan yangi axborotlarni qabul qilishda charchatmaydi, balki o'qishga bo'lgan motivlarini oshiradi. Ikkinchi terminga ya'ni "flipped classroom"ga to'xtaladigan bo'lsak, an'anaviy hamda masofaviy ta'limni o'z ichiga olgan atama to'g'ridan to'g'ri tarjima qilinsa teskari sinf texnologiyasini anglatadi. Ushbu texnologiya TOP-1000 reytingdagi universitetlar tomonidan foydalanib, yuqori natijalarni ko'rsatib kelmoqda. Bunda talabalar darslarni qiziqish bilan, darsdan keying uy vazifalarini vijdonan bajarishlari hamda muhokama va munozaralarda faol ishtiroki kuzatilgan.

- Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida masofaviy ta'lim dasturlarini tashkil etish;

Shuni aytib o'tish joizki, bugungi kunda masofaviy ta'lim dasturini joriy etishning bir qancha afzallik tomonlarini ko'rib chiqish mumkin. Masalan, dunyoning istalgan chekkasidan turib, kelayotgan barcha yangi xabarlarini qabul qilish imkoniyatiga ega bo'lish mumkin. Masofaviy ya'ni ommalashgan til bilan aytganda onlayn ta'limning yana bir ustun jihati shundan iboratki, bunda

talaba ham ishlab, ham kunning istalgan qismida o'ziga kerakli bo'lgan nazariy bilimlarni olish imkoniyatiga ega bo'ladi, bu esa olingan bilimlarni amaliyotda qo'llay olish imkoniyatiga keng yo'l ochib beradi.

- Milliy elektron ta'lim resurslari yaratilishini jadallashtirish, xorijiy elektron ta'lim resurslarini tarjima qilish ishlarini tashkil etish, ta'lim jarayonida elektron resurslar salmog'ini bosqichma-bosqich oshirib borish, elektron o'quv adabiyotlar yaratish, ularni mobil qurilmalarga yuklab olish maqsadida kutubxonalarda QR-kod yordamida elektron resurslar haqidagi axborotlarni joylashtirish tizimini yaratish.

Bilamizki, talaba yoshlarimiz bugungi kunda bir qancha zamonaviy gadjetlardan keng foydalanib kelmoqda. O'zining ilmiy salohiyatini rivojlantirishda o'z sohasi yuzasidan mustaqil ravishda talabalarning olib borayotgan ilmiy ishlariga bir qancha sohaga oid kitoblar kerak, albatta. Ammo bugungi jadal rivojlanib borayotgan bu olamda kerakli kitoblarni izlash uchun kutubxonalarga tashrif uyushtirish biroz qiyin. Yoki bo'lmasam, kitob tanqisligi, istalgan joyva istalgan vaqtda uning mutolaasi uchun vaziyatning to'g'ri kelmasligi kabi bir qancha muammolarga milliy elektron kutubxona yechim topadi. Uni istalgan vaqtda, istalgan joyda, hattoki, biron-bir ish bilan mashg'ul bo'lgan vaqtda ham audio sifatida tinglash mumkin.

- Oliy ta'lim muassasasining konferensiya materiallari, bitiruv-malakaviy ishlar, magistrlik va doktorlik dissertatsiyalaridan iborat ilmiy-texnik ma'lumotlar elektron bazasini yaratish, kelgusidagi ilmiy-texnik ma'lumotlar yangiligini ta'minlash maqsadida antiplagiat tizimidan foydalanishni keng joriy etish;

- Ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarining o'ziga xosligidan kelib chiqib, ta'lim jarayonida xalqaro miqyosda keng qo'llaniladigan zamonaviy dasturiy mahsulotlardan foydalanishni rivojlantirish;

- Oliy ta'lim muassasalari pedagog xodimlari, bakalavriat, magistratura talabalari va doktorantlariga oid ma'lumotlarni o'zida aks ettiruvchi va muntazam yangilanib boruvchi elektron baza (Student Record System) yuritilishini yo'lga qo'yish asosida uning milliy tizimini yaratish.

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tish kerakki, bugungi virtual olamdagi yoshlarning qiziqishlarini an'anaviy shakldagi texnologiyalar bilan qondirish mushkul ish bo'lib qolmoqda. Shu sababli maktab va oliy ta'lim muassasalarida innovatsion texnologiyalarni joriy etish yo'lga qo'yilgan. Bolada yoshligidan mana shunday texnologiyalardan foydalanib, kelajakda kasb tanlashiga qiynalmasligi, kreativlikni shakllantirish, zamon bilan hamnafas bo'lish kabilarni shakllantirish mumkin. IT - sohasi ayni damda jadal rivojlanib kelayotgan sohalar atoriga qo'shildi desak mubolag'a bo'lmaydi. Aynan bu sohada faoliyat ko'rsatayotgan soha vakillariga keng imkoniyatlar yaratib berildi. Joriy yildan bizlarga – ayollarga Zulfiya nomidagi davlat mukofoti yo'nalishlari ta'lim, fan, adabiyot, madaniyat, san'at, sport va jamoatchilik qatoriga axborot texnologiyalari ham qo'shildi, bu ham biz uchun juda katta imkoniyatlar eshigini ochib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvarda Oliy majlisga yo'llagan murojaatnomasi.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora tadbirlari" to'g'risidagi farmoni. 2020.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999-yil 10-iyundagi "Zulfiya nomidagi davlat mukofotini ta'sis etish bo'yicha takliflarni qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi PF-2326-son Farmoni.
5. Akramovich N. A. The priority of using innovative technologies in the agricultural education system //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 10. – C. 185-191.
6. www.ziynet.uz
7. www.advance-he.ac.uk
8. www.lex.uz

THE INFLUENCE OF MUSIC ON THE HUMAN MIND

Jumanazarov Zohidjon Eldor o'g'li

2-nd course student of Uzbekistan State Institute of Arts and Culture

Winner of the National Award "Stars of New Uzbekistan"

Project Manager of the International Teachers Association

Member of the International Association of Outsourcing

Professionals. Author of "Sociology of Management", "Art

Management" and "Ethical Leadership" Phone: +998 94 043 22 85

E-mail: zohidjonjumanazarov5@gmail.com

SagdullayevAbdulloh Sayfulla o'g'li

1-st course student of Uzbekistan State Institute of Arts and Culture

Phone: +998 33 536 15 05

E-mail: abdullohsagdullayev4@gmail.com

Abstract: Music, a universal form of human expression, profoundly affects the human mind. This article explores the scientific understanding of how music influences cognitive processes, emotional responses and neurological structures. We review psychological, neurobiological, and sociocultural evidence, examining how music affects mood regulation, memory, cognitive performance and brain plasticity. We also discuss the therapeutic applications of music in clinical settings and the potential for music to enhance learning and well-being.

Keywords: Music and cognition, emotional response to music, music therapy, neurological effects of music, brain plasticity, music and memory, mood regulation through music, cross-cultural music studies, music and stress reduction, cognitive enhancement through music.

Introduction. Music is an integral part of human culture in every society throughout history. It has been used for ritualistic, recreational and therapeutic purposes. The influence of music on the human mind is a multidisciplinary subject of study, encompassing psychology, neuroscience, cognitive science, and cultural studies. This article synthesizes current scientific research on how music affects mental processes and structures, aiming to provide a comprehensive overview of its psychological and neurological impacts.

Memory and Learning. Music has been shown to enhance memory and learning processes. The “Mozart effect”, a term popularized in the 1990s, suggests that listening to classical music can temporarily enhance spatial-temporal reasoning abilities. ⁴

⁴ <https://www.msn.com/en-us/health/other/mozart-effe...>

Subsequent studies have nuanced this claim, indicating that any personally enjoyable music can improve cognitive performance by enhancing mood and arousal levels. Furthermore, music's structural elements, such as rhythm and melody, can serve as mnemonic devices, aiding in the retention and recall of information.

Attention and Focus. Music's impact on attention and focus varies depending on the individual's personality, the type of music, and the task at hand. For some, background music can facilitate concentration by masking distracting environmental noises. However, complex or lyric-heavy music can sometimes be a distraction, particularly for tasks that require language processing or complex problem-solving. Instrumental music or genres with a steady tempo, such as classical or ambient music, are often found to be the most conducive to maintaining focus.

Mood Regulation. Music has a powerful ability to evoke and regulate emotions.⁵ Neuroimaging studies have shown that listening to music activates brain regions associated with emotional processing, such as the amygdala, prefrontal cortex, and ventral striatum. Music can induce a wide range of emotions, from joy to sadness, and can be used to manage mood states. For instance, people often use uplifting music to enhance a positive mood or melancholic music to process emotions of sadness.

Stress Reduction and Relaxation. Listening to music, particularly slow-tempo and calming genres, can reduce stress and anxiety levels. This effect is mediated through physiological responses, such as reduced cortisol levels and lowered heart rate. Music therapy, which involves guided sessions with trained therapists, is effective in treating conditions such as depression, anxiety and post-traumatic stress disorder (PTSD).

Brain Plasticity and Development

Music training and practice can lead to structural and functional changes in the brain, a phenomenon known as brain plasticity. Musicians often show increased grey matter volume in regions involved in motor control, auditory processing and spatial

⁵ <https://www.schooltube.com/the-magic-of-music-unde...>

reasoning. Early exposure to music education can enhance these neural adaptations, suggesting that music can play a significant role in cognitive development.

Neurological Disorders and Rehabilitation. Music therapy has shown promise in the rehabilitation of patients with neurological disorders. For example, rhythmic auditory stimulation (RAS) can improve motor function in stroke patients by leveraging the brain's ability to synchronize movements with musical rhythm. Similarly, melodic intonation therapy (MIT) has been used to assist patients with aphasia in recovering language abilities by engaging musical and linguistic neural pathways.

Identity and Social Connection. Music is a powerful tool for social connection and the expression of cultural identity. Shared musical experiences, such as concerts or communal singing, can foster a sense of belonging and social cohesion.⁶ Music also plays a crucial role in the formation of personal and group identities, influencing self-perception and social relationships.

Cross-Cultural Perspectives. The emotional and cognitive effects of music are not universal but can vary across cultures. Different musical scales, rhythms and genres elicit distinct emotional responses depending on cultural conditioning. This cultural specificity highlights the importance of considering sociocultural contexts in studying music's influence on the human mind.

Music Therapy. Music therapy is a clinical and evidence-based practice that uses musical interventions to accomplish individualized goals within a therapeutic relationship.⁷ It has been shown to be effective in treating a wide range of conditions, including mental health disorders, neurological disorders and developmental delays. Techniques such as improvisation, songwriting and active listening are used to engage patients in the therapeutic process.

Cognitive Enhancement and Rehabilitation. Beyond therapy, music is increasingly being explored for its potential to enhance cognitive function and facilitate rehabilitation. For example, incorporating music into educational settings can improve learning

⁶ <https://essaygenius.ai/essay/the-power-of-music-to...>

⁷ <https://www.musictherapy.org/>

outcomes, particularly in language and mathematics. Music-based interventions are also being developed to aid in the rehabilitation of patients with traumatic brain injuries and neurodegenerative diseases.

Conclusion. Music's influence on the human mind is profound and multifaceted, encompassing cognitive, emotional, neurological, and sociocultural dimensions. The scientific study of music's effects has provided valuable insights into its potential as a tool for enhancing well-being and treating various conditions. As research continues to explore the intricate relationship between music and the brain, it opens up new possibilities for harnessing the power of music in both everyday life and clinical settings.

Future Directions. Future research should continue to explore the neural mechanisms underlying music's effects, particularly through advanced neuroimaging techniques. There is also a need for cross-cultural studies to understand better the universal and culture-specific aspects of music perception and its effects. Additionally, the development of personalized music therapy approaches, tailored to individual preferences and clinical needs, holds promise for enhancing therapeutic outcomes.

References:

1. Koelsch, S. (2014). Brain and music. *Wiley Interdisciplinary Reviews: Cognitive Science*, 5(5), 519-529.
2. Levitin, D. J. (2006). *This is your brain on music: The science of a human obsession*. Dutton Penguin.
3. Altenmüller, E. , & Schlaug, G. (2015). *Music, brain, and health: Exploring biological foundations of music's health effects*. Springer.
4. Thaut, M. H. , & Hoemberg, V. (2014). *Handbook of neurologic music therapy*. Oxford University Press.
5. Sacks, O. (2007). *Musicophilia: Tales of music and the brain*. Knopf.

3-SHO'BA: TA'LIM-TARBIYA JARAYONIGA RAQAMLI VA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH USULLARI

DAVLAT FUQAROLIK XIZMATCHILARINING KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH JARAYONIGA SUN'IY INTELLEKTNI TATBIQ ETISH

Alisher Mamatov

*O'zbekiston Respublikasi Ta'limni rivojlantirish
respublika ilmiy-metodik markazida bo'lim boshlig'i,*

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi

Davlat boshqaruvi akademiyasi dotsenti v. b.

Tel. : +99893 043 91 91 **Email:** a.mamatov1991@gmail.com

Annotatsiya: O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng islohotlar natijasida, davlat fuqarolik xizmatini rivojlantirish, ochiqlik va shaffoflik tamoyili asosida ish yuritish, davlat boshqaruvini nomarkazlashtirish, bunda kadrlarni uzluksiz kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilib kelinmoqda. Jumladan, davlat fuqarolik xizmatchilarini hayot davomida o'rganishlari (lifelong learning) uchun Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi tomonidan raqamli texnologiyalardan foydalanish amaliyoti keng yo'lga qo'yilayotganligini ko'rishimiz mumkin (edu. argos. uz va ilm. argos. uz).

Ushbu ilmiy maqolada, davlat fuqarolik xizmatchilarini kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonini yangi bosqichga olib chiqish, unda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish orqali dastlabki bilim va ko'nikmalarni diagnostik baholash orqali o'zlashtirishi lozim bo'lgan kompetensiyalarni avtomatik taklif etadigan intellektual platformani amaliyotga tatbiq etish, uning ishlash mexanizmlari va samaradorligi bo'yicha taklif va tavsiyalar keltirib o'tiladi.

Kalit so'zlar: davlat fuqarolik xizmatchilari, sun'iy intellekt, kompetensiya, intellektual platforma, raqamli boshqaruv, masofaviy ta'lim.

ВНЕДРЕНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ПРОЦЕСС РАЗВИТИЯ КОМПЕТЕНЦИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫХ ГРАЖДАНСКИХ СЛУЖАЩИХ

Алишер Маматов

*Начальник отдела Республиканского научно-методического
центра развития образования Республики Узбекистан, доцент
Академии государственного управления при Президенте
Республики Узбекистан*

Аннотация: В результате широкомасштабных реформ, проводимых в Узбекистане, особое внимание уделяется развитию государственной гражданской службы, ведению деятельности на основе принципов открытости и прозрачности, децентрализации государственного управления, при этом акцент делается на непрерывном развитии профессиональных компетенций кадров. В частности, мы можем наблюдать, что Агентство развития государственной службы широко внедряет практику использования цифровых технологий для обеспечения непрерывного обучения государственных гражданских служащих на протяжении всей жизни ([edu. argos. uz](http://edu.argos.uz) и [ilm. argos. uz](http://ilm.argos.uz)).

В данной научной статье представлены предложения и рекомендации по выводу процесса развития компетенций государственных гражданских служащих на новый уровень. Рассматривается внедрение в практику интеллектуальной платформы, которая с использованием технологий искусственного интеллекта автоматически предлагает компетенции, подлежащие освоению, на основе диагностической оценки исходных знаний и навыков. Также описываются механизмы работы этой платформы и ее эффективность.

Ключевые слова: государственные гражданские служащие, искусственный интеллект, компетенция, интеллектуальная платформа, цифровое управление, дистанционное обучение.

IMPLEMENTATION OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN THE DEVELOPMENT OF COMPETENCIES OF CIVIL SERVANTS

Alisher Mamatov

Head of the Department at the Republican scientific and methodological center for the development of education of the Republic of Uzbekistan, Associate Professor at the Academy of Public Administration under the President of the Republic of Uzbekistan

Abstract: As a result of large-scale reforms being carried out in Uzbekistan, particular attention is given to the development of the civil service, ensuring transparency and openness, and decentralizing public administration. A key focus is placed on the continuous professional development of personnel. In this regard, the Agency for Civil Service Development has been actively implementing digital technologies to facilitate lifelong learning for civil servants through platforms such as **edu. argos. uz** and **ilm. argos. uz**.

This academic article presents proposals and recommendations for elevating the competency development process of civil servants to a new level. It explores the implementation of an **intelligent platform** that leverages **artificial intelligence (AI)** to automatically suggest competencies for mastery based on a diagnostic assessment of initial knowledge and skills. The mechanisms of this platform's operation and its effectiveness are also discussed.

Keywords: civil servants, artificial intelligence, competency, intelligent platform, digital governance, distance learning.

Globalashuv jarayonida barcha sohalarga innovatsion texnologiyalarni jalb etish orqali ish samaradorligini oshirish bilan bir qatorda soha va tarmoqlarda ochiqlik hamda shaffoflikni ta'minlash orqali davlat xizmatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. So'ngi yillarda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ma'muriy islohotlar va tendensiyalar, har bir sohaga yuqori malakali kadrlarni jalb etish, ularni tayyorlash, qayta tayyorlash

hamda uzluksiz ravishda kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirib borishni talab etmoqda. Zamonaviy texnologiyalar davrida davlat fuqarolik xizmatchilarini salohiyatini oshirish jarayoniga innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish orqali yuqori samaradorliklarga erishish mumkin. Sababi, bugungi kunda raqamli texnologiyalar davlat boshqaruvi, tibbiyot, iqtisodiyot, qishloq xo'jaligi va boshqa ustuvor sohalar bilan bir qatorda ta'lim jarayonlarini boshqarish, ularni tashkil etish, masofaviy va onlayn ta'limni tashkil etish, ta'lim resurslaridan istalgan joy va vaqtda foydalanish, interfaol metodlarni integratsiya qilish, ta'lim oluvchining shaxsiy ta'lim olish trayektoriyasini aniqlash, ularning qiziqish va salohiyatidan kelib chiqib kontentni taklif etish kabi ko'plab imkoniyatlar yaratib bermoqda. Bu esa o'z navbatida intellektual tizimlar orqali boshqaruv kadrlari uchun ishdan ajralmagan holda interfaol resurslar, simulyatsiyalar va virtual muhit orqali doimiy ravishda kompetensiyalarini baholab, ularni shakllantirib borish uchun qulaylik yaratadi.

To'rtinchi sanoat inqilobining eng samarali mevalaridan biri Sun'iy intellektni soha va tarmoqlarga integratsiyalashuvi esa turli xil jamiyatlarda smart texnologiyalarni keng qo'llanilishiga olib kelmoqda. Albatta, bunday texnologiyalar tizimni raqamli transformatsiya qilish bilan bir qatorda aqlli boshqaruvni ham taklif etadi. Ayniqsa, sun'iy intellekt texnologiyalari ta'limda har bir o'quvchining shaxsiy ehtiyojlari, salohiyati, o'zlashtirish qobiliyati va qiziqish doirasidan kelib chiqqan holda moslashish imkonini bermoqda.

Sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarini davlat fuqarolik xizmatida faoliyat yuritayotgan boshqaruv kadrlarining kompetensiyalarini rivojlantirish jarayoniga tatbiq etilishi, birinchi navbatda ularning kasbiy kompetensiyalarini baholash bilan bir qatorda har biri uchun o'zlashtirishi lozim bo'lgan kompetensiyalarni aniqlash imkonini yaratib beradi. Shuningdek, yaratuvchi SI (Generative AI) boshqaruv kadrlarga kompetensiyalarini uzluksiz rivojlantirib borish uchun turli xil kurslarning raqamli resurslarini yaratib berishi hamda virtual yordamchi vazifasini bajarishi mumkin. Yuqoridagi SI imkoniyatlaridan kelib chiqib, davlat fuqarolik xizmatchilarining

kasbiy kompetensiyalarini uzluksiz shakllantirib borish, jumladan, boshqaruv kadrlarining salohiyatini oshirib borish jarayonlarini raqamli transformatsiya qilish, unda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalangan holda kompetensiyalarni baholash va intellektual platformalarni amaliyotga tatbiq etish, innovatsion jamiyatda eng muhim yechimlardan biri hisoblanadi. Chunki, bugungi kunda davlat fuqarolik xizmatchilari va boshqaruv kadrlari uchun malakasini masofaviy yoki onlayn shaklda uzluksiz oshirib borish uchun O'zbekiston Respublikasida sun'iy intellektga asoslangan yagona milliy ta'lim platformasi amaliyotga tatbiq etilmagan. Mavjud platformalar, asosan mustaqil ta'lim olishlari yoki biron-bir maxsus kurslarni tashkil etish uchun foydalanib kelinmoqda. Shularni inobatga olgan holda, ushbu sohani raqamlashtirish, uni SIga asoslangan intellektual platformani tatbiq etish orqali takomillashtirish dolzarb hisoblanadi.

Shu o'rinda, davlat fuqarolik xizmatchilarining kompetensiyalarni rivojlantirish jarayoniga raqamli texnologiyalarni tatbiq etish, elektron ta'lim platformalari va ommaviy ochiq onlayn kurslar (MOOC) orqali zamonaviy bilim hamda ko'nikmalarni istalgan joyda va vaqtda o'zlashtirish, ularning samaradorliklari haqida bir qancha tadqiqotchilar ilmiy izlanishlar olib borishmoqda. Shu bilan birga ta'lim jarayonida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish, uning dars jarayoni va mustaqil rivojlanishdagi imkoniyatlari haqida ham ko'plab olimlar maqolalar nashr etganligini ko'rishimiz mumkin. Ulardan, 2021-yilda chop etilgan "Boshqaruv kompetensiyalari va raqamli asrda rivojlanish" nomli ilmiy maqolada [1], boshqaruv kadrlarining raqamli ko'nikmalari va texnologiyalarni qo'llash malakalarini tahlil qiluvchi tadqiqotlarning yetarlicha rivojlanmaganligi ta'kidlanadi. Mualliflar, raqamlashtirish jarayonida boshqaruv kompetensiyalari va raqamli texnologiyalar o'rtasidagi bog'liqlikni yoritish bo'yicha ilmiy adabiyotlar hali ham oz ekanligini qayd etishadi. Bu esa zamonaviy texnologiyalar bilan ishlashda boshqaruv kadrlarining qobiliyatlarini to'liq anglash va rivojlantirish uchun tadqiqotlarga bo'lgan ehtiyojni yanada ko'paytirish lozimligini anglatadi.

Shu bilan birga, 2024-yilda chop etilgan ilmiy maqolada davlat xizmatchilarini tayyorlash jarayonini raqamlashtirishning ahamiyati o'rganilgan [2]. Mualliflar ushbu tadqiqotda raqamlashtirish jarayonining davlat sektori uchun afzalliklarini tahlil qilib chiqishadi, ayniqsa, sifat menejmenti orqali tashkilotlarning raqamli transformatsiyaga moslashishini qo'llab-quvvatlash haqida o'z fikr-mulohazalarini bildirib o'tishadi.

Braziliyalik tadqiqotchilar tomonidan Parana shtatidagi davlat xizmatchilarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish jarayonida masofaviy ta'limdan foydalanish jarayonlari tahlil qilinadi [3]. Mualliflar tadqiqotda masofaviy ta'lim orqali davlat xizmatchilarining malakasini oshirishda raqamli texnologiyalarning o'rni va samaradorligi haqida o'z fikrlarini bildirib o'tishadi. Tadqiqot doirasida Parana shtatining davlat xizmatchilari uchun masofaviy ta'lim platformasida joriy qilingan jamoatchilik boshqaruvi bo'yicha magistratura kursi o'rganilgan. 670 nafar davlat xizmatchisi qatnashgan 12 ta savoldan iborat yopiq shakldagi so'rovnomaga natijasiga ko'ra, xodimlarning aksariyati masofaviy ta'limni qulay va samarali deb hisoblashgan. Lekin, ularning ko'pchiligi o'quv jarayonida bosma kitoblardan foydalanishni afzal ko'rgan, ammo raqamli qurilmalar orqali ham ta'lim olishga tayyor ekanliklarini bildirgan.

Yuqoridagi bilan bir qatorda, AQSHning Washington universiteti mustaqil izlanuvchisi Alexandara Harry tomonidan 2023-yilda chop etilgan "Sun'iy intellektning ta'limdagi roli" nomli ilmiy maqolada, sun'iy intellekt ta'lim olish va berish jarayonida ko'plab imkoniyatlarga ega ekanligi, u asosan shaxsga yo'naltirilgan ta'limni rivojlantirish, ta'lim mazmunini yanada qiziqarli va samarali qilish imkoniyatiga ega ekanligini ta'kidlab o'tadi [4]. U asosan mashinali o'qitish va tabiiy tilni qayta ishlash kabi texnologiyalardan foydalanish orqali ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish natijalari va qiziqish doirasidan kelib chiqib ta'lim kontentlarini taklif etish, ularni bilimini avtomatik baholash, imtihon jarayonlarini nazorat qilish, natijalarni tahlil qilish va boshqa afzalliklari to'g'risida fikr yuritish bilan bir qatorda bunday innovatsion texnologiyalardan ta'lim jarayonida foydalanishni o'ziga xos muammolari, ya'ni, shaxsga doir ma'lumotlarni

himoyalash, shaffoflik va adolatni ta'minlash, etika nuqtayi nazardan axloqiy jihatlarini ham hisobga olish muhim ekanligini ilgari suradi.

Shuningdek, 2000-yillar boshidan boshlab Rossiya Federatsiyasida davlat fuqarolik xizmatini isloh qilish va rivojlantirish bo'yicha bir qator tadbirlar amalga oshirildi. Ushbu jarayonda, davlat xizmatchilarining kasbiy kompetensiyalarini oshirishga qaratilgan samarali kadr texnologiyalari va innovatsion metodlarni joriy etishni ko'zda tutgan Federal dastur ishlab chiqiladi [5]. Mualliflar davlat xizmatchilarining kasbiy rivojlanishi bilan bog'liq tadbirlarning muvaffaqiyatli bo'lishi uchun ularning faoliyati va egallagan lavozimlariga mos bo'lishi zarurligini ta'kidlaydilar. Ya'ni, har bir davlat xizmatchisining bajarayotgan vazifalari, ularning lavozimi va funksional yo'nalishlariga ko'ra kasbiy bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishi talab etiladi. Shu bilan birga, kasbiy va shaxsiy sifatlarni rivojlantirish ham zarur bo'lib, bu jarayon samarali usullar orqali amalga oshirilishi muhim sanaladi. Tadqiqotchilar tomonidan keltirilgan bu yondashuv davlat xizmatchilarining kasbiy o'sishi va zamonaviy boshqaruv tizimida ularga kerakli ko'nikmalarni samarali tarzda yetkazishning ahamiyatini ko'rsatadi.

Bundan tashqari, masofaviy va onlayn ta'lim orqali davlat xizmatchilarini uzluksiz ta'lim olishi, ularning AKT ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha [6], Xitoyda davlat xizmatchilarini tayyorlash jarayonida elektron ta'lim platformalarini foydalanishni tatbiq etilishi [7], masofaviy ta'limda sun'iy intellektdan foydalanish konsepsiyasi [8], ta'limda sun'iy intellekt texnologiyalarining keng tatbiq etilishi, ularning hozirgi holati va kelajakdagi imkoniyatlari [9], ta'limda SIning roli, chatbotlar va shaxsiylashtirilgan ta'limni rivojlantirish [10], mashinali o'qitish modellari asosida talabalarni kompetensiyalarini baholash va shu asosida ularning har biri uchun tavsiya beradigan tizim modeli [11], Generativ AI, uni ta'limdagi imkoniyatlari [12] hamda shu kabi ko'plab olim va tadqiqotchilar ta'lim jarayonida, jumladan, kadrlarni tayyorlash va ularni uzluksiz rivojlantirib borish jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borishgan.

Ilg'or xorij tajribasi va adabiyotlarni tahlil qilib, bugungi kunda davlat fuqarolik xizmatchilarining kompetensiyalarini doimiy oshirib borish zamon talabi, ushbu jarayonni raqamlashtirish esa innovatsion yechimlardan biri ekanligini ko'rishimiz mumkin. Lekin aynan davlat fuqarolik xizmatchilarining kompetensiyalarini baholash, ularning natijalaridan kelib har biri uchun o'zlashtirishi lozim bo'lgan kompetensiyalarni taklif etadigan axborot tizimlarini joriy etish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish muhim sanaladi. Shu bilan birga, kompetensiya modeli asosida davlat fuqarolik xizmatchilarini tayyorlash jarayonini raqamli transformatsiya qilish orqali boshqarish, ushbu tizimni takomillashtirishning mexanizmlarini ishlab chiqishni talab etadi. Shularni inobatga olgan holda, boshqaruv kadrlarini kompetensiyalarini uzluksiz rivojlantirish jarayoniga sun'iy intellekt texnologiyalarini tatbiq etish orqali modernizatsiya qilish bugungi raqamli jamiyatni shakllantirishda dolzarb hisoblanadi.

Davlat fuqarolik xizmatchilarining kasbiy kompetensiyalari bir tomondan faoliyat yuritayotgan tashkilotning samara keltirishiga va uni strategik rivojlanishiga turtki bo'lsa, ikkinchi tomondan xodimning o'zini ustida ishlashi hamda uzluksiz shakllanib borishiga yordam beradi. Shularni inobatga olgan holda, bugungi kunga kelib rivojlangan davlatlarning deyarli barchasida davlat fuqarolik xizmatida kirish, lavozimga tayinlash yoki ko'tarish, kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirib borish, uni baholash hamda kadrlarni tayyorlashda kompetensiya modellari mavjud.

Albatta, davlat fuqarolik xizmatchilarining kompetensiyalarini uzluksiz rivojlantirish davlat boshqaruvi samaradorligi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar yordamida bu jarayon yanada samarali bo'lib bormoqda. Xususan, xorijiy tajribalarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, davlat fuqarolik xizmatchilarini malaka oshirish tizimi va kasbiy kompetensiyalarini doimiy shakllanib borish jarayonini raqamlashtirish bo'yicha samarali loyihalar amalga oshirilib kelinayotganligini ko'rishimiz mumkin.

Xorijiy mamlakatlar, jumladan, AQSh, Buyuk Britaniya, Kanada va Singapur kabi davlatlar raqamli texnologiyalarni davlat boshqaruvida qo'llashda katta yutuqlarga erishgan. AQShning

Federal Ta'lim Boshqaruvi (FELTG) tomonidan joriy etilgan raqamli o'quv platformalari boshqaruv kadrlariga texnik bilimlarni oshirish bilan birga kommunikatsiya va qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishda katta yordam beradi⁸. FELTG platformalari orqali o'quv materiallari moslashtirilgan bo'lib, har bir ta'lim oluvchi ehtiyojlari va individual rivojlanish darajasiga mos shaklda avtomatik taklif etib boriladi. Yana bir davlat xizmatchilari uchun USALearning⁹ platformasi ishga tushirilgan bo'lib, u AQSh federal hukumatining rasmiy masofaviy ta'lim va rivojlanish platformasi hisoblanadi.

Buyuk Britaniyada barcha davlat xizmatchilari uchun mo'ljallangan Civil Service Learning¹⁰ (CSL) raqamli ta'lim va malaka oshirish platformasi ishga tushirilgan. CSLning asosiy maqsadi davlat xizmatchilarining kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish va davlat xizmatini samarali boshqarishda muhim bo'lgan bilimlarni uzluksiz egallab borish imkoniyatini yaratishdir. Bu platforma turli yo'nalishlarda masofaviy ta'lim kurslari, onlayn resurslar va auditoriyadagi o'quv mashg'ulotlari uchun ham materiallarni taklif etadi.

Shuningdek, Kanada davlatida ham davlat xizmatchilari uchun uzluksiz ta'lim olish imkoniyatlari raqamlashtirilgan. Ularga misol tariqasida 2022-yilda Kanada davlat xizmati maktabi tomonidan yangi ishga tushirilgan raqamli ta'lim platformasini ko'rishimiz mumkin¹¹.

Shu bilan birga, davlat xizmatchilarini raqamli ko'nikmalarini uzluksiz oshirib borishlari uchun raqamli akademiya (Digital Academy) platformasi¹² ishga tushirilgan. Platforma o'zining raqamli akselerator (Digital Accelerator) dasturi orqali xodimlarga raqamli texnologiyalarni real amaliyotda qo'llash va tajriba orttirishlari uchun raqamli ta'lim resurslarini taqdim etadi. Shu bilan birga, platformada mikro-o'quv imkoniyatlari ham mavjud bo'lib, foydalanuvchilarga qisqa vaqt ichida zarur bilimlarni olish imkonini yaratadi.

⁸ <https://feltg.com>

⁹ <https://usalearning.gov>

¹⁰ <https://identity.learn.civilservice.gov.uk>

¹¹ <https://www.cspc-efpc.gc.ca/index-eng.aspx>

¹² <https://www.thedigitalacademy.ca>

Singapur ham davlat boshqaruvi kadrlarini uzluksiz rivojlantirish uchun raqamli transformatsiyaga asoslangan o'quv dasturlarini ishlab chiqishga katta e'tibor qaratadi. Singapur davlat xizmati kolleji (Singapore Civil Service College) o'zining raqamli o'quv platformalari¹³ orqali sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanadi va boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirish orqali davlat xizmatchilarining samaradorligini oshiradi. Singapur tajribasi shuni ko'rsatadiki, SI texnologiyalari yordamida boshqaruv kadrlarining faoliyatini monitoring qilish va tahlil qilish samaradorlikni sezilarli darajada yaxshilaydi.

Yana bir Singapur hukumati tomonidan yaratilgan raqamli sinfda o'rganish (LEARN Digital Classroom¹⁴) nomli raqamli ta'lim platformasi, davlat xizmatchilarining bilim va ko'nikmalarini zamonaviy talablarga mos ravishda rivojlantirish uchun mo'ljallangan. Ushbu platforma davlat xizmatchilariga turli sohalarda ta'lim olish va malakalarini elektron shaklda oshirib borish imkonini beradi. Platforma orqali xodimlar onlayn kurslarga kirishlari, materiallarni yuklab olishlari va o'qish jarayonida individual yondashuv asosida o'zlari faoliyat yuritayotgan sohaga oid bilimlarni uzluksiz o'zlashtirib borishlari mumkin bo'ladi.

Shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Davlat boshqaruvi tarmog'i (United Nations Public Administration Network¹⁵) huzurida ham butun dunyo bo'ylab davlat xizmatchilari va fuqarolar uchun davlat boshqaruvi bo'yicha turli mavzularda sifatli va bepul onlayn ta'lim imkoniyatlarini taqdim etuvchi onlayn trening markazi (Online Training Centre) platformasi joriy etilgan. Ta'lim markazining asosiy maqsadi davlat boshqaruvi sohasida zamonaviy bilim va ko'nikmalarni oshirish orqali global maqsadlarga erishishni qo'llab-quvvatlashdir.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi tomonidan ishlab chiqilgan va amaliyotga tatbiq etilgan **ilm. argos. uz** platformasida har bir davlat fuqarolik xizmatchilarini uzluksiz salohiyatini oshirish borish bo'yicha ochiq

¹³ <https://idm.learn.gov.sg>

¹⁴ <https://dc.learn.gov.sg>


¹⁵ <https://unpan.un.org/capacity-development>

materiallar joylab kelinadi. Lekin ushbu platformada, boshqaruv kadrlarining kasbiy kompetensiyalarini baholash orqali, ularga individual kontentlarni avtomatik taklif etib boruvchi innovatsiyalar integratsiya qilinmagan. Shu bilan birga, davlat fuqarolik xizmatchilarining ish joyidan ajralmagan holda turli sohalar bo'yicha bilim va ko'nikmalarini mustahkam rivojlantirib borishlari uchun ham malaka oshirish platformasi ([edu. argos. uz](http://edu.argos.uz)) ishga tushirilgan bo'lib, uni elektron o'quv kurslari bilan uzluksiz to'ldirib borishga ehtiyoj sezilmoqda.

Shu bilan birga, davlat fuqarolik xizmatchilarining o'zini o'zi rivojlantirish platformasi ([lifelearning. uz](http://lifelearning.uz)) Davlat boshqaruvi akademiyasi tomonidan ishga tushirilgan va kerakli resurslar bilan boyitib kelinmoqda. Ushbu platformada boshqaruv kadrlarining dastlabki bilimini baholash orqali ularga kurslarni taklif etish funksiyasi mavjud. Davlat fuqarolik xizmatchilarining o'zini o'zi rivojlantirish platformasida 10 ortiq onlayn kurslar joylashtirilgan bo'lib, tizim dastlab foydalanuvchining bilim va ko'nikmalarini ushbu kurslar bo'yicha diagnostik baholaydi. Baholash natijalaridan kelib chiqib, har bir davlat fuqarolik xizmatchisiga o'zlashtirishi lozim bo'lgan kurslarni tavsiya etadi. Bu platforma ochiq manbali bo'lib, undan foydalanish orqali doimiy ravishda kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish maqsadida foydalanish mumkin. Natijada, malaka oshirish jarayonidagi xarajatlarni tejash orqali iqtisodiy samaradorlikka erishiladi. Shuningdek, uning natijalarini uzluksiz monitoring qilish va raqamli boshqarish orqali zamonaviy tendensiyalarga mos o'quv kurslarini yaratish hamda kadrlarni ishdan ajralmagan holda kasbiy kompetensiyalarini oshirishga ko'maklashish, lavozimga tayinlash va qarorlar qabul qilishda ma'lumotlarga asoslanar edi. Bundan tashqari, platformada SIning mashinali o'qitish, chuqur o'rganish va tabiiy tilni qayta ishlash kabi texnologiyalaridan foydalanish, tizimni yanada interfaol hamda individual yondashish imkoniyatlarini kengaytirgan bo'lar edi.

Davlat fuqarolik xizmatchilarining uzluksiz malaka oshirish jarayonini raqamli transformatsiya qilish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasining maxsus qayta tayyorlash kurslari tinglovchilari,

ya'ni "Kelajak liderlari" va "Rahbar ayollar maktabi", shu jumladan, boshqaruv lavozimida faoliyat yuritayotgan mahalliy hokimiyat vakillari, zaxira kadrlari hamda vazirlik, idora va tashkilotlarning boshqaruv xodimlari o'rtasida "Davlat fuqarolik xizmatchisining kompetensiyalarini rivojlantirish bo'yicha o'quv kurslar qaysi shaklda tashkil etilishi samarali deb o'ylaysiz" deb nomlangan so'rovnoma tashkil etildi. Ushbu so'rovnoma Google Forms orqali onlayn shaklda o'tkazilib, unda 500 nafarga yaqin davlat fuqarolik xizmatining boshqaruv lavozimlarida faoliyat yuritayotgan xodimlari ishtirok etdi (1-rasm).



1-rasm. Kompetensiyalarni rivojlantirishga oid o'quv kurslarini shakli bo'yicha o'tkazilgan onlayn so'rovnoma natijalari¹⁶

Ushbu onlayn so'rovnoma natijalaridan ko'rishimiz mumkinki, davlat fuqarolik xizmatchilarining asosiy qismi kompetensiyalarini uzluksiz oshirib borishni an'anaviy shaklda tashkil etish samarali deb hisoblashadi. Shu bilan birga, "Davlat fuqarolik xizmatchisi kompetensiyalarini uzluksiz oshirish jarayoniga sun'iy intellekt texnologiyalarini tatbiq etish samarali deb o'ylaysizmi?" degan savolga 80 foizdan yuqori ishtirokchilar "**Ha**" deya javob berishgan. Ya'ni, bugungi kunda boshqaruv kadrlarini vaqtini tejash, ularga qulaylik yaratish va istalgan vaqtda kompetensiyalarini baholash hamda rivojlantirish imkonini beruvchi intellektual platformalarni amaliyotga joriy etish, ushbu sohani raqamlashtirishning asosiy

¹⁶ O'zbekiston Respublikasi Davlat fuqarolik xizmatchilari uchun SO'ROVNOMA ([google.com](https://www.google.com))

yo'nalishlaridan biri bo'lishi kerak. Bu esa o'z navbatida raqamli boshqaruv tushunchasini yuzaga keltiradi. Davlat fuqarolik xizmatchilarining kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonini raqamli boshqarish, ular uchun kerakli kontentlarni yaratish, ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish (Big Data), tizimda oshiqlik va shaffoflikni ta'minlash imkonini beradi.

Shu o'rinda, sun'iy intellekt texnologiyalari bugungi kunda davlat fuqarolik xizmatchilarining kompetensiyalarini baholash va ularni uzluksiz rivojlantirib borish jarayonini takomillashtirish bo'yicha quyidagi imkoniyatlarni taqdim etishini ta'kidlab o'tishimiz lozim:

- sun'iy intellektning mashinali o'qitish (Machine Learning) modellaridan foydalangan holda kompetensiyalarni baholash metodlarini avtomatlashtirish;

- davlat fuqarolik xizmatchilari o'zlashtirishi lozim bo'lgan kompetensiyalarni TensorFlow yoki PyTorch kabi modellar orqali tavsiya qiladigan tizimlarni ishlab chiqish;

- Generative AI yordamida kompetensiyalarni baholash va ularni rivojlantirishga yordam beradigan kontentni ishlab chiqish;


- GPT modeli yordamida virtual yordamchilardan foydalanish;

- kompetensiya modeli asosida kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning kasbiy kompetensiyalarini oshirish jarayonini modernizatsiya qilish;

- ma'lumotlar asosida kadrlarni tayyorlash jarayonida strategik qarorlar qabul qilish va jarayonlarni raqamli boshqarish.

Ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan sun'iy intellekt texnologiyalarining imkoniyatidan kelib chiqib, SIga asoslangan Davlat fuqarolik xizmatidagi boshqaruv kadrlarining uzluksiz salohiyatini oshirish tizimi 2-rasmda keltirilgan.

Taklif etilayotgan mexanizmdan foydalangan holda intellektual platformani amaliyotda foydalanish natijasida, davlat fuqarolik xizmatchilari mustaqil ta'lim olishi, kompetensiyalarini istalgan vaqtda baholashi va salohiyatini uzluksiz oshirib borishlari uchun virtual muhit yaratiladi. Mazkur platformani zamonaviy raqamli texnologiyalar va innovatsion usullar yordamida joriy etilishi natijasida barcha davlat xizmatchilariga o'zini o'zi muntazam salohiyatini oshirishga imkon yaratiladi.



2-rasm. Boshqaruv kadrlarining kompetensiyalarini rivojlantirishga mo'ljallangan intellektual axborot tizimining modeli¹⁷.

Shuningdek, ular bilimlarini o'zlari baholab borishlari va qaysi soha bo'yicha bilim hamda ko'nikmalarini oshirishi kerakligini tizimning o'zi tahlil qilib beradi.

Natijada, O'zbekiston Respublikasining Davlat fuqarolik xizmatida faoliyat olib borayotgan 118 mingdan ortiq¹⁸ kadrlar uchun o'zini-o'zi rivojlantirish bo'yicha intellektual platforma joriy etiladi. Bu o'z navbatida me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilab qo'yilgan har bir davlat xizmatchisi 3 yilda kamida bir marotaba kasbiy malakasini oshirish lozimligi to'g'risidagi vazifani monitoring qilish hamda iqtisodiy samaradorlikni 2-3 barobarga oshirish imkonini beradi. Chunki, Davlat boshqaruvi akademiyasi va uning filiallarida 2023/2024 o'quv yilida jami 5 mingga yaqin davlat fuqarolik xizmatchisi an'anaviy tarzda malaka oshirgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024/2025 o'quv yilida 8,5 ming nafarga yetkazilishi rejalashtirilgan. Shuning uchun ushbu jarayonni raqamli transformatsiya qilish, unda SI texnologiyalarini boshqarish an'anaviy va masofaviy shaklda davlat fuqarolik xizmatchilarini uzluksiz kasbiy kompetensiyalarini oshirib

¹⁷ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan va taklif etilayotgan model.

¹⁸ <https://argos.uz/oz/press-center/news/392>

borishda hamda iqtisodiy samaradorlikni oshirishga yordam beradi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlab o'tishimiz lozimki, innovatsion raqamli texnologiyalar va interfaol ta'lim vositalarining imkoniyatlaridan kelib chiqib, davlat fuqarolik xizmatchilarining salohiyatini oshirish jarayonini raqamli transformatsiya qilish, nafaqat ularning vaqtini tejash balki ishdan ajralmagan holda kasbiy kompetensiyalarini uzluksiz rivojlantirib borish imkoniyatini yaratib beradi. Shu bilan birga, ushbu jarayonga sun'iy intellekt texnologiyalarini integratsiya qilish orqali har bir boshqaruv kadrini o'zini o'zi hayot davomida takomillashtirib borishi uchun individual yondashish muhitini yaratib beradi. Bu esa o'z navbatida taklif etilayotgan boshqaruv kadrlarining uzluksiz kompetensiyalarini oshirish modeli orqali intellektual platformani yaratish muhimligini taqozo etadi.

Shuningdek, intellektual platformani joriy etishdagi kutilayotgan muhim natijalardan biri bu davlat fuqarolik xizmatchilarining o'zini o'zi kompetensiyalarini rivojlantirib borayotganlik haqidagi yagona elektron reyestrini shakllanishidir. Uning natijasida, intellektual tizim boshqa axborot tizimlari bilan integratsiya qilinib, yuqori salohiyatli kadrlar zaxirasini shakllantirib borish hamda jarayonni raqamli boshqarish imkoniyati yaratiladi. Bundan tashqari, shakllangan raqamli ma'lumotlar asosida aniq tahliliy tadqiqotlar o'tkazish, intellektual platformani takomillashtirib borish bo'yicha qo'shimcha funktsionalliklar yaratadi.

Adabiyotlar

[1] X. Neumeyer, M. Liu (2021). "Managerial Competencies and Development in the Digital Age" – IEEE Engineering Management Review (Volume: 49, Issue: 3, 01) – pp. 49-55. DOI:10. 1109/EMR. 2021. 3101950.

[2] L. Mina-Raiu, C. Valentin Raiu, M. Comăniciu (2024). "Improving the quality of civil servants' professional training process through digitalization – an exploratory research from employees' perspective" – The journal of national institute of statistics; Volume 1, March 2024. Pp. 43-64.

[3] A. Stadler, R. Camargo, M. Maioli (2017). "E-Learning as A Training Tool for Civil Servants: A Case in the State of Parana — Brazil" – Turkish Online Journal of Distance Education 18(2), pp. 94-104. DOI:10. 17718/tojde. 306562.

[4] A. Harry (2023). "Role of AI in Education" – Injuruty: Interdisciplinary Journal and Humanity; Volume 2, Number 3, March 2023 e-ISSN: 2963-4113 and p-ISSN: 2963-3397, pp. 260-268. DOI:10. 58631/injuruty. v2i3. 52.

[5] L. V. Zinich, N. A. Kuznetsova, O. V. Kondratieva (2022) "Featuring Professional Development Of Civil Servants". In I. Savchenko (Ed.), Freedom and Responsibility in Pivotal Times, vol 125. European Proceedings of Social and Behavioural Sciences (pp. 1073-1080). European Publisher. <https://doi.org/10.15405/epsbs.2022.03.128>.

[6] M. Khrykov, M. Ptakhina, V. Sych, I. Dzvinchuk (2023). "Exploring the landscape of e-learning for lifelong education of public servants: trends, challenges, and implications" – CTE Workshop Proceedings, 2023, Vol. 10: CITED-2022, pp. 64-84. <https://doi.org/10.55056/cte.546>.

[7] Yang, R. , Ruan, J. , (2007). In IFIP International Federation for Information Processing, Volume 252, Integration and Innovation Orient to E-Society Volume 2, eds. Wang, W. , (Boston: Springer), pp. 574-581.

[8] Kamenev R. V. , Klassov A. B. , Krashennnikov V. V. (2021). The concept of using artificial intelligence in distance learning // Journal of Pedagogical Innovations. 2021;(4):30–41.

[9] A. F. Aljuboori, H. Al-lawati (2023). "Intelligent Adaptive E-Learning Systems: Current Approaches, Architectures, and Applications" - Proceedings of the 22nd European Conference on e-Learning, ECEL 2023: Vol. 22 No. 1 (2023), pp. 11-16. DOI: <https://doi.org/10.34190/ecel.22.1.1925>.

[10] A. Harry (2023). Role of AI in Education. Injuruty: Interdisciplinary Journal and Humanity. Volume 2, Number 3, March 2023. e-ISSN: 2963-4113 and p-ISSN: 2963-3397. pp. 260-268. DOI:10.58631/injuruty.v2i3.52.

[11] S. Bhaskaran, P. Swaminathan (2014). "Intelligent Adaptive E-learning Model for Learning Management System" - Research Journal of Applied Sciences, Engineering and Technology: Volume: 7(16), pp. 3298-3303. DOI:10.19026/rjaset.7.674.

[12] R. Al-Ali, Y. Wardat, K. Al-Saud, K. Alhayek (2024). Generative AI in Education: Best Practices for Successful Implementation. International Journal of Religion 2024 Volume: 5, Number 9, pp. 1016 – 1025, ISSN: 2633-352X (Print), ISSN: 2633-3538 (Online), DOI: <https://doi.org/10.61707/pkwb8402>.

BADIIY ASARLARNI O'RGATISHDA FANGA OID KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISHNING METODIK TA'MINOTI

Abdullayeva Feruza Nurillayevna

*Buxoro davlat pedagogika instituti Boshlang'ich ta'lim kafedrası
dotsenti*

Annotatsiya: Zamonaviy ta'lim sohasiga qo'yiladigan talablar kundan kunga oshib bormoqda. O'z navbatida o'qish savodxonligi darslarida badiiy asarlarni o'rgatishda fanga oid kompetensiyalarni rivojlantirish hukumatimiz tomonidan ta'lim sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Mazkur maqolada shu haqda so'z yuritamiz.

Kalit so'zlar: o'qish savodxonligi, ta'lim tizimi, badiiy asar, kompetensiya, pedagogik texnologiya.

МЕТОДИЧЕСКОЕ ОБЕСПЕЧЕНИЕ РАЗВИТИЯ НАУЧНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЙ

*Абдуллаева Феруза Нуриллаевна
Бухарский государственный педагогический институт,
доцент кафедры начального образования*

Аннотация: Требования к сфере современного образования возрастают с каждым днем. В свою очередь, развитие научно-технических компетенций при преподавании художественных произведений на уроках читательской грамотности имеет важное значение для повышения качества образования нашим правительством. Об этом мы поговорим в этой статье.

Ключевые слова: читательская грамотность, система образования, художественная деятельность, компетентность, педагогическая технология.

METHODOLOGICAL SUPPORT FOR THE DEVELOPMENT OF SCIENTIFIC COMPETENCIES WHEN TEACHING WORKS OF ART

*Abdullaeva Feruza Nurillaevna
Bukhara State Pedagogical Institute, Associate Professor,
Department of Primary Education*

Abstract: Requirements for the field of modern education are increasing every day. In turn, the development of scientific and technical competencies in the teaching of fiction in reading literacy classes is important for improving the quality of education by our government. We will talk about this in this article.

Key words: reading literacy, education system, artistic activity, competence, pedagogical technology.

Bola nutqining takomillashuvida o'qish savodxonligi ta'limi katta imkoniyatga ega ekanligi bilan ajralib turadi. O'qish savodxonligi darslarida bolaning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish parallel ravishda olib boriladi. Fonetik, grafik, orfografik, orfoepik, leksik, grammatik va uslubiy jihatdan to'g'ri tuzilgan og'zaki va yozma nutq ravon va mazmunli bo'ladi. Ravon nutq ta'sirchanligi, tushunarligi, obrazliligi bilan tinglovchiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Bola o'z nutqini ravon, tushunarli va obrazli qilib ifodalashi ularda kompetensiyalarni shakllantirish natijasidir. O'quvchi kompetentlikka ega bo'lsa nafaqat ona tili, balki, boshqa fanlarni o'zlashtirishda ham ijtimoiy faol harakat qilib, ijobiy natijalarga erisha oladi.

Yangi tahrirdagi nashr qilingan o'qish savodxonligi darsliklarining joriy qilinishi o'quvchi va o'qituvchining faolligini oshirishni, o'z ustida tinimsiz ishlashni, o'quv topshiriqlarni ijodiy yondashgan holda bajartirish va bajarishni nazarda tutadi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad PIRLS xalqaro tadqiqotdan ko'zlangan asosiy maqsadga erishishdir.

Davlat rahbari Sh. M. Mirziyoyev tomonidan imzolagan "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni da inson kapitalini shakllantirishning asosiy bo'g'ini bo'lgan tizimda amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar va ularni hayotga tatbiq etish yo'llari atroflicha belgilab berildi.

Shunday ekan, ona tili va o'qish fanlarini o'zaro integratsiya qilgan holda o'qitilishi o'quvchilarning diqqatni jamlash va aniq ko'rsatilgan ma'lumotlarni topish, to'g'ridan-to'g'ri o'zi mustaqil xulosalar chiqarish, matn elementlarini tanqidiy baholash, g'oyalar va axborotni talqin qilish va uyg'unlashtirish malakalarini shakllantiradi. O'quvchilarga badiiy asarlarni o'rgatish, ularda nutq malakalarini shakllantirish, nutq o'stirishni nazarda tutadi.

"Kompetensiya" so'zi tarjimada "layoqatli", "munosib bo'lmoq" kabi ma'nolarni anglatuvchi lotincha "competere" so'zi asosida hosil bo'lgan. "Kompetensiya" deyilganda, shaxsning biror-bir sohadan xabardorlik, shu sohani bilish darajasi tushuniladi.

Boshlang'ich sinflarda o'qish savodxonligi darslarida fanga oid kompetensiyalar quyidagilar:

FK1 – adabiy - nutqiy kompetensiya

Adabiy-nutqiy kompetensiya elementlari (tinglab tushunish, fikrni og'zaki bayon qilish, o'qish, fikrni yozma bayon qilish) hikmatli gap, hikoya, sher, va ixcha audio matnlarni tinglab tushuna oladi; ularni ongli, ifodali tog'ri o'qiy oladi, o'zbek tilida nutq tovushlarini to'g'ri qo'llay oladi, talaffuz me'yorlariga rioya qila oladi, bo'g'in ko'chirish qoidalariga rioya qila oladi, bo'g'in ko'chirish qoidalariga rioya qila oladi, o'zlashtirgan leksik birliklarni matnda qo'llay oladi, tinish belgilarini to'g'ri qo'llay oladi.

Boshlang'ich sinflarning o'qish savodxonligi darsliklarida badiiy asarlarga keng o'rin berilgan. Badiiy asarlarni o'qish, o'z navbatida, muhim va o'ziga xos faoliyat turi hisoblanadi. Bunda o'quvchilarning bilimi va dunyoqarashini kengaytiradi, kundalik hayotga faol munosabat uyg'otadi, u o'quvchilarda keng qamrovli, dunyoqarash shakllanishini, tarixiy voqelarga to'g'ri munosabat bildirishni tarbiyalaydi. Vatanimizning buyuk o'tmishi, ajdodlarimizning vatan va xalq uchun fidoyiliklar haqidagi badiiy asarlar o'quvchilarga ma'rifiy saboq berdi. Boshlang'ich sinf o'qish kitoblarining yangi nashrlaridagi o'ziga xos xususiyatlaridan biri ularda badiiy asarlarning ko'plab berilishidadir. Jumladan, mustaqillik, yurt qahramonlari ulug', allomalar, hamda ma'naviyatimizning o'zanlarini belgilovchi dolzarb mavzudagi ijtimoiy ahamiyatga ega maqolalar yosh avlod dunyoqarashida o'ziga xos burilish yasaydi.

Ma'lumki, badiiy adabiyot janrlaridan: ertak, hikoya, masal va shu kabilarni boshlang'ich sinflarda o'qitish keng tadqiq qilingan. Ammo badiiy asarning tadqiq qilish masalalari – ayrim metodik maqolalarni hisobga olmaganda – haligacha o'rganilgan emas.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida borliq haqida tushuncha va tasavvur hosil qilishda, ularni konkret faktlar, ayrim voqea-hodisalar bilan tanishtirishda badiiy asarlar juda ahamiyatlidir. Badiiy asarlar orqali o'quvchilarda vatanimiz tabiati, tarixiy sanalar, ijtimoiy hayot, fan va texnika yutuqlari haqidagi bilimlari

kengaytiriladi. Bu esa o'z navbatida o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini o'stiradi, so'z boyligini oshiradi.

Badiiy asarlarni o'qitishdan maqsad - boshlang'ich sinf o'quvchilarini tabiatdagi o'zgarishlar, voqea hodisalar, kishilar mehnati haqidagi ilmiy asoslangan bilimlar bilan tanishtirish, ijtimoiy siyosiy hayotda ro'y berayotgan voqealar haqidagi tushunchalarini shakllantirishdir.

Yuqoridagi qiyinchiliklarni bartaraf qilish uchun darslarda o'rganilayotgan badiiy asardagi turli terminlarni izohlash, uning ma'nosini tushuntirishga e'tibor berish lozim. Badiiy maqolalar til jihatdan o'ziga xos xususiyatga ega bo'ladi. Ularda maxsus atamalar ko'plab uchraydi, so'zlar aniq ishlatiladi, gaplar puxta tuziladi. Bundan tashqari badiiy asarlar vositasida o'quvchilar uchun butunlay yangi bilimlar beriladi, ba'zi voqea-hodisalar konkretlashtiriladi.

4-sinf "O'qish savodxonligi" darsligida Hidoyat Olimovanning "Kitob va boylik" matni berilgan. Ushbu matn tuzilish jihatdan badiiy asar sanaladi. Bu xiladagi matnlar o'quvchilarga nafaqat kitobni tanishtiradi, balki ularda kitobga muhabbat tuyg'usi shu tariqa shakllanadi. Bunday darslarda ko'rgazma sifatida o'quv kinofilmlaridan ham foydalanish mumkin. Kitob mavzudagi badiiy asarlarni unga mos rasmlar bilan bo'glab o'qitish kishilarning baxtli hayot uchun intilishlari, ota-bobolarimizning kitobni saqlash uchun qanday kurashganliklarini tushunib yetishga yordam beradi.

Bolaning tafakkuri, ijodiyliigi, tanqidiy va mantiqiy fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan ta'lim tizimida boshlang'ich sinfni tugatayotgan har bir o'quvchi shaxsiga bir qancha zamonaviy, shu jumladan, uning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvi nuqtayi nazaridan yangi talablarni qo'yadi. Binobarin, o'qitishning maqsadlari, vazifalari, mazmuni, uslublari va usullarini qayta ko'rib chiqqan holda ishlab chiqilgan yangi milliy dasturning qabul qilinishi bu boradagi ishlarning samarasini oshirishda asosiy dasturulamal bo'lib, o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishi, aqliy va ijodiy salohiyatining yanada yuqori bo'lishida xizmat qiladi.

Nodavlat umumta'lim muassasalari, o'quv va o'quv-metodik adabiyotlarni nashr etish hamda boshqa xalq ta'limi sohalari faoliyatini tartibga soluvchi normativ huquqiy baza rivojlantiriladi.

Bolalarni umumta'lim muassasalariga qabul qilish bo'yicha davlat xizmatlarini ko'rsatish reglamenti tasdiqlanishi lozim.

Ta'lim sifatini oshirish uchun uning holati va rivojlanish tendentsiyalarini uzluksiz monitoringini olib borish va o'quvchilarning o'quv yutuqlarini ob'ektiv va adekvat baholashni amalga oshirish zarur. Bu ayniqsa, o'quvchilarning keyingi shaxsiy va fuqarolik rivojlanishi uchun zamin yaratadigan umumiy o'rta ta'lim darajasida muhim ahamiyatga ega.

Bolaning tafakkuri, ijodiyligi, tanqidiy va mantiqiy fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan ta'lim tizimida boshlang'ich sinfni tugatayotgan har bir o'quvchi shaxsiga bir qancha zamonaviy, shu jumladan, uning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvi nuqtayi nazaridan yangi talablarni qo'yadi. Binobarin, o'qitishning maqsadlari, vazifalari, mazmuni, uslublari va usullarini qayta ko'rib chiqqan holda ishlab chiqilgan yangi milliy dasturning qabul qilinishi bu boradagi ishlarning samarasini oshirishda asosiy dasturulamal bo'lib, o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishi, aqliy va ijodiy salohiyatining yanada yuqori bo'lishida xizmat qiladi.

Shunday ekan, boshlang'ich sinflarda badiiy asarlarni o'rgatishda fanga oid kompetensiyalarni rivojlantirishning metodik ta'minotini takomillashtirishga qaratilgan, diqqatni jamlash va aniq ko'rsatilgan ma'lumotlarni topish, to'g'ridan-to'g'ri o'zi mustaqil xulosalar chiqarish, matn elementlarini tanqidiy baholash, g'oyalar va axborotni talqin qilish va uyg'unlashtirish malakalarini shakllantiradi. O'quvchilarga badiiy asarlarni o'rgatish, ularda nutq malakalarini shakllantirish, nutq o'stirishni nazarda tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayeva F. Ta'lim tizimi sifatini oshirishda pisa va timss kabi xalqaro tadqiqotlarning roli //центр научных публикаций (buxdu.uz). – 2021. – T. 3. – №. 3.
2. Nurillayevna A. F. Teaching Scientific Popular Articles in Mother Nili and Reading Literacy Courses //European journal of innovation in nonformal education. – 2022. – T. 2. – №. 3. – C. 47-50.
3. Abdullayeva F. Methodological possibilities of organization of primary school technology lessons with pedagogical technologies //центр научных публикаций (buxdu.uz). – 2021. – T. 8. – №. 8.
4. Nurullayevna A. F. Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida ilmiy ommabop maqolalarni o'rgatish //барқарорлик ва етакчи тадқиқотлар онлайн илмий журнали. – 2022. – T. 2. – №. 4. – C. 406-409.

5. Kurbanova S. Педагогическая технология–целостная система образовательного процесса курбанова шоира нарзуллаевна, абдуллаева феруза, очилова го //центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.

6. Курбанова Ш. Н. , Абдуллаева Ф. , Очилова Г. О. Педагогическая технология–целостная система образовательного процесса //новые педагогические исследования: сборник статей IV. – 2021. – С. 20.

7. Qurbonova S. N. , Abdullayeva F. Tarbiya darslarida interfaol metodlardan foydalanish //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 6. – С. 1030-1035.

8. Абдуллаева, Ф. Н. (2022). Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslarida ilmiy-ommabop maqolalarni o'rgatishning metodik imkoniyatlari: <https://doi.org/10.53885/edinres.2022.9.09.034> Abdullayeva Feruza Nurilloevna Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (9), 243-246.

9. Abdullayeva Feruza, N. (2022). Start Methodological Options for Teaching Scientific and Popular Articles in First Grade Mother Tongue and Reading Literacy Classes. International Journal of Trend in Scientific Research and Development, 6(6), 1433-1436.

10. Nurilloevna, A. F. (2022). General Structure of Teaching Courses of Popular Scientific and Artistic Articles on the Theme of the Seasons of the Year. Web of Scholars: Multidimensional Research Journal, 1(6), 1-5

TA'LIM TARBIYA JARAYONLARIDA “LIFELONG LEARNING” KONSEPSIYASI ASOSIDA BO'LAJAK O'QITUVCHISI SIFATLARINI SHAKLLANTIRISH DA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI

*Hakimova Nargiza Supxonovna
Buxoro davlat pedagogika instituti dotsenti (PhD)
Janadilova Sayida Rashid qizi
“Boshlang'ich ta'lim” yo'nalishi 1-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'limtarbiya jarayonlarida “lifelong learning” (umrbod ta'lim) konsepsiyasini joriy etish zarurati tahlil qilingan. Uchinchi Renesans davrida ta'lim sifatiga e'tibor va uning jahon miqyosidagi rivojlanish tendensiyalari ko'rib chiqiladi. Maqolada, shuningdek, uzluksiz ta'limni modernizatsiyalashda xalqaro hamkorlikning roli, raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish imkoniyatlari va xalqaro standartlarga asoslangan uzluksiz ta'lim sifatini ta'minlash tizimining asosiy elementlari yoritilgan. Mazkur ishda, shu kabi masalalarni hal etishga oid ilmiy asoslangan tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, tarbiya, modernizatsiya, modellashtirish, uzluksiz ta'lim, raqamli texnologiya, mehnat bozori, tadbirkorlik,

masofaviy ta'lim, kasbiy rivojlanish, innovatsiya, texnologiya, integratsiya, interaktiv, konsepsiya.

ЗНАЧЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ФОРМИРОВАНИИ КАЧЕСТВ БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ НА ОСНОВЕ КОНЦЕПЦИИ «НЕПРЕРЫВНОЕ ОБУЧЕНИЕ» В ПРОЦЕССАХ ОБРАЗОВАНИЯ

Хакимова Наргиза Сунхоновна.

*Бухарский государственный педагогический институт, PhD,
доцент*

Джанадилова Саид Рашидовна.

Студенка 1го курса “Начального образования”

Аннотация В данной статье анализируется необходимость внедрения понятия «обучение на протяжении всей жизни» в образовательный процесс. Рассмотрено внимание к качеству образования в период Третьего Возрождения и тенденции его развития на мировом уровне. В статье также освещена роль международного сотрудничества в модернизации непрерывного образования, возможности эффективного использования цифровых технологий, а также основные элементы системы обеспечения качества непрерывного образования на основе международных стандартов. В данной работе даны научно обоснованные рекомендации по решению подобных вопросов.

Ключевые слова: образование, воспитание, модернизация, моделирование, непрерывное образование, цифровые технологии, рынок труда, предпринимательство, дистанционное образование, повышение квалификации, инновации, технологии, интеграция, интерактив, концепция.

THE IMPORTANCE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE FORMATION OF THE QUALITIES OF A FUTURE TEACHER BASED ON THE CONCEPT OF “CONTINUOUS LEARNING” IN THE EDUCATION PROCESS

Khakimova Nargiza Suphonovna.
Bukhara State Pedagogical Institute, PhD, Associate Professor
Janadilova Said Rashidovna.
Student of the 1st stage of "Primary education"

Abstract This article analyzes the need to introduce the concept of "lifelong learning" in educational processes. Attention to the quality of education in the period of the Third Renaissance and its development trends at the world level are considered. The article also highlights the role of international cooperation in the modernization of continuous education, the possibilities of effective use of digital technologies, and the main elements of the system of ensuring the quality of continuous education based on international standards. In this work, scientifically based recommendations for solving such issues are given.

Keywords: education, upbringing, modernization, modeling, continuous education, digital technology, labor market, entrepreneurship, distance education, professional development, innovation, technology, integration, interactive, concept.

Kirish. Uchinchi Renessans O'zbekistonda uzluksiz ta'limning ta'lim (lifelong learning) konsepsiyasiga faol integratsiyalashuvi davom etmoqda. Bu hayotning barcha bosqichlarida shaxsning doimiy rivojlanishi va kasbiy ishi uchun imkoniyatlar yaratadigan keng qamrovli ta'lim tizimini yaratishga qaratilgan strategik qadamdir. [1] Bu uning ijtimoiy - hayotiy ta'lim ma'nosini bildirib, insonning "doimiy, ixtiyoriy vazifasini rag'batlantirish" shaxsiy yoki kasbiy sabablarga o'rganishga intilishi ma'nosini bildiradi.

Ma'lumki, mazkur yondashuv ta'lim-tarbiya jarayonida shaxsda hayotiy ko'nikmalarni tarkib toptirishga, uning raqobatbardoshligi va ish qobiliyati uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, insonning ijtimoiy jamiyatda inklyuzivlik, ijtimoiy faol fuqarolik va shaxsiy rivojlanishini kuchaytirishga asoslangan uzluksiz ta'lim olish orqali muvaffaqiyatlarga erishish darajasini ta'minlaydi. "Lifelong learning" (uzoq muddatli o'rganish) konsepsiyasi, ta'lim jarayonida o'qituvchilarni malaka oshirish va o'z-o'zini rivojlantirishga chaqiradi. Bu, ayniqsa, bo'lajak

o'qituvchining sifatlarini shakllantirishda innovatsion texnologiyalar yordamida amalga oshiriladi. Innovatsion texnologiyalar, ta'limda yangi yondashuvlar va metodlarni taklif etib, o'qituvchining kasbiy rivojlanishiga yordam beradi. [2]

Innovatsion texnologiyalar va "lifelong learning"ning ahamiyati quyidagicha bo'ladi:

1. **Ta'limning samaradorligini oshirish:** Innovatsion texnologiyalar o'qituvchilarga yangi o'quv metodlarini qo'llash imkonini beradi. Masalan, interaktiv darslar, onlayn resurslar, raqamli vositalar yordamida o'qituvchilar o'z malakalarini rivojlantirishi va o'quvchilarga yanada samarali ta'lim bera olishadi.

2. **O'qituvchilarning malakalarini oshirish:** "Lifelong learning" ta'lim jarayonida doimiy ravishda yangi bilimlarni o'zlashtirishni nazarda tutadi. Innovatsion texnologiyalar orqali o'qituvchilar internet, onlayn kurslar, vebinarlar va boshqa resurslardan foydalanib, o'z sohalarida malakalarini yangilab borishi mumkin.

3. **Kreativlik va innovatsion yondashuvlar:** Innovatsion texnologiyalar o'qituvchining kreativligini va ijodkorligini oshiradi. O'qituvchilar turli multimedia vositalari, raqamli o'yinlar yoki virtual haqiqat texnologiyalari orqali o'quvchilarning qiziqishini uyg'otishi va ta'lim jarayonini qiziqarli qilish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

4. **Global ta'lim resurslaridan foydalanish:** "Lifelong learning" konsepsiyasi ta'lim oluvchi har bir kishining, shu jumladan o'qituvchining o'qish, o'rganish va malaka oshirish uchun cheksiz imkoniyatlar yaratadi. Innovatsion texnologiyalar orqali o'qituvchilar butun dunyodagi ta'lim resurslariga kirish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

5. **Ta'lim jarayonini individualizatsiya qilish:** Innovatsion texnologiyalar yordamida o'qituvchilar o'z darslarini individual ehtiyojlarga moslashtirish imkoniyatiga ega. Bu o'quvchilarning turli xususiyatlariga va o'rganish uslublariga mos ta'lim berish uchun zarur.

6. **O'qituvchining o'z-o'zini baholash imkoniyati:** Innovatsion texnologiyalar orqali o'qituvchilar o'zlarining o'qitish

usullarini tahlil qilish va baholash imkoniyatiga ega bo'lishadi. Bu o'z-o'zini rivojlantirish jarayonini osonlashtiradi. "Lifelong learning" konsepsiyasi bo'yicha o'qituvchilarning sifatlarini shakllantirishda innovatsion texnologiyalar katta ahamiyatga ega. Ular o'qituvchining malakasini oshiradi, o'quv jarayonini interaktiv, samarali va individualizatsiyalangan tarzda olib borishga yordam beradi. [4]

Uzluksiz ta'limning xalqaro tajribalarga asoslangan yo'lini yaratish bo'yicha bir nechta asosiy yo'nalishlar va maqsadlar mavjud. Ular quyidagilardir:

1. Uzluksiz ta'lim dasturlari va mexanizmlarini ishlab chiqish:

- Ta'limning turli darajalari va shakllarini uzluksizligini ta'minlaydigan dasturlarni ishlab chiqish. Bu ta'limning boshlang'ich, o'rta, yuqori va professional darajalarini qamrab olishni nazarda tutadi.

- Barcha yoshdagi guruhlar uchun malaka oshirish tizimini shakllantirish. Bu tizim, ehtiyojlarga asoslangan va yoshning har bir bosqichiga mos bo'lishi kerak.

- Norasmiy va zamonaviy talablar asosida ma'lumotli ta'limni rivojlantirish, rasmiy ta'lim turlarini qo'llab-quvvatlash.

2. Ta'lim dasturlarini tan olish va akkreditatsiya qilish tizimining takomillashuvi:

- Uzluksiz ta'lim dasturlarining akkreditatsiya qilishning milliy va xalqaro standartlarini ishlab chiqish.

- Ta'limning turli shakllarida olingan malakalarni tan olish mexanizmlarini yaratish.

- Natijalarni hujjatlashtirish uchun elektron portfellar va sertifikatlar kabi raqamli vositalarni joriy etish.

5. Uzluksiz ta'limning moliyaviy imkoniyatlarini ta'minlash:

- Uzluksiz ta'limni qo'llab-quvvatlash uchun davlat grantlari, subsidiyalar va ta'lim kreditlarini taqdim etish.

- Ish beruvchilarni xodimlarning inson kapitalini rivojlantirishga sarmoya kiritishga undash.

- Hayot davomida ta'lim olishni moliyalashtirish va taqsimlash mexanizmlarini yaratish. [5]

Asosiy qism. Uzluksiz ta'limning zamonaviy jamiyat va iqtisodiyot ehtiyojlariga javob beradigan inklyuziv va moslashuvchan ta'lim tizimi yaratish, mamlakat fuqarolarining vakolatlarini doimiy ravishda rivojlantirishga yordam beradi. Bu esa, o'z navbatida, inson kapitali va mamlakatning raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qiladi. Bu jarayonlar, global va mintaqaviy darajada mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda katta ahamiyat kasb etadi. [6]

O'zbekistonda uchinchi Uyg'onish davri sharoitida raqamli texnologiyalar uzluksiz ta'limni rivojlantirish va amalga oshirishda muhim omil sifatida ularning integratsiyasi va ishlatilishida sohadagi yangi imkoniyatlar va afzalliklarga olib kelmoqda. Uzluksiz ta'limni rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari mavjud.

Ushbu imkoniyat va afzalliklar mazmuni raqamli ta'lim texnologiyalarining uzluksiz ta'limni takomillashtirilishining mavjudligi va moslashuvchanligi:

-raqamli texnologiyalar o'quvchilarga istalgan vaqtda va istalgan joyda ta'lim resurslari va dasturlariga kirish imkonini beradi, bu esa uzluksiz ta'limni yanada qulay va moslashuvchan qiladi.

-onlayn platformalar va mobil ilovalar o'z tezligida va moslashtirilgan jadval asosida o'rganish imkoniyatlarini taqdim etadi.

Shaxsiylashtirish va moslashuvchanlik:

-mashinanirganish sun'iy intellekt algoritmlari tlim tajribasini shaxsiylashtirish va tarkibni individual ta'lim ehtiyojlari va uslublariga moslashtirish uchun ishlatiladi.

-raqamli texnologiyalar o'quvchilarning rivojlanishini kuzatib borish va ularga Real vaqtda fikr-mulohazalarni taqdim etish imkonini beradi.

Interaktivlik va hamkorlik:

-virtual sinflar va hamkorlik vositalari o'quvchilarga bir-biri bilan va o'qituvchilarbilanzaro aloqada blishga imkon beradi, bu esa yanada interaktiv vaz ichiga olgan ta'lim muhitini yaratadi.

-onlayn forumlar va ijtimoiy tarmoqlar talabalar o'rtasida hamkorlik va bilim almashishni osonlashtiradi.

Ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish:

-raqamli texnologiyalar butun dunyo bo'ylab turli xil ta'lim resurslari va mutaxassislariga kirish imkoniyatini beradi.

-onlayn kurslar va dasturlar o'quvchilarga an'anaviy ta'lim muassasalari doirasidan tashqarida bilim va ko'nikmalarini kengaytirishga imkon beradi. **Innovatsion ta'lim formatlari:**

-raqamli texnologiyalar virtual va kengaytirilgan haqiqat kabi innovatsion ta'lim formatlari uchun imkoniyatlarni taqdim etadi.

-ushbu texnologiyalar yanada immersiv va amaliy ta'lim muhitini yaratishga imkon beradi.

O'zbekistonda raqamli texnologiyalarning uzluksiz ta'limga integratsiyalashuvi bilim olish imkoniyatlarini kengaytirish, sifatini va innovatsionligini oshirishga xizmat qilib, bu har bir shaxsga bilim va ko'nikmalarini doimiy ravishda rivojlantirish, tez o'zgaruvchan mehnat bozori talablariga moslashish va mamlakat taraqqiyotiga hissa qo'shish imkonini beradi. [7]

Xulosa. Yurtimizda uzluksiz ta'lim sifatini ta'minlashning barqaror va samarali tizimini yaratishga qaratilgan barcha harakatlar uzluksiz ta'lim doirasida olingan malakalarga bo'lgan ishonch va e'tirofni oshirishga xizmat qiladi. Bu, o'z navbatida, uzluksiz ta'limda ishtirok etishni rag'batlantiradi, inson kapitali sifatini oshiradi va mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga hissa qo'shadi. Mamlakatimizda uzluksiz ta'lim sifatini oshirishda uzluksiz o'qituvchilar, ish beruvchilar va umuman jamiyat tomonidan uzluksiz ta'lim dasturlariga bo'lgan ishonchni oshirishga yordam beradigan asoslangan yondashuvlar uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirishda xalqaro standartlarga muvofiqligini ta'minlaydi. Bu yurtimizda iqtisodiy o'sish, ijtimoiy taraqqiyot va uzoq muddatli farovonlikni boshqaradigan malakali, moslashuvchan va raqobatbardosh ishchi kuchini yaratish imkoniyatini oshiradi.

Foydalangan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning o'qituvchi va murabbiylar kuniga baig'shlangan tantanali marosimdagi nutqi. 2020-yil 30-sentabr. -<https://uz.uz/uz/posts/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevningituv-30-09-2020>.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-limstandartlari va davlat ta'lim talablarini ishlab chiqish hamda joriy etish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi Qarori.

3. Department of Education and Science (2000). Learning for Life: Paper on Adult Education. Dublin: Stationery Office.

4. Commission of the European Communities: Adult learning: It is never too late to learn. COM(2006) 614 final. Brussels, 23. 10. 2006

5. Rustambek Qo'ldoshev^{1,2,1}, Nargiza Dilova² and Nargiza Hakimova². Guiding left-handed students to a healthy lifestyle during the period of adaptation to school education//BIO Web of Conferences 120, 01049 (2024) MBFA 2024

6. Nargiza Hakimova. "Lifelong learning" tamoyili asosida bo'lajak o'qituvchilarni uzluksiz kasbiy rivojlantirishdagi o'rni va ahamiyati//til va adabiyot. uz ilmiy-metodik elektron jurnal научно-методический электронный журнал scientific-methodological electronic journal//2025-yil, yanvar 1-son 142-143 bet.

7. Хакимова Наргиза Супхоновна. Возможности концепции "lifelong learning" в повышении профессиональной культуры у будущих учителей// international scientific and practical conference "rapid development of multilateral international relations from a pedagogical point of view" 4 june, 2024 568-572

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA O'QUVCHILARNING PEDAGOGIK VA METODIK KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI

Husenova Aziza Sharipovna

Buxoro davlat pedagogika instituti dotsenti, p. f. f. d. (PhD)

aziza_husenova@buxdpi.uz

Mardonova Ismigul Dilshod qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti

1-kurs magistranti ismigulmardonova@gmail.com

Аннотасија. Ushbu maqolada raqamli texnologiyalar yordamida o'quvchilarning pedagogik va metodik kompetensiyalarini rivojlantirish mexanizmlari, ularning ta'lim jarayonidagi ahamiyati va samaradorlik omillari tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalar ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish imkonini beradi va o'quvchilarning nafaqat bilim olish, balki pedagogik va metodik kompetensiyalarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Zamonaviy ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalar muhim ahamiyat kasb etib, axborot olish, saqlash va uzatish jarayonlarini tezlashtirdi hamda tadqiqotchilar uchun ochiq elektron resurslardan foydalanish imkonini kengaytirilganligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: raqamlashtirish, texnologiya, kompetensiya, o'quv jarayoni, axborot, masofaviy ta'lim, sun'iy intellekt, internet, sayt, integratsiya.

ФОРМИРОВАНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ И МЕТОДИЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ УЧАЩИХСЯ С ПОМОЩЬЮ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Хусенова Азиза Шариповна

Доцент Бухарского государственного педагогического института,

доктор пед. наук. (PhD)

Мардонова Исмигуль Дилшадовна.

Бухарский государственный педагогический институт.

Магистр 1 курса

Аннотация. В данной статье проанализированы механизмы развития педагогических и методических компетенций учащихся с помощью цифровых технологий, их значение в образовательном процессе и факторы эффективности. Цифровые технологии позволяют применять инновационные подходы в образовательном процессе и служат развитию не только познавательной, но и педагогической и методической компетентности учащихся. В современном образовательном процессе цифровые

технологии приобрели важное значение, ускорили процессы получения, хранения и передачи информации, а также расширили доступ исследователей к открытым электронным ресурсам.

Ключевые слова: оцифровка, технологии, компетенции, учебный процесс, информация, дистанционное обучение, искусственный интеллект, интернет, сайт, интеграция.

FORMATION OF PEDAGOGICAL AND METHODOLOGICAL COMPETENCIES OF STUDENTS USING DIGITAL TECHNOLOGIES

Khusenova Aziza Sharipovna

Associate Professor, Bukhara State Pedagogical Institute,

Doctor of Pedagogical Sciences (PhD)

Mardonova Ismigul Dilshadovna.

Bukhara State Pedagogical Institute. 1st year master's degree

Annotation. This article analyzes the mechanisms for the development of pedagogical and methodological competencies of students using digital technologies, their importance in the educational process and factors of effectiveness. Digital technologies make it possible to implement innovative approaches in the educational process and serve not only to acquire knowledge of students, but also to develop pedagogical and methodological competencies. Digital technologies have become important in the modern educational process, accelerating the processes of obtaining, storing and transmitting information and expanding access to open electronic resources for researchers.

Keywords: digitization, technology, competence, learning process, information, distance learning, artificial intelligence, internet, site, integration.

Kirish. Zamonaviy ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalarning roli ortdi. Pedagogik va metodik kompetensiyalarni shakllantirishda innovatsion yondashuvlar, xususan, raqamli texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi Zamon jadallik bilan o'zgarishda davom etayotgan ekan

har bir davlat uchun axborot texnologiyalari, ayniqsa, sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalarning jadal kirib kelishi barcha sohalardagi munosabatlarga sezilarli ta'sir o'tkazdi. Bugungi kunda butun dunyoda jamiyat hayotining turli jabhalarini axborotlashtirish, yangi texnologiyalarni ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish tezlashdi. Kompyuter texnologiyalari sanoat ishlab chiqarishi, tadbirkorlik, ijtimoiy hayot va ta'lim, ilm-fan hamda madaniyatda sezilarli o'zgarishlarni yuzaga keltirdi. Bugungi kunda jamiyatda raqamli texnologiyalarning o'rne tobora ortdi. Raqamli texnologiyalarning taraqqiyoti ulkan hajmdagi ma'lumotlarni saqlash va uzatishda katta rol o'ynadi. U tadqiqotchilar hamda manbalar o'rtasidagi chegaralarni yo'q qildi va axborot olish jarayonini sezilarli darajada tezlashtirdi. Bugungi kunda kutubxona va arxivlarda yaratilgan raqamlashtirilgan kitoblar, gazetalar va hujjatlar banklari ushbu resurslarning joylashuviga bog'liq bo'lmagan holda ulardan tezroq foydalanish imkonini berdi.

Raqamli texnologiyalar tadqiqotchilar va axborot manbalari o'rtasidagi to'siqlarni olib tashladi, ularga katta mablag' sarflamasdan kerakli ma'lumotlarga ega bo'lish imkoniyatini taqdim etdi, rasmiyatchilik bilan bog'liq vaqtni tejadi hamda virtual muloqot uchun sharoit yaratdi. Shubhasiz, tadqiqotchilar uchun ochiq elektron kutubxonalar va arxivlar katta qulaylik tug'diradi, ulardan hech qanday moddiy xarajatlarsiz axborot olish mumkin.

Asosiy qism. Bugungi kunda butun dunyoda jamiyat hayotining turli jabhalarini axborotlashtirish, yangi texnologiyalarni ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish tezlik bilan kechmoqda. Kompyuter texnologiyalari sanoat ishlab chiqarishi, tadbirkorlik, ijtimoiy hayot va ta'lim, ilm-fan hamda madaniyatda sezilarli o'zgarishlarni yuzaga keltirdi. Bugungi kunda jamiyatda raqamli texnologiyalarning o'rne tobora ortib bormoqda.

An'anaviy ta'lim usullari bilan solishtirilganda, zamonaviy texnologiyalar ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilar uchun individual yondashuvni yo'lga qo'yish va ularning metodik ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi. Masalan, onlayn ta'lim platformalari, virtual laboratoriyalar, sun'iy intellekt asosida

ishlaydigan o'quv dasturlari o'quvchilarga pedagogik jarayonni yaxshiroq tushunishga va amaliy ko'nikmalarni hosil qilishga yordam beradi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar yordamida o'quvchilar mustaqil ravishda ta'lim olish va o'z ustida ishlash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Mamlakatlar o'rtasidagi globallashuv jarayonlari internet, shaxsiy raqamli gadjetlar va tezkor axborot uzatish texnologiyalarining rivojlanishiga turtki bo'lib, dunyo ta'lim tizimida tub burilishlarga sabab bo'ldi. Jahon ta'lim tizimining global innovatsion indeks reytingidagi o'rni ilm-fan, ixtirochilik hamda texnologiyalar transferini rivojlantirish, raqamli texnologiyalarni o'quv jarayoniga keng tatbiq etish talabini ilgari surmoqda. Natijada, ta'lim oluvchilarning kasbiy mahoratini shakllantirish, mustaqil va ijodiy tafakkurni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Axborot texnologiyalari yordamida ta'lim jarayonini samarali tashkil etish borasidagi ilmiy tadqiqotlarga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining bugungi taraqqiyot darajasi, turli soha va tarmoqlarning raqamlashtirilishi hayotimizni internet tarmog'isiz tasavvur qilishni imkonsiz qilib qo'ymoqda. Ayniqsa, ta'lim muassasalari faoliyati, xususan, koronavirus pandemiyasi davrida raqamli makonga o'tishga majbur bo'ldi.

Asosiy vazifalardan biri – “Raqamli O'zbekiston – 2030” konsepsiyasini amaliyotga tatbiq etish bo'lib, u barcha soha va tarmoqlarni qamrab olgan. Ushbu yirik loyihani amalga oshirish mamlakat iqtisodiyotining kompleks rivojlanishiga va raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiladi. [3]

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrda qabul qilingan “Ta'lim to'g'risida”gi Qonunning 11-moddasida oliy ta'limga oid quyidagi fikrlar qayd etilgan: “Oliy ma'lumotli mutaxassislarni tayyorlash oliy ta'lim muassasalarida (universitetlar, akademiyalar, institutlar, oliy maktablar) amalga oshirilib, bakalavriat va magistratura yo'nalishlarida yuqori malakali kadrlar tayyorlanishini ta'minlaydi”. [1]

Raqamli texnologiyalar endilikda shunchaki trend emas, balki taraqqiyotning muhim omili sifatida o'z ahamiyatini oshirmoqda.

O'zbekiston ta'lim, sog'liqni saqlash va davlat xizmatlari bosqichma-bosqich raqamlashtirilmoqda. Davlat boshqaruvi tizimida elektron hukumat loyihalarining joriy etilishi byurokratik jarayonlarni soddalashtirish, shaffoflikni ta'minlash va fuqarolarning faolligini oshirishga imkon bermoqda.

Davlatimiz rahbari raisligida 2022-yil 8-iyun kuni axborot texnologiyalari va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha o'tkazilgan yig'ilishda eng zarur bo'lgan davlat xizmatlarini tezkor ravishda elektron shaklga o'tkazish muhimligi ta'kidlandi. [4]

Bugungi kunda raqamli iqtisodiyot, "Elektron hukumat" xizmatlariga talab kundan-kunga ortib bormoqda. Ammo hozirda mavjud bo'lgan 780 turdagi davlat xizmatidan atigi 185 tasidan "elektron portal" orqali foydalanish imkoniyati mavjud. Aksariyat tashkilotlarda ish jarayonini raqamlashtirish faqat hujjatlar aylanishini elektron shaklga o'tkazish bilan cheklanmoqda. Shu bois, elektron hukumat tizimini yanada rivojlantirish va fuqarolar uchun zamonaviy, qulay davlat xizmatlarini taklif etish alohida ahamiyat kasb etadi. [1]

Pedagogik va metodik kompetensiyalarning ta'lim jarayonidagi o'rni [7]

Pedagogik kompetensiya – bu o'quvchilarning pedagogika sohasidagi nazariy va amaliy bilimlarini shakllantirish, o'qitish jarayonini samarali tashkil etish hamda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish qobiliyatidir. Metodik kompetensiya esa o'quvchilarning ta'lim jarayonida metodik yondashuvlarni samarali qo'llay olish, dars jarayonini didaktik talablar asosida tashkil etish va ta'lim resurslaridan foydalana olish qobiliyatlarini o'z ichiga oladi.

Raqamli texnologiyalar ta'lim jarayonining barcha bosqichlariga integratsiya qilinib, ta'lim sifatini oshirishda muhim omil sifatida qaraladi. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), masofaviy ta'lim platformalari, sun'iy intellekt, virtual va kengaytirilgan reallik kabi texnologiyalar o'quvchilarning mustaqil ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytiradi va ularning pedagogik hamda metodik kompetensiyalarini shakllantirishda yangi yondashuvlarni taklif etadi.

Raqamli texnologiyalar va ularning ta'lim jarayonidagi roli [9]

Raqamli texnologiyalar yordamida o'quvchilarning pedagogik va metodik kompetensiyalarini shakllantirish zamonaviy ta'lim tizimi oldidagi dolzarb vazifalardan biridir. Raqamli texnologiyalar ta'lim jarayoniga chuqur integratsiya qilingan taqdirda, o'quvchilarning nafaqat nazariy bilimlari, balki amaliy kompetensiyalari ham rivojlanadi. Shu sababli, ta'lim muassasalari quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirishi lozim: o'qituvchilar va o'quvchilar uchun raqamli texnologiyalarni o'qitish bo'yicha maxsus trening va kurslarni tashkil etish. Raqamli ta'lim resurslarini takomillashtirish va ularni ta'lim jarayoniga joriy etish. Raqamli texnologiyalar orqali o'quvchilarning pedagogik va metodik kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan maxsus dasturlarni ishlab chiqish.

Texnologik resurslardan foydalanish strategiyalari:[5]

Raqamli texnologiyalar yordamida o'quvchilarning pedagogik va metodik kompetensiyalarini rivojlantirish uchun quyidagi strategiyalardan foydalanish mumkin:

- **O'quv jarayonida multimediya vositalaridan foydalanish:** Video darsliklar, animatsiyalar va audio resurslar orqali o'quvchilar murakkab mavzularni oson tushunishlari mumkin.

- **Onlayn seminarlar va vebinarlar tashkil qilish:** Bu usul orqali o'quvchilar o'z pedagogik va metodik bilimlarini yanada chuqurroq o'rganishlari va real tajriba orttirishlari mumkin.

- **Loyiha asosida o'qitish (Project-based learning):** O'quvchilarga mustaqil tadqiqot va loyihalar ustida ishlash imkoniyati berish pedagogik va metodik kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Raqamli texnologiyalar yordamida pedagogik va metodik kompetensiyalarni rivojlantirish mexanizmlari. [8]

O'quvchilarning pedagogik va metodik kompetensiyalarini rivojlantirishda quyidagi mexanizmlar samarali hisoblanadi:

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish: Elektron darsliklar, multimediya vositalari va interaktiv platformalar orqali pedagogik bilimlarni mustahkamlash.

Masofaviy ta'lim tizimlari: Moodle, Coursera, Google Classroom kabi tizimlar yordamida pedagogik va metodik bilimlarni mustaqil o'rganish va amaliyotga tatbiq etish. [10]

Sun'iy intellekt va adaptiv ta'lim tizimlari: Talabalarning bilim darajasiga moslashgan ta'lim resurslarini taqdim etish orqali individual yondashuvni ta'minlash. [3]

Virtual va kengaytirilgan reallik texnologiyalari: Simulyatsiya va interaktiv muhitlar yordamida amaliy kompetensiyalarni rivojlantirish.

Elektron portfoliolar va bloglar: O'quvchilarning ta'lim jarayonidagi yutuqlari va pedagogik yondashuvlarini tizimli ravishda shakllantirish.

Raqamli texnologiyalarning pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirishdagi afzalliklari va cheklovlari:[7]	
Afzalliklari:	Cheklovlari:
Individual yondashuv va moslashuvchan ta'lim muhitini yaratish.	Texnologik infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi.
O'quv jarayonining interaktivligini oshirish.	O'qituvchilarning raqamli texnologiyalarni qo'llash kompetensiyasining yetishmovchiligi.
Pedagogik tajribalarni amaliyotga tatbiq qilish imkoniyatlarini kengaytirish.	Texnologiyalarga haddan tashqari bog'lanib qolish natijasida an'anaviy ta'lim usullarining zaiflashuvi.
O'quv materiallarini vizualizatsiya qilish orqali o'zlashtirish samaradorligini oshirish.	

1-ilova

Xulosa va tavsiyalar. Xulosa qilib aytganda, "raqamlashtirish" tushunchasi insoniyat hayotining barcha jabhalarida raqamli texnologiyalardan foydalanish bilan bog'liq strategik jarayonni anglatadi. "Aqlli shahar" loyihalarining rivojlanishi raqamlashtirishning ahamiyati ortib borayotganining yaqqol dalilidir. To'rtinchi sanoat inqilobi yuqori tezlikdagi internetdan

foydalanish orqali raqamli ma'lumotlarga qulay va tezkor kirish imkoniyatini kengaytirmoqda.

Internetda academia. edu kabi saytlarning mavjudligi turli davlatlardagi olimlarga tadqiqot natijalari bilan o'rtoqlashish imkonini beradi. Shuningdek, bunday platformalar mualliflarning ilmiy maqolalariga havolalar sonini, ularning o'qilish darajasini kuzatish imkoniyatini taqdim etadi.

So'nggi yillarda butun dunyoni qamrab olgan pandemiya sharoitida o'quv jarayonini tashkil etishda, tadqiqotchilarning axborot manbalaridan foydalanishida raqamli texnologiyalar muhim rol o'ynamoqda. Bugungi kunda maktab yoki universitetdagi darslarni, ilmiy anjumanlarni multimedia vositalarisiz, elektron taqdimotlarsiz tasavvur qilish qiyin.

Ta'lim jarayonida raqamlashtirish zamonaviy texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirib, resurslardan foydalanish samaradorligini oshirmoqda. Talabalar uchun smartfon, planshet va noutbuklardan nafaqat muloqot va o'yin-kulgi, balki ta'lim olish vositasi sifatida foydalanish tobora dolzarb bo'lib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Jurayev T. V. , Komilova Sh. Ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanishning pedagogik tamoyillari. Eurasian Journal of Technology and Innovation, 2024. -116 b.
2. Dushabayev A. M. Ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanish. 2024. -56b
3. Akilov B. D. Ta'limda raqamli texnologiyalarni qo'llash ahamiyati. 2023. -203b
4. Karimov T. X. Raqamli axborot texnologiyalarining ta'limda foydalanishning dolzarb jihatlari va ahamiyati. 2024. -73b
5. Karimov Sh. F. Umumiy o'rta ta'limi tizimini raqamlashtirish islohoti davrida pedagog kadrlarning raqamli ko'nikmalarini rivojlantirish masalasi. 2024. -89b
6. Yoldoshmaxmudov Sh. X. Ta'limda raqamli iqtisodiyot: istiqbol va rivojlanish istiqbollari. 2022. -26b
7. Xummatova K. X, Xolimmatova M. A. Ma'ruza mashg'ulotlarini samarali tashkil etishda interaktiv metodlardan foydalanish. Raqamli texnologiyalarni o'quv jarayoniga joriy etishning zamonaviy holati va istiqbollari, 2023. -186b
8. Ubaydullayev S. A, Shomirzayev M. Raqamli texnologiyalar asosida o'quvchilarning hunarmandchilik kompetensiyalarini rivojlantirish didaktik imkoniyatlari. " 2023. -194b
9. Sherzod Karimov. "Ta'limni raqamlashtirishga oid islohotlarida o'qituvchining raqamli kompetensiya tushunchasi. " 2023. -304b
10. Ziyodov N. "Ta'lim texnologiyalari: innovatsion yondashuvlar. " Toshkent, 2020. -254b.

INGLIZ TILIDA QIYMAT, JISMONIY XUSUSIYAT, INSON HATTI-HARAKATLARINI IFODALOVCHI SIFATLAR

Mayliyeva Gulmira Bahramovna
Urganch davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada ingliz tilshunosligida mavjud bo'lgan sifatning 13 ta semantik guruhlaridan qiymatni, jimoniy xususiyatni va inson hatti-harakatlarini ifodalovchi sifatlar borasida so'z yuritilib, ularning o'zbek tilidagi sifatning 9 ta semantik guruhlar bilan o'xshash va farqli jihatlari aniqlab beriladi.

Kalit so'zlar: sifat, semantik guruhlar, qiymatni ifodalovchi sifatlar, jimoniy xususiyatni ifodalovchi sifatlar, inson hatti-harakatlarini ifodalovchi sifatlar.

ПРИЛАГАТЕЛЬНЫЕ, ВЫРАЖАЮЩИЕ ЦЕННОСТЬ, ФИЗИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ, ПОВЕДЕНИЕ ЧЕЛОВЕКА В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ

Гулмира Бахромовна Майлиева
студент Ургенчского государственного университета

Аннотация: в данной статье рассматриваются 13 семантических групп прилагательных, существующих в английской лингвистике, о прилагательных, выражающих значение, физические характеристики и действия человека, а также определяются их сходства и различия с 9 семантическими группами прилагательных узбекского языка.

Ключевые слова: прилагательное, семантические группы; прилагательные, выражающие значение; прилагательные, выражающие физические характеристики; прилагательные, выражающие поведение человека.

ADJECTIVES EXPRESSING VALUE, PHYSICAL CHARACTERISTICS, HUMAN BEHAVIOR IN ENGLISH

Gulmira Bakhromovna Mailieva

Independent student of Urgench State University

Abstract: in this article, the 13 semantic groups of adjectives existing in English linguistics are discussed about adjectives expressing value, social characteristics and human actions, and their similarities and differences with the 9 semantic groups of adjectives in Uzbek language are determined.

Key words: adjective, semantic groups, adjectives expressing value, adjectives expressing physical characteristics, adjectives expressing human propensity.

Leksik birliklar semantikasini tadqiq qilishga bo'lgan ilmiy qiziqishning ortib borayotganligi esa bugungi kunda tilning semantik tuzilishini gradual jihatdan tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatib bermoqda. Sistem leksikologiyaning taraqqiy etishi asnosida leksik-semantik guruhlar tarkibida graduonimiya, giponimiya kabi tushunchalar paydo bo'la boshladi.

Sifat asosan predmetning, qisman harakatning belgisini bildiradi. Belgi tushunchasi o'z ichiga xarakter-xususiyat, rang-tus, maza-ta'm, shakl, vazn-o'lchov kabilarni qamrab oladi. Bular sifatning ma'noviy guruhlari hisoblanib, ular ham ma'lum bir semantik va grammatik xususiyatlarga asoslanadi.

Shunday sifatning ma'noviy guruhlaridan biri *xususiyat* sifatlaridir. Xarakter-xususiyat sifatleri insonning turli-xil belgi xususiyatlarini, ya'ni uning axloqiy, intellektual, ijtimoiy belgilarini, shaxsiy xarakterlarini, narsa va mavjudotning xarakter-xususiyatini ifodalashda ko'p qo'llanadigan so'zlardir. Bunday sifatlar ijobiy va salbiy yoki neytral holatda bo'lishi mumkin:

a) Insonning xarakter-xususiyatiga xos ijobiy sifatlar: *muloyim, odobli, chapdast, chaqqon, abjir, ziyrak, mo'min, sodiq, mohir, pok, sipo, o'ktam, asl, quvonch, ozoda, sof, yaxshi, dadil, xushmuomala, rostgo'y, mehribon* va boshqalar.

b) kishilarga xos salbiy xarakter-xususiyatni bildiruvchi sifatlar ko'pincha ijobiy xususiyatni bildiruvchi sifatlarga antonim bo'ladi: *zolim, nokas, toshbag'ir, shafqatsiz, quv, ayyor, muttaham, g'ayir, tannoz, takabbur, o'jar, xudbin* va boshqalar.

Kishilarga xos salbiy va ijobiy xususiyatlarining gap-so'zini, o'y-niyatini yoki ta'na a'zolarini sifatlash orqali ham bildiriladi.

Xarakter-xususiyat sifatlarining yana shundaylari borki, ularda ijobiy va salbiylik yaqqol ko'rinib turmaydi. Matndan ularning ma'nosini anglab olish mumkin. Masalan: *dovdir, loqayd, sho'x, mahmadona, sinchkov, mag'rur, indamas, o'jar, shaddod, to'pori* va boshqalar. Indamas odam birikmasida indamas sifati salbiy munosabat ifodasi uchun qo'llangan bo'lsa, "U tabiatan indamas, odamovi bo'lsa ham, ko'pgina zulm va shafqatsizliklarga indamay qo'ya qolardi" misolida esa ijobiy semasini namoyon qilgan.

Predmet (narsa, hayvon, jonivor) holati, hodisa va shu kabilarning xarakter-xususiyatini ifodalash uchun qo'llanuvchi sifatlar: *fayzli, dabdabali, tashvishli, yovvoyi, sun'iy, tabiiy, qimmat, arzon* va boshqalar. Kishi va predmet xususiyatlari uchun birdek qo'llanaveradigan sifatlar: *chiroyli, xunuk, katta, zo'r, chidamli* va hokazolar.

O'zbek tilida sifatning 9 ta semantik guruhi mavjud bo'lib, ular xarakter-xususiyatni, holatni, hajmni, rangni, maza-ta'mni, hidni, shaklni, o'rinni va paytni (Sodiqova M. , 1974; Sayfullayeva R. , Mengliyev B. va boshqalar, 2009) ifodalovchi semantik guruhlar hisoblanadi. Ushbu semantik guruhlar asliy sifatlarning lug'aviy ma'nosini ifodalovchi guruhlar bo'lib, turli davrlarda turlicha tasniflangan va boshqa tillarda ham turli tasniflashga ega sanaladi.

Ingliz tilshunosligida ham sifatning semantik guruhlari o'zbek tilidagi semantik guruhlarga o'xshash va farqli jihatlari bilan bir qancha olimlar tomonidan talqin qilingan. Dastlab Diksonning tasnifini o'rganib chiqish maqsadga muvofiq sanaladi, chunki unda sifatning barcha leksik ma'nolarini o'zida mujassamlashtirgan semantik guruhlar o'z ifodasini topadi. Dikson sifatni dastlab 7 ta, keyinchalik 11 ta va eng oxirgi tasnifiga ko'ra 13 ta ma'noviy guruhlarga ajratadi: value-qiymatni, dimension-hajmni, color-rangni, physical property-jismoniy xususiyatni, human propensity-inson hatti-harakatlarini, age-yoshni, speed-tezlikni, qualification-sifat, xususiyatni, quantification-miqdorni, similarity-o'xshashlikni, position-o'rin-joyi, cardinal numbers-sanoq sonlarni hamda volition-iroda, inson moyilligini ifodalovchi sifat semantik guruhlari hisoblanadi (Dixon, 1982, 1991, 2004).

Yuqoridagi semantik guruhlardan eng keng tarqalgan guruhlar qiymatni, jismoniy xususiyatni, inson hatti-harakatlarini ifodalovchi sifatlar sanaladi. Ushbu guruhlar o'zbek tilida xarakter-xususiyatni, holatni bildiruvchi sifat guruhlariga mos keladi. Ular shaxs va narsaning tashqi, ruhiy, iqtisodiy holat, xususiyatini ifodalaydi.

Ushbu ma'noviy guruhlarini o'rganish jarayonida aniqlangan eng muhim jihat shundan iboratki, sifatning ko'p ma'noli hamda matnda turli semantik jihatlarga ega ekanligini inobatga olib, matnda ifodalab kelgan ma'nosiga ko'ra sifat bir vaqtning o'zida bir qancha semantik guruhlarga tegishli bo'lishi mumkin ekan. Masalan, maza-ta'mni ifodalovchi *delicious-mazali* sifati matnda value-qiymatni ifodalab keluvchi sifat semantik guruhiga taaluqli bo'lishi mumkinligi aniqlangan: *you're so delicious-sen biram yoqimtoysan*.

O'zbek tilida ham huddi shu kabi sifatlar tahlil qilinib, ular biror ma'noviy guruhga mansub bo'lsa-da, matnda ifodalab kelgan ma'nosiga ko'ra boshqa semantik guruhga taaluqli ekanligi aniqlandi: *shirin hayol, baland ovoz, oppoq orzu*. Bu jihat sifatning funksional-semantik

xususiyatlaridan sanalib, matnda ifodalab kelgan vazifasiga ko'ra ma'noviy guruhlariga tegishli bo'lishi mumkin sanaladi.

Sifatning yana bir muhim funksional-semantik jihati shundan iboratki, sifat matnda otlashgan va otlashmagan ko'rinishlarda qo'llaniladi. Sifat otlashib kelganda sifatlovchi-aniqlovchi, kesim vazifasida, qaratqich-aniqlovchi, undalma hamda ravish ko'rinishlarida matnda qo'llaniladi. Otlashgan sifatlar otning grammatik shaklini olib, vazifa jihatdan ot so'z turkumi sifatida qoraladi, biroq lug'aviy ma'nosi sifatni ifodalab keladi. Shuni ta'kidlash kerakki, otlashgan sifatlar o'zi birikib kelgan so'z bilan birga emas, balki mustaqil ravishda ot so'z turkumini ifodalab uni nomlab keladi (Abdurahmonov G. , 1950, 2.), bu o'zbek tilida ham, ingliz tilida ham uchraydigan jarayon hisoblanadi: *yaxshi-oshini yer, yomon-boshini. The rich are always happy and positive.* Bu kabi misollarni mashhur amerikalik yozuvchi Teodor Drayzerning "Baxtiqaro Kerri" (T. Drayzer. 2019) asaridan olib tahlil qilib chiqamiz: 1. *U o'zining jur'atidan qo'rqib, ozodlikka chiqqanidan suyunib, joyida u yog'idan bu yog'iga ag'darilib yotarkan, birorta ish topa olarmikinman, Drue nima qilarkin, deb o'ylardi.* Ushbu misolda ozodlikka so'zi *-lik* qo'shimchasi yordamida otlashib, gapda to'ldiruvchi vazifasida kelganligini ko'rishimiz mumkin.

Shu bilan birgalikda chet tillarni o'qitish sohasida ham ilg'or texnologiyalar mavjud bo'lib, dars mashg'ulotlari davomida ularni qo'llash o'quv jarayonini samaradorligini oshirib beradi. Asosan til o'rgatuvchi saytlardan ko'proq foydalangan holda dars mashg'ulotlarini olib boramiz, masalan, kahoot, blooket, kitoblarning online ko'rinishida flipbuilder sayti ham ancha samara bermoqda.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki, ingliz tilida sifat semantik guruhlaridan eng keng tarqalgan guruhlar qiymatni, jismoniy xususiyatni, inson hatti-harakatlarini ifodalovchi sifatlar sanaladi. Ushbu guruhlar o'zbek tilida xarakter-xususiyatni, holatni bildiruvchi sifat guruhlariga

mos keladi. Ushbu sifatlar matnni jozibali va keng mazmunga ega bo'lishida muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Абдурахмонов Г. Субстантивированные прилагательные в современном узбекском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Самарканд, 1950. – С. 2-3.
2. Dixon R. M. W. , Alexandra Y. Aikhenvald. Adjective classes, a cross-linguistic typology. – Oxford: Oxford university press, 2004.
3. Dixon R. M. W. Where have all adjectives gone? And other essays in semantics and syntax. – Berlin: Mouton, 1982.
4. Dixon R. M. W. A semantic approach to English grammar. – Oxford: Oxford University Press, 1991.
5. Teodor Drayzer. Baxtiqaro Kerri. – Toshkent: Yangi nashr, 2019.
6. Theodore Dreiser. Sister Carrie. – United States: Doubleday, 1900.
7. Содиқова М. Ҳозирги ўзбек тилида сифат. – Т.: Фан, 1974.
8. Sayfullayeva R. , Mengliyev B. , Boqiyeva G. , Qurbonova M. , Yunusova Z. , Abuzalova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2009. – 416 b.

TA'LIM TARBIYA JARAYONIDA BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA DIDAKTIK O'YINLAR VA INNOVATSION TEKNOLOGIYALARNING O'RNI VA AHAMIYATI

Raximova Ruxsora Haydar qizi
Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim tarbiya jarayonida didaktik o'yinlar va inovatsion texnologiyalar nafaqat boshlang'ich sinflarda, balki ta'limning keyingi bosqichlarida ham o'quvchilarning bilimga bo'lgan ishtiyoqlari rivojiga katta turtki bo'lishi hamda ayniqsa, qiyin o'zlashtiruvchi o'quvchilarning bilish imkoniyatlarini oshirishga bunday o'yinlar samarali ta'sir ko'rsatadi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, boshlang'ich sinflar uchun yaratilayotgan o'quv qo'llanmalarida shu sohaga oid materiallar tanqisligi ko'zga tashlanib turishi haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, tarbiya, didaktik o'yin, boshlang'ich sinf, metod, tafakkur, mustaqil topshiriqlar, innovatsiya, rivojlantirish, innovatsiya, rivojlantirish.

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ДИДАКТИЧЕСКИХ ИГР И ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА УРОКАХ РОДИНОГО ЯЗЫКА В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ В УЧЕБНОМ ПРОЦЕССЕ

Рахимова Рухсоры дочь Хайдара.

Соискатель Бухарского государственного университета

Аннотация: В данной статье в образовательном процессе дидактические игры и инновационные технологии являются большим стимулом для развития энтузиазма учащихся не только в начальных классах, но и на более поздних этапах обучения, а также оказывают эффективное воздействие на повышение познавательных способностей особо труднообучаемых учащихся. Следует отметить, что в создаваемых учебных пособиях для начальных классов наблюдается заметная нехватка материалов по данной области.

Ключевые слова: обучение, дидактическая игра, начальный класс, метод, мышление, самостоятельные задания, новаторство, развитие.

THE ROLE AND IMPORTANCE OF DIDACTIC GAMES AND INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN NATIVE LANGUAGE LESSONS IN PRIMARY CLASSES IN THE EDUCATIONAL PROCESS

Rakhimova Rukhsory, daughter of Haydar.

Applicant at Bukhara State University

Abstract: In this article, in the educational process, didactic games and innovative technologies are a great impetus to the development of students' enthusiasm for knowledge, not only in primary grades, but also in the later stages of education, and such games have an effective effect on increasing the cognitive abilities of especially difficult-to-learn students. It should be noted that there is a noticeable shortage of materials in this field in the educational manuals being created for primary classes.

Key words: education, training, didactic game, primary class, method, thinking, independent tasks, innovation, development.

Kirish: Bilamizki bugungi XXI asr texnologiyalar asri desak hech ham mubolag'a bo'lmaydi. Chunki butun dunyo bo'ylab har jabhada texnologiyalar yaratilmoqda va uni har bir sohada qo'llab juda kata yutuqlarga erishilmoqda. Ularni nafaqat texnika yoki ishlab chiqarish turli korxonalar balki ta'lim –tarbiya jarayonlarida ham juda keng ravishda foydalanishmoqda. Ular yordamida nafaqat talabalarga bilimni oson yetkazish mumkun, balki yosh o'sib kelayotgan navqiron o'quvchilarga ham bilim berish jarayonida qo'llashmoqda bu esa bilimni oson va qiyinchiliksiz egallab bir nechta maqsadlarga yetish imkoniyatini bizga yaratib beradi. Innovatsiyalarni ta'lim jarayonlarida qo'llash juda kata imkoniyatlarni bizga ochib beradi. Biz innovatsiyalarni ta'lim tarbiya jarayonida qo'llash orqali o'quvchilarga nazariy bilimlarni berish bilan bir qatorda ularga amaliy qo'llab ko'rish imkoniyatini yaratib beramiz ular nafaqat ularni o'rganadi balki o'zlari ham o'rgangan narsalari orqali biror bir yangilik kiritishni o'rganib o'zlari biz o'rgatgan narsalarga qo'shimcha tarzda kirita olishni o'rganadilar. [1]

Boshlang'ich sinflarda ta'lim samaradorligini, o'quv predmetlarining ta'lim-tarbiyaviy va amaliy ahamiyatini orttirishda, o'quvchilarning o'quv predmetlarini o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini uyg'otishda, boshqa metodik masalalar bilan o'quvchilarni tanishtirish alohida ahamiyat kasb etadi. "Bu vazifani ijobiy hal qilishning imkoniyatlaridan biri darslarda didaktik o'yinlardan unumli foydalanishdir".

Didaktik o'yinda bola yaxshi xulqiy sifatlarga ega bo'ladi. Didaktik o'yinlar bir necha bosqichlarga bo'linadi. Har bir bosqichda bolaning ma'lum bir imkoniyatlari namoyon bo'ladi. Tarbiyachining bu bosqichlar xarakterini bilishi didaktik o'yinlarning samaradorligini aniqlashda katta ahamiyatga ega. Birinchi bosqichda bolada o'ynash ishtiyoqi paydo bo'ladi va o'yinda faollik ko'rsata boshlaydi. Ana shu bosqichda bolani o'yinga qiziqtirish maqsadida topishmoqlar, tez aytishlar, aytishuvlar yoki suhbatlar tashkil qilish mumkin. Ikkinchi bosqichda bola o'yin

topshiriqlarini bajarish, qoidaga rioya qilishga o'rganadi va o'yinda qatnashishga kirishadi. Bu bosqichda bolalarda to'g'riso'zlik, maqsadga erishishga astoydil kirishish, irodaviylik, o'yinda yutqizish alarnini ham eng bilish, o'z muvaffaqiyatidangina emas, o'rtoqlari muvaffaqiyatidan ham quvonabilish kabi ijobiy sifatlar shakllanadi. O'yinning uchinchi bosqichida bola o'yin qoidalarini yaxshi biladi. U endi o'yinga ijodiy yondoshadi, o'zi yangiliklar kiritadi, mustaqil ijodiy izlanadi. O'yinda qatnashish jarayonida u tez javob topish, yashirish, izlash, yugurish, tasvirlash va boshqa shu kabi vazifalarni bajaradi. O'yinnin har bir etapi ma'lum bir pedagogik vazifalarni o'z ichiga oladi. O'yinning birinchi bosqichida pedagog bolalarni o'yinga qiziqtiradi, ularda xush kayfiyat, yangi o'yinlarni kutishga ishtiyoq uyg'otadi. Ikkinchi etapida esa u o'yinni kuzatuvchi emas, balki qatnashchisi sifatida faoliyat ko'rsatadi, o'yin davomida bolalarga tez yordamga keladi, bolalarning faoliyatiga to'g'ri baho beradi. O'yinning uchinchi etapida o'qituvchi bolalarni o'yin davomidagi ijodkorligi va faolligiga baho beradi. [2]

Asosiy qism. Didaktik o'yinlar o'quvchilarda mustaqil fikrlashni tarbiyalashning eng to'g'ri va samarali metodidir. U ma'lum bir materiallar yoki shart-sharoitlarni talab etmaydi, balki o'qituvchidan o'yinni tashkil etish sohasidagi bilim va malakalarni talab etadi. O'yinning ma'lum bir tizim va metodika asosida tashkil etilishigina o'quvchilarda mustaqil fikrlash qobiliyatini tarbiyalashda muhim o'rin tutadi.

O'yin mashg'ulotlari ta'lim jarayonida o'quvchilarning egallangan bilim, ko'nikma va malakalariga tayanadi va shundagina o'quvchilar o'yinning samarali yechimlarini topa biladilar, o'zlari va atrofdagilarga talabchanlik namoyon qiladilar.

O'yindan ta'lim shakli sifatida foydalanish o'qituvchidan o'ziga ishonch va o'yinni qo'llashda mohirlik talab etadi.

Didaktik o'yinlar bir qancha vazifalarni bajaradi:

- ta'limiy, tarbiyaviy (o'quvchi shaxsiga ta'sir ko'rsatadi, tafakkurini rivojlantiradi, dunyoqarashini kengaytiradi);
- qo'llanuvchanlik (aniq vaziyatda har qanday o'quv topshiriqlarini bajarish uchun bilimlarni qo'llay bilish);
- motivni qo'zg'ash, qiziquvchanlikni oshirish (o'quvchilarni

bilish faoliyatiga qiziqtiradi, rag'batlantiradi, bilish qiziquvining rivojlanishiga yordam beradi).

Didaktik o'yinlar vositasida o'quvchilarda bilimga qiziqishni uyg'otish uning qiziqishlariga tayanib tashkil etilsa samarali bo'ladi. Bunday hollarda bolada doim yangiliklarni bilishga ishtiyoq uyg'onadi, bilimga qiziqish uyg'onadi. Bilimga qiziqishni muntazam rivojlantirish va mustahkamlash kichik maktab o'quvchilarining o'qishga ijobiy munosabatlarini tarbiyalaydi, o'zlashtirish darajasini oshiradi. Bilishga qiziqish kichik maktab o'quvchisini izlanishga o'rgatadi, u doim har xil savollarga javobni qidirishga o'rganadi. O'quvchining izlanuvchanlik faoliyati unda emotsional ko'tarinkilik, muvaffaqiyatdan quvonish hissini tarbiyalaydi. Bilishga qiziqish faqat ta'lim jarayoni natijasiga ijobiy ta'sir qilib qolmay balki tafakkur, idrok, xotira, diqqat kabi psixik jarayonlarning faol rivojlanishiga ham ta'sir ko'rsatadi. Didaktik o'yinlar o'zining shakli jihatidan asosan bog'chada o'ynaladigan ijodiy o'yinlardan ham, o'qituvchi o'zi hikoya qilib berish yo'li bilan tushuntiradigan va o'quvchilarni birma-bir so'rab chiqish natijasida mustahkamlanadigan o'yinlardan ham har tamonlama farq qiladi. [4]

Didaktik o'yinlar o'qitish vazifasiga xizmat qiladi va qiziqarli, maroqli, tushunarli darajada olib boriladi. Bolalar g'olib chiqish maqsadida jonu dili bilan mashq qiladilar, berilgan har bir topshiriqni albatta bajarishga odatlanib qoladilar, natijada ularda didaktik topshiriqlarni bajarishga bo'lgan qiziqish orta boradi. Didaktik o'yinlar har bir darsning maqsadini, har bir mashqning maqsad va vazifalarini yaxshiroq tushunib olishga yordam beradi. [5]

Xulosa. Didaktik o'yinlar ta'limning ko'rgazmaliligini, o'qituvchining nutqini va bolalar harakatini o'z ichiga oladi, buning natijasida idrokda (ko'rish, eshitish, teri sezgisi belgilarida) birlik tug'iladi. Bu esa o'qituvchining aytganlarini bolalarning o'ylab olishiga va o'sha aytilganlarni ifodalab berishlariga, ya'ni didaktik o'yinlar qoidalarini o'quvchilarning o'zlari bajarishlariga imkon beradi. Didaktik o'yinlarning tarzda tuzilish xususiyatlari o'quvchilar faoliyatini tahlil qilish imkoniyatini beradi. Shuning uchun ham barcha bolalar o'yin vaqtida qiziqish bilan harakat

qiladilar. O'qituvchi izlanuvchan, ijodkor, fanini puxta biladigan va shu fani orqali o'quvchilarga bugungi kun davr talabi asosida innovatsion g'oyalarga tayanib bilim bersa, bu o'sha o'qituvchining o'quvchilar hamda ota-onalarning e'tiborini qozonishiga sabab bo'ladi. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan fikrlar asosida barcha darslarda ham o'quvchilarga ko'plab ma'lumotlarni singdirish orqali ularni bilim olishga, kasb-hunarga bo'lgan qiziqishlarini ham orttirish mumkin. Buning uchun albatta o'quvchilarga fanga oid zamonaviy texnika va texnologiyalar haqida ko'proq tushunchalarni singdirish lozim. O'qituvchi qanchalik mahoratli bo'lsa, kelajakda o'quvchilarining yutuqlaridan shunchalik ko'p faxrlanib yuradi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. D. M. Malikova. Ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish//Kokand State Pedagogical Institute Volume 4 | KSPI Conference 1 | 2023 Innovative Approaches in Teaching Pedagogical Sciences: Problems and Solutions Pedagogik fanlarni o'qitishda innovatsion yondashuvlar: muammo va yechimlar. 145-147betlar.
2. Choriev R. Yangi pedagogik texnologiyalar – ta'lim tarbiya sifat va samaradorligi omili. Xalq ta'limi. 2004. 4-son. -5-9 betlar.
3. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiya mohiyati. Xalq ta'limi. 1999, 1-son, -38 – 42 betlar. Sariev Sh. Mustaqil fikrlashga o'rgatish. Boshlang'ich ta'lim. 2000. 2-son. - 7-9 bet.
4. N. A. Muslimov, M. Usmonboeva, M. Mirsoliyeva - Innovatsion ta'lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik - O'UM Toshkent -2016.
5. O. U. Avlayev, S. N. Jo'rayeva, S. P. Mirzayeva "Ta'lim metodlari" o'quv-uslubiy qo'llanma, "Navro'z" nashriyoti, Toshkent – 2017.
6. G'ulomova M. X. , Sobirova N. K. Yangi innovatsion texnologiya yordamida ta'lim samaradorligini oshirish usullari// Innovatsiya o'quv jarayonida (tezislar to'plami). -T. 2009.
7. K. Qosimova, S. Matchonov, X. G'ulomova, Sh. Yo'ldosheva, Sh. Sariyev. Ona tili o'qitish metodikasi. Boshlang'ich ta'lim talabalari uchun darslik. -T. : Nosir 2009 y.

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA KOMPYUTER IMITATION MODELLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Meliyeva Mohinur Baxromovna

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti, mohinur.meliyeva93@gmail.com +99897 575 76 85

Annotatsiya. Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida kompyuter imitatsion modellardan foydalanishning

ahamiyati, xorij tajribasi o'rganilgan. Dunyo bo'yicha umumiy o'rta ta'lim tizimlarida imitatsion modellarni qo'llash usullari, ulardan o'quvchilarning ta'lim sifatini yaxshilashdagi samaradorligi va o'quv jarayoniga ta'siri tahlil qilinadi. Xususan, kompyuter yordamida modellashtirish texnologiyalarining amaliy qo'llanilishi, ularning o'quvchilarga chuqur fikrlash, muammolarni hal qilish va tizimli o'ylash ko'nikmalarini rivojlantirishdagi roli ko'rib chiqilgan. Xorijiy davlatlarning muvaffaqiyatli tajribalari asosida, mamlakatimizda imitatsion modellarni o'quv jarayoniga joriy qilish imkoniyatlari va ularning pedagogik ahamiyati ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar. Kompyuter imitatsion modellar, model, modellashtirish, xorijiy tajriba, dasturiy vositalar, kompetensiya, o'quv jarayoni, samaradorlik.

ВАЖНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИМИТАЦИОННЫХ КОМПЬЮТЕРНЫХ МОДЕЛЕЙ В СРЕДНЕОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ШКОЛЕ

Мелиева Мохинур Бахромовна

*Докторант Самаркандского государственного университета
имени Шарофа Рашидова*

Аннотация. В статье рассматривается важность использования компьютерных имитационных моделей в общеобразовательных средних школах и зарубежный опыт. Анализируются методы использования имитационных моделей в системах общего среднего образования по всему миру, их эффективность в повышении качества образования учащихся, а также их влияние на процесс обучения. В частности, были рассмотрены практическое применение технологий компьютерного моделирования и их роль в развитии у студентов навыков критического мышления, решения проблем и системного мышления. На основе успешного опыта зарубежных стран рассмотрены возможности внедрения имитационных моделей в

образовательный процесс в нашей стране и их педагогическое значение.

Ключевые слова: компьютерные имитационные модели, моделирование, зарубежный опыт, программные средства, компетентность, процесс обучения, эффективность.

IMPORTANCE OF USING SIMULATIONS COMPUTER MODELS IN GENERAL SECONDARY SCHOOL

Melieva Mokhinur Bakhromovna

*Doctoral student at Samarkand State University named after
Sharof Rashidov*

Annotation. This article examines the importance of using computer simulation models in general secondary schools, foreign experience. Methods of using simulation models in general secondary education systems around the world, their effectiveness in improving the quality of education of students and their impact on the educational process are analyzed. In particular, the practical application of computer-aided modeling technologies, their role in developing students' critical thinking, problem-solving and systematic thinking skills are considered. Based on the successful experience of foreign countries, the possibilities of introducing simulation models into the educational process in our country and their pedagogical significance are considered.

Key words. Computer simulation models, model, modeling, foreign experience, software tools, competence, educational process, efficiency.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda ta'lim tizimida yangi texnologiyalar va innovatsion yondashuvlarning keng qo'llanilishi, raqamli texnologiyalar ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylanishi, o'quvchilarning bilim olish jarayonida yangi imkoniyatlarini yaratmoqda. Raqamlashtirish, ya'ni kompyuter texnologiyalarining ta'lim tizimiga joriy etilishi, o'qitish va o'rganish jarayonlarini sezilarli darajada o'zgartiradi. Kompyuter imitatsion modellari aynan shu raqamli vositalardan biri bo'lib,

o'quvchilarga murakkab tizimlarni imitatsiya, taqlid qilish orqali chuqurroq tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi.

Raqamli texnologiyalar yordamida ta'lim jarayonining yanada samarali tashkil etilishi o'quvchilarning kreativ fikrlashini rag'batlantirish, ularni mustaqil fikrlashga va kompleks muammolarni yechishga o'rgatadi. Imitatsion modellar, ya'ni haqiqatdagi tizimlarni kompyuter yordamida modellashtirish, o'quvchilarga mavhum tushunchalarni jonlantirish va murakkab tizimlarni tushunishga yordam beradi. Bugungi kunda ko'plab rivojlangan davlatlarda kompyuter texnologiyalari yordamida o'quvchilarning ta'lim olish jarayonini takomillashtirish dolzarb maslalardan bo'lib qolmoqda. Xususan, aniq va tabiiy fanlarda yangi o'qitish metodlarini ishlab chiqishga imkoniyatlar yaratilmoqda.

Raqamli texnologiyalarning ta'lim tizimiga kiritilishi, o'qituvchilar va o'quvchilarga yangi bilim olish shakllarini taklif etadi, bu esa ta'lim sifatini oshiradi. Xorij tajribasi shuni ko'rsatadiki, kompyuter imitatsion modellarini o'quv jarayoniga kiritish, ta'lim tizimini yanada interaktiv va samarali qilishga xizmat qiladi.

Maqolada dunyoda o'rta ta'lim maktablarida kompyuter imitatsion modellaridan foydalanish bo'yicha tajribalarni tahlil qilish, shu bilan birga, o'quvchilarning kreativ fikrlashini rag'batlantirish va texnologiyalar asosida yangi o'qitish metodlarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlariga e'tibor qaratiladi. Xorijiy tajriba orqali, mamlakatimiz ta'lim tizimida imitatsion modellarni samarali qo'llash imkoniyatlari o'rganib chiqilmoqda.

Xorijiy olimlar Barton, R. & Rogers, T. larning "The computer as an aid to practical work Studying motion with a detector" nomli maqolasida Axborot- ommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) fan va texnologiyani o'qitish uchun sinfda foydalanish so'nggi yillarda keskin oshdi va turli vaziyatlarda juda samarali vosita ekanligini isbotladi [1]

Model (lot. modulus – o'lchov, me'yor) - biror ob'ekt yoki ob'ektlar sistemaning obrazi yoki namunasi (masalan, Yerning

modeli globus, osmon va undagi yulduzlar modeli planetariy ekrani, odam suratini egasining modeli deyish mumkin) [2]

Modellashtirish ilmiy yondashuv sifatida, ilmiy bilishning eng muhim usullaridan biri bo'lib, uning yordamida o'rganilayotgan ob'ektning modeli (odatiy tasviri) yaratiladi. An'anaviy ma'noda model bir tuzilmani (o'rganilgan boshqasiga) xaritalash natijasidir. Har qanday model ma'lum farazlar ostida quriladi va o'rganiladi. Bu odatda matematik usullar yordamida amalga oshiriladi. [3]

Kompyuter imitatsion modellar - bu kompyuterga real hayot tizimlari va jarayonlarini tasvirlash va taqlid qilish imkonini beradigan texnologiyalar.

Ular asosan dasturiy ta'minot shaklida bo'lib, talabalarga murakkab tizim va jarayonlarni tushunish va boshqarish imkonini beradi. Imitatsion modellardan foydalanib o'qitish orqali talabalarga nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash imkonini beradi. Shuningdek, ushbu texnologiya ularning xatolarini qayta ko'rib chiqish va tuzatish uchun qulay sharoit yaratadi. Bu o'quv jarayonini interaktiv va qiziqarli qiladi. [4]

Omarov M. D. ilmiy tadqiqot ishida kompyuterli imitatsion modellashtirish metodologiya sifatida ko'plab ilmiy fanlarda muhim sintezlovchi rol o'ynaydi, fanning turli sohalariga yangi qo'shimcha imkoniyatlar beradi, intuitive aqliy-vizual "modellashtirish"ni cheklash va ratsional usullarni qo'llashni kengaytirishga yordam beradi, zamonaviy intellektual tahlil esa turli xil ko'p o'lchovli ma'lumotlarning ayrim qismlariga xos bo'lgan namunalarni avtomatik ravishda qidirish uchun ma'lumotni qayta ishlaydi, gipotezalarni tavsiflash va nostandart uslublarni aniqlashning murakkabligini kompyuterga o'tkazadi, deb aytgan. [5]

Okwuduba E. N. , Offiah F. Ch. , Madichie Ch. J. larning "Effect of Computer simulations on Secondary school students" nomli maqolasida Kimyo fanini oqitishda kompyuter imitatsion modellardan foydalanish o'quvchilarda "Xavfli kimyo" tushunchasining mavhumligini kamaytiradi, ilmiy tushuntirishlarni tasavvur qilish, kashf qilish va shakllantirish imkoniyatiga ega bo'lishadi deb hisoblashgan. Kompyuter imitatsion modellar asosida o'tilgan dars, ma'ruza usuli bilan

solishtirilganda talabalarning muvaffaqiyatlarini oshirishga xizmat qilishini ta’kidlagan. [6]

O’quv jarayonini vizualizatsiya qilish o’quvchilarning fanga bo’lgan qiziqishini oshiradi, ta’lim samaradorligini oshiradi. Kompyuter imitatsion modellaridan foydalanish ta’lim oluvchilarning 4K ko’nikmalari rivojlanadi. Ushbu jarayondagi modellar o’rganish va tushunish jarayonini tezlashtiradi. [7]

Xulosa qilib shuni aytish mumkin-ki, ta’lim muassasalarida, xususan, umumiy o’rta ta’lim maktablarida dars jarayonlarida kompyuter imitatsion modellardan foydalanish o’quvchilarning bilimini oshirishga, tasavvur qilish, idrok etish ko’nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro’yxati

1. Barton, R. & Rogers, T., The computer as an aid to practical work Studying motion with a detector, J. Computer Learning 7, 104-112 (1991).
2. Allamurodov B. N . Tarjimada <model= tushunchasining ilmiy qo’llanilishi. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences (E)ISSN:2181-1784 www. oriens. uz SJIF 2023 = 6. 131 /ASI Factor = 1. 7 3(6), June, 2023. 180-183 b.
3. Макаров А. А. Имитационное моделирование как основа решения учебно-практических задач в условиях высшей школы. Раздел v информационные технологии УДК 004. 94:004. 434
4. М. В. Meliyeva. “Oliy ta’lim muassasalarida informatika o’qitish metodikasini kompyuter imitatsion modellar asosida takomillashtirish” Inter education & global study, no. 10, 2024, pp. 108-117.
5. Омаров М. Д. Аналитический обзор методологии компьютерного моделирования Вестник Дагестанского государственного технического университета Технические науки. №1 (36)б 20152
6. Okwuduba E. N., Offiah F. Ch. , Madichie Ch. J. larning “Effect of Computer simulations on Secondary school students”
7. Meliyeva M. B. Methodology for Improving the Educational Process Based on Computer Simulation Models in Secondary Schools: In the Example of 11th Class Computer Science and Information Technology Science. International Journal for Multidisciplinary Research (IJFMR). <https://www.ijfmr.com/research-paper.php?id=21348>

TA’LIM JARAYONIDA BO’LAJAK BOSHLANG’ICH SINF O’QITUVCHISINI KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOGIK VA INNOVATSION TEKNOLOGIYALAR IMKONIYATLARI

Hakimova Nargiza Supxonovna
Buxoro davlat pedagogika instituti dotsenti, PhD.
Jumaqulova Charosxon Ravshanovna

Boshlang'ich ta'lim yo'nlishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim va tarbiya jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyatini to'g'ri tashkil qilish belgilab beradi. Pedagogik faoliyatni to'g'ri tashkil etish, albatta, o'qituvchidan ko'p mashaqqatni talab etadi. Bir jarayonning o'zida ko'p funksiyani birdaniga bajarish uchun o'qituvchida yetarli mahorat, kasbiy sifatlar bo'lishi lozim. Kasbiy faoliyatini mukammal tarzda tashkil etadi. Shu bilan birgalikda, jarayonga doir har bir bo'g'inni standartlarga asosan bajarish bilangina cheklanib qolmay, doimo yangilik kiritishga, jahon andozalarini chuqur o'rgangan holda amaliy jarayonda tadbiq qilishga haqida yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, tarbiya, kasbiy kompetentlik, metod, topshiriq, usul, vosita, "Assesment" metodi, "Insert" metodi, texnologiya, model, samaradorlik, didaktik asoslar, kasbiy faoliyat, pedagogik mahorat.

ВОЗМОЖНОСТИ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ И ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

Хакимова Наргиза Сунхоновна.

*Бухарский государственный педагогический институт,
доцент, PhD*

Джумакулова Чаросхан Равшановна.

Студент 2го курса "Начальное образования"

Аннотация: В данной статье определяется правильная организация совместной деятельности учителя и учащихся в процессе обучения и воспитания. Правильная организация педагогической деятельности, безусловно, требует от учителя больших усилий. Чтобы выполнять сразу множество функций в одном процессе, преподаватель должен обладать достаточными навыками и профессиональными качествами.

Прекрасно организует свою профессиональную деятельность. При этом объясняется не только выполнять каждый этап процесса по стандартам, но и постоянно внедрять инновации, применять мировые стандарты в практическом процессе.

Ключевые слова: образование, обучение, профессиональная компетентность, метод, задание, инструмент, метод «Оценка», метод «Вставка», технология, модель, эффективность, дидактические основы, профессиональная деятельность, педагогическое мастерство.

POSSIBILITIES OF PEDAGOGICAL AND INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF A FUTURE PRIMARY TEACHER IN THE EDUCATIONAL PROCESS

Khakimova Nargiza Suphonovna.

Bukhara State Pedagogical Institute, PhD, Associate Professor

Dzhumakulova Charoskhan Ravshanovna.

2nd year student "Primary Education"

Abstract: This article defines the correct organization of the joint activities of teachers and students in the process of education and upbringing. The correct organization of pedagogical activities certainly requires a lot of effort from the teacher. In order to perform many functions at once in one process, the teacher must have sufficient skills and professional qualities. He organizes his professional activities perfectly. At the same time, it is explained not only to perform each step of the process according to the standards, but also to constantly introduce innovations, to apply the world standards in the practical process with a deep study.

Key words: education, training, professional competence, method, assignment, method, tool, "Assessment" method, "Insert" method, technology, model, efficiency, didactic foundations, professional activity, pedagogical skills

Kirish. Yurtimizda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik kompetentligi doimiy o'zgarib

borayotgan sharoitda ilg'or xorijiy tajribalarni o'rgangan holda, oliy ta'lim muassasasida ularning metodik kompetentligini rivojlantirish texnologiyasini, didaktik asoslarini ishlab chiqish, pedagogik shartsharoitlari, mazmuni va tuzilmasi, takomillashtirish mezonlari va shakllanganlik darajalari, shakl, metod, vositalari, modeli, o'qitish sifatining samaradorligini oshirish, shuningdek, pedagogika oliy ta'lim muassasasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida metodik kompetentlikni rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. [1] Respublikamiz mustaqil davlat sifatida demokratik jamiyat qurish, dunyodagi eng rivojlangan mamlakatlar qatoridan o'rin olishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Bu o'z navbatida umumiy o'rta ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan o'qituvchilarning kasbiy-metodik tayyorgarligini rivojlantirish bilan belgilanadi. [2] O'qituvchilarning kasbiy-metodik tayyorgarligi ularning kasbiy faoliyatga doir bilimlar, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish, o'z-o'zini rivojlantirish kabi asosiy kasbiy faoliyat sohalarida aks etadi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining o'z fanini o'qitishga doir bilimlarni mukammal bilishi va harakatga keltirishi, ta'lim jarayonini tashkil etishi va baholash uchun zarur bo'lgan tayanch kompetensiyalarni egallashdan iborat. Shu bois, o'qitish va tarbiyalash jarayoni ta'lim sohasida innovatsion ilmiy yutuqlar, zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida intensiv tashkil etishni va o'z-o'zini rivojlantirishni talab etadi. Bugungi kunda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlashni takomillashtirish, boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ta'limning keyingi bosqichiga muvaffaqiyatli o'tishini ta'minlash, o'qitish sifati va samaradorligini ko'tarish, xalqaro standartlarga moslashtirish, ilmiy savodxonligini oshirish, ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish alohida ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan fan-texnika taraqqiyoti, jamiyatdagi o'zgarishlar, zamonaviy ta'lim tizimining yuqori darajada yangilanish bosqichida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisini innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonlarini qo'ymoqda. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini innovatsion kasbiy

faoliyatga tayyorlash uchun talaba o'qituvchi faoliyati tuzilishini yaxshi anglashi zarur. Bunday o'qituvchilar faoliyatida muhim rolni sezgi, innovatsion tasavvur, improvizatsiya egallaydi. Barcha boshlang'ich sinf o'qituvchilari ham yangiliklarga bir xilda munosabatda bo'lmasligi va bir vaqtda qabul qilmasligi hammaga ma'lum. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarni innovatsion kasbiy faoliyatga mustaqil, ijodiy, amaliy tayyorlash muammosi har doim psixologiya va pedagogika sohasi tadqiqotchilarining diqqat markazida bo'lgan. Shu bois, boshlang'ich sinf o'qituvchisining innovatsion faoliyati quyidagi xususiyatlarda: boshlang'ich sinf o'qituvchilar shaxsini shakllantirishning boshlang'ich davrda amalga oshirilishi; og'zaki va yozma nutqni bilishning dastlabki ko'nikma va malakalarini shakllantirishi; boshlang'ich sinf o'qituvchilarining turli ijtimoiy munosabatlarga kirishishlari va kommunikativ kompetensiyaning shakllangani bilan bog'liq hisoblanadi. [3] Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining innovatsion faoliyati xususiyatlari tasnifini quyidagicha keltirishimiz mumkin.

1. Boshlang'ich sinf o'qituvchisining shaxsini shakllantirish.
2. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish.
3. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'qituv (bilish) faoliyatini tashkil etish.
4. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv.
5. Integrativ yondashuv.
6. Ilmiy dunyoqarashni shakllantirish.
7. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida og'zaki nutq va yozma nutqni rivojlantirish.
8. Hissiy rag'batlantirish.

Asosiy qism. Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetensiyaning rivojlanishiga xizmat qiladigan metod va topshiriqlarni ta'kidlab o'tishni lozim deb topdik. Jarayonni tizimli ravishda olib borishni rejalashtirish, uni amalga oshirish samarasini yuqori darajaga ko'tarish maqsadida turli metod, usul va topshiriqlarni qo'llash o'zining natijasini ko'rsatishi ehtimoldan holi emas. Shu o'rinda, bir nechta metodlarni mazmuniga asosan kasbiy kompetensiyaning rivojlantirishga xizmat qiladigan bir nechta metodni keltirib o'tish maqsadga muvofiq. Ma'lum bir ko'nikma va

kompetensiyalarni shakllantirishiga ko'ra umumiylik kasb etadigan metodlarni sanaydigan bo'lsak, vaziyatni baholash va uni to'g'ri tahlil qilish imkoniyatini beradigan "Muammoli vaziyat", "Akademik munozara", "Bumerang", "Sinektika" kabi metodlarni; ma'lum bir jarayonning yoki o'rganiladigan tushunchaning afzalliklari, kamchiliklarini ochib berishga xizmat qiladigan "SWOT" tahlili, "T-sxema"; metod ishtirokchilaida har tomonlama chuqur izlanish olib borish, berilgan tushuncha borasida har tomonlama bilim, ko'nima va kompetensiyalarni shakllantirish va bor malakalarini qo'llash xizmat qiladigan "Pinbord", "FSMU", "Qora quti", "Kubik", "Nilufar guli", "Tushunchalar tahlili" kabi metodlarni aytishimiz mumkin. [5]

Xulosa. Metodlar tasnifi hamda kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda ularning ahamiyati. Bundan tashqari, "Assesment" metodi ham bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ko'p qirrali kompetensiya va malakalarni shakllantirish uchun keng imkoniyat yaratadi. "Assesment" metodi jadval ko'rinishida bo'lib, unda test topshiriqlari, muammoli vaziyat, symptom, amaliy ko'nikma kabilar joylashtirilgan bo'ladi. Bu metod bo'lg'usi pedagogdan mavjud bilimlarini ko'rsatish. Muammoli holatga to'g'ri yechim topa olish, tushunchalarni izohlash va ma'lum mavzuga doir amaliy ko'nikmaga ega bo'lishni talab etadi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida yuqori darajadagi kasbiy kompetensiyani rivojlantirishni muayyan darajada kafolatlab beradigan jihatlar sifatida topshiriqlarni ham aytishimiz mumkin. [7] Topshiriqlar, ayniqsa, integrativ-kognitiv xususiyatga ega bo'lsa, topshiriqning amaliy ahamiyati juqa yuqori bo'ladi. Shu o'rinda, avvalo, integrativ va kognitiv atamalariga ta'rif berib o'tish ayni muddao hisoblanadi. Integrativ- integrativ-shaxsiy mezonlar: integrativ-shaxsiy – ma'lum bir fanni boshqa fanlar bilan integratsiya va inkorporatsiyalash qobiliyati, ijodiy salohiyat, kasbiy o'sishga intilish xususiyatlarining tashkil toptirilishi. Kognitiv-talabalarning psixologik-pedagogik bilimlari-boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh va individual, psixofiziologik xususiyatlarini, o'quv jarayonini tashkil qilish shakl, metod va vositalarini, didaktik, masofaviy tajribalar orqali o'quvchilarni tashxislashning asosiy metodikasini, innovatsion pedagogik texnologiyalarni bilishi lozim.

Keltirib oʻtilgan tavsiflarni tahlil qilish orqali integrativ-kognitiv topshiriqlar yuzasida bir necha tavsiyalar keltirish mumkin. Mazkur topshiriqlar yordamida boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchisining metodik, nazariy hamda amaliy jihatdan mukammal tayyorgaligi, undagi koʻnikmalarning yetarliligi, hozirgi kunda dolzarb masalaga aylib borayotgan chet tili boʻyicha bilim darajasining yuqoriligi, innovatsion hamda axborot kommunikatsion texnologiyalari borasidagi bilimlarini tekshirish, psixologik va pedagogik jihatdan tayyorgarlik darajalarini aniqlash mumkin boʻladi. [8]

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi “Oʻzbekistonning yangi taraqqiyot davrida taʼlim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PF-6108-son farmoni. Qonun hujjatlari maʼlumotlar milliy bazasi, 24. 10. 2020 y.
2. Muslimov. N. A. Kasb taʼlim oʻqituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy metodik asoslari: ped. f. dok. ... diss. –T. :2007,-315. b
3. Галиуллина Е. Н. Методическая подготовка будущих учителей начальных классов к обучению младших школьников решению "открытых" задач : дис. ... канд. пед. наук: 13. 00. 02, 2006 198 с.
4. Gʻaffarov E. Innovatsiya, ijtimoiy innovatsiya va innovatsion faoliyat: ilmiy nazariy endashuvlar. NamDU ilmiy axborotnomasi. 2019 yil, 10-son. 153-157 betlar.
5. Rustambek Qoʻldoshev^{1,2,1}, Nargiza Dilova² and Nargiza Hakimova². Guiding left-handed students to a healthy lifestyle during the period of adaptation to school education//BIO Web of Conferences 120, 01049 (2024) MBFA 2024
6. Nargiza Hakimova. “lifelong learning” tamoyili asosida boʻlajak oʻqituvchilarni uzluksiz kasbiy rivojlantirishdagi oʻrni va ahamiyati//til va adabiyot. uz ilmiy-metodik elektron jurnal научно-методический электронный журнал scientific-methodological electronic journal//2025-yil, yanvar 1-son 142-143 bet.
7. Хакимова Наргиза Супхоновна. Возможности концепции “lifelong learning” в повышении профессиональной культуры у будущих учителей// international scientific and practical conference “rapid development of multilateral international relations from a pedagogical point of view” 4 june, 2024 568-572
8. Xakimova Nargiza Supxanova Boʻlajak oʻqituvchlarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga “Lifelong learning” konsepsiyasini shakllantirish//pedagogika jurnali 2024-yil, 5-son 21-24 bet.

OLIY TAʼLIM MUASSASALARI OʻQUV FAOLIYATIDA SMART TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI

Safarov Abbas Abdurasul oʻgʻli

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
doktoranti*

E-mail: abbossafarovmatematik@gmail.com tel:+998912279817

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta'limda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning ta'lim sifatini oshirishdagi ahamiyati, xorij tajribasi tahlil qilingan. Oliy ta'limda matematika fanlarini SMART texnologiyalar asosida o'qitishning afzalliklari keltirilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, axborot texnologiyalari, texnologiya, SMART texnologiya, kompyuter imitatsion model, SMART ta'lim, matematika.

ПРЕИМУЩЕСТВА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ УМНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В ВУЗАХ

Сафаров Аббас Абдурасулович

*докторант Самаркандского государственного университета
имени Шарофа Рашидова*

Абстрактный. В данной статье анализируется значение использования современных информационно-коммуникационных технологий в высшей школе для повышения качества образования, а также зарубежный опыт. Представлены преимущества преподавания математики в высшей школе на основе SMART-технологий.

Ключевые слова: образование, информационные технологии, технологии, технология SMART, компьютерная имитационная модель, SMART-образование, математика.

ADVANTAGES OF USING SMART TECHNOLOGIES IN EDUCATIONAL ACTIVITIES IN UNIVERSITIES

Safarov Abbas Abdurasulovich

*Doctoral student at Samarkand State University named after Sharof
Rashidov*

Abstract: This article analyzes the importance of using modern information and communication technologies in higher education in improving the quality of education, as well as foreign

experience. The advantages of teaching mathematics in higher education based on SMART technologies are presented.

Key words: education, technology, SMART technology, SMART education, mathematics.

Hozirgi kunda SMART ta'lim, SMART texnologiya, SMART universitet, SMART kutubxona, SMART auditoriya, SMART doska kabi tushunchalar an'anaviy ta'limdagi mavjud kamchilklarni bartaraf etishga, talabalarni bilimga olishga bo'lgan motivatsiyasini oshirishga xizmat qilishi borasidagi olimlar tomonidan olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar xalqaro anjuman va mahalliy konferensiyalarda asoslab berilmoqda [4].

SMART ta'lim – mohiyat jihatdan yangi ta'lim muhitidir; butun jahon bilimlaridan foydalanish va passiv kontentdan faol kontentga o'tish uchun o'qituvchi, mutaxassis va talabalarning kuchlarini, ya'ni ta'lim faoliyatini birlashtirishdir. SMART ta'lim - umumiy standart, texnologiyalar va o'quv yurtining tarmog'i va professor-o'qituvchilar tarkibi orasidagi kelishuvlar negizida internetda ta'lim faoliyatini tashkil etishdan iboratdir. SMART o'quv jarayoni - innovatsiyalar va internetdan foydalanish asosida tashkil etilgan ta'lim jarayonidir; u tizimli ko'p o'lchovli ko'rish va ko'p aspektlilik va yangilanishining uzluksizligini e'tiborga olgan holda predmetlarni o'rganish asosida kasbiy kompetensiyalar egallashga imkoniyat beradi [3].

Irina G. Borisenko, Daria N. Volodinaning "Ta'lim jarayonida ta'limning aqlli texnologiyalari" nomli maqolasida muhandislik grafikasini o'qitishda kompetentlik yondashuviga asoslangan o'quv jarayonidagi innovatsion texnologiyalar ko'rib chiqiladi. Mualliflarning ta'kidlashicha, zamonaviy axborot texnologiyalari, interfaol elektron o'quv kurslari talabalarning avtonom ishlarida, shuningdek, talabalarning loyiha faoliyatiga jalb etilishi ularni o'rganishga undaydi va natijada avtonom ish samaradorligiga erishiladi. Sibir Federal universitetining axborot ta'lim tizimidagi elektron kurslar (e.sfu-kras.ru) bunday ishlarga misol bo'la oladi. [2].

Axborot ta'lim muhiti sharoitida o'quvchilarning ijodiy va mustaqil fikrlashi tashabbuskorligining jadal rivojlanishi

ta'minlanadi, bunda quyidagi pedagogik shart va jihatlarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq:

- mavzularni o'rganishda tizimlilik, mantiqiy izchillik;
- bilish-anglash faoliyatini kompyuter vositalari yordamida mustaqil izlab topish asosida ishlash tartibiga o'tkazish;
- yutuq va muvaffaqiyatlarni kuchaytirish guruh maqsad va manfaatlarini birlashtirish;
- test shaklida o'zlashtirilgan bilimlar joriy nazoratini amalga oshirish;
- hamkorlik faoliyati asosida o'quvchilarning bir-birlarini o'qitish tizimini amalga oshirish maqsadida barcha o'quvchilarga bir xil emas, balki boshqa-boshqa material va mavzularni turli xildagi metodlar asosida o'rganishni joriy etish;
- pedagogik hamkorlik transformatsion rejimini o'rnatish asosida o'qituvchi o'zining axborot-bilim beruvchi pozitsiyasini o'quvchilarning o'zlari mustaqil o'zlashtirgan axborot-bilimlarini nazorat qiluvchi filtrlovchi pozitsiyasiga almashtirish [1].

SMART texnologiyalar asosida o'quv jarayonini tashkil etishda quyidagi talablarga e'tibor berish kerak:

Birinchidan, talabalar va professor-o'qituvchilar axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish bo'yicha boshlang'ich bilimga ega bo'lishlari lozim. **Ikkinchidan**, ta'lim muassasasida internet, axborot-kommunikatsion texnologiyalar, smart doska kabi vositalar mavjud bo'lishi maqsadga muvofiq. Bunday asbob-uskuna va vositalar dars davomida SMART texnologiyalardan foydalanishda tashkiliy vositalar hisoblanadi.

SMART ta'lim muhitini yaratishda fan yuzasidan mavjud nazariy va amaliy mashg'ulotlarga oid darslik va o'quv qo'llanmalar, fan mavzulariga oid taqdimot materiallari, kompyuter imitatsion modellar, videodarslar, o'z-o'zini baholash uchun testlardan foydalanish tavsiya etiladi.

Ko'p yillik pedagogik tajribaga ega professor-o'qituvchilarning fikriga ko'ra, bugungi kunda matematika fani bo'yicha maktab darsliklaridagi ba'zi mavzularning kam soatlarda berilishi natijasida, o'quvchilarning murakkab mavzularni o'zlashtirishida qiyinchiliklar yuzaga kelmoqda. Maktab ta'limidan keyin oliy ta'limda davom ettirishi uchun ba'zi mavzulardan talabalarning tayanch kompetensiyalari shakllanmaganligi sababli, ularning oliy

ta'limdagi matematika fanlariga oid mavzularni o'zlashtirishlari ham rejaga qaraganda ko'proq vaqt sarflanishiga sabab bo'lmoqda.

SMART texnologiyalardan foydalanishning afzalligi shundan iboratki, mavzuga oid nazariy ma'lumotlar bilan tanishib borayotgan talaba mavzuning ichidagi qaysidir ta'rif, teorema yoki masalani yetarli darajada tushuna olmasa, bunday tushunchalarning vizualizatsiyasini ko'rib, mavzuning ichida bo'layotgan jarayonlarni real vaqt rejimida kuzatib borish imkoniyatiga va mavzu yuzasidan mantiqiy fikrlash va tahlil qilish ko'nikmasiga ega bo'ladi [4].

Matematika fanlarini o'qitishda SMART texnologiyalardan foydalanish talabaga quyidagi imkoniyatlarni taqdim etadi:

- aniq belgilangan maqsad asosida mavzuni o'rganish;
- natijasi aniq harakatlarni amalga oshirish;
- o'qitishning turli vositalar (matn, rasm, grafik, animatsiya, model) asosida tashkil etilishi;
- orttirilgan bilimlarni mustaqil baholash hamda xato-kamchiliklar haqida ma'lumotga ega bo'lish;
- chegaralangan vaqtda sifatli bilim olish;
- yangi mavzuni mustaqil o'zlashtirish;
- mavjud ta'rif va teoremlarning mohiyatini vizual materiallar orqali chuqurroq tushunib olish;
- istalgan paytda qayta ko'rib chiqish;
- namunaviy misol va masalalar yordamida amaliy misollarni bajarish ko'nikmasini shakllantirish.

Zamonaviy texnologiyalar va usullar, SMART texnologiyalarning ta'lim jarayoniga tatbiq etilishi sifat va samaradorlikni oshirishga, talabalar va professor-o'qituvchilar o'rtasidagi muloqotni ta'minlashga, talabalarning mustaqil ta'lim olishlariga imkoniyat yaratishi bilan ahamiyatli hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tayloqov U. N. , Ta'lim muassasalarining yagona elektron axborot-ta'lim muhitini yaratish va joriy etish texnologiyalari. Dissertatsiya. T. N. Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti, Toshkent-2020, 142 b.
2. Irina G. Borisenko, Daria N. Volodina, Educational Smart Technologies in the Educational Process. Journal of Siberian Federal University. Humanities & Social Sciences 3 (2015 8) 489-493

3. B. A. Axmedov, N. Shayxislamov, T. Madalimov, Q. Maxmudov, "Smart texnologiyasi va undan ta'lim tizimida klasterli foydalanish imkoniyatlari", «Scientific Progress» Scientific Journal ISSN: 2181-1601, Volume: 1, ISSUE: 3, 102-112 bet, <http://www.scientificprogress.uz/>

4. Lutfillayev M. X. , Mardiyev R. , Safarov A. A. , "Oliy ta'lim muassasalari talabalarining kompetensiyalarini SMART texnologiyalar asosida takomillashtirishning nazariy asoslari", Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni rivojlantirishning zamonaviy holati va istiqbollari mavzusida xalqaro ilmiy va amaliy konferensiyasi, Jizzax 2024.

FIZIKA FANINI O'QITISHDA SIMULYATSION MODELLARDAN SAMARALI FOYDALANISHDA PEDAGOGIK SHART-SHAROITLAR

Turayeva Sevara Rashidovna

Toshkent shahridagi Belarus- O'zbekiston qo'shma tarmoqlararo amaliy texnik kvalifikatsiyalar instituti tayanch doktoranti: E-mail: sevara08.90@mail.ru

Annotatsiya: Bugungi kunda ta'lim sifatini oshirish maqsadida o'quv jarayoniga raqamli va innovatsion texnologiyalar qo'llanilmoqda. Bu texnologiyalarni qo'llashda ta'lim dargohining texnik bazasi, pedagog kadrlarning AKT bo'yicha bilimlaridan kelib chiqib ba'zi muammolar yuzaga kelishi mumkin. Ushbu maqolada fizika fanini o'qitishda simulyatsion modellardan foydalanishning afzalliklari va kamchiliklari yoritib berildi. Hamda simulyatsion modellardan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari tahlil qilinib, taklif va tavsiyalar berildi.

Kalit so'zlar: Simulyatsiya, model, fizika, jarayon, texnologiya, interaktiv, pedagog, tasavvur.

PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR THE EFFECTIVE USE OF SIMULATION MODELS IN TEACHING PHYSICS

Turayeva Sevara Rashidovna

Researcher of the Belarusian-Uzbek Joint Inter-branch Institute of Applied Technical Qualifications in Tashkent: E-mail: sevara08.90@mail.ru

Annotation: Today, digital and innovative technologies are being used in the educational process to improve the quality of education. When using these technologies, some problems may arise depending on the technical base of the educational institution and the knowledge of pedagogical staff in ICT. This article highlights the advantages and disadvantages of using simulation models in teaching physics. The pedagogical conditions for using simulation models are also analyzed, and suggestions and recommendations are given.

Key words: Simulation, model, physics, process, technology, interactive, teacher, imagination.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИМИТАЦИОННЫХ МОДЕЛЕЙ В ОБУЧЕНИИ ФИЗИКЕ

Тураева Севара Рашидовна

*Базовый докторант Белорусско-Узбекского совместного
межотраслевого института прикладных технических
квалификаций в г. Ташкенте: E-mail: sevara08.90@mail.ru*

Аннотация: сегодня в образовательном процессе используются цифровые и инновационные технологии для повышения качества образования. При использовании данных технологий могут возникнуть некоторые проблемы в зависимости от технической базы образовательного учреждения и уровня знаний ИКТ у преподавательского состава. В статье рассматриваются преимущества и недостатки использования имитационных моделей в преподавании физики. Также были проанализированы педагогические условия использования имитационных моделей, даны предложения и рекомендации.

Ключевые слова: Моделирование, модель, физика, процесс, технология, интерактив, педагог, воображение.

Kirish. Hozirgi kunda ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalarning joriy etilishi ta'limning samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Fizik jarayonlarni

modellashtirish texnologiyalari talabalarga fizika fani bo'yicha murakkab tushunchalarni tushunishga yordam beruvchi kuchli vosita hisoblanadi. Simulyatsion modellar yordamida nazariyani amalda yaqqolroq ko'rish, tasavvurni kengaytirish, kreativlikni oshirish kabi mavzuni o'zlashtirishda muhim bo'lgan xislatlarni rivojlantiradi.

Asosiy qism. Fizika – bu tabiiy fanlar qatorida joylashgan bo'lib, uning asosiy maqsadi tabiiy hodisalarni, qonuniyatlarni va ko'rsatkichlarni o'rganishdir. Simulyatsion modellar bu jarayonni yanada aniqroq va tushunarli qilishda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, bu metodning ba'zi kamchiliklari ham mavjud. Fizika fanini o'qitishda simulyatsion modellardan foydalanishning afzalliklari sifatida quyidagilarni ta'kidlab o'tish mumkin:

- Vizualizatsiya: Simulyatsion modellar talabalarga fizik hodisalarni ko'rish imkonini beradi. Ular nazariy ma'lumotlarni amalda qanday ishlashini tushunishga yordam beradi [4]. Ayniqsa mikroskopik parametrlarni o'rganishda tasavvurni kuchaytiradi.

- Interaktivlik: Simulyatsion modellar asosan interaktiv bo'lib, o'quvchilar ularga boshqarish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu esa o'qitish jarayonini qiziqarli va samarali qiladi [5]. Virtual laboratoriyalarda foydalanilganda tajribalarni takrorlash imkoniyati mavjud bo'ladi.

- Murakkab tushunchalarni soddalashtirish: Simulyatsion modellar yordamida talabalarga murakkab fizik tizimlarni, masalan, atom tuzilishini yoki kuchlar ta'sirini ko'rish va o'rganish osonlashadi [1].

- Muammolarni hal qilish bo'yicha ko'nikmalar: Simulyatsion modellardan foydalanish, o'quvchilarga muammolarni hal qilish uchun analitik yondashuvni rivojlantirishda yordam beradi [3].

Shu bilan birga, fizika fanini o'qitishda simulyatsion modellardan foydalanishning kamchiliklarini ham ko'rib chiqsak:

- Texnologik cheklovlar: Simulyatsion modellarni ishlab chiqish va foydalanish uchun maxsus dasturiy ta'minot va apparat talab etiladi, bu esa har bir ta'lim muassasasida mavjud bo'lmashligi mumkin [8].

- O'qituvchining malakasi: Simulyatsion modellarni dars jarayonida samarali ishlatish uchun o'qituvchilar maxsus bilim va tajribaga ega bo'lishi kerak [6].

- Resurslar va vaqtni boshqarish: Simulyatsion modellarni tayyorlash va o'qitish jarayonida ulardan samarali foydalanish ko'proq vaqt va resurslarni talab qiladi [2].

- O'quvchilarning e'tibori: Ba'zi o'quvchilar simulyatsion modellarga qiziqish ko'rsatmasligi yoki boshqa asosiy dars materiallarini e'tiborsiz qoldirishi mumkin [7].

Yuqoridagi kamchiliklarni bartaraf etish ta'lim muassasi hamda fizika fani o'qituvchisining hamkorlikda ishlashini talab etadi. Ya'ni zamonaviy texnika vositalari bilan o'quv xonalarini ta'minlash ta'lim muassasasi tomonidan bajarilsa, yangi dasturiy vositalarni o'rganish, o'z ustida ishlash va axborot kommunikatsion texnologiyalariga oid bilimlarini oshirib borish pedagog hodimning zimmasida bo'ladi. Bugungi kunda ko'plab ta'lim dargohlari zamonaviy texnik vositalar taminlangan, bulardan birini Toshkent shahridagi INHA universiteti misolida ko'rishimiz mumkin [9].



1-rasm. Toshkent shahridagi INHA universiteti o'quvxonalaridan lavhalar



2-rasm. Toshkent shahridagi INHA universiteti konferensiya zallaridan lavhalar

Simulyatsion modellardan samarali foydalanish uchun quyidagilarga ahamiyat qaratish lozim.

1. Ta'lim muassasalari infratuzilmasi

-Simulyatsion modellardan samarali foydalanish uchun ta'lim muassasalarida quyidagi infratuzilma shartlari mavjud bo'lishi kerak:

-Zamonaviy texnologiyalar: O'quv xonalarida Simulyatsion model yaratish va ko'rsatish imkoniyatlari bo'lishi lozim. Bu, kompyuterlar, 3D printerlar, maxsus dasturiy ta'minot va yuqori sifatli proyektorlarni o'z ichiga oladi.

-Internetga kirish: O'quvchilar va o'qituvchilar uchun internet orqali Simulyatsion 3D modellarni yuklab olish va ulardan foydalanish imkoniyati ta'minlanishi kerak.

2. O'qituvchilarni tayyorlash. Simulyatsion modellardan foydalanish uchun o'qituvchilarni quyidagi jihatlardan tayyorlash zarur:

- Texnologik savodxonlik: O'qituvchilar simulyatsion modellashtirish dasturlarini va ularning imkoniyatlarini tushunishi, shuningdek, ularni ta'lim jarayonida qanday ishlatishni bilishi kerak.

-Pedagogik metodologiya: O'qituvchilar simulyatsion modellarni ta'lim jarayonida qanday integratsiya qilishni, talabalar bilan qanday muloqot qilishni va loyiha asosidagi o'qitishni qanday amalga oshirishni o'rganishlari zarur.

3. O'quvchilarning qiziqishini oshirish: Simulyatsion modellardan samarali foydalanish orqali o'quvchilarning o'qishga qiziqishini oshirish mumkin. Buning uchun:

-Interaktivlik: Simulyatsion modellar interaktiv bo'lishi kerak, bu esa o'quvchilarga o'zlarini faol ishtirokchi sifatida his qilishiga imkon beradi. Masalan, o'quvchilar o'z modellarini yaratishi va bir-birlari bilan baham ko'rishi mumkin.

-Samaradorlik: Simulyatsion modellar murakkab tushunchalarni oddiy va tushunarli shaklda namoyish etishi kerak. Ular o'quvchilarga teoriya va amaliyotni birlashtirishga yordam beradi.

Xulosa. Simulyatsion modellardan foydalanish fizika darslarida o'qitish jarayonini kuchaytirishda muhim ahamiyatga

ega. Ularning afzalliklari nafaqat o'quvchilarning tushunishini yaxshilaydi, balki ularning qiziqishini oshiradi. Shu bilan birga, bu metodning kamchiliklarini bartaraf etish uchun ta'lim muassasalari o'qituvchilarni tayyorlashda, maxsus texnologiyalarni ta'minlashda va resurslarni samarali boshqarishda e'tibor qaratishlari zarur. Biroq, bu jarayonning muvaffaqiyati muayyan shart-sharoitlar hamda ta'lim muassasalarining infratuzilmasidan tortib, o'qituvchilar va o'quvchilar uchun tayyorgarlik darajasigacha bog'liqdir. O'qituvchilarni tayyorlash, texnologiyalarni miqdor va sifat jihatdan rivojlantirish, o'quvchilarning qiziqishini oshirish masalalariga e'tibor qaratish, fizika va boshqalarga oid 3D modellar kabi dasturiy vosita yaratish hamda o'quv jarayonlariga qo'llash ta'lim samaradorligi yuqori darajalarga olib chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Davidson, L. "Visualizing Physics: The Role of 3D Models in Learning". Physics Education Journal. – 2022.
2. Garcia, R. 2023 "Teaching with Technology: Balancing Resources and Time Management". Education Today. – 2023.
3. Johnson, P. "Developing Problem-Solving Skills through 3D Models in Physics Education". Journal of Educators. – 2023.
4. Meyer, T. "The Impact of 3D Visualization in Science Education". Science Review. - 2020.
5. Miller, E. , Smith, J. "Interactive Learning: The Case for 3D in Physics". International Journal of Science Teaching. – 2021.
6. Roberts, A. "Teacher Preparation for Utilizing Advanced Technologies in Classrooms". Journal of Educational Research. – 2022.
7. Sullivan, J. , Lee, K. "Student Engagement with Technology: Challenges and Strategies". Journal of 21st Century Education. – 2023.
8. Thompson, B. (2021). "Technological Barriers in the Classroom: A Review of the Literature". Journal of Educational Technology. – 2021.
9. www.inha.uz

TA'LIM TARBIYA JARAYONLARIDA BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINI KREATIV FIKRLASHGA YO'NALTIRILGAN INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR

Hakimova Nargiza Supxonovna
Buxoro davlat pedagogika instituti dotsenti, PhD
Kattayeva Mehrangiz Nabiyevna
Boshlang'ich ta'lim yo'nlishi 2-bosqich talabasi

Аннотатсия: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ fikrlash qobiliyatlarini aniqlash, talim tarbiya jarayonida innovatsion metodlar, mustaqil topshiriqlar va kreativ fikrlash motivatsiyalarini rivojlantirishning o'ziga xos usullari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilarida zarur bilim, ko'nikma va malakalarni ega bo'lishlari va hayotga tatbiq eta olishlarida ulardagi kreativ fikrlash motivatsiyalarining o'rni va ahamiyati haqida yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, boshlang'ich sinf, kreativlik, innovatsiya, texnologiyalar, intellektual, ko'nikma, malaka, ijodiy topshiriqlar, mustaqil ish, ijodiy qobiliyat, motivatsiya.

ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ, НАПРАВЛЕННЫЕ НА ТВОРЧЕСКОЕ МЫШЛЕНИЕ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

Хакимова Наргиза Сунхоновна

*Бухарский государственный педагогический институт,
доцент, PhD*

Каттаева Мехрангиз Набиевна

Студент 2го курса начального образования

Аннотация: В данной статье рассматриваются конкретные методы выявления творческого мышления учащихся младших классов и развития мотивации творческого мышления. Также подчеркнута роль и значение мотивации творческого мышления учащихся младших классов в приобретении необходимых знаний, умений и навыков и способность применять их в жизни.

Ключевые слова: образование, начальная школа, творчество, инновация, технология, интеллектуальный, умение, компетентность, творческие задания, самостоятельная работа, мотивация.

INNOVATIVE TECHNOLOGIES AIMED AT CREATIVE THINKING OF PRIMARY CLASS STUDENTS IN THE EDUCATIONAL PROCESS

Khakimova Nargiza Suphonovna
Bukhara State Pedagogical Institute, Associate Professor (PhD)
Kattaeva Mehrangiz Nabievna
2nd year student of primary education

Annotation: This article discusses the creative thinking abilities of elementary school students, innovative methods in the educational process, independent tasks, and unique methods of developing creative thinking motivations. Also, the role and importance of motivation of creative thinking in elementary school students in acquiring the necessary knowledge, skills and abilities and being able to apply them to life has been highlighted.

Key words: education, elementary school, creativity, innovation, technologies, intellectual, skills, competence, creative tasks, independent work, creativity, motivation

Kirish. Bugungi jadal rivojlanayotgan zamonaviy globallashuv va axborotlashuv davrida ta'limni yanada rivojlantirish va takomillashtirishni dars jarayonida innovatsiyalarning turli shakllaridan tatbiq etmasdan turib amalga oshirish mumkin emas. Innovatsion ta'limda birinchi navbatda, ijodiy qobiliyatlar, o'z-o'zini rivojlantirish va kreativ fikrlash eng muhim motivatsiyalardan hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy imkoniyatlarini aniqlashda, ularning kreativ fikrlash motivatsiyalarini rivojlantirishda ta'lim-tarbiya jarayonida innovatsion texnologiyalardan to'g'ri va o'rinli foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Kreativlik tushunchasi o'zida xilma-xillik, qiziquvchanlikni, tafakkur va noan'anaviylikni aks ettiradi. Bugungi kun boshlang'ich sinf o'qituvchisida ijodkorlik va kreativlik bo'lishi muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu jihati uning ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarda ham ushbu sifatlarni shakllantirish va rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativlik fikrlash qobiliyati va ijodkorlik xususiyati uning ta'lim jarayonidagi muloqotida, tafakkurida, his-tuyg'ularida va muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Ya'ni topshiriqni bajarish, masalani yechishda o'quvchi yechimning bir necha variantlarini izlaydi, so'ngra ular orasidan eng maqbul birgina to'g'ri yechimga to'xtaladi.

O'qituvchining ham dars jarayoniga kreativ yondashuvi o'quvchilarning darsda berilgan bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishlari, qo'llay olishlari uchun muhim omil sanaladi.

K. Rodjers (1944) kreativlik deb muammolarni yangi yechimi va biror narsa, voqea, xolatni ifoda etishning yangi usullarini aniqlashni tushunadi. [1] Kreativlik bilan shaxs va intellektual xossalar taqqoslangan tadqiqotlar katta ahamiyatga egadir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy imkoniyatlarini aniqlashda, ularning kreativ fikrlash motivatsiyalarini rivojlantirishda ta'lim-tarbiya jarayonida innovatsion texnologiyalardan to'g'ri va o'rinli foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Kreativlik tushunchasi o'zida xilma-xillik, qiziquvchanlikni, tafakkur va noan'anaviylikni aks ettiradi. Bugungi kun boshlang'ich sinf o'qituvchisida ijodkorlik va kreativlik bo'lishi muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu jixati uning ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarda ham ushbu sifatlarni shakllantirish va rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativlik fikrlash qobiliyati va ijodkorlik xususiyati uning ta'lim jarayonidagi muloqotida, tafakkurida, his-tuyg'ularida va muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi. Patti Drapeau nuqtai nazariga ko'ra kreativ fikrlash, ehg avvalo, muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlashdir. Darhaqiqat, har tomonlama fikrlash o'quvchilardan berilgan turli topshiriq, masalava vazifalarni bajarishda ko'plab g'oyalarga tayanishni talab etadi. Ya'ni topshiriqni bajarish, masalani yechishda o'quvchi yechimning bir necha variantlarini izlaydi, so'ngra ular orasidan eng maqbul birgina to'g'ri yechimga to'xtaladi. O'qituvchining ham dars jarayoniga kreativ yondashuvi o'quvchilarning darsda berilgan bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishlari, qo'llay olishlari uchun muhim omil sanaladi.

O'qituvchining kreativligi darsda ikki holatni kafolatlaydi:

- Past o'zlashtiruvchi o'quvchilarni, darsda "bir xillik" dan zerikkan o'quvchilar e'tiborini dars jarayoniga jab etish va qiziqtirish.

- O'quvchilarda kreativ fikrlash va ijodiy faoliyatni aniqlash va rivojlantirish, rag'batlantirish uchun imkoniyat yaratadi.

Asosiy qism. Kreativ fikrlash ta'siri butun jamiyatga sezilarli innovatsiya turlarining ortida turishi rost, lekin u ayni damda universal va teng lashtiruvchi xususiyatga ega fenomen hamdir, ya'ni har qanday shaxs, u yoki bu darajada, kreativ fikrlash qobiliyatiga ega. Darhaqiqat, ta'lim sohasidagi mutaxassislar va psixologlarning fikriga ko'ra, ijodiy faoliyat bilan bog'liq fikrlash jarayonlarida mashg'ul bo'lish deb tushunilgan kreativ fikrlash bir qator boshqa shaxsiy ko'nikmalarning ham rivojlani shiga olib keladi. Shular jumlasiga metakognitiv qobiliyat, insonlar bilan muomala qilish va shaxsning o'zini yaxshiroq anglash ko'nikmalari, muammoni hal etish ko'nikmalari kiradi. Ustiga-ustak, shaxs kamoloti, ta'lim olishdagi muvaffaqiyati, kelajakdagi kasbiy muvaffaqiyati va jamoatchilik orasidagi obro'si ham insonning kreativ fikrlash ko'nikmasiga bog'liq. Shuningdek, kreativ fikrlash o'quvchilarning ta'lim olishini hodisalar, tajribalar xatti-harakatlarni yangicha va shaxsan mazmunli usulda talqin etish orqali qo'llab-quvvatlaydi. O'quvchining xayoli va qiziquvchanligi ta'lim jarayonida qo'l keladi: ijodiy fikrlash shu tariqa o'zaro kelishuvchanlik vositasiga aylanadi, hattoki avvaldan belgilangan ta'lim maqsadlari kontekstida ham. Maktabda o'quvchining motivatsiyasi va qiziqishini oshirish uchun, barcha o'quvchilarning ijodiy salohiyati va shijoatini hisobga oluvchi ta'limning yangi shakllari yo'lga qo'yilishi zarur. Bu ayniqsa ta'lim jarayoniga unchalik qiziqish bildirmayotgan o'quvchilarga yordam berishi mumkin va ular o'z fikrini ayta olishiga, salohiyatini ochishiga xizmat qiladi. [2]

Shaxsning ijodiy fikrlay olish qobiliyatining eng keng tarqalgan ko'rsatkichi – bu ko'pincha g'oyaviy sermahsullik deb ataladigan, inson ishlab chiqishga qodir bo'lgan g'oyalar miqdoridir. Kreativ yondashuv va yutuqlar dunyo bo'ylab fan va texnologiyadan tortib, falsafa, san'at va gumanitar fanlar kabi turli sohalarda insoniyat tamaddunini ilgari surgan. Demak, kreativ fikrlash shunchaki tasodifiy g'oyalar berishdan kattaroq narsadir. U insonga ba'zan murakkab sharoitlarda, yanada yaxshiroq natijaga erishishga imkon beruvchi bilim va tajribaga asoslangan real ko'nikmadir. Butun dunyoda jamiyatlar va tashkilotlar muammolarni hal etishda innovatsion bilim va yaratuvchanlikka

tobora ehtiyoj sezmoqdalar, bu esa, o'z navbatida, ish bo'lgan innovatsiya va kreativ fikrlash ahamiyatini yanada kuchaytirmoqda.

Ta'limning asosiy vazifasi o'quvchida jamiyatda muvaffaqiyatli hayot kechirishi uchun bugun va kelajakda kerak bo'ladigan ko'nikmalarni shakllantirishdir. Kreativ fikrlash bugungi yoshlar ega bo'lishi kerak bo'lgan muhim ko'nikmadir. Bu ko'nikma ularga doimiy tarzda va shiddat bilan o'zgarayotgan, oddiy savodxonlikdan tashqari "XXI asr" ko'nikmalariga ega ishchilarni taqozo etayotgan dunyoga moslashishga ko'maklashadi. Umuman olganda, bugungi o'quvchi kelajakda hozir hatto mavjud bo'lmagan sohalarda ishlashi, yangi muammolarni yangi texnologiyalar orqali hal etishi kutilmoqda. [3]

Xulosa qilib aytganda, kreativ fikrlashni rivojlantirishning ahamiyati faqatgina mehnat bozori bilan cheklanmaydi. Maktab yoshlar uchun o'z qobiliyat va ko'nikmalarini, shu jumladan ijodiy talantlarini kashf etishda muhim ahamiyatga ega. Tahlil etish deyish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Hozirgi zamon psixologiyasi va pedagogikasi boshlang'ich sinf o'quvchilarining lug'atlariga asoslanib, boahlang'ich sinf o'quvchilarning kreativligi deb, uning fikriy sezgilaridagi, muloqatdagi, alohida faoliyat turidagi, ijodiy yondashish, bilish darajasi deb tariflash mumkin. [5]

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativligi, bu uning qat'iy, chegaralangan yoki sust chegaralangan sharoitlarda har xil original g'oyalarni izlab topish layoqatidir. Ilmiy adabiyotlarni taxlil qilish, qiyidagi o'zaro bir-biriga bog'liq **kreativlik tarkibiy komponentlarini ajratish imkonini beradi:**

-Intellectual (aqliy); Ahloqiy (o'z-o'zini boshqarish); Motivatsion (maqsadiy); Emotsional (his-hayajonli).

Kreativ layoqat quyidagi o'zaro bir-biriga bog'liq bo'lgan qismlardan iborat bo'ladi:

-Kreativlik maqsad; Ijodiy intilish; Kreativ qurish; Kreativ yo'nalish; Kreativ ifodali akt; Kreativ o'z-o'zini boshqarish; Kreativ faollik; Kreativ intilishlar darajasi.

Kreativlik yangi va qimmatli g'oyalarni yaratish bilan bog'liq bo'lgan murakkab fikrga asoslangan yuqori darajadagi fikrlash

qobiliyati sifatida tushuniladi. Yuqori darajadagi fikrlash qobiliyatlari malakali va strategik fikrlash bilan bog'liq bo'lganlardir va bu ko'nikmalar tanqidiy, ijodiy va kognitiv fikrlashni o'z ichiga oladi, shuningdek, chuqur o'rganish deb ham ataladi. Bundan tashqari, bugungi kunda samarali va yuqori darajadagi o'rganishga erishish uchun ijodkorlikni rivojlantirish muhim deb hisoblanadi.

Har bir kreativ va ijodkor boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'zo'quvchilarining kreativ fikrlash qobiliyatlarini o'z vaqtida aniqlashi va doimo rivojlantirib borishi shart va zarur.

Hozirgi kundagi muhtaram Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan beshta muhim tashabbusning asosiy maqsadi ham o'quvchi va yoshlarning o'ziga xos kreativ qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirishga va ularning bo'sh vaqtini mazmunli, samarali tashkil etishga qaratilgan.

Ozod va obod Vatanimizning ertangi kelajagi bugungi o'quvchi yoshlarning qo'lida ekan, buni biz o'qituvchi pedagoglar doimo yodda tutishimiz va o'z kasbimizga sidqidildan yondashishimiz kerak. [6]

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Sh. R. Toshmatova. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativligi, uning ijodiy faoliyatida paydo bo'lishi va rivojlanishi bosqichlari// Образование и инновационные исследования (2023 год № 8) 233-237bet.
2. Muslimov N. A. , Inoyatev U. I. , Usmonboyeva M. , Inog'omova D. "Pedagogika:1000 ta savolga 1000 ta javob"/ Metodik qo'llanma -T. :TDPU,2012. -193-b.
3. Beghetto, R. and J. Kaufman (2014), «Classroom contexts for creativity», High Ability Studies, Vol. 25/1, pp. 53-69, [http://dx. doi. org/10. 1080/13598139. 2014. 905247](http://dx.doi.org/10.1080/13598139.2014.905247).
4. Ishmuhamedov R, Yuldashev M. . "Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. " (ta'lim tizimi xodimlari, metodistlar, o'qituvchilar, tarbiyachi va murabbiylar uchun o'quv qo'llanma) Toshkent-2017, 366 bet.
5. Rustambek Qo'ldoshev^{1,2,1} , Nargiza Dilova² and Nargiza Hakimova². Guiding left-handed students to a healthy lifestyle during the period of adaptation to school education//BIO Web of Conferences 120, 01049 (2024) MBFA 2024
6. Nargiza Hakimova. "Lifelong learning" tamoyili asosida bo'lajak o'qituvchilarni uzluksiz kasbiy rivojlantirishdagi o'rni va ahamiyati//til va adabiyot. uz ilmiy-metodik elektron jurnal научно-методический электронный журнал scientific-methodological electronic journal//2025-yil, yanvar 1-son142-143bet.
7. Хакимова Наргиза Супхоновна. Возможности концепции "lifelong learning" в повышении профессиональной культуры у будущих учителей// international scientific and practical conference "rapid development of multilateral international relations from a pedagogical point of view" 4 june, 2024 568-572

TARIX FAN O'QITUVCHILARI MALAKASINI VIRTUAL MUZEYLAR VOSITASIDA OSHIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

To'ranazarova Muxlisaxon Davlatjon qizi

Qo'qon DPI tayanch doktoranti

toranazarovamuxlisa@gmail.com TEL:+998944491558

Annotatsiya. Maqaloda virtual muzeylar haqida ma'lumot berilib, ularning ta'limda, xususan, malaka oshirish tizimida tarix o'qituvchilariga beradigan imkoniyatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar. Malaka oshirish, virtual, muzey, virtual muzey, yodgorlik, tarix, ta'lim, artefakt.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ПОВЫШЕНИЯ КВАЛИФИКАЦИИ УЧИТЕЛЕЙ ИСТОРИИ ЧЕРЕЗ ВИРТУАЛЬНЫЕ МУЗЕИ

Аннотация. В статье представлена информация о виртуальных музеях и проанализированы возможности, которые они предоставляют учителям истории в образовании, в частности в системе повышения квалификации.

Ключевые слова. Повышение квалификации, виртуальный, музей, виртуальный музей, памятник, история, образование, артефакт.

PEDAGOGICAL POSSIBILITIES OF IMPROVING THE QUALIFICATIONS OF HISTORY TEACHERS THROUGH VIRTUAL MUSEUMS

Annotation. The article provides information about virtual museums and analyzes their opportunities in education, in particular, in the system of advanced training for history teachers.

Key words. Advanced training, virtual, museum, virtual museum, monument, history, education, artifact.

Kirish. Bugungi global ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalar, xususan, virtual muzeylarning roli ortib bormoqda. Virtual muzeylar tarixiy bilimlarni o'quvchilarga samarali yetkazishda hamda tarix fani o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini oshirishda muhim pedagogik vosita sifatida e'tirof etilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05. 10. 2020 yildagi PF-6079-son farmonida[1] ilgari surilgan "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasida ta'lim tizimini raqamlashtirish va pedagoglarning malakasini oshirish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan. Virtual muzeylar yordamida tarix o'qituvchilarining kasbiy rivojlanishi, ta'lim jarayonini innovatsion shakllarda tashkil etish imkoniyatlari va yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish dolzarb masalalardan biridir. Bugungi kunda ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni qo'llash, xususan, virtual muzeylardan foydalanish pedagogik jarayonni yanada samarali tashkil etish imkonini bermoqda. Virtual muzeylar tarix fanini o'qitishda zamonaviy yondashuvlarni joriy etish bilan birga, o'qituvchilarning malakasini oshirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada tarix fani o'qituvchilari malakasini oshirish jarayonida virtual muzeylardan foydalanish imkoniyatlari, ularning afzalliklari va pedagogik jihatlari tahlil qilinadi. Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi – tarix fani o'qituvchilari malakasini oshirishda virtual muzeylardan foydalanishning pedagogik imkoniyatlarini tahlil qilish va ularning samaradorligini baholashdan iborat.

Adabiyotlar sharhi. XXI asr ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalar muhim o'rin egallamoqda. Xususan, virtual muzeylardan foydalanish tarix fani o'qituvchilarining malakasini oshirish jarayonida yangi imkoniyatlarni ochib bermoqda. An'anaviy muzeylar bilan solishtirganda, virtual muzeylar zamonaviy texnologiyalar bilan boyitilgan bo'lib, ularni istalgan joyda va istalgan vaqtda ko'rish imkonini beradi. Virtual muzeylar nafaqat tarixiy bilimlarni chuqurlashtirish, balki o'qitishning interaktiv metodlarini o'zlashtirish uchun ham samarali vositadir.

Virtual muzeylar - bu real muzeylarning raqamli shakli bo'lib, ular muayyan tarixiy obidalar, moddiy madaniyat yodgorliklari,

san'at asarlari va boshqa eksponatlarni interaktiv formatda taqdim etadi. Klassik va zamonaviy muzeylar o'rtasidagi farqlardan biri bo'lgan virtual muzey ilovalari bilan muzeylarga tegishli veb-sahifalar ochildi va shu tariqa muzey va kolleksiyalarining 360 daraja panoramali ko'rinishi internet foydalanuvchilariga taqdim etildi.

Virtual muzey elektron artefaktlar va axborot resurslarining uyushgan to'plami sifatida ta'riflanadi, bu raqamlashtirish mumkin bo'lgan deyarli hamma narsadir. Andrews [1] ushbu ta'rifni yanada rivojlantirdi va virtual muzey - bu turli xil media muhitlarida haqiqiy joy yoki makonga ega bo'lmagan, lekin ulanish va turli kirish nuqtalarini ta'minlash qobiliyati orqali foydalanuvchi bilan an'anaviy aloqa usullarini yengib o'tishga yordam beradigan mantiqiy bog'liq komponentlar to'plami ekanligini ta'kidladi. Ushbu to'plam; Bularga jadvallar, chizmalar, fotosuratlar, diagrammalar, grafiklar, yozuvlar, video segmentlar, gazeta maqolalari, intervyular stenogrammalari, raqamli ma'lumotlar bazalari va virtual muzey serverlarida saqlanishi mumkin bo'lgan boshqa ko'plab narsalar bo'lishi mumkin [2]. Ushbu har xil turdagi elementlarni o'z ichiga olgan virtual muzeylar san'at, madaniyat va tarix sohalarida odamlar bilan elektron tarzda foydalanish mumkin bo'lgan vizual, audio va matnli fayllarni almashadigan raqamli xazinalardir [3].

Mazmuni. Jismoniy mavjud bo'lmagan virtual muzeylar haqiqiy muzeylar kabi samarali bo'lmaydi deb o'ylash mumkin. Obyektlarga jismoniy yaqinlikning yo'qligi muzeylarning asosiy xususiyati bo'lgan konkretlashtirishga to'liq imkon bermasa-da, muzey kolleksiyalaridan foydalanishni osonlashtirish nuqtai nazaridan virtual muzeylardan foydalanish maqsadga muvofiq, deyish mumkin. Virtual muzeylar mamlakatimizda va butun dunyoda har doim ham tashrif buyurish imkoni bo'lmagan muzeylarni ko'rish, bilish va ulardan xabardor bo'lish muhitini ta'minlaydi, ularni ziyorat qilish va ko'rish orqali olingan tajriba olingan zavqning o'rnini bosa olmasa-da, bu dunyoning tarixiy va umumiy madaniy merosiga osonlik bilan kirish imkonini beradi. Bundan tashqari, virtual muzeylar tashrif buyuruvchilarga kolleksiyani qanday ko'rishning turli xil variantlarini taklif qiladi,

bu ularga tashrif buyurish tartibi va tabiatini shaxsiy imtiyozlar va o'rganish uslublariga mos ravishda o'zgartirishga imkon beradi [2]. Bundan tashqari, virtual muzeylar jismoniy masofalarni yo'q qiladi va internet aloqasi kabi yaqin bo'lib, muzeyga qayta-qayta tashrif buyurish va tomosha qilish imkonini beradi. Shunday qilib, iqtisodiy, vaqtinchalik va fazoviy sabablarga ko'ra tashrif buyurish qiyin bo'lgan muzeylarning aksariyatiga virtual muzeylar orqali kirish mumkin [4] va muzeyda jismoniy mavjud bo'lmasa ham, asarlar va kolleksiyalarni ko'rish mumkin. Bundan tashqari, muzeydagi zallarga xohlagancha kirish, asarlarni ko'rish va zallar o'rtasida jismoniy jihatdan tezroq harakat qilish imkonini beradi.

Natijalar. Virtual muzeylar zamonaviy ta'limning muhim komponentiga aylanmoqda. Ular an'anaviy o'qitish metodlarini takomillashtirish va yangi pedagogik yondashuvlarni joriy etish imkonini beradi. Quyida virtual muzeylarning ta'lim jarayonidagi asosiy pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, Virtual muzeylar o'quvchilar va o'qituvchilar uchun tarixiy voqealar va jarayonlarni jonli tarzda ko'rsatish imkonini beradi. Tarixiy obidalar va eksponatlar 3D formatda tasvirlanganligi sababli, ularni real muhitga yaqin holda o'rganish mumkin. Masalan, qadimgi Misr piramidalari yoki O'zbekiston tarixiga oid yodgorliklarni virtual sayohatlar orqali ko'rish o'quv jarayonini qiziqarli va tushunarli qiladi. Bu esa ta'lim oluvchida qiziqish uyg'ota oladi.

An'anaviy darsliklarda ba'zan tarixiy voqealarni tasavvur qilish qiyin bo'lishi mumkin. Virtual muzeylar esa tasviriy materiallar, interaktiv xaritalar, hujjatlar va eksponatlar bilan boyitilgan bo'lib, tarixiy jarayonlarni jonlantiradi. Bu o'qituvchilarga mavzularni aniq va tushunarli yetkazishda yordam beradi. Bu esa o'z navbatida darsni boyitib boradi. Virtual muzeylar yordamida o'qituvchilar mustaqil ravishda bilimlarini oshirishi mumkin. Masalan, o'zlariga qiziq bo'lgan tarixiy davr yoki madaniyatni o'rganish uchun virtual ekspozitsiyalarga tashrif buyurishlari mumkin. Bu esa ularning o'z faniga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

O'qituvchilar virtual muzeylar orqali turli tarixiy hujjatlar, artefaktlar va arxeologik topilmalar bilan ishlash imkoniyatiga ega

bo'ladilar. Bu esa tarixiy ma'lumotlarni tahlil qilish, hujjatlar asosida xulosa chiqarish kabi muhim ko'nikmalarni shakllantiradi.

O'qituvchilar uchun virtual muzey ekskursiyalarini o'z ichiga olgan maxsus malaka oshirish kurslari tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Masalan:

- “O'zbekiston tarixi muzeyi” virtual ekskursiyasi – Milliy tariximizga oid eksponatlar va ularning o'qitish jarayonidagi ahamiyati.
- “Ermitaj muzeyi” virtual ekspozitsiyasi – Rossiya tarixi va jahon san'ati bilan tanishish imkoniyati.
- “Metropolitan muzeyi” virtual tashrifi – Yevropa va Amerika tarixiga oid qimmatli ma'lumotlar olish imkoniyati.

O'qituvchilar o'z darslarida virtual muzey materiallaridan foydalanib, tarixiy mavzularni yanada jonli va qiziqarli shaklda yetkazishlari mumkin. Masalan, Amir Temur haqida dars o'tishda, Samarqanddagi Registon maydonining 3D rekonstruktsiyasi yoki Bibixonim masjidi haqidagi virtual sayohatlar katta foyda beradi.

Zamonaviy texnologiyalar yordamida o'qituvchilar uchun virtual muzeylar bo'yicha maxsus vebinarlar va forumlar tashkil etish lozim. Bu esa ularga o'z tajribalarini bo'lishish va yangi pedagogik yondashuvlarni o'zlashtirish imkonini beradi.

Xulosa va tavsiyalar. Virtual muzeylar tarix fani o'qituvchilarining malakasini oshirishda muhim pedagogik vosita bo'lib, ular orqali ta'lim jarayonini samarali tashkil etish mumkin. Virtual texnologiyalar ta'lim jarayonida interaktivlikni oshirishi, o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishiga ko'maklashishi va tarixiy ma'lumotlarni kengroq o'rganish imkoniyatini yaratishi bilan ahamiyatlidir.

Tavsiyalar:

1. Malaka oshirish markazlarida virtual muzeylardan foydalanish bo'yicha kurslar tashkil qilish.
2. Virtual ekskursiyalar asosida tarixiy dars ishlanmalari yaratish.
3. Onlayn seminarlar va vebinarlar orqali o'qituvchilarni innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanishga o'rgatish.

4. Virtual muzeylar bilan hamkorlikni kengaytirish va ularni ta'lim jarayoniga joriy etish bo'yicha hukumat dasturlarini ishlab chiqish.

Virtual texnologiyalar yordamida tarix fani o'qituvchilarining malakasini oshirish – ta'lim sifatini yuksaltirishning eng istiqbolli yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida 05. 10. 2020 yildagi PF-6079-sonli farmoni.
2. Andrews, J. A new medium for old masters: the Kress study collection virtual museum project. Art Documentation: Journal of the Art Libraries Society of North America, 17(1), 19-27.
3. McKenzie, J. Building a virtual museum community. [http://www. fno. org/museum/museweb. html](http://www.fno.org/museum/museweb.html) adresinden erishilmiştir.
4. Barlas Bozkuş, Ş. (2014). Kültür ve sanat iletişimi çerçevesinde Türkiye'de sanal müzelerin gelişimi. The Journal of Academic Social Science Studies (JASSS), 26, 329-344.
5. Altunbaş, A., Özdemir, Ç. (2012). Çağdaş müzecilik anlayışı ve ülkemizde müzeler. Kültür ve Turizm Bakanlığı, Ankara. [https://teftis. ktb. gov. tr/Eklenti/4655,makale. pdf?0](https://teftis.ktb.gov.tr/Eklenti/4655,makale.pdf?0) adresinden erishilmiştir.

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TA'LIM SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA QO'LLANILADIGAN TA'LIM PLATFORMALARINING AHAMIYATI VA METODIKASI

Yusupov Musurmon Maxmud o'g'li
Nizomiy nomidagi TDPU o'qituvchisi
Baratov Shahzodbek Chori o'g'li
Nizomiy nomidagi TDPU 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Maqolada umumta'lim o'quv jarayonida kimyo kursidan metallmaslar bo'limini o'qitishda internetdan foydalanishning didaktik imkoniyatlari yoritilgan. Umumta'lim o'qituvchilarini an'anaviy o'qitishda ta'lim platformalaridan foydalanish metodikasi, ta'lim sifatini oshirishga yordam beradigan zamonaviy ta'lim texnologiyalari bo'yicha nazariy va amaliy ko'rsatmalar berilgan.

Kalit so'zlari: raqqamli ta'lim texnologiyalari, ta'limni intensivlashtirish, ommaviy ochiq onlayn kurslar, ta'lim platformasi, kompyuter savodxonlik, kommunikativ savodxonlik.

ЗНАЧЕНИЕ И МЕТОДОЛОГИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ПЛАТФОРМ В СФЕРЕ ОБРАЗОВАНИЯ ИСПОЛЬЗУЕМЫХ ПРИ РАЗРАБОТКЕ В ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКЕ

*Юсупов Мусурмон сын Махмуда
Преподаватель ТДПУ имени Низами
Баратов Шахзодбек сын Чори
Студент 3 курса Низоми ТДПУ*

Аннотация: В статье рассматриваются дидактические возможности применения сети Интернет в общеобразовательном процессе при преподавании неметаллического раздела курса химии. Даны теоретические и практические указания по методике использования образовательных платформ в традиционном обучении общеобразовательных учащихся, современным образовательным технологиям, способствующим повышению качества образования.

Ключевые слова: цифровые образовательные технологии, интенсификация образования, массовые открытые онлайн-курсы, образовательная платформа, компьютерная грамотность, коммуникативная грамотность.

THE SIGNIFICANCE AND METHODOLOGY OF EDUCATIONAL PLATFORMS IN THE FIELD OF EDUCATION USED IN DEVELOPMENT IN THE DIGITAL ECONOMY

*Yusupov Musurmon son of Mahmud
Teacher at TDPU named after Nizami
Baratov Shakhzodbek son of Chori
3rd year student Nizomi TDPU*

Abstract: This article discusses the use of didactic possibilities of Internet in the educational process of the when teaching the non-metallic section of the chemistry course. Theoretical and practical instructions are given on the methodology of using educational platforms in traditional teaching of general education students,

modern educational technologies that contribute to improving the quality of education.

Keywords: digital technologies education, intensification of education, massive open online courses, an educational platform, computer literacy, communication literacy.

Bugungi globallashuv jarayonida raqamli texnologiyalar davlat boshqaruvi, iqtisodiyot, tibbiyot, qishloq xo'jaligi kabi ustuvor sohalar bilan bir qatorda ta'lim sohasida ham ko'plab innovatsion yutuqlarga erishish imkoniyatini yaratib bermoqda. Eng avvalo raqamli texnologiyalar barcha ta'lim oluvchilar uchun istalgan joy va vaqtdan qat'iy nazar ta'lim resurslaridan teng foydalanish imkoniyatini taqdim etayotgan bo'lsa, ikkinchidan ta'lim xizmatlaridan masofadan turib foydalanish hamda ta'lim tizimini samarali boshqarish maqsadida ta'lim tashkilotlari tomonidan amaliyotga tatbiq etilmoqda.

Raqamli ta'lim nafaqat masofaviy yoki onlayn ta'limni tashkil etishda, balki, dars jarayonlarini mazmunli, qiziqarli va interfaol shaklda tashkil etishda ham ko'plab samaradorliklar keltirmoqda. raqamli ta'limni rivojlantirishda ta'lim texnologiyalari (Educational technology — EdTech) eng asosiy elementlardan biri hisoblanib, unda ta'lim beruvchilar tomonidan dars jarayonlarida foydalaniladigan turli xil dasturiy-apparat vositalar nazarda tutiladi. Ya'ni, EdTech kompyuter, ta'lim planshetlari, interfaol doskalar, proyektorlar va shu kabi raqamli kontentlardan foydalanish qurilmalari hamda ularni yaratish uchun foydalaniladigan ilovalarni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari raqamli ta'limni tashkil etishda ta'limni boshqarish tizimlari (Learning Management System -LMS), ommaviy ochiq onlayn kurslar (Massive open online course -MOOC) va boshqa ta'lim platformalari ham muhim rol o'ynaydi. Umuman olganda, raqamli ta'limni rivojlantirishda barcha ta'limga oid jarayonlarni raqamli transformatsiya qilish va raqamli ta'lim resurslaridan foydalanish nazarda tutiladi[1].

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida ham ta'lim mazmuni, sifati va samaradorligini oshirish maqsadida raqamli ta'limni rivojlantirish eng ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020- yil 5-oktyabrda "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasi PF-6079-son Farmoni bilan tasdiqlandi[2]. Unga ko'ra, ta'lim jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llagan xolda ta'limni boshqarishni avtomatlashtirish va har tomonlama tahlil qilib borish tizimini yaratish hamda ta'lim sohasida raqamli ko'nikmalarni oshirish maqsadida quyidagi:

- ta'lim pog'onasining boshlang'ich bosqichida o'quvchilarga raqamli texnologiyalarni taqdim etish orqali raqamli ko'nikmalarni o'zlashtirish uchun imkoniyatlar yaratish, tahliliy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, kelajakda zarur bo'ladigan keng ko'lamli raqamli transformatsiya sharoitida yoshlarga bilim va ko'nikmalar berish;

- yagona masofaviy ta'lim platformasini kelajakda ta'limning barcha yo'nalishlarida tatbiq etish maqsadida yaratish va amalga oshirish;

- o'quvchilar uchun raqamli texnologiyalardan foydalanishning umumiy darajasini oshirish maqsadida umumta'lim maktablarining asosiy o'quv dasturlariga doimiy o'zgartirishlar kiritish;

- texnologik kasblar va innovatsion faoliyat sohasida o'qishni tashkil etishga qaratilgan yuqori samarali xalqaro amaliyotni ta'lim tizimiga joriy etish;

- axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan bog'liq yo'nalishda kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari sonini, axborot texnologiyalar sohasida o'rtacha darajada kompetensiyaga ega bo'lgan o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalari bitiruvchilarini oshirish;

- axborot texnologiyalar sohasidagi tashkilotlarining o'quv jarayonlarga qatnashishini rag'batlantirish orqali umumta'lim maktablarda informatika fanini o'qitish metodlarini takomillashtirish;

- maktabgacha, o'rta va oliy ta'lim tizimi uchun elektron ta'lim resurslarini yanada takomillashtirish, shuningdek, ichki va jahon ta'lim resurslaridan foydalanishni ta'minlash;

- maktab va maktabgacha ta'lim tizimiga raqamli transformatsiya va yangi texnologiyalar bo'yicha innovatsion o'quv

dasturlarini joriy etish kabi chora - tadbirlar amalga oshirilishi rejalashtirilgan[3].

Ta'limda axborot texnologiyalarini joriy qilish pedagogik faoliyat vositalarini takomillashtirishda, o'qitish sifati va samaradorligi ortishida ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarni raqamli texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalarini baholash mexanizmlarini ishlab chiqish va bunda quyidagi jihatlarni inobatga olish lozim[12]:

Axborot savodxonligi-bu axborotga bo'lgan ehtiyojni shakllantirish, ma'lumotni qanday shaklda taqdim etilishidan qat'iy nazar, so'rash, qidirish, tanlash, baholash va sharhlash qobiliyati;

Kompyuter savodxonligi – bu raqamli texnologiyalar bilan samarali va maqsadli ishlash qobiliyati [4] ;

Media savodxonligi - ommaviy axborot vositalari xabarlarini turli shakllarda qabul qilish, tahlil qilish, baholash va uzatish qobiliyati;

Kommunikativ savodxonligi -zamonaviy raqamli aloqa vositalaridan foydalanish qobiliyati [5] ;

Hozirgi texnika asrida raqamli texnologiyalar kundalik hayotimizning ajralmas qismiga aylanib ulgurishi natijada ta'lim jarayonlarini raqamli boshqarish, raqamli ta'lim resurslarini yaratish, o'quv jarayonlarida pedagogik texnologiyalardan foydalanish, masofaviy va onlayn ta'limni tashkil etish, o'qitishning innovatsion va interfaol shakllarini yaratish, virtual sinflar, ta'lim o'yinlari hamda shu kabi raqamli ta'lim vositalarining soni va imkoniyatlarini ortib borishiga sabab bo'lmoqda.

Raqamli darslik va elektron kitob platformalari, baholash va viktorina platformalari, kontent yaratish va almashish platformalari hozirgi raqamli ta'limda muhim ahamiyatga ega hisoblanib, ta'lim jarayoniga yangi o'qitish metodlari va usullarini joriy etish, ta'lim sifati va samaradorligini oshirish, ta'limda virtual muhitni yaratish, xalqaro tajribalarda qo'llanilayotgan pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanishga erishiladi[6]. Ta'lim platformalarining bir nechta turlarini birgalikdagi jamlanmasi ta'lim jarayonini samarasini bir necha barobarga oshiradi. Hozirgi kunda mustaqil davlatlar hamdo'stligi davlatlarida hamda

respublikamiz ta'lim muassasalarida YaKlass, Khan Academy, Foxford Academy, Maktab. uz kabi ta'lim platformalari keng foydalaniladi.

Khan Academy — bu dunyo bo'ylab millionlab ta'lim oluvchilarga bepul ta'lim resurslarini taqdim etuvchi notijorat onlayn ta'lim platformasi hisoblanadi. Platforma turli fanlarni, jumladan matematika, tabiiy fanlar, tarix, informatika va boshqa ko'plab fanlarni qamrab oladi. Shuningdek, platformada o'qituvchi, o'quvchi va ota-onalar uchun alohida foydalanish imkoniyatlari ham taqdim etilgan. Khan Academy platformasi 2008-yilda Hidistonlik Salman Amin Khan tomonidan yaratilgan. Uning asosiy maqsadi ta'limni hammaga teng va bepul qilib taqdim etishdir[7].

“YaKlass” - bu umumta'lim maktablari uchun elektron ta'lim platformasi hisoblanib, 2013-yilning mart oyida ishga tushirilgan. Ushbu ta'lim platformasida boshlang'ich va o'rta maktab o'quvchilariga o'tiladigan barcha asosiy fanlarning mavzular kesimida nazariy ilmiy qismi, sinov-test topshiriqlari, uy vazifa va mustaqil ta'lim topshiriqlari berilgan. O'quvchilar mavzularni o'qishi, ko'nikmalarini mashq qilishi va materialni o'zlashtirishini tekshirishi mumkin bo'lgan ko'plab ochiq topshiriqlar mavjud[8].

Foxford Academy- 1-11-sinf o'quvchilari, o'qituvchilar va ota-onalar uchun mo'ljallangan onlayn ta'lim maktab. Ushbu ta'lim platformasi 2009 -yil Moskva fizika-texnika instituti qoshida matematika va fizika kurslarni chuqurlashtirib o'qitish asosida ishga tushirilgan. Keyinchalik kimyo, biologiya, informatika va boshqa fanlarni o'qitish kurslari qo'shildi. Onlayn ta'lim platformasida va o'qituvchi bilan individual darslarda ta'lim oluvchilar yagona davlat imtihoniga, asosiy davlat imtihoniga, olimpiadalarga tayyorgarlik ko'rishadi va maktab fanlarini o'rganishadi[9].

Maktab. uz - xalqaro standartlarga javob beruvchi ilg'or raqamli ta'lim texnologiyasi bo'lib, maktab o'quvchilari uchun sifatli uzluksiz masofaviy ta'lim taqdim etilishini ta'minlaydi. Platformada o'qituvchi va ota-onalar uchun ham o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini nazorat qilib borish, mavzular mazmuni bilan tanishish singari keng imkoniyatlar taqdim etiladi[10].

Yuqoridagi ta'lim platformalari to'liq imkoniyatlaridan foydalanish uchun platforma tizimidan ro'yxatdan o'tishingiz lozim. Ko'pgina foydali kontentlari va video dars ishlanmalaridan foydalanishda pullik xizmat ko'rsatiladi.


Quyida biz tatqiqot obyektimizda kimyo kursidan metallmaslar bo'limini chuqurlashtirib o'qitishda yangi zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalangan holda ta'lim platformasini ishlab chiqdik. Platformada o'quv dasturiga kiritilgan mavzularni yangicha qiziqarli usulda yoritgan ma'lumotlar taqdim etilgan. Shuningdek, platformada metallmaslarning grafikli va modeli chizmalari, birikmalari, fizik va kimyoviy xossalari, ishlatilish sohalari singari zamonaviy bilim va ko'nikmalarni o'rganish imkoniyati mavjud. Platformasidagi laboratoriya videodarslarni o'quvchi istalgan joyda o'zining qulay vaqt va sharoitda tomosha qilishlari mumkin. Mavzularni puxta o'zlashtirishlari uchun esa darslardan so'ng savollar ham taqdim etilib, ta'lim oluvchilarning olgan bilim va ko'nikmalarini mustahkamlashga yordam beradi[11].

Platformada davlat ta'lim standartlarga mos ravishda xorijiy interfaol pedagogik metodlar asosida taqtimodlar tayyorlab taqdim etilgan. Asosiysi, ushbu foydali kontentlar har bir o'quvchilarda kimyo kursiga bo'lgan qiziqishini oshiradi[13].

Tajriba sinov uchun olingan 8-A sinf o'quvchilari tatqiqod natijalari yakunida kutilgan samaradorlikka erishishdi[1-rasm].

1-jadval.O'quvchilarning o'quv yutuqlari

<i>O'quv yutuqlar</i>	<i>8 «A» sinf natijalari</i>		<i>8 «B» sinf natijalari</i>	
	<i>O'quvchilar soni</i>	<i>%</i>	<i>O'quvchilar soni</i>	<i>%</i>
<i>Yuqori ko'rsatgich</i>	17	5 0%	14	4 6,7%
<i>O'rtacha ko'rsatgich</i>	13	3 8,2%	11	3 6,7%
<i>Quyi ko'rsatgich</i>	4	1 1,8%	5	1 6,6%



1-rasm. 8-sinf o'quvchilar o'rtasida metallmaslar mavzusini o'qitishdagi tatqiqot natijalari tahlili.

Olingan so'ngi natijalar onlayn platformalarni ta'lim jarayonida ulardan samarali foydalanish nuqtai nazaridan baholash yondashuvlari muhokama qilinadi.

Mavjud va yaratilgan onlayn resurslarning xilma-xilligi virtual ta'lim muhitini baholash ko'nikmalarini rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi, bu esa baholash mezonlari va zarur miqdoriy ko'rsatkichlarni ishlab chiqishni talab qiladi. Ta'lim platformalarini tasniflashning asosiy yondashuvlari tahlil qilinadi va o'quv jarayoni ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar usullari uchun o'zimizning tipologiyamiz taklif etiladi. Platforma yechimlarini baholash mezonlari ishlab chiqilgan va ular uchta asosga ko'ra guruhlangan: texnik, funktsional va didaktik imkoniyatlar. Mezonlarni shakllantirish platformalarning ma'lum bir sifati mavjudligi yoki yo'qligi ko'rsatkichlaridan foydalanishga imkon beradi, bu esa baholashning sub'ektivligini kamaytirishga yordam beradi[14].

Xulosa. Ta'lim maydonining raqamli transformatsiyasi turli xil resurslarni o'quv jarayoniga integratsiya qilish ta'limda natijaviylik imkoniyatlarini oshiradi.

Raqamli ta'lim platformalari o'quv jarayoni ishtirokchilarini birlashtiruvchi, masofaviy ta'lim olish imkoniyatini beruvchi, o'quv

materiallari va ma'lumotlardan foydalanishni ta'minlaydigan, shuningdek, o'quvchilar bilim sifatini nazorat qilish imkonini beradi[15].

Pedagoglar kommunikativ savodxonlikni o'zlashtirish va bo'lajak o'qituvchilarning o'z kasbiy faoliyatida ushbu texnologiyalardan maqbul va to'g'ri foydalanishga tayyorligini shakllantirish, ularning pedagogic faoliyatida an'anaviy va masofaviy ta'lim sharoitida onlayn platformadan foydalanish samaradorligini oshirish qayd etishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Innovatsion ta'lim texnologiyalari va vositalari" Maktabgacha, umumiy-o'rta ta'lim, oliy ta'lim va boshqa ta'lim tashkilotlaring pedagog kadrlari uchun o'quv-uslubiy qo'llanma. Toshkent – 2024. 130 bet.
2. <https://uzbekistan2030.uz/uz-Latn/decree/3>
3. "Raqamli o'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05. 10. 2020 yildagi PF-6079-son Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>
4. Khan, Rehman & Khan, Anwar & Anwar, Muhammad. (2023). Computer literacy and academic performance in universities of southern khyber pakhtunkhwa pakistan. Gomal University Journal of Research. 39. 147-155. 10. 51380/gujr-39-02-03.
5. Nichols Hess, A. , & Greer, K. (2016). Designing for Engagement: Using the ADDIE Model to Integrate High-Impact Practices into an Online Information Literacy Course. *Communications in Information Literacy*, 10 (2), 264-282. <https://doi.org/10.15760/comminfolit.2016.10.2.27>
6. Raqamli ta'lim resurslari va ulardan foydalaniladigan dasturiy vositalarga qo'yiladigan umumiy talablar. o'zbekiston respublikasi ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi. toshkent – 2024. 34 bet
7. <https://uz.khanacademy.org/>
8. Гиматдинова Г. Н. Возможности использования онлайн-сервиса «ЯКласс» для формирования регулятивных универсальных учебных действий обучающихся 7–9-х классов общеобразовательной школы // Научно-методический электронный журнал «Концепт». – 2020. – № 08 (август). – С. 87–99. – URL: <http://e-koncept.ru/2020/201059.htm>. DOI 10. 24411/2304-120X-2020-11059
9. <https://foxford.ru/about>
10. <https://maktab.uz/about>
11. Alimova, F. A. , Yusupov, M. M. «Неметаллы. Общие свойства неметаллов» электронное методическое пособие. O'zbekiston respublikasi adliya vazirligi. № DGU 25042. Talabnoma kelib tushgan sana: 13. 04. 2023 Talabnoma raqami: DGU 2023 3282
12. Алимова, Ф. А. Современные технологии при обучении химии// Учебник, Т. : Иктисодиёт дунёси, 2020. -307с.
13. Alimova, F. , & Yusupov, M. (2022). Возможности тест-тренажеров при обучении темы «галогены». Научный вестник ташкентского государственного педагогического университета, 6-серия, 175-181 стр
14. Yusupov Musurmon Maxmud o'g'li. (2024). Роль и значение цифровых образовательных технологий в преподавании химии. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10678179>
15. M. Kuchkarov. , M. Yusupov. (2024). Kimyoviy tajribalarni ijodiy yondashuv asosida tashkil etishning uslubiy imkoniyatlari. Xalq ta'limi. o'zbekiston respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining ilmiy-metodik jurnali. 5-son. (ISSN 2181-7839). 46-50 bet.

16. Тиунова Наталья Николаевна (2016). Образовательные платформы как средство интенсификации профессиональной подготовки студентов колледжа. Профессиональное образование в России и за рубежом, (2 (22)), 103-108.

17. Усачева Елена Александровна, & Чеботарёва Наталья Николаевна (2021). Образовательные платформы дистанционное обучение: новые вызовы в новой реальности. Вестник военного образования, (1 (28)), 107-111.

18. Alimova F. , & Yusupov M. (2022). К вопросу об использовании интернет-тестирования в обучении химии. Science and innovation, 1 (B8), 1017-1022. doi: 10.5281/zenodo.7407797

TA'LIM JARAYONIGA RAQAMLI VA INNOVATSION TEKNOLOGIYALARNI JORIY ETISH ISTIQBOLLARI

*Guliston davlat universiteti, "Pedagogika va psixologiya" kafedrası
o'qituvchilari: S. A. Ravshanov, D. G'. O'sarov, M. M. Ergashev,
"Psixologiya" ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi M. T. Rustamova
sobirravshanov3@gmail.com +998999144472*

Annotatsiya: Ushbu maqolada, ta'lim va tarbiya jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish va buni amaliyotga tadbiq etishning ahamiyati haqida fikr va mulohazalar, shuningdek ta'lim olishda zamonaviy texnologiyalar roli, ahamiyati haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: ta'lim, tarbiya, pedagogika, oliy ta'lim tizimi, kreativlik, kasb, faoliyat, bilim, ko'nikma, malaka, qobiliyat, raqamli texnologiya.

ПЕРСПЕКТИВЫ ВНЕДРЕНИЯ ЦИФРОВЫХ И ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЙ ПРОЦЕСС

*Преподаватели кафедры "Педагогика и психологии"
Гулистанского государственного университета
С. А. Равшанов, Д. Г. Осаров, М. М. Эргашев,
студентка 2 курса факультета «Психологии» М. Т. Рустамова*

Аннотация: В статье рассматривается важность использования цифровых технологий в процессе обучения и воспитания и их практическое применение, а также роль и значение современных технологий в образовании.

Ключевые слова: образование, воспитание, педагогика, система высшего образования, творчество, профессия, деятельность, знания, умения, квалификации, навыки, цифровые технологии.

PROSPECTS FOR IMPLEMENTING DIGITAL AND INNOVATIVE TECHNOLOGIES INTO THE EDUCATIONAL PROCESS

*Teachers of the Department of Pedagogy and Psychology
Gulistan State University*

*S. A. Ravshanov, D. G. Osarov, M. M. Ergashev,
2nd year student of the Faculty of Psychology M. T. Rustamova*

Abstract: This article presents thoughts and comments on the importance of using digital technologies in the process of education and upbringing and their practical application, as well as the role and importance of modern technologies in education.

Keywords: education, upbringing, pedagogy, higher education system, creativity, profession, activity, knowledge, skills, qualifications, abilities, digital technology.

Hozirgi paytda texnika va texnologiyalar kun sayin shiddat bilan yangilanib borayotgan davrda jamiyatning dunyoqarashi va zamonga moslashuvini tubdan o'zgartirishi tabiiy holat bo'lib bormoqda. Shiddat bilan rivojlanib borayotgan raqamli dunyo ta'lim tizimida o'qitish va o'rganish borasida ko'plab pedagogik tadqiqotlar o'tkazish zaruratini eng muhim vazifalardan biri desak mubolag'a bo'lmaydi.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda ta'lim tizimini tubdan isloh qilish va ta'lim sifatini baholash hamda raqamli ta'limni rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"i PF-5712-sonli Farmonida [1] "PISA" (The Programme for International Student Assessment) o'quvchilarni baholash xalqaro dasturi reytingida O'zbekistonning 2021-yilda birinchi 70 talikka, 2025-yilda 60 talikka va 2030-yilga

kelib esa, birinchi 30 ta ilg'or mamlakatlar qatoriga kiritish ko'zda tutilgan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrdagi "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 997-sonli qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi qoshida "Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi" tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF 6079-sonli "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora tadbirlari to'g'risida"gi farmonida raqamli dunyoda raqamlashtirish, raqamli texnologiyalarni ishlab chiqish, raqamli iqtisodiyot sohasida yangi loyihalarni ko'rib chiqish va raqamli ta'limni rivojlantirish dasturlari amalga oshirilmoqda. [2]

Raqamli texnologiyalar jamiyat hayotining barcha sohalarida keng qo'llaniladi, axborot oqimlari tarqaladi va global raqamlashtirilgan makonini tashkil qiladi. Bugungi kunda ular dunyoda tezlik bilan tarqalmoqda, chunki jamiyatimiz, ijtimoiy hayotimiz yangilangan axborotni talab etmoqda. Jamiyat hayotining barcha sohalarida raqamli texnologiyalardan ilg'or foydalaniladi. Ushbu jarayonning markaziy qismida ta'lim, turadi. Bugungi kunda ta'lim tizimini raqamlashtirish, ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanishga katta e'tibor qaratilmoqda, chunki raqamli texnologiyalardan foydalanish o'qitishning pedagogik usullarini yanada rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Chunonchi, so'ngi yillarda mamlakatimiz ta'lim bosqichlarining barcha sohalarida raqamli texnologiya, elektronlashtirilgan tizim joriy qilindi. Chunonchi umumiy o'rta ta'lim maktablarida "Elektron maktab", oliy ta'lim tizimida esa modul kredit tizimi amaliyotga tadbiq etildi. Bu esa ta'lim samaradorligini oshirish, professor-o'qituvchilarni ortiqcha qog'ozbozlikdan holi qilish, o'quvchilarda va ota-onalarda farzandi bilim saviyasini o'z vaqtida nazorat qilish, tenglik, adabiyot, o'quv qo'llanma va topshiriqlarni o'z vaqtida muammolarsiz topish va bajarish imkoniyatini yanada oshirdi. [3]

Bugungi global davrda raqamli texnologiyalardan foydalanishni ta'lim jarayoniga joriy etish modernizatsiyaning eng muhim yo'nalishlaridan biridir. Bu nafaqat tayyorgarlik darajasini oshirish, balki axborot kompetensiyalarini rivojlantirish va shaxsning intellektual salohiyatini ochish imkonini ochib beradi. So'nggi o'n yillikda maktab ta'limi keng ko'lamli raqamlashtirishga o'tib bo'ldi desak mubolag'a bo'lmaydi. Hozirgi kunda umumiy o'rta ta'lim sinflarini o'qituvchi kompyuteri, interfaol doska va boshqa kompyuter jihozlarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Raqamli texnologiyalari va ma'lumotlar texnik manbalaridan foydalanuvchilarga qo'yiladigan talablarga tegishli ma'lumotlar, ma'lumotlar va bilimlarni to'plash, saqlash, qayta ishlash berish usullari o'z ichiga oladi. Raqamli texnologiyaning uchta tarkibiy komponenti mavjud: texnik ishlab chiqarish majmui; ta'minot; tashkiliy va uslubiy yordam tizimlari. Aloqa vositalari va axborot vositalari yordamida axborot texnologiyalari odamlarga nafaqat hozirgi zamon, balki o'tmish voqealaridan ham xabardor bo'lish imkoniyatini beradi.

Raqamli texnologiyalar quyidagi ko'rinishlarni namoyan etadi. Analog texnologiyalar axborotni uzluksiz tasodifiy o'zgaruvchi ko'rinishida ifodalaydi; Raqamli axborot texnologiyalari axborotni ikkilik arifmetika shaklida aks ettirishning diskret usulidan foydalanadi. [4]

Ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etishda quyidagi tavsiyalarni ishlab chiqdik:

- Raqamli pedagogika uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimida innovatsion texnologiyalarning uzluksizligini ta'minlash;

- Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ta'lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini ta'minlash, bu borada pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirib borish uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish;

- Ta'lim-tarbiya jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta'lim xizmatlarini yanada rivojlantirish, vebinar, onlayn, "blended learning", "flipped classroom" texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etish;

- Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida masofaviy ta'lim dasturlarini tashkil etish;
- Dual ta'limni yanada rivojlantirish;
- Milliy elektron ta'lim resurslari yaratilishini jadallashtirish va yanada rivojlantirish;
- Xorijiy elektron ta'lim resurslarini tarjima qilish ishlarini tashkil etish,
- Umumta'lim maktablarida xorijiy va ixtisoslashgan maktablar bilan masofaviy dars mashg'ulotlarni tashkil etishni yanada rivojlantirish;
- umumta'lim maktablarida elektron resurslar salmog'ini yanada oshirib borish, elektron o'quv adabiyotlar yaratish, ularni mobil qurilmalarga yuklab olish maqsadida kutubxonalarda QR-kod yordamida elektron resurslar haqidagi axborotlarni joylashtirish tizimini yaratish;
- Oliy ta'lim muassasasining konferensiya materiallari, bitiruv-malakaviy ishlar, magistrlik va doktorlik dissertatsiyalaridan iborat ilmiy-texnik ma'lumotlar elektron bazasini yaratish, kelgusidagi ilmiy-texnik ma'lumotlar yangiligini ta'minlash maqsadida antiplagiat tizimidan foydalanishni yanada keng joriy etish;
- Oliy ta'lim muassasalarida tashkil qilinadigan xorijiy va mahalliy miqyosida tashkil qilinadigan konferensiya, ilmiy amaliy anjumanlarda umumta'lim maktab o'qituvchilari ishtirokini yanada ko'paytirish;
- Ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarining o'ziga xosligidan kelib chiqib, ta'lim jarayonida xalqaro miqyosda keng qo'llaniladigan zamonaviy dasturiy mahsulotlardan foydalanishni yanada rivojlantirish;
- Oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari, bakalavriat, magistratura talabalari va tayanch doktorantlariga oid ma'lumotlarni o'zida aks ettiruvchi va muntazam yangilanib boruvchi elektron baza (Student Record System) yuritilishini yo'lga qo'yish asosida uning milliy tizimini yaratish.
- Oliy ta'lim tizimida tegishli mavzuga doir tashkil qilinadigan dars mashg'ulotlarini umumta'lim maktablariga zoom dasturi orqali to'g'ridan to'g'ri onlayin tashkil etish;

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy elektron ta'lim vositalari rivojlanib borayotgan, dunyo ta'lim tizimida o'z o'rniga ega bo'lgan mamlakatimiz ta'lim tizimi so'ngi o'n yillikda jadal rivojlanish, o'zgarish bosqichiga kirdi.

Qator oliy ta'lim muassasalari, ixtisoslashgan maktablar, raqobotdosh xususiy oliy ta'lim muassasalari va maktablar tashkil qilindi. Ularning barchasi zamonaviy elektron vositalar, jihozlar bilan ta'minlandi. Hozirgi vaqtda kompyuterlashtirish jarayoni dunyo mamlakatlarida turli darajada kechmoqda.

Taraqqiyot qay darajada bo'lmasin, insoniyat jamiyatda axborot texnologiyalarining o'rni beqiyosligini tushunib yetdi. Inson faoliyatining barcha sohalarini raqamlashtirish bugungi kunda jamiyatning eng muhim vazifasi va ijtimoiy taraqqiyot omilidir.

Xususan, pedagogika va umumta'lim, oliy ta'lim sohasini rivojlantirishda raqamli texnologiyalar muhim ahamiyatga ega ekanligini yuqorida ko'rib chiqib muhim tavsiyalar ishlab chiqdik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq / Sh. M. Mirziyoyev. - Toshkent : O'zbekiston, 2016. — 56 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 29. 04. 2019 yildagi PF-5712-sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/-4312785>
3. Pedagogika. (Ma'ruzalar matni. Prof. N. Gaybullayev taxriri ostida). T. "Universitet". 1999.
4. Xodjaev B. X. Umumiy pedagogika. Darslik, Toshkent "Sano-standart", 2017-yil. 306-308-bet <https://cspi.uz/> [2]
5. Pedagogik mahorat. Darslik / A. A. Xoliqov; O'zbRes Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. - T. : "IQTISOD-MOLIYA", 2011, -420 b
6. Xalikova U. M. (2020). Maktabgacha ta'lim muassasalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning dolzarbligi. Интернаука, 13-2, С. 78-79. [3]
7. Khalikova U. M. (2020). Information and communication technology (ICT) in preschool education. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. 10:4, pp. 877- 885 [4]
8. O'sarov D. G' (2022) Bugungi zamonaviy pedagogika fanining asosiy funksiyalari Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences journal 212-213 [4]
9. O'sarov D. G' Mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarida ta'limning kredit-modul tizimini joriy etishda ta'lim dasturining o'rni Pedagogical Cluster-Journal of Pedagogical Developments 39-43 [4]

DARSLARDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING SAMARASI (ONA TILI VA ADABIYOT MISOLIDA)

Imomaliyeva Shohista Abduraufovna

Toshkent Shahar Yunusobod tumani, 258-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Muallif ushbu maqolada maktab o'quvchilariga ona tili va adabiyot fanlaridan dars berish jarayonida o'zi qo'llayotgan pedagogik texnologiyalar va bugungi kunda yangi innovatsion texnologiyalardan foydalanish usullari haqida so'z yuritgan.

Kalit so'zlar: fikrlash, g'oya, ijodiy ishlash, izlanish, tahlil, xulosa, usul, internet ma'lumotlar, multimedia dasturlari, jadvallar.

ЭФФЕКТ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СОВРЕМЕННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ НА УРОКАХ (НА ПРИМЕРЕ РОДНОГО ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ)

Имамалиева Шахиста Абдурауфовна

Общая средняя школа №258 Юнусабадского района города Ташкента учитель "Родного языка и литературы"

Аннотация: В данной статье автор рассказал о педагогических технологиях, которые он использует в процессе обучения школьников родному языку и предметам обмана, а также о способах использования новых инновационных технологий сегодня.

Ключевые слова: мышление, идея, творчество, исследование, анализ, вывод, метод, данные интернета, мультимедийные программы, таблицы.

THE EFFECT OF USING MODERN PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN THE LESSONS (BASED ON THE EXAMPLE OF NATIVE LANGUAGE AND LITERATURE)

Imamaliyeva Shakhista Abduraufovna
General secondary school No. 258 of Yunusabad district of Tashkent
teacher of "Native language and literature"

Abstract: In this article, the author talked about the pedagogical technologies that he uses in the process of teaching schoolchildren their native language and subjects of deception, as well as ways to use new innovative technologies today.

Key words: thinking, idea, creativity, research, analysis, conclusion, method, Internet data, multimedia programs, tables.

Bugungi kunda ta'lim tizimini takomillashtirish va uni zamon talablariga moslashtirish, zamonaviy axborot texnologiyalariga asoslangan, jahon andozalari darajasidagi tizimni yaratish umumdavlat siyosatining muhim tarkibiy qismlaridan biriga aylandi. Avvalam bor dars – ta'lim beruvchi tomonidan yoshi va ma'lumoti jihatidan bir xil bo'lgan ta'lim oluvchilar guruhiga o'quv rejasi, o'quv dasturi talablari va qat'iy dars jadvali asosida muayyan vaqt ichida bilim berish, malaka hosil qilish bo'yicha muayyan mashg'ulotdir. Bu mashg'ulotni adabiyot darslarida qo'llanishining samarali tomonlarini ko'rib o'tmoqchimiz.

Adabiyot – ulug'vor hodisa, uni inson dahosi yaratgan, bu uning aqlining mevasidir. Adabiyotning inson hayotidagi o'rni, ahamiyati qanday? Adabiyot bizga insonning ichki go'zalligini ko'rishga, uni tushunishni va qadrlashni o'rganishga yordam beradi. Adabiyot - ruh va shaxs tarbiyasining kuchli manbai. Badiiy obrazlarning ochilishi orqali adabiyot bizga yaxshilik va yomonlik, haqiqat va yolg'on tushunchalarini beradi. Hech qanday mulohaza odamning ongiga haqiqatdan chizilgan tasvir kabi ta'sir o'tkaza olmaydi. Bu esa adabiyotning kuchi va ahamiyatidir. Shuni ta'kidlash muhimki, "Ona tili va adabiyot" darslariga noan'anaviy darslarni olib kirish va uni ta'lim mazmuniga singdirish, dars o'tishning yangidan-yangi usullarini topish Davlat ta'lim standartlari talablarini bajarishga zamin yaratadi. Inson shaxsini har tomonlama kamol toptirish, o'sib kelayotgan yosh avlodda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga hurmat tuyg'usini uyg'otishda, milliy tilga, o'z xalqining an'analariga iftixor hissini

kamol toptirishda “Ona tili va adabiyot” darslarining oʻrni beqiyosdir. Shuningdek, hozirgi davrda XXI asr pedagogidan nafaqat nazariy bilim balki shu bor bilimni oʻquvchilar ongiga samaraliroq usullar orqali yetkazish, berilgan bilimning oson, puxta va tez oʻzlashtirilishiga zamin yaratish, oʻquvchilar ongida mantiqiy fikrlash, ijodkorlik va ravonlikni shakllantirish ham talab etilmoqda. Albatta bunday vazifalar innovatsion texnologiyalar, turli xil interaktiv oʻyinlar orqali umumiy oʻrta taʼlimda ona tili va adabiyot fanining oʻrni beqiyosdir. Mantiqiy va erkin fikrlovchi, dunyoqarashi keng, ijodiy va badiiy tafakkurga ega shaxsni kamol toptirish ona tili va adabiyot fanining bosh maqsadidir. Allomalarimiz aytganidek: “Dunyodagi jamiki fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi”. Shunday ekan, oʻquvchilarning ona zaminga mehr-muhabbati, vatanparvarlik, insonparvarlik gʻoyalari, eng avvalo, ona tilini oʻqitish jarayonida shakllanadi. Bu hol yosh avlodni kamol toptirishda ona tili va adabiyot oʻqituvchisining xizmati naqadar masʼuliyatli ekanligidan dalolat beradi. Zero, dars-muqaddas! Demak, maqsad oʻquvchilarga berilayotgan taʼlim-tarbiya sifatini oshirib, mustaqil hayotda oʻz fikriga, oʻz soʻziga ega boʻlgan vatanimiz ertangi kunini dadil davom ettirib, yuqori marralar sari intiladigan yoshlarni tarbiyalashdan iborat. Pedagogik texnologiyalarning maqsadi oʻqituvchi va oʻquvchining belgilangan maqsadga hamkorlikda erishishlarini taʼminlashdir. Oʻquv jarayonida oʻquvchilar mustaqil fikrlab, ijodiy ishlab, izlanib, tahlil etib, oʻzlari xulosa qila olsa, koʻzlangan maqsad amalga oshadi. Oʻqituvchi oʻquvchilarning faoliyati uchun imkoniyat va sharoit yarata olishi oʻqitish jarayonining asosi sanaladi. Har bir dars, mavzu, oʻquv fanining oʻziga xos texnologiyasi bor. Bugungi kunda bizga maʼlum va keng qoʻllanadigan usullardan “Aqliy hujum”, “Klaster”, “VENN diogrammasi”, “BBB”, “FSMU” kabilar dars jarayonida oʻzlarining samarali natijalarini koʻrsatib kelmoqda. “Qiyoslash metodi”, “Davra metodi”, “6x6x6” kabi metodlarning dars samaradorligini taʼminlashda oʻziga xos oʻrni bor. Xususan, “Qiyoslash metodi”dan adabiyot fanida Odil Yoqubov hamda Pirimqul Qodirov hayoti va ijodi oʻrganilgandan soʻng mavzuni mustahkamlash uchun foydalanilsa maqsadga muvofiq boʻladi.

Zamonaviy ta'lim texnologiyasida darsni tashkil etishga doir qator umumpedagogik-didaktik talablar qo'yiladi. Bular:

- har bir dars texnologik jihatdan mukammal darajada loyihalashtirilishi;
- dars maqsad va vazifalarining aniq belgilanishi;
- darsda ta'lim vazifalarining tarbiya vazifalari bilan bog'liq bo'lishi;
- darsni o'quv dasturi, o'quv rejasi talabiga muvofiq tashkil etish;
- dars uchun ajratilgan vaqtdan unumli foydalanish;
- darsning tashkiliy jihatdan puxta belgilangan bo'lishi;
- darsning jonli, samarali va ta'lim oluvchilarga emotsional ta'sirli bo'lishi uchun ta'lim beruvchining turli xil zamonaviy va ilg'or ta'lim usullari, vositalari va ko'rgazmali qurollardan, texnika vositalaridan mohirlik bilan foydalana olishi;
- ta'lim beruvchining rahbarlik roli bilan ta'lim oluvchilarning faol bilish faoliyatini birga olib borish;
- ta'lim oluvchilarning yosh va psixologik, shuningdek, mutaxassislik xususiyatlarini inobatga olish;
- darsni demokratik tamoyillar asosida tashkil etish;
- darsda ta'lim oluvchi erkinligini ta'minlashga erishish;
- darsda ta'lim oluvchilarni mustaqil fikrlash hamda o'z fikrini bayon etishiga undash va imkon yaratish;
- dars davomida ta'lim oluvchilar faoliyatini to'g'ri tashkillashtirish, muammoli izlanuvchanlik layoqatlarini rivojlantirish;
- dars jarayonida o'qitishning jamoa, guruhli va yakka tartibdagi shakllarini mos ravishda qo'shib olib borish;
- ta'lim oluvchilar o'quv faoliyatlarining atroflicha nazorat qilinishi va adolatli darajada baholanishi va h. k.

Noan'anaviy darslarni esa interaktiv metodlar va o'yinlarsiz tasavvur etish qiyin, zero bular darsning o'zagini tashkil etadi, Misol uchun, murakkab mavzuni o'quvchilar ongiga osongina etkazish uchun "Aqliy hujum", "Zakovat", "Zigzak", "Interfaol", "O'yin dars", "Munozarali-bahsli dars", "Sayohat dars", "Musobaqa dars", "FSMU", "Baliq skeleti", "Charxpalak" kabilarning o'quv jarayonida qo'llash alohida ahamiyatga ega. Darslarda

qo'llanadigan interaktiv usullar o'quvchilarda o'z ona tili va yurtiga mehr-muhabbat tuyg'ularini uyg'otish, ularni mukammal savodxonlik darajasiga ko'tarish, mantiqiy aniq va to'liq nutq sohibi bo'lishiga erishish kabi muhim vazifalarni bajarishni nazarda tutadi. Buning uchun o'quvchilar uch guruhga bo'linib oladilar. Birinchi guruhga Odil Yoqubov va Pirimqul Qodirovning hayot yo'li va bundagi o'zaro o'xshashliklar, ikkinchi guruhga ularning ijodiy merosi va yaratgan qahramonlari hamda ularning o'xshash zamonlari, uchinchi guruhga esa ularning asarlarida ilgari surilgan g'oyalar xususida fikrlarni umumlashtirish, jamoa bo'lib taqdim qilish so'raladi.

Shuningdek, ona tili fanidan "Gapning ikkinchi darajali bo'laklari" mavzusi o'rganilgandan so'ng o'quvchilarga "Guruhlarda ishlash metodi" asosida "Men to'ldiruvchiman!" mavzusida ijodiy matn tuzish topshiriladi. Bu topshiriq yakka tartibda, kichik yoki yakka tartibda, kichik yoki katta guruhlar tomonidan ham bajarilishi mumkin. Mavzu yuzasidan matn o'quvchilar tomonidan taqdim qilinadi. Bu kabi interaktiv metodlar va o'yinlarning dars davomida foydalanilishi avvalo, pedagog mahorati bilan bog'liq.

Sababi, metodlar darsdan bir kun oldin tayyor holga keltirilishi, kerakli ko'rgazmali qurollar, tarqatma materiallar, qisqa savol-javob va testlar, baholash mezonlarini shakllantirish shuningdek o'rganuvchilarni rag'batlantirish va jazolash maqsadga muvofiq. Har bir metod o'quvchilarning yoshi, qiziqishlari, o'zlashtirish jarayoning tez yoki nisbatan sekin ekanligi, qobiliyatlari va ustunlik jihatlarini hisobga olgan holda oson va qiyin turlarga bo'lingan holda tanlanishi va tayyorlanishi muallimdan talab etiladi.

Bundan tashqari 45 daqiqa davom etadigan dars mashg'ulotida harakatli o'yinlarning mavjudligi ha alohida ahamiyatga ega. Bu metod orqali o'quvchilarning jamoada ishlash ko'nikmalari rivojlantiriladi, xotirasi mustahkamlanadi, yozma yoki og'zaki savodxonligi o'stirilib, ijodiy matn yaratish malakasi mustahkamlanadi.

Ona tili darslarida o'quvchilarning yozma nutqi va imlosi savodxonligini mustahkamlash maqsadida matn yaratish yuzasidan bir qancha qiziqarli topshiriqlar berish mumkin.

Jumladan, “morfologiya” bo‘limini o‘tish jarayonida har bir so‘z turkumi yuzasidan grammatik ertak yaratish vazifasi topshirilsa, o‘quvchilarning grammatik savodxonligi o‘shish bilan bir qatorda, mantiqiy mushohada qilish qobiliyati rivojlanadi, ijodkorligi oshadi. Innovatsion texnologiyalar ta‘lim sifati va samaradorligini oshirib, ta‘lim jarayonining markaziga o‘quvchi talabalarning o‘quv faoliyatini qo‘yadi, ta‘lim jarayoni yaxlitligini ta‘minlaydi. O‘quvchi faoliyatining yuqori darajadagi ko‘rsatkichi, bilush faoliyatini tashkil etishi, iroda va faoliyatning o‘quvchi ongining predmetiga aylanishdir.

Yangi metodlarni ta‘lim jarayoniga tatbiq etish pedagoglar oldida turgan masalalardan biri hisoblanadi. O‘qituvchi dars jarayonida boshqa ma‘lumotni berish bilan bir qatorda internet ma‘lumotlari, multimedia dasturlari, jadvallar va shunga o‘xshash mavzuga oid qo‘shimcha ma‘lumotlarni ko‘rsatib o‘tsa, bu nafaqat o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, balki o‘quvchilarning mustaqil o‘qishini talab darajasida shakllantirishiga, mavzuni imkon darajasida to‘la o‘zlashtirishiga ham yordam beradi. Masalan: “Aqliy hujum”.

Bu hujum ona tili va adabiyot darslarining boshlanishida yoki istalgan joyida qo‘llanishi mumkin. Bu boqichda muammo o‘quvchilarga aqliy hujum yo‘li bilan beriladi va ularning fikrlari orqali ochiladi.

“Aqliy hujum” metodi biror mavzu yuzasidan berilgan muammolarni hal etishda keng qo‘llaniladi. Ushbu metod yordamida qo‘yilgan muammo yuzasidan bir necha yechimlarni topish imkoniyati vujudga keladi.

Umumiy qilib aytganda, o‘quvchilarni mustaqil, erkin fikrlashga, izlanishga, har bir masalaga ijodiy yondashish, mas‘uliyatni sezish, tahlil qilish, eng asosiysi, o‘quvchini qo‘zg‘atishga qaratilganligi, pedagogning o‘z tanlagan kasbiga bo‘lgan qiziqishini kuchaytiradi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. N. N. Azizxo‘jayev. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. T. Nizomiy nomidagi TDPU, 2006.
2. B. B. Saydaxmedov. Yangi pedagogik texnologiya. Toshkent. 1992.
3. www. Ziyonet. uz

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING EKOLOGIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING INNOVATSION USULLARI

Mamaradjapova Umida Xaqberdiyevna
Mirobod tumani 174-MTM tarbiyachisi

Anotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining bolalarni ekologik madaniyatini oshirishda foydalanadigan innovatsion usullar, shuningdek ularga asosiy e'tiborni qaratish lozim bo'lgan omillar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: ekologik tarbiya, tarbiyachi, tarbiyalanuvchi, tabiat bilan munosabat, ekologik tarbiya usullari.

ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Мамараджапова Умида Хакбердиевна
Воспитатель 174 МТМ Мирабадского района

Аннотация: В данной статье рассказывается об инновационных методах, используемых воспитателями дошкольных учреждений для повышения экологической культуры детей, а также о факторах, на которые следует обратить внимание.

Ключевые слова: экологическое образование, педагог, воспитанник, взаимоотношения с природой, методы экологического воспитания.

INNOVATIVE METHODS FOR FORMING ECOLOGICAL CULTURE IN PRESCHOOL CHILDREN

Mamarajapova Umida Khakberdievna
Teacher 174 MTM Mirabad district

Abstract: This article describes the innovative methods used by preschool teachers to improve the environmental culture of children, as well as factors that should be paid attention to.

Key words: environmental education, teacher, student, relationship with nature, methods of environmental education.

Kirish: Axloqiy va ma'naviy jihatdan barkamol yosh avlodni tarbiyalash, voyaga yetkazish, hamda bolalarni ona yurtini sevishtirish, moddiy va ma'naviy boyliklarini asrab-avaylash, atrof-muhit tozaligi uchun ma'suliyat bilan yondashish muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha yoshdagi bolalik- bu atrofdagi dunyoni va unda o'zi haqida ma'lumot olishga qodir bo'lgan diqqatli, sezgir, g'amxo'r bola tarbiyasining juda muhim bosqichidir.

Bizning vazifamiz bolalarda ahloqiy, estetik, ekologik tarbiya va his tuyg'ularni shakllantirishdir. Bolalarni maktabgacha yoshdanoq tabiatni asrab avaylashga oid ekologik bilimlar bilan qurollantirish va tabiat bilan yaqindan tanishib borishi, ularga ekologik tarbiya berish, shu orqali bolalarning borliq to'g'risidagi tasavvurlarini boyitish, dunyoqarashni o'stirish hozirgi kunda dolzarb vazifalardan biridir.

Asosiy qism: Yosh avlodning ekologik tarbiyasini boyitishga qadim zamonlarda ham katta e'tibor berilgan, shu jumladan Hadislardan, "Avesto" asarida, Sharqning buyuk mutafakkir olimlaridan Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Abu Nosir Farobiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Mahmud az-Zamaxshariy, Jurjoniy o'z asarlarida tabiat va uni asrash kabi masalalarni yoritganlar.

Ekologik muammolar insonlar va tabiat o'rtasidagi muvozanatni buzishidan kelib chiqadi. Shuning uchun ham ekologik muammolarni oldini olish va bartaraf etish uchun maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik ta'lim-tarbiya, elementar ekologik bilimlarni berib borishimiz muhimdir. Tabiatga zarar etkazganlarning har biri bir vaqtlar bola edi, shuning uchun bolalarga ekologik ta'lim berishda maktabgacha ta'lim muassasasining o'rni juda katta. Maktabgacha yoshda ekologik bilim asoslarini o'zlashtirish eng istiqbolli hisoblanadi, aynan shu yoshda bola tabiatni juda emotsional qabul qiladi, tabiatning bunday xususiyatlariga e'tiborni kattalar sezmaydi. Ular tabiatda hayvonlar bilan ham do'stona munosabatda bo'lib ular bilan

o'ynashni juda yoqtirishadi. Aynan shu imkoniyatdan ekologik ta'lim maqsadlarida iloji boricha to'liq foydalanish kerak. [1]

Ba'zida bola daraxt shoxini sindirib tashlashi, qurbaqani tayoq bilan urishi, qo'ng'izni oyoq osti qilishi, chumolilar uyasini buzishi mumkin, hatto bu tabiatga katta zarar etkazayotganiga shubha qilmaydi. Bolalarga yer sharimizni asrab-avaylashga barchamiz birdek mas'ul ekanligimizni va har birimiz uning go'zalligini saqlashimiz mumkinligini tushuntirishga harakat qilaman.

Shaxsning ekologik madaniyati odamning ma'naviy rivojini va ma'naviy boy tarbiyaga ega ekanligini belgilaydi.

Ushbu maqsadga erishish uchun, asosiy maqsadlar:

- bolalarning tabiatga bo'lgan qiziqishini, tabiat dunyosini faol ravishda o'rganish istagini rivojlantirish, bolalarning o'z ona yurti tabiati, inson va tabiatning o'zaro ta'siri haqidagi g'oyalarini boyitish;

- tabiat bilan hamdardlikda ifodalangan axloqiy tuyg'ularni va tabiat olami go'zalligi bilan bog'liq estetik tuyg'ularni tarbiyalash, bolalarni atrof-muhitni muhofaza qilishning boshlang'ich tadbirlariga jalb qilish, ularning xatti-harakatlari uchun javobgarlik tushunchasini shakllantirishdan iborat. [2]

Atrof-muhitni muhofaza qilish mavzularidagi samarali **“kuzatuv”** tadbirlaridan ish faoliyatida ko'proq foydalanish lozim. Tabiatni, atrofdagi olamni bilishda katta e'tibor kuzatishga qaratiladi, chunki kuzatish ekologik tarbiyaning asosiy usuli hisoblanadi. Kuzatishdan maqsad – bu predmetlarning ichki va tashqi tuzilmalari, sifati va hossalari, o'zgarish sabablari (o'simlik va jonivorlar), mavsumiy o'zgarishlarni aniqlash va o'rganib borishdir. [4]

Bundan kelib chiqadi-ki, bolaga tasavvuridagi tabiat voqea va xodisalarining rasmini chizdirish, loy va boshqa qorishmalardan tabiatga tegishli narsalarni yasah, tomosha qilgan multfilm va kinofilmdan olgan ta'ssurotlarini gapirib berish uning fikrlash doirasini kengaytiradi, nutq madaniyatini oshiradi. Piyoda sayr qilish paytida bolalar nafaqat tabiat ob'ektlari bilan tanishadilar, balki ular o'zlarini tabiatda to'g'ri tutishni, uni faqat rasmda emas, balki haqiqatda eshitish, ko'rish va his qilishni o'rganadilar. **Kuzatishlar** bolada kuchsizroq, yordamga muhtojlarni himoya

qilish istagini keltirib chiqaradi. E. I. Charushin, V. Bianchi asarlari maktabgacha yoshdagi bolalar uchun qulay va jozibali bo'lib, tabiat hodisalarining ekologik xususiyatlarini ishonchli aks ettiradi, bolani kuzatuvchan bo'lishga, mavjud va yashaydigan barcha narsalarga muhabbat bilan munosabatda bo'lishga o'rgatadi. [3]

“Men go'zal sayyorada yashayman”, “Yosh ekologlar”, “Tabiatning do'stlari” tanlovlariga tashrif buyurish mas'uliyatni tarbiyalaydi, tabiatga, odamlarga, o'z yeriga, mamlakatiga nisbatan mehrli, g'amxo'r munosabatni rivojlantiradi. Bolalar uchun tabiat qo'yniga sayohat uyushtirib undagi hayvonot va osimliklar dunyosi bilan tanishtirish, dengiz va gollaktika haqida gapirib berish orqali tabiatning go'zalligi, uning ulug'vorligiga qoyil qolish hissini uyg'otish mumkin. Bolalarga o'zlari bilgan eng go'zal joylarning nomini topish, u yerlarni tartibga solish kabi vazifalarni qo'yish bolalarda tabiatga bo'lgan muhabbat hissi paydo bo'lishiga olib kelish mumkin. Bunda tarbiyachi nafaqat olijanob tuyg'ularni uyg'otadi, balki ularning mustahkamlanishiga ham hissa qo'shadi.

Men, “**o'yinlar**”ni bolalarning ekologik madaniyatini rivojlantirishning samarali vositasi deb bilaman. O'yin jarayonida bolalar ob'ektlar va tabiat hodisalari haqidagi tasavvurlarini kengaytiradi, atrofdagi o'simliklar va hayvonlar haqidagi bilimlarini chuqurlashtiradi, tirik olam vakillarini ularning tavsiflari, odatlari, yashash joylari, turmush tarzi bilan tanib olish qobiliyatini rivojlantiradi. “Hayvonot bog'i”, “O'rmonga sayohat”, “O'rmondan tashrif buyurgan hayvonlar” o'yinlari bolalarga oddiy hayotiy vaziyatlarning mantig'ini tushunishga yordam beradi. Bolalar tabiiy muhitga to'g'ri munosabatda bo'lishni o'rganadilar, bu bolalarda mehr va samimiylikni tarbiyalaydi.

Men tabiatda “**mehnat**”dan faol foydalanaman, chunki mehnat katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Kuzda - quruq barglarni, novdalarni yig'ish, urug'larni yig'ish; yozda - gulzorlarni sug'orish va begona o'tlardan tozalash. Bu orqali bolalarda tabiatga ehtiyotkorlik, g'amxo'rlik munosabati shakllanadi, ular o'z vazifalariga mas'uliyat bilan munosabatda bo'lishadi.

Bolalar hayvonlar haqidagi ertaklarni juda yaxshi ko'radilar, ular diqqat bilan tinglashadi, eslashadi, lekin o'zlari gapirib berishga qiynaladilar. Ammo, menga bu muammoni engishga

bolalar bilan tayyorlashni yaxshi ko'radigan **"teatr faoliyati"** yordam beradi. Teatrlashtirilgan tadbirlar bolalarni atrofdagi dunyo bilan tanishtiradi, hayvonot dunyosiga bo'lgan qiziqishni rivojlantiradi va bolalarga quvonch baxsh etadi. Bolalar qahramon obrazini qabul qilib, uning hayoti davomida yashaydilar, o'rganadilar, ijobiy qahramonlarni salbiy qahramonlardan farqlaydilar, yaxshilik har doim g'alaba qozonishini tushunadilar va bu bolalarda hissiy munosabat, adolat va mehrni rivojlantirishga yordam beradi.

Bolalar bog'chasida bolalarga beriladigan ekologik bilim maktabgacha ta'lim bo'yicha tuzilgan "Boshlang'ch ekologiya" dasturi asosida tabiatda o'zini tutish va atrof muhitni muhofaza qilish malakasini shakllantirish va izchillikda o'stirib borishdan iborat bo'ladi. Bolalarga beriladigan ekologik ta'lim, unga yaqin, tanish bo'lgan joylar, o'z uyi, ko'chasi, bolalar bog'chasi, bog'cha hovlisidagi narsalar bilan tanishtirishdan iborat. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ekologiyadan ta'lim-tarbiya o'zbek xalq ijodiyoti, sharq allomalari, yozuvchilar tomonidan yaratilgan ertaklar, hikoyalar tasvirlangan tabiat manzaralari haqida ularga tushunchalar berib, maqollar yod oldiriladi. Bu ishlarning hammasi bolalarni yoshlikdan boshlab tabiatni sevib asrashga, unga muhabbat hissini uyg'otishga yordam beradi.

Xulosa: Oldinga qo'yilgan maqsadga erishish uchun tarbiyachi bolalarni qabul qilish xususiyatini yanada faollashtirish maqsadida turli xil o'yinlarni o'ylab topadi va ulardan foydalanadi. Masalan, bolalarga savollar beradi, ma'lum bir predmetni o'rganib chiqishni taklif qiladi, ob'yektlarni bir-biri bilan taqqoslaydi, ma'lum bir ob'yektlarning tabiat hodisalari bilan aloqasini aniqlab beradi. Bolalarni ekologik tarbiyalashda qo'llaniladigan kuzatish usuli bu asosiy usul hisoblanib, bu usuldan samarali foydalanishning ahamiyati maktabgacha yoshdagi bolalar uchun tushunarli bo'lgan bilimlar xarakteri bilan bog'liqdir. Maktabgacha yoshdagi bolalarning to'plagan bilimlari asosan tabiat ob'yektlari, hodisalarni obrazli qilib qabul qilish, ya'ni tasavvur qilishdan iboratdir. Tasavvur qanchalik rangli va aniq bo'lsa, bola qiynalmasdan o'z tasavvurlaridan amaliyotda foydalanadi. Buning uchun bolani tez-tez tabiat quchog'iga olib chiqish, undagi

hodisalarni kuzatish, ularning o'rtasidagi o'zaro aloqalarni o'rganib borish zarur. Ekologik tarbiya nuqtai nazaridan maktabgacha yosh uzluksiz ekologik ta'lim tizimining o'ziga xos, qimmatli bosqichidir va uni inson taraqqiyoti va uning dunyoqarashini shakllantirishning alohida bosqichi deb hisoblash lozim.

Bugungi kunda zamonaviy innovatsion IT texnologiyalar dominant pozitsiyani egallashi maktabgacha ta'limda to'g'ridan-to'g'ri o'quv-uslubiy ishlarni tashkil etish uchun keng qo'llanishni talab etmoqda. Kompyuter savodxonligini muvoffaqiyatli o'zlashtirgan tarbiyachilar bolalarga chuqur bilim berishi uchun keng imkoniyatlarni ochishi mumkin. Bu nafaqat taqdimotlar va o'qitish roliklari bilan chegaralanib qolish, balki mahalliy va jahon amaliyotida qo'llanilayotgan zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish, ta'lim dasturlarining ulkan tanlovi mavjud bo'lgan sharoitda yoshga to'liq javob beradigan media mahsulotlarni tanlay bilishni taqazo etadi. Bolalarning ekologik tarbiyasini rivojlantirish ayniqsa ota-onalar bilan hamkorlikda olib borilsa kutilayotgan ma'lum bir natijaga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Barakayevich, Q. S. , & Baxtiyorovna, A. S. (2021). Xalqaro dastur talabalari asosida innovatsion ta'lim muhitini yaratish. Integration of science, education and practice. Scientific-methodical journal, 1(02), 132-137.
2. Qoraev, S. B. (2022). Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'limning asosiy jihatlari. Integration of science, education and practice. Scientific-methodical journal, 1(03), 1071-1078.
3. Maktabgacha yoshdagi bolani ekologik tarbiyalash: Maktabgacha ta'lim mutaxassislari uchun qo'llanma.
4. Maktabgacha ta'lim jurnali, № 7/2004. 21-24.

MUNDARIJA

1 - SHO'BA: ZAMONAVIY TEATR VA KINO AKTYORLARINI TAYYORLASHDA AN'ANAVIYLIK VA INNOVATSIYA.....	4
1. Abraykulova Nasiba Erkinovna - Uchinchi Renesans - xoreografiya ta'limida raqamli va innovatsion texnologiyalar.....	4
2. Alam Han - Dance art education using AI technology.....	10
3. Mannonov Sardor Shuxratjonovich - Kelajak pantomimalari.....	14
4. Mamirova Dilaram Tavakulovna, Jumanazarov Zohidjon Eldor o'g'li - Jismoniy tarbiya va sport faniga raqamli va innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali o'quvchilarning jismoniy madaniyatini oshirish yo'llari.....	20
5. Xudoynazarova Shahzoda Tursunaliyevna - Artpedagogika: xoreografik ta'limda yangicha yondashuv.....	27
6. Останина Ольга Анатольевна - Внедрение инновационных технологий в сферу хореографического искусства - важнейший аспект формирования и развития современного танца.....	33
7. Tursunova Gulsanem Yusupbayevna - Teatr aktyorlarini tarbiyalashda zamonaviy ta'lim samaradorlik omili sifatida.....	39
8. Юсупова Венера Исметовна - Алишер Навои - символ прогресса своей эпохи и источник бесконечных инноваций в современном искусстве.	44
9. Закирова Саида Муратовна - Иммерсивные и экспериментальные методы преподавания в динамично меняющейся эпохе.	52
10. Fazliyeva Zebo Kamarbekovna - Raqamli texnologiyalar yordamida o'zbek mumtoz raqs san'atini rivojlantirish yo'llari.	57
11. Исмаилов Дилшод Арсенович - Пути повышения профессиональных знаний студентов театрального и киноискусства через внедрение цифровых и инновационных технологий.	62
12. Rahimjon Raimqulovich Dusanov - Spektakllarda raqamli texnologiyalardan foydalanish masalalari.....	68
13. Mannonova Fayozaxmadovna - Aktyorlik san'atida grim: innovatsion texnologiyalar yordamida kasbiy mahoratni rivojlantirish.....	76
14. Qurbonova Nasiba Turg'unovna - Xoreografiya ta'limida jo'rnavezning innovatsion texnologiyalardan foydalanishni tatbiq qilish. ..	81
15. Davlatova Zilola Abdulazizovna - Raqamli texnologiyalar yordamida ta'lim sifatini oshirish: kasbiy bilimni rivojlantirishning samarali usullari.	88
 2 - SHO'BA: TEATR VA KINO SAN'ATI TA'LIMIGA RAQAMLI VA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING DOLZARB MUAMMOLARI.....	 94

1. S. A. Xudayberdiyev - Raqamli texnologiyalar va teatr san'ati.	94
2. Tillashayxova Maqsuda Abdusattarovna - Ta'limda sun'iy intellektning o'rni.	100
3. Hakimova Muborak Yakubjanovna - Maktab kutubxonalarida mutolaa madaniyatini shakllantirishda zamonaviy texnologiyalarning o'rni.	110
4. Савочкин Максим Петрович - Повышение профессиональных знаний студентов за счет повышения квалификации преподавателей в сфере использования информационных технологий.	115
5. Останина Ольга Анатольевна - Мастер - класс как интерактивная форма обучения и обмена опытом в школе актерского мастерства....	125
6. Abduganiyeva Zebiniso Melikovna - Ko'zi ojiz kitobxonlar bilan muloqot madaniyatini shakllantirish: tajriba va istiqbollar.	132
7. Mansurova Nigoraxon Rustamjonovna - Milliy musiqiy meros an'alarini asrashdagi pedagogik dolzarb masalalar.	141
8. Abdixamidov Akmaljon Axmadjonovich - Raqs san'atining yosh aktyor kamolotidagi o'rni.	147
9. Талхатова Дано - Особенности работы концертмейстера в хореографических школах.....	152
10. Трашкова Елизавета - Преподавание актерского мастерства в высших хореографических учебных заведениях.	159
11. Jumanazarov Zohidjon Eldor o'g'li - The integrative role of cultural intelligence in the process of training specialists in the social sphere.	168
12. Ortiqboyeva Oqila - O'quv jarayonida raqamli va innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali talabalar kasbiy bilimlarini oshirish yo'llari.	178
13. Jumanazarov Zohidjon Eldor o'g'li, SagdullayevAbdulloh Sayfulla o'g'li - The influence of music on the human mind.....	183
3 - SHO'BA: TA'LIM - TARBIYA JARAYONIGA RAQAMLI VA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH USULLARI.....	188
1. Mamatov Alisher - Davlat fuqarolik xizmatchilarining kompetensiyalarini rivojlantirish jarayoniga sun'iy intellektni tatbiq etish.	188
2. Abdullayeva Feruza Nurillayevna - Badiiy asarlarni o'rgatishda fanga oid kompetensiyalarni rivojlantirishning metodik ta'minoti.	203
3. Hakimova Nargiza Supxonovna, Janadilova Sayida Rashid qizi - Ta'lim tarbiya jarayonlarida "lifelong learning" konsepsiyasi asosida bo'lajak o'qituvchisi sifatlarini shakllantirish da innovatsion texnologiyalarning ahamiyati.	209
4. Husenova Aziza Sharipovna, Mardonova Ismigul Dilshod qizi - Raqamli texnologiyalar yordamida o'quvchilarning pedagogik va metodik kompetensiyalarini shakllantirish yo'llari.	216

5. Mayliyeva Gulmira Bahramovna - Ingliz tilida qiymat, jismoniy xususiyat, inson hatti - harakatlarini ifodalovchi sifatlar.	225
6. Raximova Ruxsora Haydar qizi - Ta'lim tarbiya jarayonida boshlang'ich sinf ona tili darslarida didaktik o'yinlar va innovatsion texnologiyalarning o'rne va ahamiyati.	230
7. Meliyeva Mohinur Baxromovna - Umumiy o'rta ta'lim maktablarida kompyuter imitatsion modellardan foydalanishning ahamiyati.	235
8. Hakimova Nargiza Supxonovna, Jumaqulova Charosxon Ravshanovna - Ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisini kasbiy kompetentligini rivojlantirishda pedagogik va innovatsion texnologiyalar imkoniyatlari.	240
9. Safarov Abbas Abdurasul o'g'li - Oliy ta'lim muassasalari o'quv faoliyatida smart texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari.	246
10. urayeva Sevara Rashidovna - Fizika fanini o'qitishda simulyatsion modellardan samarali foydalanishda pedagogik shart - sharoitlar.	251
11. Hakimova Nargiza Supxonovna, Kattayeva Mehrangiz Nabiyevena - Ta'lim tarbiya jarayonlarida boshlang 'ich sinf o'quvchilarini kreativ fikrlashga yo'naltirilgan innovatsion texnologiyalar.....	256
12. To'ranazarova Muxlisaxon Davlatjon qizi - Tarix fan o'qituvchilari malakasini virtual muzeylar vositasida oshirishning pedagogik imkoniyatlari.....	263
13. Yusupov Musurmon Maxmud o'g'li, Baratov Shahzodbek Chori o'g'li - Raqamli iqtisodiyot sharoitida ta'lim sohasini rivojlantirishda qo'llaniladigan ta'lim platformalarining ahamiyati va metodikasi.	268
14. S. A. Ravshanov, D. G'. O'sarov, M. M. Ergashev, M. T. Rustamova - Ta'lim jarayoniga raqamli va innovatsion texnologiyalarni joriy etish istiqbollari.	277
15. Imomaliyeva Shohista Abduraufovna - Darslarda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning samarasi (ona tili va adabiyot misolida).....	283
16. Mamaradjapova Umida Xaqberdiyevna - Maktabgacha yoshdagi bolalarning ekologik madaniyatini shakllantirishning innovatsion usullari.....	289

**“O‘QUV JARAYONIGA RAQAMLI VA INNOVATSION
TEKNOLOGIYALARNI JORIY ETISH ORQALI
TALABALAR KASBIY BILIMINI OSHIRISH YO‘LLARI”
MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMAN
M A T E R I A L L A R I T O ‘ P L A M I**

2025-yil 5-mart

TOSHKENT - “METHODIST NASHRIYOTI” – 2025.

Muharrir: Xolsaidov F.B.

Bosishga 04.03.2025.da ruxsat etildi.

Bichimi 60x90. “Cambria” garniturasida.

Ofset bosma usulida bosildi.

Shartli bosma tabog‘i 19. Nashr bosma tabog‘i 18,75.

Adadi 100 nusxa.

“METHODIST NASHRIYOTI” MCHJ matbaa bo‘limida chop etildi.

Manzil: Toshkent shahri, Shota Rustaveli 2-vagon tor ko‘chasi, 1-uy.



+99893 552-11-21

Nashriyot rozilgisiz chop etish taqiqlanadi.